

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**“Ekologiya va mehnat muhofazasi” kafedrasini**

**“TASDIQLAYMAN”**

**O‘quv ishlari prorektori**

**O.N.Bozorov**


**“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2022 yil**

**“EKOLOGIYANING HUQUQIY ASOSLARI”**

**FANIDAN**

# **ELEKTRON MODULLI O‘QUV-USLUBIY MAJMUUA**

**Ta‘lim yo‘nalishi: 5630100- Ekologiya va atrof muhit muhofazasi**



**Qarshi – 2022 yil**

Mazkur o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdagi 744- sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida tayyorlandi.

**Tuzuvchilar:**

**t.f.d., Sh.Muradov** QMII "Ekologiya va MM"  
kafedra professori,  
**Turdiyeva F.A.** QMII "Ekologiya va MM"  
kafedra assistenti

**Taqrizchilar:**

**b.f.n. T.Tilovov.**- QarDU "Ekologiya va  
botanika" kafedra professor

O'quv-uslubiy majmua "Ekologiya va mehnat muhofazasi" kafedrasining 2022 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_- sonli, Geologiya va konchilik fakulteti Uslubiy komissiyasining 2022 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ - sonli, institut Uslubiy Kengashining 2022 yil \_\_\_\_\_ dagi \_\_ - sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilib tasdiqlangan.

## MUNDARIJA

<b>I.</b>	<b>O‘quv materiallar</b>	
1.1	Ma‘ruza matni	
1.2	Amaliy mashg‘ulot	
<b>II.</b>	<b>Mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlari</b>	
<b>III.</b>	<b>Glossariy</b>	
<b>IV.</b>	<b>Ilovalar</b>	
4.1	Fan dasturi	
4.2	Ishchi o‘quv dasturi	
4.3	“Ekologiyaning huquqiy asoslari” fanini o‘rganishda foydalaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar	
4.4	Tarqatma materiallar	
4.5	Testlar	
4.6	Nazorat savollari	
4.7	Taqdimot materiallari	
4.8	Fan bo‘yicha o‘quv adabiyotlari, shu jumladan xorijiy adabiyotlar	

## KIRISH

Oliy ta'lim tizimida yuksak malakali, ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega, kelajakda kasbiy va hayotiy muammolarni mustaqil hal qila oladigan, yangi texnika va texnologiyalarga tez moslanishga layoqatli kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayonini zamonaviy o'quv-uslubiy majmualar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv –uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslari, o'qitish texnologiyasi, baholash uslublari va mezonlarini o'z ichiga oladi.

Fanning o'quv-uslubiy majmuasi komponentlarining mazmuni Davlat ta'lim standarti asosida tuzilgan fan dasturiga muvofiq, hamda shaxsga yo'naltirilgan, rivojlantiruvchi va mustaqil ta'lim olish texnologiyalari, tamoyillari va talablari asosida ishlab chiqildi.

Mazkur majmuada “Ekologiyaning xuquqiy asoslari” fanidan

**O'quv dasturi** - Fanning o'quv dasturi Toshkent Davlat Texnika Universitetida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 yil “21” 10 dagi “396” – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**Ishchi o'quv dasturi** - fanning maqsadi, vazifalari va o'rganadigan muammolari, talabalarning fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tavsifi, kompetensiyasi, nazariy, amaliy va mustaqil ish mashg'ulotlari hajmi va mazmuni, uslubiy tavsiyalar, taqvimiy mavzuiy rejalar, o'quv-uslubiy adabiyotlar va didaktik vositalar ro'yxati hamda baholash mezonlari kiritilgan.

**Ma'ruza matni** - fanning ishchi o'quv dasturi bo'yicha undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritilgan, yangi bilimlarni olishga qaratilgan, o'quv maqsadlari keltirilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar, mavzuga oid tayanch atama va iboralar keltirilgan. Ishchi o'quv dasturi namunaviy dasturga asosan va ayrim mavzulari talabalarni hududiy istemolchilarni talabiga asosan tayorlashga qaratilgan.

**Ta'lim texnologiyalari** - fanning shaxsga yunaltirilgan va rivojlantiruvchi ta'limga asoslangan o'qitish texnologiyasi bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqildi. Fanni o'qitish texnologiyasi ta'lim jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish, o'tkazish, bilim va ko'nikmalarni baholash jarayonini o'z ichiga oladi. Har bir mashg'ulot uchun texnologik xaritalari ishlab chiqildi. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho'qqisi hisoblanadi, chunki mashg'ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlangan.

Bundan tashqari majmuada taqdimot materiallar, tarqatma materiallar, glossariy, test savollari, fandan umumiy nazorat savollari, reyting tizimi asosida talabalar bilimni baholash mezonlari (uslubiy ko'rsatma) va foydalanilgan adabiyotlar jamlangan.

Islom Abduganievich Karimov o'zlarining “Uzbekiston XXI - asr bo'sag'asida, xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarlarida Uzbekistondagi ekologik muammolarga aloxida e'tibor berganlar- Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz axolisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l kovushtirib o'tirish o'z – o'zini o'limga maxkum etish bilan barobardir. Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan.

Bugungi kunda ekologiya va atrof muhitni muxofaza qilish muammosi eng dolzarb va kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biridir. Shu aspektida “Ekologiyaning xuquqiy

asoslari” fani ham o'zining tutgan mavqeyi va dolzarbligi bilan bu muammoning muxim zanjirini xosil qiladi.

## **1. MUNDARIJA**

So'z boshi.....	6
<b>I Ekologik xuquq predmetining maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari.....</b>	<b>37</b>
1.1 Ekologik xuquq predmet sifatida.....	37
1.2 Ekologik xuquq tushunchasi.....	38
1.3 Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari.....	39
1.4 Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixi.....	40
1.5 Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari.....	43
1.6 Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari.....	43
1.7. Ekologik-xuquqiy mexanizm.....	46
1.8. Ekologik-xuquqning tizimi.....	48
<b>II Ekologiyaning konstitutsiyaviy asoslari.....</b>	<b>51</b>
2.1. Konstitutsiyada atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilish.....	53
2.2. Konstitutsiyada fuqarolarning ekalogik xuquqlarini muhofaza qilinishi va kafolatlanishi.....	56
2.3. Konstitutsiya asosida yoshlarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berish.....	60
<b>III Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi va iqtisodiy –huquqiy chora-tadbirlar.....</b>	<b>65</b>
3.1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasi: prinsiplari, shakl va funksiyalari...66	
3.2. Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqi tushunchasi va uning asosiy belgilari.....	67
3.3. Ekologiya sohasidagi boshqaruvning iqtisodiy chora-tadbirlari.....	68
3.4. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining tizimi va ularning vakolatlari....	69
<b>IV Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish masalalari....</b>	<b>71</b>
<b>V Suv resurslaridan foydalanishning ekologik-xuquqiy jihatlari.....</b>	<b>77</b>
5.1 Suvdan oqilona foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari.....	77
5.2 Suv resurslaridan foydalanishda ekologik munosabatlarning maqsadi va vazifalari.....	82
5.3 Suv resurslarini ekologik-xuquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	84
5.4 Suv resurslaridan foydalanishni ekologik-xuquqiy jihatdan tartibga solish zaruriyati.....	86
5.5 Suvdan foydalanish xuquqi tushunchasi .....	87

5.6 Suvdan foydalanish xuquqining tamoyillari, usullari va tizimi...	89
5.7 Davlat suv fondi va uni boshqarish.....	91
<b>VI. Yer munosabatlarida ekologik-xuquqiy qoidalar.....</b>	<b>92</b>
6.1 Yerga ekologik xuquqiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati .....	92
6.2 Yerni xuquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari.....	94
6.3 Yer fondi toifalari bo'yicha ekologik-xuquqiy qoidalar.....	97
6.4. Yerdan foydalanishda nazoratning ekologik xuquqiy javobgarligi.....	98
<b>VII. Atmosfera havosiga ta'sir etishning ekologik-xuquqi me'yorlari.....</b>	<b>100</b>
7.1 Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy talablarining umumiy qoidalari.	100
7.2 Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy me'yorlari.....	103
<b>VIII. O'simlik va hayvonot dunyosini, o'rmonlarni muhofaza qilishning xuquqiy asoslari .....</b>	<b>105</b>
8.1 O'simlik dunyosidan foydalanishning ekologik-xuquqiy tartibi.....	105
8.2 O'rmonlardan foydalanishning ekologik-xuquqi.....	108
8.3 Xayvonot dunyosiga munosabatning ekologik-xuquqiy maqsadi va vazifalari.....	111
<b>IX Yer osti boyliklaridan foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari.....</b>	<b>113</b>
9.1 Yer osti boyliklarini xuquqiy muhofaza qilish zaruriyati.....	113
9.2 Yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik-xuquqiy talablar.....	114
9.3 Konlardan foydalanish munosabatlarini ekologik-xuquqiy tartibga solish....	115
<b>X. Antropogen o'zgartirgan va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-xuquqiy jihatlari.....</b>	<b>118</b>
10.1 Shaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xuquqiy jihatlari...	118
10.2 Agrar hududlarning ekologik xuquqiy jihatlari.....	123
10.3 Sanoat hududlarining ekologik-xuquqiy jihatlari.....	129
10.4 Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-huquqiy jihatlari.....	130
<b>Xulosa.....</b>	<b>113</b>
Ekologik xuquqga oid asosiy atama va iboralar.....	115
Seminar mashg'ulotlarning ish rejasi.....	126
Ekologik xuquqga oid O'zbekiston respublikasining qonunlari va me'yoriy xujjatlari.....	129
Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar.....	133

## I. O'quv materiallari

### 1.1. SO'Z BOSHI

Dunyo miqyosida hozirgi vaqt, kishilik jamiyati tomonidan e'tirof etilishi mumkin bo'lgan yagona yo'l nimadan iborat bo'lishi mumkin, degan o'rinli savol tug'iladi. Mazkur yo'l, ko'pchilikni fikri bo'yicha, umuminsoniyat qadriyatlarini ifoda etuvchi, xalqaro xuquq printsiplaridan kelib chiquvchi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi xuquqiy-demokratik yo'ldir. Chunki turli toifadagi kishilar, davlatlar, millatlar, xalqaro uyushmalarning fikrlarini umumlashtiruvchi masala barqarorlikdir.

*Ijtimoiy munosabatlarning ana shunday yozma ifodasi fanda xuquq deb ataladi.*

*Atrof-muhit muhofazasi, ya'ni tabiatni muhofaza qilish, uning buzilgan qismlarini qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ijtimoiy munosabatlar turkumiga kiradi. Ularni esa, fanda umumlashtirilgan tarzda ekologik munosabat, deb ataydilar.*

Prezidentimiz Islom Karimov 2002 yil avgustda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning II chaqiriq 9-sessiyasida qilgan ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasida demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini o'rnatishning asosiy soxalarini ko'rsatib berdi. Unda hamma ijtimoiy munosabatlar faqatgina xuquqiy yo'llar orqali tartibga solinishi kerakligi, ana ushandagina ijtimoiy muhofazalangan bozor iqtisodiyotiga yetib borishimiz mumkinligi ta'kidlangan edi.

Ekologik munosabatlarni xuquqiy tartibga solish uchun milliy va xalqaro xuquqda ekologik me'yorlar hamda qoidalarni tabiat qonuniyatlariga mos ravishda ishlab chiqish, ularni vakolatli organ, tashkilot yoki hamjamiyatlar tomonidan qabul qilish, uning ishtirokchilari o'rtasida ushbu me'yorlarni umummajburiy kuchga ega qilish va albatta, xuquqbuzarlarga nisbatan yuridik oqibatlarni keltirib chiqarish mexanizmini yaratish zarur. Aks holda, atrof-muhitni muhofaza qilishni xuquqiy jihatdan tartibga solish imkoniyatini yuzaga chiqarish aslo mumkin emas.

Shunday qilib, ekologik munosabatlarni xuquqiy tartibga solish nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki xalqlar va davlatlar o'rtasida barcha mahalliy, regional va global masalalarni demokratik yusinda hal qilish hamda insoniyatni barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilishga olib keladi.

Ekologik huquq» fanidan ma'ruza mavzularining vaqt bo'yicha taqsimlanish jadvali

№	Ma'ruzalarning mavzusi	Vaqt bo'yicha taqsimlanishi, soatda
1	2 So'z boshi	3
1	<i>Ekologik huquq predmetining maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari</i>	
<b>1.1</b>	<b>Ekologik xuquq predmet sifatida</b>	
<b>1.2</b>	<b>Ekologik xuquq tushunchasi</b>	4
<b>1.3</b>	<b>Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari</b>	
<b>1.4</b>	<b>Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixi</b>	
<b>1.5</b>	<b>Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari</b>	
<b>1.6</b>	<b>Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari</b>	
<b>1.7.</b>	<b>Ekologik-xuquqiy mexanizm</b>	
<b>1.8.</b>	<b>Ekologik-xuquqning tizimi</b>	
2	<i>Suv resurslaridan foydalanishning ekologik-xuquqiy jixatlari</i>	
<b>2.1</b>	Suvdan oqilona foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari	
<b>2.2</b>	Suv resurslaridan foydalanishda ekologik munosabatlarning maqsadi va vazifalari	
<b>2.3</b>	Suv resurslarini ekologik-xuquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari	4
<b>2.4</b>	Suv resurslaridan foydalanishni ekologik-xuquqiy jihatdan tartibga solish zaruriyati	
<b>2.5</b>	Suvdan foydalanish xuquqi tushunchasi	
<b>2.6</b>	Suvdan foydalanish xuquqining tamoyillari, usullari va tizimi	
<b>2.7</b>	Davlat suv fondi va uni boshqarish	
3	<i>Yer munosabatlarida ekologik-xuquqiy qoidalar</i>	
<b>3.1</b>	Yerga ekologik xuquqiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati	2
<b>3.2</b>	Yerlarni xuquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari	
<b>3.3</b>	Yer fondi toifalari bo'yicha ekologik-xuquqiy qoidalar	
<b>3.4</b>	Yerdan foydalanishda nazoratning ekologik xuquqiy javobgarligi	
4	<i>Atmosfera havosiga ta'sir etishning ekologik-xuquqiy me'yorlari</i>	
<b>4.1</b>	<b>Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy talablarining umumiy qoidalari</b>	2



<b>4.2</b>	<b>Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy me'yorlari</b>	
5	<i>O'simlik va hayvonot dunyosini, o'rmonlarni muhofaza qilishning xuquqiy asoslari</i>	
<b>5.1</b>	<b>O'simlik dunyosidan foydalanishning ekologik-xuquqiy tartibi</b>	2
<b>5.2</b>	<b>O'rmonlardan foydalanishning ekologik-xuquqi</b>	
<b>5.3</b>	<b>Hayvonot dunyosiga munosabatning ekologik-xuquqiy maqsadi va vazifalari</b>	
6	Yer osti boyliklaridan foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari	
<b>6.1</b>	<b>Yer osti boyliklarini xuquqiy muhofaza qilish zaruriyati</b>	2
<b>6.2</b>	<b>Yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik-xuquqiy talablar</b>	
<b>6.3</b>	<b>Konlardan foydalanish munosabatlarini ekologik-xuquqiy tartibga solish</b>	
7	<i>Antropogen o'zgargan va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-xuquqiy jihatlari</i>	
<b>7.1</b>	<b>Shaxarlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xuquqiy jixatlari</b>	
<b>7.2</b>	<b>Agrar hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari</b>	2
<b>7.3</b>	<b>Sanoat hududlarining ekologik-xuquqiy jixatlari</b>	
<b>7.4</b>	<b>Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-xuquqiy jihatlari</b>	
	<i>Jami:</i>	18

## 1-ma'ruza

### **Mavzu: EKOLOGIK HUQUQ PREDMETINING MAQSADI, VAZIFALARI VA ASOSIY TUSHUNCHALAR**

#### **Reja:**

- 1.1 Ekologik huquq predmet sifatida**
- 1.2 Ekologik xuquq tushunchasi**
- 1.3 Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari**
- 1.4 Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixidan**
- 1.5 Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari**
- 1.6 Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari**
- 1.7 Ekologik-xuquqiy mexanizm**
- 1.8 Ekologik xuquqning tizimi.**

**Adabiyotlar:** 2, 4, 8, 16, 18, 25, 29, 36, 45.

Tayanch iboralar: alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud, buferlik, kompleks, imperativ, protsessual, ekologik xuquq, ekologik monitoring, ekologik ekspertiza, ekologik siyosat, ekologik xuquqiy munosabatlar.

**1.1 Ekologik xuquq predmet sifatida. Ko'pgina adabiyotlarda Ekologik xuquqning predmeti-ekologik munosabat, deb aytiladi. Lekin ekologik munosabat-tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni sog'lomlashtirish, tabiiy tizimlarni qayta tiklash va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanishda yuzaga keladigan kishilarning harakat yoki harakatsizliklarini ifodalovchi barcha harakterdagi ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi.**

*Ushbu ijtimoiy munosabat xuquq me'yorlarida belgilangan tarzda amalga oshirilsa-yuridik xarakterdagi, faqatgina axloq-odob qoidalarida aks ettirilsa-ijtimoiy xarakterdagi, xalqaro aloqa qoidalarida aks ettirilsa-siyosiy harakterdagi ekologik munosabatlar deyish mumkin.*

Ekologik xuquq esa faqatgina yuridik xarakterdagi ijtimoiy-ekologik munosabatlarni o'z predmeti qilib oladi. Chunki hamma odob-axloq yoki xalqaro aloqa qoidalari milliy qonunchilikda aks ettirilmasligi va u davlatning xuquqiy-ekologik boshqaruv asosi bo'lmasligi ham mumkin.

Keyingi vaqtlarda olimlar ekologik xuquqiy munosabatlarga tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga doir ijtimoiy munosabatlarni kiritish shart emas, degan fikrni olg'a surmoqdalar. Ular mustaqil xuquq soxalari-suv, yer, yer osti boyliklari, o'rmon xuquqlari predmeti bo'lib qolsin, demoqdalar.

Ammo atrof-muhitni xuquqiy jihatdan muhofaza qilishni tabiiy resurslardan oqilona foydalanishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki inson bu boqiy dunyoda yashar ekan, u hayotiy zarur ehtiyojlarining deyarli barchasini tabiatdan oladi. Tabiat uni kiyintiradi, to'ydiradi, dam oldiradi va uni sog'lomlashtiradi. Masalan, inson atmosfera havosidan nafas olmay turib, suv ichmay turib, yerdan hosil yig'may turib, yerda yurmay turib yoki suvda cho'milmay turib yashay olmaydi. Shuning uchun ham insonning aksariyat (uni tug'ilishi bilan yuzaga keladigan tabiiy) xuquqlari aynan tabiat bilan bog'liqdir. U ma'lum darajada ushbu tabiiy xuquqlardan foydalanishi tufayli atrof-muhitni ifloslantiradi va tabiiy resurslarni kamaytiradi. Lekin insonning bunday ta'siri ma'lum darajada me'yorlangan yoki cheklangan

bo'lishi darkor. Aks holda u o'zi yashayotgan atrof tabiiy muhit holatini aynan tabiiy xuquqlardan foydalanish imkonini bermaydigan tarzda buzib yuborishi mumkin. Undan tashqari, ekologik munosabat har qanday yer, suv, o'rmonga oid munosabatlarni yagona ekologik tizimdagi munosabat deb qaraydi va unga kompleks tarzda yondashadi. Komplekslikni 1996 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori bilan tasdiqlangan maxsus ekologik davlat boshqaruvi-Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tomonidan amalga oshiriladi. O'zining nizomiga muvofiq Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiradi.

Xullas, Ekologik xuquqning predmeti-ekologik-xuquqiy munosabatlar, ya'ni atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va buzilgan tabiat komplekslarini qayta tiklashda yuzaga keladigan yuridik xarakterdagi ijtimoiy munosabatlar.

### **1.2 Ekologik xuquq tushunchasi. Ekologik xuquq bir paytning o'zida ham yuridik fanlar, ham ekologik fanlar tizimida turuvchi mustaqil fan tarmog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham biz ekologik xuquqning fanlar o'rtasida tutgan o'rni va ular bilan uzviy bog'liqligini aniqlab olishimiz talab etiladi.**

Avvalambor, Ekologik xuquqning ekologik fanlar tizimidagi o'rniga to'xtalsak. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, Ekologiyaning predmeti yagona ekologik tizimdagi ekologik o'zgaruvchan organizmlar va ularning o'zgaruvchan atrof tabiiy muhiti o'rtasidagi munosabatidir. Ushbu munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, yuridik, umumiy (kompleks) va shunga o'xshash ko'p qirrali harakterga ega bo'lishi mumkin. Ana shu harakterlarga qarab, ekologiya turli fan yo'nalishlariga bo'linib ketadi. Masalan, ijtimoiy harakterda-ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi, oila ekologiyasi, mahalla ekologiyasi va h.k.; iqtisodiy harakterda-iqtisodiy ekologiya, tabiiy resurslardan foydalanish iqtisodi, makroiqtisodiy ekologiya, mikroiqtisodiy ekologiya va h.k.; yuridik harakterda-ekologik xuquq, xalqaro ekologiya xuquqi, tabiiy resurslardan foydalanish xuquqi, tabiatni muhofaza qilish xuquqi va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha ekologiyaga doir fan tarmoqlarining o'ziga xos ob'ekti, predmeti, usullari, tatbiq qilish joyi va manbalari bor. Aks holda ular mustaqil fan sohasi sifatida e'tirof etilmaydi.

***Ekologik xuquq fan sifatida yuridik xarakterga ega bo'lgan kishilar o'rtasidagi o'zgaruvchan atrof tabiiy muhitga nisbatan yuzaga keladigan barcha munosabatlarni tadqiq qiladi. Tadqiq qilingan ushbu sohaga doir nazariy va amaliy bilimlarni mujassamlashtirilgan va umumlashtirilgan tarzda ta'lim berish esa ekologik xuquq o'quv predmetining maqsadi hisoblanadi.***

Ekologik –xuquqiy bilimlar umumlashtirgan tarzda –Ekologik xuquq yoki ajratilgan tarzda-Tabiiy resurslardan foydalanish xuquqi, Xalqaro ekologik xuquq, Atrof-muhitni xuquqiy muhofaza qilish kabi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yuridik va ekologik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida Ekologik xuquqda xuquqiy ekologiyaga doir barcha bilimlarni umumlashtiruvchi o'quv predmeti sifatida o'qitish qabul qilingan.

Ekologik xuquq barcha ekologiyaga doir ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy me'yorlar orqali tartibga solishni o'zining predmeti qilib oladi. (A.Nigmatov, 2004, 36 b.)

Bizlarning fikrimizcha ekologiya emas balki tabiiy resurslar deyilsa maqsadga muvofiq bular edi. Shundan kelib chiqqan holda:

***Ekologik xuquq barcha tabiiy resurslarga doir ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy me'yorlar orqali tartibga solishni o'zining predmeti qilib oladi.***

U kishilarning tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhit holatini sog'lomlashtirish, tabiiy tizimlarni tiklashga doir xulq-atvor qoidalari va me'yorlarini yozma ravishda o'rnatadi, amalga tatbiq qiladi va uning muhofazasini ta'minlaydi. Boshqa hech qaysi bir ekologik yo'nalishdagi fan tarmoqlari bunday vazifani o'z oldiga qo'ymaydi. Masalan, Bioekologiya faqatgina o'simlik va hayvonot dunyosining o'zaro va ularni o'rab turuvchan atrof tabiiy muhiti bilan bo'ladigan munosabatni yoki o'zaro aloqadorlik qonuniyatini tadqiq qiladi. Unda inson faqatgina omil sifatida ishtirok etadi, xolos. Shunday qilib, Bioekologiya o'rganish ob'ektining «markazida» tirik organizmlar o'simlik va hayvonot dunyosi turadi.

Ekologik xuquq boshqa ekologik fan tarmoqlari bilan bog'langan joyi bormi? Bor bo'lsa, ular nimalardan iborat, degan o'rinli savol tug'ilishi mumkin. Ha, bor albatta. Masalan, hozirgi zamon fan va texnikasida yuzaga kelayotgan inqilobiy o'zgarishlar biosfera (tirik organizmlar yashaydigan qobiq)dagi barcha jarayon va xodisalarni o'zgartirib yubormoqda. Hoh u ijobiy, hoh u salbiy ko'rinishda bo'lsin, oddiy mikroorganizmlardan tortib to yirik sut emizuvchilarning soni, ko'payishi, rivojlanishi inson faoliyatiga kundankunga ko'proq bog'lanib qolmoqda. Shuning uchun ham inson faoliyatini ekologik jihatdan boshqarish boshqa turdagi ekologik munosabat va aloqadorlikning mohiyatini belgilab beradi. Boshqarishning *zamonaviy usullaridan biri esa xuquqiy tartibga solishdir. Agarda biz ekologik xuquq me'yorlarini o'z vaqtida qabul qilib, ularni hayotga real tatbiq qilgan taqdirimizdagina, bioekologik, geoekologik va energiya almashinuvini me'yor holda kechuvini ta'minlay olamiz. Bu esa barcha turdagi tirik organizmlarning yashash muhiti «uyi»ni saqlab qolish demakdir.*

Endi biz Ekologik xuquqning xuquq soxalari tizimidagi o'rnini ko'rib chiqamiz. Hammamizga ma'lumki, xuquqning asosiy maqsadi- ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy jihatdan tartibga solish. Tartibga solish funksiyasi o'ziga xuquqning qo'riqlash va tarbiyalash funksiyasini ham qamrab oladi. Ijtimoiy munosabat deb shaxs-jamiyat-davlat o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlarga aytamiz. Ushbu munosabat esa iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy, mulkiy, shaxsiy, nomulkiy kabi o'nlab xarakterlarga ega bo'ladi. Aynan shu xarakterlar xuquq soxalarini ajratib olishga xizmat qiladi. Masalan, siyosiy xarakterdaxalqaro xuquq, inson xuquqi va h.k.; iqtisodiy xarakterdaxmoliya xuquqi, bank xuquqi, tadbirkorlik xuquqi va h.k.; ekologik xarakterdaxekologik xuquq, xalqaro ekologik xuquq va h.k.

*Ekologik xuquq ekologik xarakterdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xuquq soxasi xisoblanadi.*

U Yer xuquqi, Suv xuquqi, Yer osti boyliklari xuquqi, O'rmon xuquqi kabi mustaqil xuquq soxalaridan farqli tabiiy unsurlarga (er, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmonlar) mustaqil tabiiy ob'ekt sifatida qaramaydi. Tabiiy unsurlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning yagona ekologik tizimlarda turishi nuqtai nazaridan qaraydi. Shuning uchun ham Ekologik xuquq tabiiy ob'ektlarga nisbatan qaratilgan barcha ijtimoiy munosabatlarni tizimli tartibga solishni nazarda tutadi. Lekin ushbu maqsadga erishishni boshqa xuquq soxalari-Yer xuquqi, Suv xuquqi, O'rmon xuquqi, Yer osti boyliklari xuquqi, Jinoyat xuquqi, Fuqarolik xuquqi kabi fanlar bilan bog'langan va ulardan foydalangan tarzda amalga oshiradi. Misol tariqasida, Jinoyat xuquqida ekologik qonun me'yorlarini buzganlik uchun alohida jinoiy jazo sanksiyalari belgilangan bo'lib, ular orqali Ekologik xuquq o'zining «qo'riqlash» (oldini olish) funksiyasini amalga oshiradi. Yer xuquqi orqali esa u o'ta muhim ekologik ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni alohida bir yer toifasiga-alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ajratib oladi va ularda alohida bir xuquqiy holatni o'rnatadi.

**1.3 Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari. XXI asrga kelib atrof muhit holatiga salbiy ta'sir etuvchilar-insonlarning turmush faoliyatini har tomonlama qayta ko'rib**

## **chiqishni taqoza etadi. Aks holda ushbu insonlarning noekologik turmush tarzi o'zining hayoti uchun zamin bo'lishi muqarrar.**

Kishilar turmush tarzini ekologik xavfsizlikka tomon yo'naltirish uchun uning barcha iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy, xuquqiy faoliyatini ekologiyalashtirish talab etiladi. Optimist alarizmchilarning kontsepsiyasiga qo'shilgan holda, faqatgina xuquqiy-demokratik davlat qurish va bozor iqtisodiyotini chinakamiga shakllantirish ekologik inqirozlarning oldini oladi, deyish mumkin. Unga qo'shimcha tarzda Oliy Majlisning II chaqiriq 9-sessiyasida Prezident I.A.Karimov tomonidan alohida ta'kidlab o'tilgan fuqarolik jamiyatini barcha davlatlarda o'rnatish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash tomon qo'yilgan katta qadam bo'ladi. Ushbu talablarni, avvalambor, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning ekologik –xuquqiy asosini yaratish, aholining xuquqiy ongi va madaniyatini ko'tarish, ekologik qonunchilikni hayotga keng tatbiq qilish orqali amalga oshirish mumkin.

***O'zbekistonda Ekologik xuquqning maqsadi-davlatning barqaror rivojlanishi va fuqarolarning ekologik xavfsiz muhitda yashash xuquqini ta'minlash uchun tabiatni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni xuquqiy tartibga solish.***

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Ekologik xuquq quyidagi vazifalarni bajarishni nazarda tutadi:

- ✓ aholining ekologik-xuquqiy ongi va madaniyatini ko'tarish;
- ✓ milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlashning xuquqiy asosini yaratish;
- ✓ demokratik printsiplarga mos ravishda ekologik qonunchilikni takomillashtirish;
- ✓ ekologik-xuquqiy boshqaruvni yo'lga qo'yish;
- ✓ xuquqni muhofaza qilish organlarining ekologik faoliyatlarini aniqlash va kengaytirish hamda mukammal ekologik-xuquqiy nazorat tizimini yaratish;
- ✓ ekologik-xuquqiy mexanizmni ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq etish;
- ✓ ekologik xarakatlarni rag'batlantirish va ekologik xuquqbuzarlarga nisbatan javobgarlikni yuridik jixatdan rivojlantirish;
- ✓ har bir tabiiy ob'ekt va komplekslardan oqilona foydalanishning xuquqiy rejimini ekologik talablarga moslab borish;
- ✓ ekologik jixatdan nobop yoki buzilgan hududlarga aholini ijtimoiy muhofaza qiladigan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maqomini o'rnatish;
- ✓ ilg'or mamlakatlarning ijobiy hamda rivojlanmagan mamlakatlarning salbiy ekologik-xuquqiy tajribasini o'rganish;
- ✓ global ekologik tizimda atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro xuquqiy va yagona kurraviy mexanizmini yaratish hamda uni milliy qonunchilikda keng ifoda etish;
- ✓ xalq, millat, elat va jamoalarning yagona inson sayyorasini xavfsiz holda saqlash javobgarligining xuquqiy bazasini yaratish;
- ✓ xalqaro miqyosida ekologik monitoring, nazorat, ekspertiza, ekologik protsessual masalalarni tezkorlik bilan hal qiluvchi organlarni yaratish va ularning faoliyatlarini ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan Ekologik xuquqning vazifalari real sharoit va holatga mos ravishda takomillashib borishi lozim. Lekin qo'yilgan maqsad yagona va o'zgarmasdir. Chunki hamma narsa inson va uning farovonligi uchun xizmat qilishi lozim. Farovon hayot faqatgina toza va xavfsiz atrof-muhitdagina amalga oshishini biz hammamiz Orol va Orol bo'yi misolida yaqqol tasavvur eta olamiz. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 54, 55, 100-moddalarida aynan ushbu maqsad xuquqiy jixatdan bevosita ifoda etilganidir.

**1.4 Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixi.** Har bir fanning rivojlanish tarixi bo'lgani kabi jamiyatdagi ekologik munosabatlarning ham rivojlanish tarixi yoki taraqqiyot bosqichlari bor. Garchand ular ekologik munosabat yoki Ekologik xuquq deb nomlangan bo'lsa-da, lekin maqsad, aynan atrof tabiiy muhitni xuquqiy jixatdan muhofaza qilishga qaratilgan edi.

Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixini ko'pgina olim va mutaxassislar turlicha ifodalaydilar. Bir gurux o'zbek xuquqshunos olimlari tomonidan chop etilgan «Ekologik xuquq» darsligida O'zbekiston hududida ekologik-xuquqiy munosabatlar tarixini yaqin ikki asrga, taraqqiyot bosqichlarini esa keskin ravishda o'zgartirgan ijtimoiy-siyosiy xolatga bog'laydilar: sotsialistik tuzumgacha (1917-1924 yillargacha); sotsialistik tuzumda (1924-1990 yillarda); mustaqillik davri (1991 yildan buyon).

Rossiyalik olimlar ekologik-xuquqiy munosabat tarixiga turlicha yondashadilar. Masalan, professor V.V.Petrov tabiatni xuquqiy muhofaza qilishning tarixiy bosqichlarini ekologik munosabatlar qaysi bir xuquq soxalarining predmetiga kirganligiga qarab ajratadi: fuqaroviy-xuquqiy; yer-xuquqiy; yer va resurslar xuquqi; ekologik-xuquqiy.

V.V.Vedenin esa tabiatni xuquqiy muhofazalashning tarixi bosqichlarini Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalariga ko'ra ajratadi: konservatsion; tabiiy resurslar; ekologik..

Yuqorida keltirilgan tabiatni xuquqiy muhofaza qilishning tarixiy bosqichlarini ajratishga turlicha yondashish tabiiy hol. Albatta, ular tarixiy bosqichlarni xuquqiy o'zgarishlar davrida bog'laydilar. Biz ham shunday qilishimiz mumkin edi. Lekin O'zbekiston hududidagi davlat va xuquq tarixi nuqtai nazaridan ekologik munosabatlar rivojlanish bosqichlariga qarash boshqa ilmiy asoslar zaminida tasniflashni talab etadi. Sababi, O'rta Osiyo davlatchilik tarixida yuz bergan XIX-XX asrdagi siyosiy-ijtimoiy o'zgarishlar doimo ham jamiyatning ekologik dunyoqarashlarini keskin ravishda va tubdan o'zgartirgani yo'q. Chunki chor Rossiyasining ham, sovet tuzumining ham maqsadi bitta edi-Turkiston o'lkasini tabiiy xom ashyo bazasi sifatida ushlab turish. Mustaqil O'zbekistonning rivojlanishida ham aynan tabiiy resurslardan atroflicha foydalanish niyati yo'q emas edi. Undan tashqari, tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixi O'rta Osiyoda juda uzoq davlatchilik tarixiga borib taqaladi. Buni aslo inkor etib bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, O'zbekiston hududida tabiatni xuquqiy muhofaza qilishning tarixiy bosqichlarini keskin chegaralash kerak emas, aksincha, ularni ajratishda insonlarni tabiatga nisbatan qanday munosabat shaklida va davlatning ekologik siyosatiga bog'liqligi asosiy tasniflash mezonini bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

1-bosqich. Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shaklidagi davri. Bu bosqich hozirgi O'zbekiston hududida yuzaga kelgan davlatchilik tarixidan boshlanib, to XIX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Oddiy-iqtisodiy munosabat shaklidagi davrida ham yuridik kuchga ega bo'lgan, aynan tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan xuquqiy me'yorlar amal qilgan. Masalan, zardushtiylarning qadimgi Avesto kitobining Vandidod qismida atrof-muhitni muhofaza qilishning xuquqiy me'yorlari o'rnatilgan. Unda insonlar suv, tuproq, olov, umuman tabiat in'om etgan barcha narsalarni pok va bus-butun asrashga burchli ekanligi, yer, suv, havo, olovni asrash qoidalarini buzgan kishilarga nisbatan 400 qamchi jazosi belgilanganligi aytilgan. Lekin Avestoda jazo sanksiyasi tabiiy ob'ektlarni qirish yoki kamaytirishga ham qaratilgan edi. Suvni iflos qilgan yoki ov itini o'ldirgan kishi 10 ming ruxiyatni tetiklashtiradigan o'simlik bargini yig'ishi, 1000 echkemar va xuddi shu miqdorda suv qo'ng'izi yoki kasallik tarqatuvchi pashshalarni o'ldirishi orqali gunoxini yuvishi lozim bo'lgan.

Islom xuquqi, ya'ni fikr ilmining xuquqiy manbalari, xususan, Qur'oni karim va xadislarda xayvonlarni boqish, sug'orish va parvarish qilish har bir mumin musulmonning burchi qilib ko'rsatilgan. Kimki ushbu majburiyatni bajarmasa, u gonoxkor sanalib, jamoat tomonidan tanbexga uchragan va ularga do'zax azobida qiynalish javobgarligi o'rnatilgan. Ushbu xuquqiy manbalarga asoslanigan tarzda qoraxoniylar sulolasidan bo'lmish Abul Fazl Abbas 1041 yil 29 dekabr «Vorux farmoni»da ilk bor ekologik ko'rinishdagi manba yaratgan. Uning farmonida quyidagi ekologik me'yorlar bitilgan: «Har bir ovchi tirikchilik manbai bo'lgan ovga faqat bitta yoy o'qi bilan chiqishga majburdir. Bir o'q bilan ovlanadigan hayvon unga nasibadur. Nasibadan ortig'i esa unga makruxdir

(xaromdir). Hayvonlarni bolalash paytida ovlamoq mumkin emas, jonivorning urg'ochisi, parrandaning modasini ov qilmoq mashnu'dir.....», deyilgan.

Xulosa qilib aytganda, jamiyatning tabiatga nisbatan oddiy-iqtisodiy munosabat shakliga xos bo'lgan davrda ekologik munosabatlar umumiy tarzda ifodalangan va ko'pincha yuqori qatlam-shox, hokim va ulamolarning mulkini muhofazalashga qaratilgan. Undagi xuquqiy me'yorlar mahalliy ahamiyat kasb etib, tabiiy ob'ektlar «foydali» yoki «foydasiz» ga ajratilgan. Yagona ekologik tizimga xos xuquq va majburiyatlar hamda javobgarlik sanksiyalari o'rnatilmagan. Bunday ekologik munosabat davri Yevropa xuquq me'yorlarini O'rta Osiyoga kirib kelish davrigacha xukm surgan.

2 –bosqich. Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shakliga xos bo'lgan davr. Bu bosqich XIX asrning 70-yillaridan XX asrning 90-yillarigacha bo'lgan tarixiy davrni o'z ichiga oladi. O'quvchi bu davr keskin siyosiy-ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni o'zida mujassamlagan davr-ku, degan e'tirozlarni bildirishi mumkin. Lekin chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o'lkasining bosib olinishi, 1917 yildan so'ng sotsialistik tuzumning o'rnatilishi va Konstitutsiyaviy me'yorlarning qabul qilinishi, 1960-80 yillarda bir qator ekologik qonunlarning yuzaga kelishi, Xorazm va Qo'qon xonligi, Buxoro amirligi, so'ngra Turkiston avtonom respublikasi va O'zbekiston SSRdagi davlatlarning ekologik kontseptsiyasi hamda ularning ekologik siyosatlariga aytarli amaliy ta'sir etmadi. Chunki chor Rossiyasi davrida ham, Sovet tuzumida ham O'rta Osiyo arzon tabiiy xom ashyo o'lkasi bo'lib qolavergan. Albatta, bu davrda xuquq tizimi xalqaro andozalarga moslashtirildi, yangi turdagi va yo'nalishdagi ixtisoslashtirilgan qonunlar qabul qilindi, lekin tabiat va jamiyat o'rtasidagi iqtisodiy munosabat shakli qanday bo'lsa shunday qoldi, ya'ni aytarlicha o'zgargani yo'q. Paxta yakkahokimligi, uran, volfram, molibden, tilla konlarining pala-partish ishlatilishi, rekultivatsiya va melioratsiya choralari keng miqyosda olib bormaslik-Orol va Orol bo'yi, Uchquduq-Kokpotos, Uzun-Sariosiyo, Mirzacho'l-Jizzax cho'li, Navoiy-Gazli ekologik inqirozli hududlarni yuzaga keltirdi. Ushbu tarixiy davr bizlarga saboq bo'lishi hamda jamiyat va tabiat o'rtasida iqtisodiy munosabat shaklining qayta yuzaga kelishiga aslo yo'l qo'ymasligimizga chaqiradi.

3 –bosqich. Iqtisodiydan iqtisodiy-ekologik munosabat shakliga o'tishga xos bo'lgan davr. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi uning ekologik kontseptsiyasi va ekologik siyosatining yangilanish davri. Bu bosqich aslida Ekologik xuquq jihatidan 1990 yil 20 iyunda qabul qilingan Yer to'g'risidagi qonundan boshlandi. Unda respublikamiz yer kengligi o'zbek xalqining xoxish-irodasiga qarab tasarruf qilinishi, egallanishi va undan foydalanishining ilk suveren xuquqi belgilandi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil Konstitutsiyasi bilan bir paytda 1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonuni davlatimizning atrof tabiiy muhitga bo'lgan dunyoqarashini belgiladi. Keyingi 13 yillikda qabul qilingan o'nlab ixtisoslashtirilgan va yuzlab umumlashtirilgan ekologik qonun va qonun osti xujjatlarning qabul qilinishi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Orol bo'yi hududida yiliga 20-30 ming gektar suvi qochgan sho'rli yerlarning fitomelioratsiya qilinishi (o'simlik dunyosi bilan qoplanishi), Orol bo'yi Tursunzoda alyumin zavodidan chiqayotgan chiqitlarning xalqaro me'yorlar orqali tartibga solinishi, toza ekologik maxsulot chiqarishning xuquqiy jixatdan qo'llab-quvvatlanishi, davlatning ekologik boshqaruv va nazorat tizimining yuzaga kelishi buning amaliy misoli bo'la oladi.

Hozirgi bosqichda asosiy ekologik muammolardan biri ekologik-xuquqiy mexanizmning to'la shakllanmaganligidadir. 3-bosqich davri endi boshlanyapti. Ushbu davr jamiyatning tabiatga nisbatan iqtisodiy munosabat shaklidan iqtisodiy-ekologik munosabat shakliga o'tish davri bo'lmog'i kerak. Zero, endilikda o'zbek xalqining azaliy orzusi – o'z tabiiy boyliklariga nisbatan egalik xuquqi yuzaga keldi. Inson xuquqi va davlat xavfsizligi elementlaridan biri bo'lgan ekologik xavfsizlikni ta'minlash kelajakda o'zimizga bog'liqdir.

**1.5 Ekologik huquqning o'ziga xos hususiyatlari.** *Ekologik huquq mustaqil huquq sohasi sifatida o'ziga xos hususiyatlarga ega.* Ular quyidagi xususiyatlardan iborat:

- *mustaqil ob'ekti-ekologik tizimlarda turuvchi tabiiy boyliklar, zaxiralar va ularning komplekslari;*
- *ixtisoslashtirilgan xuquq manbalarining mavjudligi-tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun va shu kabilar;*
- *mustaqil predmeti-ekologik-xuquqiy munosabatlar;*
- *mustaqil printsiplari-yo'naltiruvchi qoidalarining mavjudligi;*
- *o'ziga xos tadqiq qilish va boshqarish usullari-kompleks tizimli yondashish va x.k.;*
- *ekologik me'yor, qoida va xuquqiy mexanizmining tatbiq qilish joyining mavjudligi.*

Ekologik –xuquqiy munosabatlarni tartibga solishda mazkur fan sohasi quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- **Ekologik-huquqiy tadqiq qilish, ta'lim berish va tartibga solishda tizimli yondashuvning majburiyigi.** Ya'ni yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni xuquqiy jixatdan tashkil etishda uni yer osti boyliklari, suv, havo, barcha tirik organizmlar bilan uzviy bog'lagan holda olib borish.
- **Tabiat qonunlari bilan jamiyat qonunlarini uyg'unlashtirish zaruriyati.** Ya'ni resurslarni qayta tiklanish va tashqi ta'sirlarga qarshi turish (buferlik) qobiliyatini inobatga olgan holda foydalanishning eng yuqori ko'rsatkichlarini o'rnatish.
- **Mahalliy va milliy qonunchilik me'yorlarini xalqaro xuquq me'yorlariga moslashtirish zaruriyati.** Ya'ni mahalliy (tuman, shahar, viloyat) ekologik xavfsizlikni xuquqiy ta'minlash davlat (qo'shni tuman, shahar, viloyat) regional (qo'shni davlatlar) va global (xalqaro hamjamiyat) miqyosidagi ekologik xavfsizlikni xuquqiy ta'minlash orqaligina amalga oshirish mumkinligi.
- **Ekologik xavfsizlik darajasining xuquqiy ta'minlanish darajasi davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqligi.** Ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy baquvvat va ekologik madaniyati yuqori bo'lgan davlatdagina ekologik qonunlarni hayotga tatbiq qilish mexanizmini to'laqonli ishlatish imkoniyatining vujudga kelishi.

Yuqorida sanab o'tilgan Ekologik xuquqning o'ziga xos jixatlari shaxs-jamiyat-davlat-davlatlarning ekologik munosabatlarini xuquqiy tartibga solish imkoniyatini beradi. Quyida ko'rib chiqiladigan har bir mavzuning yoritilishida aynan ushbu «o'ziga xoslik» inobatga olinadi.

### **1.6 Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari.**

**«Printsip» so'zi lotin tilida principium-asos, boshlash qoidasi degan ma'noni anglatib, u ijtimoiy fanlarda har bir harakat yoki faolitning asosi yoki yo'naltiruvchi qoidasi deb yuritiladi.**

Ekologik xuquqning printsiplari-ekologik munosabatlarni xuquqiy jixatdan tartibga solishda amal qilinuvchi yoki yo'naltiruvchi qoidalar. Ushbu yo'naltiruvchi qoidalar xuquqshunoslikka oid printsiplarni umumiy ekologik printsiplar bilan uyg'unlashtirgan holda tuzilgan bo'ladi. Ular davlatlarning milliy xuquq manbalarida va xalqaro xuquq me'yorlarida aks ettiriladi. Biz, avvalambor, O'zbekiston Respublikasining ekologik siyosatidan kelib chiqqan tarzda namoyon bo'ladigan milliy ekologik xuquq printsiplarini ko'rib chiqamiz.

1992 yil 9 dekabrda qabul qilingan Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunining 4-moddasida milliy ekologik printsiplar aks ettirilgan. Unga binoan tabiatni muhofaza qilish maqsadida davlat hokimiyati, mahalliy hokimiyat, vazirliklar va



idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek, ayrim shaxslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari shart:

1) *Insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologik tizimlarni saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligini inson va uning kelgusi avlodlari genetik fondi xaqida 'gamxo'rlik qilish.*

Albatta, bu modda Qonunlar printsip sifatida lo'nda va aniq aks ettirilmagan. Biosfera-tirik organizmlar tarqalgan qobiq yoki ularning yashash muhitini o'zida qamrab olgan atmosferaning pastki, butun gidrosfera va litosferaning yuqori qismi. Lekin butun biosfera insonlarning yashash muhiti hisoblanmaydi. Chunki havoda, suvda yoki yer ostida insonlar yashamaydilar yoki uzoq muddat yashay olmaydilar. Ularda boshqa turdagi tirik organizmlar istiqomat qiladi. Shuning uchun ham ushbu printsipni ifodalashda insonlarning atrof tabiiy muhiti-biosferani va undagi ekologik tizimlarni saqlab qolish, desak to'g'riroq bo'lardi. Davlat va xuquq nazariyasining printsiplari aniq va lo'nda qilib berilgan-ob'ektivlik, tarixiylik, mantiqiylik, ijtimoiy yondashish, milliy va mahalliy xususiyatlarni hisobga olish. Biz ham xuddi ana shunday yozma ifoda etish qoidalarini inobatga olgan tarzda Ekologik xuquq printsiplarini aks ettirishga urinib ko'ramiz.

Birinchi ifoda etilayotgan xuquqiy-ekologik printsip –«Biosfera va undagi ekologik tizimlar insonlarning ekologik xavfsizligi bilan uzviy bog'langandir». Ya'ni tirik organizmlar yashaydigan muhitda kechayotgan barcha xodisa va jarayonlar inson xayoti bilan uzviy bog'langan. Shuning uchun ham ularni muhofaza qilish kishilarning ekologik jihatdan xavfsiz hayot kechirishlari manbai hisoblanadi.

2) *Fuqarolarning xayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish xuquqini ta'minlash, barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi.*

Ushbu ekologik printsipni ikki qismga ajratib olish maqsadga muvofiqdir. Birinchisi-«Fuqarolarning ekologik xavfsiz muhitda yashash xuquqini ta'minlash», ya'ni inson bu dunyoga kelar ekan, u toza suvdan ichish, toza havodan nafas olish, go'zal tabiat qo'nyida xordiq chiqarish, o'zi uchun zarur bo'lgan tabiat ne'matlaridan foydalanish xuquqiga ega. Fuqarolarning ushbu tabiiy xuquqlari 1948 yil 10 dekabrda BMT tomonidan qabul qilingan va 1992 yildan buyon mustaqil O'zbekiston uchun ham majburiy bo'lgan «Inson xuquqlari umumjahon deklaratsiyasi»ning 25-moddasiga mos tushadi.

*Ikkinchisi-«Ta'lim tizimida ekologik o'quvning majburiyligi», ya'ni qaerda o'qitish joriy qilingan bo'lsa (bog'chadan tortib to malaka oshirishgacha), usha yerda ekologik o'quvni tashkillashtirish shartdir. Afsuski, ushbu majburiy xuquqiy me'yor 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida o'z aksini topmagan.*

3) Jamiyatning ekologiya, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtirish. Ya'ni tabiatga qaratilgan hamma iqtisodiy va ijtimoiy tadbirlar ekologik nuqtai nazardan qaralishi hamda ilm-fan yutuqlari bilan qurollanishi zarurdir. 2003 yil O'zbekistonda «Obod mahalla yili» deb e'lon qilindi, O'zbek millatiga xos bo'lgan ushbu ijtimoiy-iqtisodiy tadbirning maxsus dasturida «Mahallada ekologik, salomatlik va sanitar tadbirlar» alohida band qilib ko'rsatilgan. Chunki har qanday ekologiyalashtirilgan harakat kelajakda, albatta, o'z maxsulini beradi. Ekologik manifestdan «Ekologiyalashtirilgan tadbirlar iqtisodlashtirilgandir», degan iborani bu yerda keltirish ayni muddaodir.

4) *Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun xaq to'lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun xaq to'lamaslik..*

Mazkur ekologik printsip ko'pgina mamlakatlarning Ekologik xuquqda umumiy tarzda «Tabiatdan maxsus foydalanishning pullik va umumiy foydalanishning pulsiz tizimi»

deb yuritiladi. Bu degan so'z, agarda shaxs biron-bir xo'jalik va boshqa maqsadlarni ko'zlab yer, suv, yer osti boyliklari, o'rmon, o'simlik va xayvonot dunyosidan maxsus ruxsatnomalar asosida foydalanar ekan, ular 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan Soliq kodeksiga binoan yer, suv, yer osti tabiiy boyliklaridan foydalanganliklari uchun xaq va ekologik soliqlarni to'lashga majburlar. Lekin umumdavlat, umuminsoniy qadriyatlarni ifoda etuvchi har qanday tabiatdan foydalanish xuquqi soliq va to'lovlardan ozod qilinadi. Undan tashqari, ijtimoiy adolat printsipiga muvofiq, ayrim shaxslar va aholining ijtimoiy muhofazaga muxtoj qatlami ekologik to'lov va soliqlardan ozod qilinadilar.

5) *Ekologik ekspertiza o'tkazishning majburiyligi.*

«Ekologik ekspertizaning majburiyligi» printsipi Ekologik ekspertiza to'g'risida O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 may qonunida o'z aksini topdi. Mazkur Qonunning 13-moddasiga binoan barcha rejalashtirilgan va amalga oshirilayotgan xo'jalik hamda boshqa xil inson faoliyati ekologik talablarga mosligini aniqlash maqsadida mutaxassis yoki mutaxassislar tomonidan xulosalaniladi. ekspertiza shaxslarni noekologik faoliyat turini taqiqlash maqsadida olib boriladi.

6) *Tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish.*

«Ekologik faoliyatni rag'batlantirish» printsipi ko'pgina ekologik qonunchilik manbalarida aks ettirilgan bo'lib, u tuproq unumdorligini saqlash, suvlarni tozalash, kamchiqitli texnologiyalarni qo'llash, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni xuquqiy maqomiga mos ravishda ushlab turish, ekologik toza maxsulotlarni chiqarish kabi faoliyat turini olib borayotgan yuridik va jismoniy shaxslarni turli ekologik yo'nalishdagi soliqlardan ozod qilish, ularga imtiyozli kreditlar berish va aksiz to'lovlarni kamaytirish kabi ijobiy oqibatlarini keltirib chiqarish. Masalan, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 37-moddasiga binoan atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan barcha tadbirlar davlat tomonidan rag'batlantiriladi. Bizningcha, juda yaxshi bo'lar edi, agarda ushbu moddadagi me'yorlarni barcha qonun xujjatlarida aniq qilib ifoda etilsa.

7) *Tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson sixat-salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmas oqibatlariga yo'l qo'ymaslik.*

«Noekologik faoliyatga yo'l kuymaslik» printsipi Konstitutsiyamizning 55-moddasida aks ettirilgan bo'lib, uni bajarish davlat zimmasiga yuklatilgan, chunki O'zbekiston Respublikasida davlat o'zining vakolatlangan organlari orqali barcha turdagi organlar va shaxslarning faoliyatlari ekologik talablarga mosligini nazorat qiladi, qonunbuzarlarga nisbatan salbiy yuridik oqibatlarini keltirib chiqarishini ta'minlaydi. Kelajakda esa davlat uni bosqichma-bosqich mahalliy idoralarga va nodavlat tashkilotlarga o'tkazishni mo'ljallamoqda.

8) *Tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik.*

«Ekologik faoliyat oshkoraligi» printsipi demokratik davlat ko'rayotgan va fuqarolik jamiyatini o'rnatayotgan O'zbekiston juda muhim ekologik qoida hisoblanadi. Chunki fuqarolarning ekologik xuquqlarini ta'minlash asosan ularning atrof tabiiy muhiti xaqidagi axborotlarni olish imkoniyati bilan belgilanadi. Bu o'rinda tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasining yillik hisobotini nafaqat rus tilida, balki davlat tilida ham chop eish va keng ommaga tarqatish ushbu printsipni amalga oshirishning amaliy choralardan biri hisoblanadi. Aks holda, atrof tabiiy muhit xaqida xaqqoniy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxs uni saqlab qolish haqida o'ylab ham ko'rmaydi.

9) *Tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy, regional va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish.*

«Milliy, regional va global ekologik manfaatlar birligi» printsipi umumiy ekologik printsipdan kelib chiqqan bo'lib, tabiatda ketayotgan barcha jarayonlar va hodisalar hech

qanday ma'muriy chegaralarga bo'ysunmaydi. Shuning uchun ham milliy ekologik qonunchilikka xalqaro ekologik me'yorlarni implementatsiya (tatbiq) qilish zarurdir. Hech qachon atmosfera havosiga chiqazilayotgan is gazi shu yerda muallaq holda turib qolmaydi, balki qo'shni davlat va xalqaro hamjamiyatga xavf to'g'iradi. Orol muammosi ana shu tariqa global muammoga aylangandir.

10) *Tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo'lish.*

«Ekologik javobgarlikning muqarrarligi» printsiplari ekologik xuquqbuzarlarga nisbatan (hoh u tabiatni muhofaza qilish, hoh u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'ladimi), albatta, salbiy yuridik okibatlarni keltirib chikarish lozim. Shuning uchun ham Jinoyat kodeksining 4 bo'limi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi 8 bobida ekologik qonunbuzarliklar uchun maxsus ravishda sanksiyalar ko'rsatilgan. Fuqarolik va Mehnat kodekslarida ham ushbu qoidabuzarlik sanksiyalari aniqlashtirilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

SHuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki, yuqorida sanab o'tilgan Ekologik xuquqning 10 ta printsiplari davlat tomonidan o'rnatilgan bo'lib, u umummajburiy kuchga ega va barcha qonun xujjatlarida o'z aksini topishi shart.

1.7. Ekologik-xuquqiy mexanizmi. Qonun qabul qilindi va tegishli me'yoriy xujjatlar yuzaga keldi, degan so'z, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishdagi barcha ijtimoiy munsoabatlar tartibga solindi va oqibatda ekologik xavfsizlik yaratildi, degani emas. Uning uchun juda keng qamrovli va o'ta serxarajat masalani hal qilish kerak bo'ladi, ya'ni ekologik-xuquqiy mexanizmni yaratish talab etiladi.

Mexanizm-grekchada "mechane" –qurol, qurilma degan ma'noni anglatib, u biron-bir harakatni bajarish uchun zarur bo'lgan uzviy bog'langan qismlar tizimidir.

**Ekologik-xuquqiy mexanizm-ekologik munosabatlarning xuquqiy jixatdan tartibga solinishini ta'minlovchi qismlar (zvenolar) tizimi.**

Qismlar yig'inidisi emas, aynan qismlar tizimidir. Masalan, avtomobilni me'yor holdagi harakatini ta'minlash uchun uning elektr, yog'lash, yonish, yurish kabi bir qator qismlarini bir me'yorda va bir paytning o'zida ishlashini ta'minlash talab etiladi. Aks holda avtomobil "xavfli mashina" yoki "quruq temir" ga aylanadi.

Ekologik xuquqda ham ekologik xuquqiy me'yorlar "tishsiz qonunlar"ga aylanmasligi va kishilar tomonidan inson etilmasligi ("xuquqiy negilizm") uchun ekologik-xuquqiy mexanizm yaratiladi.

Ekologik-xuquqiy mexanizm muayyan davlatning ekologik siyosatiga, ekologik dunyoqarashiga, qurilish va boshqarish shakliga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. "Bizning pirovard maqsadimiz, -degan edi Prezidentimiz I.Karimov, - ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir". Ekologik munosabatlarni xuquqiy tartibga solish mexanizmi O'zbekistonda aynan ana shu tamoyillarni inobatga olgan tarzda tuzilishi va unga monand ravishda harakat qilishi, maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ekologik munosabatlarni xuquqiy tartibga solish unga xuquqiy ta'sir etish, uni amalga oshirish, takomillashtirish va rivojlantirish orqaligina olib boriladi. Chunki zamon o'zgargan sari odamlar ham o'zgarib boradilar, atrof tabiiy muhit ham o'z "o'zgaruvchanlik" xususiyatini yo'qotib qo'ymaydi.

**Ekologik-xuquqiy mexanizm zanjirining "xalqa"lari quyidagilardan iborat:**

- 1) *Ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi konstitutsiyaviy me'yorlarni o'rnatish va ekologiyalashtirilgan qonunlarni qabul qilish;*

- 2) *Ekologik qonunlar ijrosini ta'minlovchi qonun osti me'yoriy xujjatlarni tezkor ravishda ishlab chiqish;*
- 3) *Kafillik me'yorlarini yaratish;*
- 4) *Ekologik-xuquqiy munosabatlarni tashkillashtirish;*

Ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi konstitutsiyaviy me'yorlar-qat'iy (imperativ) me'yorlardan iborat bo'lib, Konstitutsiyamizning 50,54,55,100-moddalarida aks ettirilgan. Ular bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan mamlakatimizning ekologik siyosatini mujassamlashtirgan tarzda ifodalaydi.

*Ekologik xavfsizlik esa kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondira oladigan toza, sog'lom va qulay atrof tabiiy muhit holatidir.*

Ekologiyalashtirilgan qonunlarni qabul qilish, Konstitutsiyada belgilangan imperativ me'yorlarni kengaytirilgan tarzda ekologik qonunlarda ifodalash. Ushbu me'yor va qoidalar "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"ni qonunda yaqqol ifoda etilgan bo'lib, ular to'rt ko'rinishdagi me'yorlardan iborat: printsip, birlamchi, imperativ, kafillik.

Ekologiyalashtirilgan printsip me'yorlar- Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 4-moddasida ifoda etilgan. Ular ekologik munosabatlarni qanday qoidalar asosida xuquqiy tartibga solish kerakligini ko'rsatadi.

Ekologiyalashtirilgan birlamchi me'yorlar-tabiat unsurlari-er, suv, yer osti boyliklari, atmosfera havosi, o'simlik va xayvonot dunyosini, birinchi navbatda, davlat-jamoa-fuqarolarning qaysi bir xayotiy ehtiyojlarini qondirish uchun yo'naltirilishi kerakligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 8-moddasiga binoan yerlar birinchi navbatda qishloq xo'jaligi maqsadlarida ishlatilishi kerak. Chunki yer, xususan, tuproq fuqarolarning ozuqa-ovqatga bo'lgan birlamchi talabini qondiradi. Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunning 21-moddasiga binoan esa suv, avvalambor, aholining ichimlik suvga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilishi lozim. «O'rmon to'g'risida»gi qonun esa o'rmonlarga, birinchi navbatda, ekologik xavfsizlikni ta'minlash manbai sifatida qaraydi.

Ekologiyalashtirilgan imperativ me'yorlar-kishilarni o'rab turuvchi atrof tabiiy muhitga ta'sir etuvchi barcha harakat yoki harakatsizliklarni qat'iy me'yorlab qo'yadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi «CHiqindilar to'g'risida»gi qonunning 19-22 moddalarida chiqindilar (ishlab chiqarish yoki iste'mol qilish jarayonida xom ashyo, materiallar, homaki maxsulotlar, boshqa buyumlar yoki maxsulotlarning hosil bo'lgan qoldiqlari, shuningdek, o'zining iste'mol xususiyatlarini yo'qotgan tovarlar) ekologik-sertifikatsiyalanishi, ularni tashish, olib kirish, saqlash va ko'mib tashlashga doir talablar qat'iy belgilangan. Bu belgilangan me'yorlar hamma uchun majburiy-imperativ talablar hisoblanadi.

Ekologiyalashtirilgan kafillik me'yorlar-imperativ me'yorlarning bajarilishini ta'minlovchi me'yorlar va qoidalar. Kafillik me'yorlarini yaratish ekologiyalashtirilgan qonun xujjatlarning amal qilishini ta'minlashdan iborat. Ular iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy-madaniy, sanitar-gigienik nazoratning yuridik jihatdan ta'sir etuvchi yo'lni ko'rsatadi. Ushbu ta'sir etish yo'li protsessual xuquq me'yorlarida rag'batlantiruvchi yoki jazolovchi choralarni qo'llashda, xuquqbuzarlarga nisbatan iqtisodiy, ma'naviy va moddiy noqulayliklarni keltirib chiqarishda namoyon bo'ladi.

Ekologik-xuquqiy munosabatlarni tashkillashtirishda davlat va uning organlari nodavlat tashkilotlar, o'zini o'zi boshqaruv idoralari, yuridik va jismoniy shaxslar hamda ular o'rtasida yuzaga keladigan, yagona ekologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan harakatlarini muvofiqlashtirishga qaratiladi. Masalan, shaharsozlikda uy-joy va kommunal xizmat ko'rsatish shoxobchalarini yaratish muayyan darajada ekologik xavfsizlik talablarini bajarish orqali olib boriladi. Bu talablar hamma xo'jalik yurituvchi hamda boshqa faoliyat olib boruvchi korxonalar, tashkilot, muassasa va shaxslardan yagona maqsad sari o'z rejalarini tuzish va ularni tatbiq qilishga undaydi. Aks holda shahar aholisining hayotiy zarur ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bo'lmaydi. Shaharlarda yangi uy-joy massivlarini ko'kalamzorlashtirish nafaqat daraxt yoki buta ko'chatlarini yetishtiruvchilardan, balki

suvchilardan ham, jamoat xavfsizligini ta'minlovchilardan ham, va hattoki, fuqarolarni ekologik ongi hamda madaniyatiga ta'sir etuvchi mutaxassislardan ham hamjamiyatlikni, ularning bir paytda va o'zaro kelishilgan tarzda harakat kilishlarini talab etadi. Bu esa yagona ekologik-xuquqiy mexanizmning ajralmas qalkalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

**1.8. Ekologik-xuquqning tizimi.** Ekologik xuquqning tizimini ta'riflashdan avval «tizim» so'ziga aniqlik kiritib olishni lozim deb bilamiz. Tizimlar nazariyasi tadqiqot doirasida umumilliy hisoblanib, uning mavjudligi uchun va mantiq-metodologik apparat va umumlashgan model ishlab chiqildi. Tizimlar nazariyasining asoschisi A. A. Bagdanov (1873-1926) hisoblanib (yunoncha tecton-quruvchi), XX asr boshlarida asosiy printsiplarni ifodalagan va uni tektologiya deb atagan. G'arb adabiyotlarida umumiy tizimlar nazariyasining muallifi sifatida, biolog L.Fon Bertalanfi (1937) tan olingan. (Muradov Sh.O. va boshqalar, 2004.)

Tizim- bu o'zaro aloqada va munosabatda bo'lgan bir qancha elementlardan iborat bo'lib, kamida bitta yangi xususiyati bilan tavsiflanadigan o'ziga xos bir butunlikni ifodalaydi.

Ekologik xuquqning tizimi-ekologik xuquqning tadqiq qilish yoki ta'lim berish qonuniyatlariga asoslangan tarzda ekologik munosabatlarni tartibga soluvchi uning qismlari va institutlarini ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.

Ekologik xuquqning tizimi fan tariqasida alohida, o'quv predmeti sifatida alohida bir qismlarga va institutlarga ajratilishi mumkin. Chunki fanda tizimlash ekologik-xuquqiy tadqiq qilish qonuniyatlari asosida, ta'limda esa o'qitish qonuniyatlari asosida tuziladi.

Ekologik xuquqning tizimi ko'pgina xuquqshunos olimlar tomonidan ikki qismga ajratish orqali tuziladi-umumiy va maxsus qism. Lekin xuquqshunoslikda xuquq sohasi tizimini uch qismga-umumiy, alohida, maxsus ajratish ham bor. Biz bu amaliy tajribadan foydalangan holda Ekologik xuquqni uch qismga ajratishni maqsadga muvofiq deb bilamiz (1-rasm). Birinchidan-Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'lim berishda tizimli yondashuv va mahalliy-milliy-xalqaro xuquq me'yorlarini moslashtirish yoki uyg'unlashtirish zarurligi. Bu degani O'zbekistonda ekologik munosabatlarni tartibga solish hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun regional va global xuquqiy-ekologik munosabatlarni amalga oshirish. Aks holda biz bu ezgu niyatlarimizga erisha olmaymiz, zero qushnilarning noekologik munosabatlari bizning ekologik munosabatlarga bevosita ta'sir etadi. Yangi «Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi» aynan ekologik globallashuv yo'lini targ'ib etmoqda.

Ikkinchidan-Ekologik xuquqning alohida qismi alohida bir tabiiy ob'ektlar bo'yicha ekologik - xuquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalarini ko'rib chiqadi. Xalqaro ekologik masalalar yoki ilg'or «ekologiyalashtirilgan» mamlakatlarning tajribasini bilmay va solishtirmay turib, ta'lim jarayonini zamon talabiga mos ravishda amalga oshirildi, deb aytolmaymiz.

Uchinchidan-xalqaro ekologik xuquqni aynan milliy ekologik xuquq nuqtai nazaridan qarash va aynan ekolog-xuquqshunoslar tomonidan o'qitilishi mantiqan to'g'ri bo'lsa kerak.

Xuquqiy tizim go'yoki «uy» ga o'xshaydi. Uning «ustunlari» -qismlari bo'lsa, institutlari-terilgan «g'ishtlari»dir. Ekologik xuquq ikki ustundan ko'ra uch ustunda tursa, «mustahkam» va turli «ofatlarga bardoshli» bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Yuqorida keltirilgan dalillar asoslangan holda, biz ekologik xuquqni uch qismga ajratib olamiz-umumiy, alohida va maxsus qismlar.

Ekologik xuquqning umumiy qismi-Ekologik xuquqning umumnazariy asoslarini tadqiq qiluvchi va ta'lim beruvchi institutlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.

Umumiy qism umumiy ekologiya va xuquqshunoslikning umume'tirof etilgan masalalaridan boshlanib, ekologik javobgarlikkacha bo'lgan institutlarni o'z ichiga oladi. Ushbu institutlar qolgan ikki qism uchun nazariy asos bo'la oladi.

Ekologik xuquqning alohida qismi mazkur xuquq sohasi ob'ektlarini alohida-alohida tadqiq qiluvchi va ta'lim beruvchi institutlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.

Bu institutlarning tarkibi va uning joylashish tartibi ekologik xuquq ob'ektlarini qay darajada va nimalarga asosan guruhlashtirishga bog'liqdir.

Ekologik xuquqning maxsus qismi ayrim davlatlarda va xalqaro ekologik xuquqda ekologik munosabatlarning tartibga solinishiga doir institutlarining ma'lum bir ketma-ketlikda joylashgan tuzilmasi.

Bu o'rinda, avvalambor, umumiylikdan xususiylikka tomon borish printsipiga amal qilgan holda Ekologik xuquq institutlaridan ayrim mamlakatlarning Ekologik xuquq institutlariga tomon borish yoki to'xtalib o'tish o'rinli, deb o'ylaymiz.

## EKOLOGIK XUQUQNING TIZIMI



1-rasm Ekologik xuquqning tizimlari

## **Nazorat savollari**

1. Ekologik xuquqning predmetini aytib bering?
2. Yerga oid qanday munosabatlar Ekologik xuquqning predmetiga kiradi?
3. Ekologik xuquq qaysi fanlar tarmog'iga kiradi?
4. Ekologik xuquqning xuquq fanlari bilan qanday aloqasi bor?
5. Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
6. O'zbekistonda Ekologik xuquqning maqsadi nimadan iborat?
7. Ekologik xuquqning o'ziga xos jixatlarini sanab o'ting?
8. Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixida qanday bosqichlar bor?
9. Ekologik xuquqning printsipi deganda nimani tushunasiz?
10. Ekologik xuquqning qanday yo'naltiruvchi qoidalarini bilasiz?
11. Ekologik javobgarlikning muqarrarligi deganda nimani tushunasiz?
12. Ekologik-xuquqiy mexanizm nima o'zi?
13. Ekologik xuquqning tizimi nima?
14. Ekologiya xuquqini nechta qismga ajratishni ma'qul deb bilasiz?

## 2-MAR'UZA

### **Mavzu: EKOLOGIYANING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

#### **Reja**

- 1.1. Konstitutsiyada atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilish
- 1.2. Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik xuquqlarini muhofaza qilinishi va kafolatlanishi
- 1.3. Konstitutsiya asosida yoshlarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berish

#### **KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasiga oid 40 ga yaqin qonunlar va 1000 ga yaqin qonunosti hujjatlari amal qilmoqda.

Ushbu talablar avvalambor O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasidagi "Fuqarolar atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar" va 54-moddasida "Mulkdor o'z mulkiga o'z hohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanishda ekologik muhitga zarar etmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart" deb ifoda etilgan.

Qomusimizning 55-moddasida "Er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir", - deb ko'rsatilgani ham alohida ahamiyatga egadir<sup>1</sup>.

E'tiborli tomoni shundaki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzalarida alohida qayd qilganidek, "Barchamiz bir oddiy haqiqatni qat'iy va aniq anglab olishimiz kerak – bundan buyon O'zbekiston Ekologik harakati yangi sifat bosqichiga ko'tariladi, yuksak deputatlik minbaridan turib atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini o'rta qo'yish va nazorat qilish, insonni va mamlakat aholisini ekologiyaning xavfli hamda tajovuzkor o'zgarishlardan himoya qilish uchun ulkan imkoniyatlarni qo'lga kiritadi"<sup>2</sup>, - degan ko'rsatmalari tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish sohasida bir qator muoammolarni bartaraf etishda asos bo'ldi.



SHu munosabat bilan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 27 may 142-sonli qaroriga asosan “2013-2017 yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhit muhofazasi buyicha harakat Dasturi”<sup>3</sup> qabul qilinganligini alohida ta’kidlash lozim.

Ushbu Dasturda asosan to‘rtta yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish mo‘ljallanmoqda:

- atrof muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va xo‘jalik yuritishning ekologik metodlarini joriy etish;
- normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda ekologik ilm-fanni, aholining ekologik ta’lim va tarbiyasini rivojlantirish;
- xalqaro hamkorlik va mintaqaviy ekologik xavfsizlik<sup>4</sup>.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni ekologik-huquqiy muhofaza qilish nafaqat O‘zbekistonda, balki Markaziy Osiyoda ham global muammolardan biridir. SHu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Orol muammosiga xalqaro jamiyatning yangicha nazar bilan qarashi va anglab etishini shakllantirishga yordam berishi hamda Markaziy Osiyo Mintaqasining aholi genofondi, o‘simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish maqsadida o‘ta samarali hamkorlik uchun asos bo‘ladigan vaziyatni yaxshilash bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini berishiga ishonchim komil”<sup>5</sup>, - deb ta’kidlagan so‘zlari yuqorida ko‘rsatilgan ekologik muammolarini ijobiy hal qilishga yordam beradi.

E’tiborli tomoni shundaki, hozirgi paytda tabiatni muhofaza qilish tadbirlarining va mamlakatda ekologik vaziyatni yaxshilash yuzasidan amalga oshirilgan kompleks chora-tadbirlar natijasida atmosferaga chiqarib tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarning umumiy miqdori 2008 yildagiga nisbatan 55 ming tonnaga yoki 2,5 foizga kamayib, 2,13 million tonnani tashkil qildi, jumladan, ko‘chmas manbalardan 741 tonnaga, harakatlanuvchi manbalardan 1,38 million tonnaga kamaygan. 18,6 mingta avtomobil gaz yoqilg‘isiga o‘tkazilgan, 1,26 million tonna va 161,7 ming kub metr chiqindi qayta ishlangan, 234,9 kilometr vodoprovod tarmog‘i ta’mirlandi va 188, kilometr vodoprovod tarmog‘i, 157,9 kilometr kanalizatsiya tarmog‘i foydalanishga topshirilgan, 1,4 million kub metr ichimlik suvi tejab qolingan, ekologiya mavzuidagi radio eshittirishlar va teleko‘rsatuvlar 2008 yildagiga nisbatan 27 foizga, leksiya va suhbatlar 43,7 foizga oshgan.<sup>6</sup>

SHunga qaramasdan, bugungi kunda mamlakatimiz hududiga ayrim ekologik muammolar, jumladan, transchegaraviy ekologik muammolarni xavf solishi ham o‘ta tashvishlidir. SHu asnodan suv va atmosfera havosi bilan bog‘liq bo‘lgan transchegaraviy muammo mavjud bo‘lib, bular Tojikiston Regar alyuminiy zavodi hamda, Tojikiston Rog‘un GESi qurilishi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Ma’lumki, har qanday iqtisodiy faoliyat, hoh u ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishdan foydalanishda, hoh u tadbirkorlik sohasida bo‘lsin, albatta tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish tamoyiliga qat’iy amal qilish talab etiladi.

Mazkur risolani tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Er kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Er osti boyliklari to‘g‘risida”gi, “O‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “O‘rmon to‘g‘risida”gi, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi, “CHiqindilar to‘g‘risida”gi, “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida”gi, “Radiatsiya xavfsizligi to‘g‘risida”gi, “Er kadastri to‘g‘risida”gi, “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi, “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi, “Madaniy meros ob’ektlarini huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi, “Arxeologiya merosi ob’ektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi qabul qilingan

ekologik qonunlari hamda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 sentyabr qarori bilan tasdiqlangan "2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari Dasturi" asosiy manbaa sifatida asos qilib olindi.

Mazkur risolaning xususiyati ham shundaki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya asosida qabul qilingan ekologik va agrar huquqqa oid qonun hujjatlari hamda ulardan kelib chiqadigan talablar asosida konstitutsiyani kengroq o'rganishdan iborat.

## **1. KONSTITUTSIYADA ATROF TABIIY MUHITNI EKOLOGIK-HUQUQIY MUHOFAZA QILISH**

O'zbekiston davlatchiligi tarixida 1991 yil 31 avgust kuni muhim va ulkan tarixiy yangilik bo'ldi: mamlakatimiz Oliy Kengashining o'n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari oltinchi sessiyada yurtboshimiz Islom Karimovning tashabbuslari bilan O'zbekiston davlat mustaqilligi e'lon qilindi va 1 sentyabr – Mustaqillik kuni sifatida o'zbek davlatchiligi tarixining yangi sahifalarini ochib berdi. SHu kundan e'tiboran O'zbekiston Respublikasi suveren huquqiy demokratik davlat tariqasida jahon xaritasidan joy oldi.

Davlat suvereniteti mamlakatimizga nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy, balki siyosiy va huquqiy taraqqiyotning, madaniy va ma'naviy yangilanishning ulkan istiqbollari keng ochib berdi.

Huquqiy davlat prinsipiga amal qilib, davlatimiz inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan o'zini strategiyasini belgilab oldi. SHu ma'noda, asosiy qonunimiz insonning farovonligiga xizmat qiladigan davlat qurishga yo'naltirilgan xalqaro huquqning umume'tirof etgan tamoyillarini o'z ichiga oladi. Masalan, asosiy qonunimiz bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat deb hisoblanishi belgilangan. Demak, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ham xalqaro inson huquqlari borasida to'plangan ijobiy tajribani o'zida mujassam etdi.

Umuman olganda, Konstitutsiyani davlatimizni ravnaq toptirishning maqsad va istiqbollari belgilab bergan, uning barqarorligi hamda ijtimoiy taraqqiyoti poydevoriga asos solgan, fuqarolarning huquq va erkinliklari garovi bo'lgan bag'oyat muhim, asosiy siyosiy-huquqiy hujjat, deya ta'kidlash mumkin.

Tarixdan biz AQSHda 1737 yilda, Belgiyada 1831 yilda, Italiyada 1848 yilda, Fransiyada 1858 yilda, SHveysariyada 1874 yilda qabul qilingan va hozirgi kunga qadar dastlabki mazmunini saqlab kelayotgan, barcha haq-huquqlarini o'zida har tomonlama to'g'ri aks ettirgan Konstitutsiyalarni bilamiz.

O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni – Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabr kuni qabul qilingan. Mustaqil O'zbekiston Respublikasining bu Konstitutsiyasi birinchi Konstitutsiya bo'lib, unda 30 ga yaqin, ya'ni AQSH, Fransiya, Italiya, Germaniya, Daniya, Kanada, SHvetsiya, Ispaniya, Portugaliya, Hindiston, Pokiston, Eron, Turkiya, Arabiston kabi mamlakatlarning konstitutsiyaviy tajribalaridan ijobiy foydalanildi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini belgilab turadi. Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston xalqi ilk bor o'z davlat mustaqilligiga ega bo'ldi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Davlatimizning kelajagi, xalqimizning taqdiri ko'p jihatdan Konstitutsiyamiz qanday bo'lishiga bog'liq" degan gaplarining ahamiyati naqadar katta ekanligini tushunamiz. Demak, Konstitutsiya – xalq taqdiri Davlatimiz mustaqilligidir.

Ta'kidlash joizki, 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan mustaqil O'zbekiston Respublikasining birinchi konstitutsiyasi yosh yangi davlatning ichki va tashqi siyosati tamoyillarini, uning mustaqilligini, inson huquqlari va erkinliklari, fuqarolar uchun yaxshi hayotni ta'minlaydigan, barqaror madaniy bozor munosabatlariga o'tishni aks ettiradigan asosiy qomus sifatida tan olindi.

Qabul qilingan Konstitutsiya oldingi (1978 y.) konstitutsiyaga nisbatan 100 dan ortiq yangi huquqiy talablar kiritilishi bilan tubdan farq qiladi. Yangi Konstitutsiya o'zida 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddani tashkil etadi.

Davlatning asosiy qonuni bo'lmish konstitutsiya konstitutsiyaviy tizim asosiy qoidalarini belgilab beradi hamda qonunchilik (shu jumladan, ekologik qonunchilik) tarmoqlari uchun muhim huquqiy zamin yaratadi. Binobarin, ekologik muammolarning echimini izlashda, ularni hal etish yo'llarining huquqiy mustahkamlanishida hamda ushbu sohada fuqarolarning huquq va majburiyatlarini belgilab berishda, muxtasar qilib aytganda, davlatlarning bu boradagi ekologik siyosatini shakllantirish va yo'naltirishda ekologik qonunchilikning, ayniqsa konstitutsiyaviy normalarning o'rni beqiyos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 2010 yil 12 noyabrda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasida ta'kidlab o'tganidek, "Xususan, atrof-muhitni himoya qilishni ta'minlash tizimida nodavlat notijorat tashkilotlarning roli va o'rnini belgilashga qaratilgan "Ekologik nazorat to'g'risida"gi Qonun loyihasini ishlab chiqish va boshqa qator qonun hujjatlarini qabul qilish fursati etdi, deb o'ylayman"<sup>7</sup>. davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilinishi taklif etilgan mazkur qonun bugungi kunda ekologiya huquqi nuqtai nazaridan juda dolzarb bo'lgan bir qator muammolarning echimini o'zida qamrab oladi.

Alohida e'tirof etish joizki, o'z taraqqiyot yo'lini tanlab olgan xalqimiz uchun Konstitutsiya yangi erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishning ishonchli huquqiy kafolati bo'lib qoldi. Mustaqillik yillari mobaynida davlatchilik hamda huquqiy rivojlanish borasida O'zbekiston erishgan yutuqlar Konstitutsiyamiz prinsiplari va normalari amal qilinayotganligining samarasidir. Halqimizni keyingi yillardagi yutuqlariga baho berar ekan. Asosiy qonunning ulkan roli hamda salohiyatini xolislik bilan e'tirof etish zarurligini ta'kidlab o'tish lozim.

YUrtboshimiz ta'biri bilan aytganda "... mamlakatimizda huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etish, inson manfaati, huquq va erkinliklarini eng oliy va ustuvor qadriyat sifatida qaror toptirish borasida o'tgan davr mobaynida qonunchilik sohasida va amaliy siyosatimizda qanday natija va yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lsak ularning barchasi Konstitutsiyamizda muhrlab qo'yilgan talab va tamoyillar bilan uzviy bog'liqdir".

Ta'kidlash o'rinliki, Konstitutsiya negizida suveren taraqqiyot yillarida bizda butunlay yangi ilg'or qonunchilik shakllanganligiga ham e'tiborni qaratish o'rinli. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga mamlakatni erkinlashtirish va modernizatsiyalash o'zanida kiritilgan tuzatishlar konstitutsiyaviy – huquqiy islohot amalga oshirilayotganligi va konkretlik kasb etayotganligidan yorqin dalolatdir. Bu tuzatishlar demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolarning ijtimoiy – siyosiy faolligini oshirish, mamlakatimizni kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari ilgarilab borishi zarurati taqozosi ekanligidan dalolat beradi.

Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar, jumladan, saylovlar o'tkazishni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmining qayta shakl topishiga olib keldiki, bu xususan, davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchayganligida namoyon bo'lmoqda. Bularning hammasi Konstitutsiyaning barqarorligi va hayotiyliqi qonunlarimiz doimiy ravishda yangi mazmun va mohiyat bilan to'ldirib borilayotganida, Asosiy Qomusimiz normalari ijtimoiy – huquqiy amaliyotda mujassam topayotganligi ko'rsatmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyalariga ko'ra 2008 yil 2 avgustda mamlakatimiz ekolog olimlar, shu yo'nalishda ish olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va faol jamoatchilikning tashabbusi asosida O'zbekiston ekologik harakatining tuzilganligi bugungi davrning dolzarb talabi hisoblanib xalqaro andozalarga mos keladi. E'tirof etish o'rinliki, 2008 yil 2 avgustda Ekoharakatning tashkil

etilganligi mamlakatimizda ekologik jamoat birlashmalari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, yurtimizda faoliyat yuritayotgan ekologik jamoat birlashmalari Ekoharakat timsolida atrof tabiiy muhit va inson salomatligi muhofazasi bo'yicha barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish hamda safarbar etish imkoniyatiga ega bo'lindi.

Hozirda O'zbekiston ekologik harakatining jamiyatimizda mavjud ekologik muammolarni hal etishda hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni va roli tobora ortib bormoqda.

SHuning uchun ham har kim Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi hamda shaxsiy xayotida uchrab turadigan muammolarning echimini aynan Konstitutsiyadan topa bilishi zarur. Ma'lumki, demokratik huquqiy davlat qurish yo'lidagi eng dastlabki va muhim qadam Konstitutsiyani o'rganish hamda uni hayotga tadbqiq etishdan boshlanadi.. zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 4 yanvarda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida"gi farmoni ham yurtimizda demokratik tamoyillarga to'la amal qilish ustuvor vazifa etib belgilanganligini ko'rsatadi.

SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamalakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir"<sup>8</sup>. demak, bu g'oya insonlarni tabiatni hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni oldini olish unga zamon talabi asosida yanada e'tibor berishni taqazo etadi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiat zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir<sup>9</sup>, - deb ko'rsatilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, tabiatni muhofaza qilish, ekologik talablarga har doim rioya etish va ekologik halokatlarni oldini olish mustaqil davlatimizning sotsial-iqtisodiy huquqiy masalasi bo'libgina qolmay, balki ekologik siyosatning asosiga aylanishi lozim. CHunki ushbu global muammoning ortida butun mustaqil davlatimiz, millatimizning taqdiri yotibdi.

Ayniqsa, so'nngi yillarda jahon miqyosida yuz berayotgan ekologik falokatlar natijasida atrof tabiiy muhitning yomonlashuvi o'z navbatida insonlar salomatligi va irsiyatiga o'ta salbiy ta'sir etdi, bu esa, tabiiyki, dunyo ahlini befarq qoldirmadi hamda jamoatchilikni atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasida birlashishiga va ushbu munosabatlarda faol ishtirok etishiga turtki bo'ldi. Xususan, O'zbekiston misolida mustaqillik yillarida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik tizimni saqlash yuzasidan faoliyat olib boruvchi 180 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari tashkil etilganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi<sup>10</sup>.

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2009 yil – "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", deb e'lon qilingan edi. Bu borada maxsus Davlat dasturi ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilmogda. Bunday ulkan ishlar zamirida yurtdoshlarimiz, xususan, qishloqlarda yashaydigan insonlar turmush farovonligini yuksaltirish, qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o'zgartirish ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy xayotimizni yanada yaxshilash singari ezgu maqsadlar mujassamdir.

Ushbu yilda amalga oshirilgan yutuqlar va qilingan ishlar ham konstitutsiya talablariga mos bo'lib, alohida tahsinga sazovordir. Biz bundan keyin ham yosh barkamol avlodni tarbiyalashga, ularga baxtimiz qomusi bo'lgan Konstitutsiyani har bir moddasini mazmun va mohiyatini keng tushuntirib borishimiz maqsadga muvofiqdir.

SHunday qilib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi katta siyosiy, huquqiy va xalqaro ahamiyatga molik tushunchadir. Ushbu hujjat jahon maydonida O'zbekiston deb atalmish yangi suveren davlat paydo bo'lganligidan dalolat berib, xalqaro miqyosida keng obro'-e'tibor qozonishini ta'minlashga hissa qo'shadigan asosiy manbadir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Konstitutsiya-bu, avvalo, millatning yuzi, xalqning erki ifodasi, jamiyat taraqqiyotining asosidir. Milliy konstitutsiyamizning hoyasi, asosiy

prinsiplari va qoidalari umum e'tibof etilgan xalqaro talabalar bilan birga xalqimizning ming yillar davomida shakllanib kelgan qadriyatlarini ham o'zida mujassam etgan. U millatning bugungi va ertasini belgilab beruvchi o'tmish hamda kelajak o'rtasidagi ko'prikdir.

## **2. KONSTITUTSIYADA FUQAROLARNING EKALOGIK XUQUQLARINI MUHOFAZA QILINISHI VA KAFOLATLANISHI**

Aloxida ta'kidlash lozimki, keyingi yillarda tabiatning insonga ko'rsatayotgan mexr-muxabbati va ijobiy ta'siriga nisbatan insonni tabiatga bo'lgan zug'umi, salbiy ta'siri tabiatning mutanosibligini buzishga sabab bo'lmoqda.

Bunday jarayon dunyoda xamma davlatlarning o'zaro hamkorligi asosida tabiatni muhofaza qilish va ekalogiya masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Agarda ushbu jarayon shunday davom etadigan bo'lsa turli ekalogik muammolar va boshqa tirik mavjudotni jumladan, insoniyat g'ayotni barbod bo'lishi, genefondini butunlay o'zgarib ketishiga, tabiat resurislardan vahshiylarcha foydalanishga, atrof tabiiy muxitni qattiq ifloslanishiga va boshqa xafli xolatlarga olib kelishi mumkin.

Zero, insonning ekalogik xuquqlarini ta'minlash maqsadida BMT tomonidan dastlab 1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" talablari va uning mazmuni naqadar jahonshumul ahamiyatga egadir.

SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning quyidagi "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekalogik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir", degan e'tiroflarini alohida eslash lozim. Bu g'oya insonlarni, tabiatni hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekalogik muammolarini oldini olish, unga zamon talabi asosida yanada e'tibor berishni taqazo etdi.

Zotan O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyaning 55-moddasida er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiat xazinalari umumilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir, deb ko'rsatilgan. SHuningdek, ushbu konstitutsiyaviy talab O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 12-moddasida ham o'z aksini topgan. Xususan, unga ko'ra: "O'zbekiston Respublikasi aholisi o'z salomatligi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitda yashash, o'z salomatligini atrof-muhitning zararli ta'siridan muhofaza qilish huquqiga ega", deb e'tirof etilgan. SHu maqsadda O'zbekiston Respublikasi aholisi tabiatni muhofaza qilish bo'yicha jamoat tashkilotlariga birlashish, atrof tabiiy muhitning ahvoli hamda uni muhofaza qilish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlarga doir axborotlarni talab qilish va olish huquqiga egadir.

Bundan ko'rinib turibdiki, tabiatni muhofaza qilish, ekalogik talablarga har doim rioya etish va ekalogik halokatlarni oldini olish mustaqil davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy huquqiy masalasi bo'libgina qolmay, balki ekalogik siyosatning asosiga aylanishi lozim. CHunki ushbu global muammoning ortida butun mustaqil davlatimiz, millatimizning, inson va fuqarolarning ekalogik huquqlarini muhofazalash va kafolatlash yotibdi.

Konstitutsiyaga asosan insonlarning ekalogik huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida mamlakatimizda zarur taktik va strategik yo'nalishlar ishlab chiqilgan. CHunonchi, bugungi kunda O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida 40 ga yaqin qonunlar va 1000 ga yaqin qonun osti hujjatlari amal qilmoqda. Ular qatoriga "2005 yilgacha bo'lgan davrda tabiatni muhofaza qilish va tabiat resurislardan samarali foydalanishning Davlat dasturi", "O'zbekiston Respublikasi" tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlantirish rejasi", "O'zbekiston Respublikasida airof-muhit gigienasi bo'yicha milliy xarakterli dasturi", "Biologik xilma-xillikni saqlab qolish bo'yicha milliy strategiya va reja", "2008-2012 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitini muhofaza qilish ishlari Dasturi"<sup>14</sup> kabi huquqiy manbalarini keltirish mumkin. Ushbu hujjatlarda davlatimizning jamiyat, tabiat va inson o'rtasidagi munosabat shakli

hozirgi kunda va kelajakda qanday bo'lishi, O'zbekistonning ekologik konsepsiyasi, maqsadi va prinsiplari belgilab berilgan.

Fikrimizcha, hozirgi kundagi tabiat jamiyat va inson o'rtasidagi sodir bo'layotgan ekologik o'zgarishlar, insonlarning ekologik huquqlarini kafolatlanishning qator tamoyillarini belgilanishini taqazo etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida "Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun:

- insonning yashash muhiti bo'lmish biosfera va ekologik tizimlari barqarorligini saqlab qolish, odamlarning ekologik jihatdan xavfsizligi, inson va uning kelgusi avlodlari, genetik fondi haqida g'amxo'rlik qilish;

- fuqarolarning hayoti uchun qulay tabiiy muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi;

- jamiyatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlarini ilmiy asoslangan holda uyg'unlashtiri;

- tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun haq to'lash va umumiy asoslarda foydalanganlik uchun haq to'lamaslik;

- ekologik ekspertizasi o'tkazishning majburiyligi;

- tabiatdan oqilona foydalanishni va tabiatni muhofaza qilishni rag'batlantirish;

- tabiiy resurslarni tiklash zarurligi, atrof tabiiy muhit va inson salomatligi uchun zararli, tiklab bo'lmas oqibatlariga yo'l qo'ymaslik;

- tabiatni muhofaza qilish vazifalarini hal etishda oshkoralik;

- tabiatni muhofaza qilish sohasida milliy regional va xalqaro manfaatlarni uyg'unlashtirish;

- tabiatni muhofaza qilish qonunlari talablarini buzganlik uchun javobgar bo'lish kabi bir qator tamoyillar belgilangan.

Bu tamoyillar fuqarolarning ekologik huquq va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarish hamda amalga oshirilishini umumiy ta'minlashga yordam beradi.

YUqorida ko'rsatib o'tilgan tamoyillar fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashga yordam berib, yana bir qator xalqaro tamoyillarni qo'llashni ham talab etadi.

SHu munosabat bilan yuridik adabiyotlarda e'tirof etilgan quyidagi tamoyillarni ham ko'rsatib o'tish mumkin. Bular jumlasiga:

- atrof-muhitni muhofaza qilish;

- davlatlarning o'z tabiiy boyliklari ustidan ajralmas suvereniteti;

- davlat yurisdiksiyasidan tashqari atrof-muhitga zarar etkazmaslik;

- atrof-muhitga ta'sir etishni baholash;

- atrof-muhitga xavfli ta'sir etishi mumkin bo'lgan faoliyat to'g'risida oldindan ma'lum qilish va axborot ayirboshlash;

- ekologik jihatdan xavfli bo'lgan faoliyatni amalga oshirishda o'zaro maslahatlashish va kelishish;

- atrof-muhitga nisbatan jiddiy yoki oldini olish qiyi bo'lgan xavf mavjud bo'lgan holatlarda ehtiyot choralarini ko'rish tamoyillarini kiritish mumkin<sup>15</sup>.

YUqorida ko'rsatilgan tamoyillardan tashqari, umuman xalqaro miqyosda davlatlar va fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashning yana bir qator tamoyillari ham yuridik adabiyotlarda talqin etilgan<sup>16</sup>.

Hattoki, fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashning xalqaro hamkorlikdagi xususiyatlari ham zamon talabi asosida ko'rsatib tahlil qilingan<sup>17</sup>.

Fikrimizcha, yuqoridagi tamoyillar fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashga katta xizmat qilib, ularni quyidagi yangi tamoyillar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchiidan – tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etishda nafaqat bir davlatning, balki xalqaro huquq normalar asosida boshqa davlatlarning ham manfaatlarini inobatga olish;

Ikkinchiidan – qonunlarni va davlat standartlarini ekologiyalashtirish;

Uchinchidan – ekologik agressiya (ekotsid)ni man etish va oldini olish;

To'rtinchidan – favqulodda vaziyatlar, ekologik falokat va ekologik ofatlar chog'ida xalqaro hamkorlikni ta'minlash hamda yordam berish;

Beshinchidan – ekologik xavfsizlikni ta'minlashning yagonaligi hamda majburiyligi va boshqalar.

YUqorida ko'rib chiqilgan barcha tamoyillar inson va fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashga yordam beradi.

SHu nuqtai nazardan olganda fuqarolarning qanday ekologik huquqlari mavjud? – degan savol tug'ilishi mumkin<sup>18</sup>.

Amaldagi qonun talablariga ko'ra, fuqarolarning quyidagi ekologik huquqlarini ta'kidlash mumkin.

Bular jumlasiga:

1) Hayoti va sog'ligi uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 12-moddasi).

2) Tabiiy muhitning holati haqida aniq axborotga ega bo'lish (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasi).

3) Ekologik huquqbuzarlar tomonidan etkazilgan zarar o'rnini qoplash (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasi).

4) Atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha jamoat birlashmalari va jamg'armalarini tuzish, bunda tuzilmalarning a'zolari bo'lish (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 34-moddasi).

5) Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha davlat organlariga xatlar, ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilish (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 35-moddasi).

6) Jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazish haqida takliflar kiritish va uning natijalari haqida axborot olish ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 24-27-moddalari).

7) Ekologik zararli ob'ektlarni joylashtirish, qurish va foydalanishga topshirish haqidagi qarorlarni bekor qilishni ma'muriy va sud tartibida taab qilish ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning 52- moddasi) va boshqalar.

YUqoridagi qonunlar fuqarolarning ekologik huquqlarining tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

Qonunlarda ko'rsatilgan talabdan maqsad inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim ob'ektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

Fikrimizcha, yuqorida ko'rib chiqilgan barcha fuqarolarning huquqlarini kafolatlash tamoyillari hamda fuqarolarning ekologik huquqlari hozirgi zamon talabi nuqtai nazaridan o'z vaqtida bajarilishi, unga amal qilinishi hamda kafolatlanishi lozim bo'ladi.

SHunga qaramasdan hozirgi zamon talabi asosida aholi va kelajak avlodning salomatligi uchun qulay tabiiy muhitni saqlashda o'zaro hamkorlik jarayonlarini kuchaytirish zarur.

Bugungi kunda bunday jarayonlar suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish sohasida jumladan, Orol dengizini saqlab qolish va uning atrofidagi ekologik muhitni yaxshilash, Tojikiston Respublikasi hududidagi Sarhez ko'lini ekologik holatini yaxshilash, Tojikiston Rog'un GESi, Qirg'izistondagi Qambarota GESlarining qurishda boshqa davlatlarning manfaatlarini ham inobatga olish maqsadga muvofiq.

Oddiy bir misol, agarda Sarhez ko'li to'satdan bo'shalib ketganda undagi 16,6 kub km hajmdagi suv Tojikiston, O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Afg'oniston Respublikasining etmish ming kv.km hududida dahshatli ekologik holatni keltirib chiqarishi mumkin.

YOKi Tojikiston Regar Alyumin zavodi tomonidan atmosfera havosini ifloslantirish oqibatida Sariosiyo, Uzan, Denov, Oltinsoy tumanlaridagi qishloq xo‘jalik sohasida juda katta ekologik va iqtisodiy zarar etkazmoqda, Sariosiyo rayonida esa ayrim kasalliklar respublikaning boshqa joylariga qaraganda ikki barobar ko‘pligi aniqlangan.

Bundan tashqari har yili respublikamizda 100 mln tonna ishlab chiqarishda chiqindilar hosil bo‘lib, atmosfera havosiga 2 mln tonnasi, 138 mln tonnasi esa turli suv havzalariga chiqarilib tashlanmoqda<sup>19</sup>.

Demak, yuqorida mavjud ekologik mummolar fuqarolarning ekologik huquqlarini to‘la amalga oshirish va ta‘minlash hamda kafolatlashda salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

SHuning uchun ham bu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ishlab chiqarishda yangi-yangi texnologiyalarni qo‘llash, inson va fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlashda sof ekologik muhitni yaratish zarur.

Ta‘kidlash joizki, ekologiya muammosi dunyoviy, global, olamshumul chegara bilmaydigan aksincha o‘zaro hamkorlikda hal qilinadigan muammodir. Uning xalqaro huquqiy ekologik asoslari BMT bosh Assambleyasining 1962 yil 14 dekabrda “Tabiiy boylik manbalari ustidan ajralmas suverenitet” qarorida, “Insonni o‘rab turuvchi muhit tug‘risida” BMTning Stokgolm deklaratsiyasida (1972 yil), YUNESKOning umumjahon madaniyati va tabiat merosini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya (1972 yil);

BMT Bosh Assambleyasining davlatlarning er tabiatini hozirgi va kelajak avlod uchun saqlab qolishi uchun tarixiy javobgarligi to‘g‘risidagi rezolyusiyasi (1974 yil); Tabiat umumjahon xaritasi (1982 yil);

Tabiat muhitga nisbatan harbiy yoki har qanday boshqa turdagi vositalardan zararli foydalanishni ta‘qiqlash to‘g‘risidagi konvensiyada (1977 yil), Dengiz huquqi bo‘yicha BMT konvensiyasi (1982 yil); Ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi (1985 yil);

Xavfli chiqindilarni davlat chegaralaridan tashqariga tashish va ularni chiqarib tashlashni nazorat qilish to‘g‘risidagi Bazal konvensiyasi (1989 yil), Atrof-muhit va rivojlanish to‘g‘risidagi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (1992 yil), Ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi 1996 yil Jenevada qabul qilingan Monreal protokolda

- ozon qatlamini muhofaza qilish to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi (18.05.1993);
- ozon qatlamini emiruvchi moddalar (OQEM) bo‘yicha Monreal protokoliga London tuzatishi (01.05.1998);
- ozon qatlamini emiruvchi moddalar bo‘yicha Monreal protokoliga Kopengagen tuzatishi (01.05.1998);
- tabiiy muhitga ta‘sir ko‘rsatuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa yozuv maqsadlarda foydalanishni taqiqlash to‘g‘risida konvensiya (26.05.1993);
- iqlimni o‘zgarishi to‘g‘risida Doiraviy (Ramochnyy) konvensiya (26.06.1993 yil) (Kioto protokoli, 1999 yil);
- jiddiy qurg‘oqchilikni va/yoki sahroga aylanish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Afrikada sahroga aylanishiga qarshi kurash bo‘yicha konvensiya (31.08.1995 yil);
- xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib o‘tish va ularni yo‘qotishni nazorat qilish to‘g‘risida Bazal konvensiyasi (22.12.1995);
- biologik xilma-xillik to‘g‘risida konvensiya (06.05.1995);
- butun jahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya (01.07.1997);
- yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan yovvoyi flora va faunaning turlari bilan xalqaro savdo to‘g‘risida konvensiya (01.07.1997);
- ko‘chib yuruvchi yovvoyi hayvon turlarini saqlash bo‘yicha konvensiya (01.05.1998);



- xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan asosan suvda suzuvchi hayvonlar yashash joylari hisoblangan suv-botqoq joylar to'g'risida Ramsar konvensiyasi (30.08.2001) va boshqa xalqaro huquqiy ekologik normalarida o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishni asosiy nuqtalaridan biri inson huquqlari ekanligini uqtirib, "Inson huquqlari g'oyasi Oliy Majlis faoliyatida doimiy o'rin egallashi kerak. Har qanday qonun harakat sohasidan qat'i nazar, ishlab chiqilayotgan va muhokama etilayotgan paytda insonning asosiy, buzilmas huquqlariga qanchalik mos kelishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Ana shu tamoyillarga og'ishmay rioya etgan holdagina biz chin ma'nodagi huquqiy adolatparvar davlat qurishga erisha olamiz"<sup>20</sup> – deb ta'kidlagan edi. Mazkur g'oya bevosita fuqarolarning ekologik huquqlarini va uni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, inson va fuqarolarning ekologik huquqlarini va uni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Umuman olganda, inson va fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlash va muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Er kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Tbiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi, "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'rmon to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi, "CHiqindilar to'g'risida"gi, "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulotda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi, "Radiatsiya xavfsizligi to'g'risida"gi, "Er kadastri to'g'risida"gi, "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi, "YONG'in xavfsizligi to'g'risida"gi, "Madaniy meros ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi, "Arxeologiya merosi ob'ektlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi ekologik qonunlari va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadi. SHuningdek, ushbu qonun talablarini buzganlik uchun amaldagi qonunlarga ko'ra, intizomiy, ma'muriy, fuqarolik va jinoiy javobgarlik choralari ham qo'llaniladi.

Xullas, fuqarolarning ekologik huquqlarini kafolatlash va ularni muhofazalash davlat ekologik siyosatida alohida muhim ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayonda quyidagi masalalarga e'tibor berish o'rinli deb hisoblaymiz: birinchidan, inson va fuqarolarning ekologik huquq va manfaatlarini kafolatlash sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish; ikkinchidan, uchinchidan, inson va fuqarolarni qulay atrof muhitga bo'lgan huquqlariga konstitutsiyaviy maqom berish; uchinchidan, to'rtinchidan, inson va fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining "Ekologik nazorat to'g'risida"gi, "Ekologik audit to'g'risida"gi, "Ekologik sug'urta to'g'risida"gi va boshqa qator qonunlarini qabul qilish ham ijobiy natija beradi, degan umiddamiz.

### **3. KONSTITUTSIYA ASOSIDA YOSHLARGA EKOLOGIK-HUQUQIY TA'LIM VA TARBIYA BERISH**

Mustaqillik yillarida ekologik muammolarning hal etilishi fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ekologik-huquqiy bilimi, ongi, ma'naviyati va madaniyatini zamon talabi darjasida rivojlantirish va shakllantirib borishni taqozo etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 mln. 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 17 mln. 80 ming nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir"<sup>21</sup>.

SHu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasi "... har kim bilim olish huquqiga ega" ekanligi, 50-moddasida "fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburligi", 55-moddasida "Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan

oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir”<sup>22</sup>, - deb ko‘rsatilishi hozirgi paytda barcha fuqarolarni, jumladan, yoshlarni ekologik-huquqiy tarbiyalash jarayonini mustahkamlashni nazarda tutib, ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiya davlat siyosatining ustivor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

YUrtboshimizning ta‘biriga ko‘ra, “...holisona tahlil, islohotlarimizning mantiqiy va izchilligi, ularning eng zamonaviy bozor normalariga muvofiqligini baholash iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada chuqurlashtirish, takomillashtirish va liberallashtirish bo‘yicha jiddiy ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda”<sup>23</sup>.

Ushbu g‘oya hozirgi sharoitda ekologik huquqiy ta‘lim va tarbiya masalasiga ham bevosita asosiy manba bo‘lib, uni kelajakdagi istiqbolini belgilab beradi.

Ayniqsa, yurtboshimiz tashabbuslari bilan e‘lon qilingan “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi<sup>24</sup>da, “o‘quv jarayoniga yangi axborot va pedogogik texnologiyalarni joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko‘rsatadigan o‘qituvchi va domlalariga e‘tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda ta‘lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko‘tarish diqqatimiz markazida bo‘lishi darkor”, - deb e‘tirof etilishi barchamizga ekologik huquqiy ta‘lim-tarbiya sohasini olib borishda katta mas‘uliyat yuklaydi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ekologik muammolarni hal etish va ularni oldini olishda, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishda yoshlarning ekologik-huquqiy ta‘lim va tarbiyasini yanada takomillashtirib borish lozim.

Xususan, dastlab “O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 21 noyabrdagi O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 13 iyunidagi “YOshlarning huquqiy ta‘limini takomillashtirishning Kompleks dasturi to‘g‘risida”gi 296-sonli Qarori Prezidentimizning 1997 yil 25 iyunda “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlar tizimini takomillashtirish jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi farmoniga<sup>25</sup> ko‘ra bu borada olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlardan biri etib belgilangan.

SHuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”<sup>26</sup> ning qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 29 maydagi 235-sonli “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”<sup>27</sup>gi qarori, Oliy Majlisning IX-sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi “Ta‘lim to‘g‘risida”<sup>28</sup>gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”<sup>29</sup>da, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta‘lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to‘g‘risida”gi 1997 yil 6 oktyabr Farmoni, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi<sup>30</sup> 2001 yil 4 yanvar farmoyishi alohida ahamiyatga ega.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 fevraldagi qaroriga ko‘ra “YOshlar yili” davlat dasturiga binoan, barkamol avlodni shakllantirish, ekologik sog‘lom muhitni ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 19 sentyabrdagi 212-sonli qaroriga asosan “2008-2012 yillarda O‘zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari Dasturi”<sup>31</sup>, 2009 yil 26 yanvardagi “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili” davlat dasturi<sup>32</sup>, 2010 yil 27 yanvardagi “Barkamol avlod yili” Davlat dasturlari<sup>33</sup>, 2011 yil “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”<sup>34</sup> davlat dasturi to‘g‘risidagi qarorini qabul qilinganligi yoshlarning ekologik huquqiy ta‘lim tarbiyasiga, ularning ekologik huquqiy ma‘naviyat va madaniyatini oshirishga, ijtimoiy ongining yuksalishiga qaratilgandir.

SHuning uchun ham yoshlarimiz amaldagi barcha qonunlarimizni, jumladan, ekologik va agrar qonunlarni yaxshi bilishlari, ularning talablariga og‘ishmay amal qilishlari, qonun talablarini vijdonan bajarishlari, amaliyotga to‘g‘ri tadbir qila olishlari lozim. Zero, mazkur talablarni bajarish uchun yoshlarning ekologik-huquqiy ongi va tafakkurini, ekologik-

huquqiy ma'naviyati va madaniyatini, ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiyasini oshirmasdan erishish qiyin. SHu ma'noda mazkur risola yoshlar tarbiyasining ekologik-huquqiy, valeologik va akmeologik tomonlarini yoritishga bag'ishlanadi. Zero, demokratik-huquqiy davlatni qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bosh maqsadimiz ekan, demak, ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiyani mukammal, zamonaviy tizimini yaratish va xalqaro andozalar asosida olib borish bugungi kundagi ustuvor vazifalarimizdan biridir.

SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko'ra, 2008 yil 2 avgustda mamlakatimiz ekolog olimlar, shu yo'nalishda ish olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari va faol jamoatchilikning tashabbusi asosida O'zbekiston ekologik harakatning tuzilganligi bugungi davrning dolzarb talabi hisoblanib xalqaro andozalarga mos keladi.

E'tirof etish o'rinliki, 2008 yil 2 avgustda Ekoharakatning tashkil etilganligi mamlakatimizda ekologik jamoat birlashmalari rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi. Ayniqsa, yurtimizda faoliyat yuritayotgan ekologik jamoat birlashmalari Ekoharakat timsolida atrof-tabiiy muhit va inson salomatligi muhofazasi bo'yicha barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish hamda safarbar etish imkoniyatiga ega bo'lindi. Bunda yoshlarimizning faol ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz fuqarolari, jumladan yoshlarimiz O'zbekiston ekologik harakatini siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarini amalga oshirish jarayonida ekologik yondashuv mamlakatning barqaror rivojlanishida eng muhim omil bo'lib hisoblanishiga ishongan, atrof-muhit va inson salomatligi haqidagi g'oyalarni qo'llab-quvvatlovchi hamda ularni amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlarini birlashtirishga chaqirilgan ommaviy jamoat harakati sifatida bilishlari lozim.

Ayniqsa, Oliy Majlis tomonidan Tabiatni muhofaza qilish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2008-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari dasturi to'g'risida"<sup>35</sup>gi qarori talablarini mamlakatimizda ijro etilishi nuqtai nazaridan olibborilayotgan tadbirlari, ishlari ham tahsinga sazovordir. YOshlarimiz ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya jarayonida yuqoridagi holat bilan bog'liq bo'lgan bilimlarini boyitishlari va o'z faoliyatlarida kengroq qo'llashlari mazkur talablarni bajarishga yordam beradi.

Endilikda yoshlarga "huquqiy ta'lim va tarbiya"ni hamda "ekologik huquqiy ta'lim-tarbiya" berish zamon talabi bo'lib ta'lim va tarbiya institutning alohida subinstitutlaridan biri bo'lib kelmoqda.

Bu esa, barkamol avlodni shakllantirishda yangi-yangi talablarni amalga oshirishni taqazo etadi. Jumladan, Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "... o'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha qilib aytganda, ta'lim-tarbiya tuzilishini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor"<sup>36</sup>. bu esa, mamlakatimiz yoshlarga ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyani olib berishni takomillashtirishni taqazo etadi.

Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 9 dekabrda "Barkamol avlod yili davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy reja tadbirlar to'g'risida"<sup>37</sup>gi farmoyishi hamda 2010 yil 27 yanvardagi "Barkamol avlod yili davlat dasturi to'g'risida"gi qarori mazkur sohadagi muammolarni echishning asosiy huquqiy manbai bo'ldi.

SHu ma'noda alohida ta'kidlash o'rinliki, yuqoridagi huquqiy – normativ hujjatlar mamlakatimiz yoshlariga pog'onama-pog'ona ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyani zamon talabi darajasida olib borishni taqazo etadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod yili" davlat dasturi to'g'risidagi qarorida ko'rsatilgan quyidagi asosiy vazifalar yoshlarga ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya berishning asosiy yo'nalishini belgilab beradi.

Bolalar va yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga, ularni barkamol rivojlantirishning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish, amaldagi qonunchilik hamda me'yoriy hujjatlarga zamon talablariga mos o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.

“Sog'lom ona – sog'lom bola” dasturini izchil amalga oshirish asosida sog'lom avlodni voyaga etkazish borasidagi chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish, onalar va bolalarning reproduktiv salomatligini muhofaza qilish tizimini ustuvor rivojlantirish, tibbiy xizmat moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, sog'lom bolalar tug'ilishi va ularni tarbiyalash bilan bog'liq masalalar yuzasidan aholi o'rtasida tushuntirish hamda maslahat ishlarini kuchaytirish;

tayyorlanayotgan mutaxassislariga real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi mavjud talabga alohida e'tibor qaratgan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish sohasidagi moddiy-texnika bazani yanada mustahkamlash, undan oqilona va samarali foydalanishni ta'minlash, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv uslubiy adabiyotlarni takomillashtirish;

ta'lim jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni, elektron darsliklar, multimediya vositalarini keng joriy etish orqali mamlakatimiz maktablarida, kasb-hunar kollejlari, litseylari va oliy o'quv yurtlarida o'qitish sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalarining o'quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi bilan mustahkamlash, shuningdek, o'qituvchilar va murabbiylar mehnatini moddiy hamda ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha samarali tizimni yanada rivojlantirish;

zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli va keng formatli telekommunikatsiya aloqa vositalari hamda Internet tizimini yanada rivojlantirish, ularni har bir oila hayotiga joriy etish va keng o'zlashtirish;

yosh avlodni jismonan barkamol etib tarbiyalash, bolalar sportini rivojlantirish sohasida, yoshlarni, ayniqsa, qishloq qizlarini sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yangi sport majmualarini, stadionlar va inshootlarni qurish, ularni zamonaviy sport anjomlari va jihozlari bilan ta'minlash, yuqori malakali ustoz va murabbiylar bilan mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni izchil kuchaytirish;

iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning muhim yo'nalishi, aholi va o'rta sinf mulkdorlari daromadlarini shakllantirish asosi bo'lgan kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, bu sohadagi mavjud muammolarni hal etish, yoshlar, avvalombor, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini, ayniqsa, qishloq joylarda tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish uchun sharoit yaratish;

ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoit yaratishga doir kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

yosh oilalarga g'amxo'rlik qilish ishlarini kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash, jismonan va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar hamda Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash borasida jamiyatning muhim bo'g'ini bo'lgan sog'lom va mustahkam oilani shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

yoshlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ularni ichkilikbozlik va giyohvandlik illatlaridan, boshqa turli halokatli tahdidlar hamda biz uchun yot bo'lgan diniy va ekstremistik ta'sirlardan tuban “ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoya qilishga doir kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish<sup>39</sup>.

Demak, Konstitutsiya talablariga ko'ra, yoshlarga ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Oilada huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borilishi yoshlarni tabiatga, atrof tabiiy muhit va uning boyliklarini sevishtirishga, muhofazalash hamda bundan oqilona foydalanishdagi dastlabki ekologik huquqiy ongini, tafakkurini hamda tushunchalarini shakllantirishga yordam beradi.

2. Maktabgacha bo'lgan muassasalarda ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borilishi esa, yosh bolalarni oilaga nisbatan ekologik huquqiy ongi, tafakkurini ancha shakllanganidan dalolat beradi. Bu yoshda bolalarimiz o'z qilmish oqibatlarini yaxshilik va yomonlikka yo'naltirilganligini tushuna oladilar. SHuning uchun ham tarbiyachilar bu yoshdagi bolalarga nisbatan ona tabiatga va atrof tabiiy muhitga nisbatan yaxshi xislatlarni namoyon etishga, jonli tabiat boyliklarini ko'rsatib ularni asrashga yo'naltirish sodda kitob va rasmlar orqali ularga ijobiy ta'sir qilishga ko'maklashishlari lozim bo'ladi.

Zero, bu jarayon oiladagi ijobiy pedogogik-psixologik holatlarni davomi bo'lib, uni konstitutsion mustahkamlashga yordam beradi.

3. Maktab davrida yoshlarimiz ancha mukammal jarayon, ya'ni, ular "tabiat, jamiyat va inson" o'rtasidagi mutanosiblik holatida o'zlarini aniq tushunadilar. Ular 1-9 sinflarda Konstitutsiya talablariga ko'ra olgan boshqa soha bilimlarini ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya bilan bog'lab olib boradilar. Ayniqsa, bu yoshdagi avlodlarimiz Konstitutsiya va ekologik qonunlar talablarini o'rganadilar. Bu davrda ularni ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyasi, atrofdegilar nazarida ijobiy hamda salbiy ko'rinishida ham namoyon bo'lishi seziladi. Masalan, yurtimiz bo'yicha hozirgi paytda 1 ming 957 ta maktab qurilib, rekonstruksiya qilingan bo'lsa, ularning 1 ming 622 tasi aynan qishloq joylaridadir. Demak, yoshlarga ekologik huquqiy ta'lim va tarbiyani olib borishda aynan demografik, migratsion, iqtisodiy-hududiy (geografik) va ekologik xususiyatlar ham inobatga olinishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

4. Konstitutsiyaga muvofiq, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda olib boriladigan ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya jarayoni, yoshlar hayotida asosiy hal qiluvchi bosqichlardan biridir. Mamlakatimizda 2009 yilda barpo etilgan 214 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejining 170 tasi qishloq tumanlarida bunyod etilishi hamda zamon talabi darajasidagi rekonstruksiya qilinishi yoshlarimizga yangi zamon talabi doirasida ekologik huquq ta'lim va tarbiya jarayonini egallashga yordam beradi.

Bu davrda yoshlarimiz O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida", "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza to'g'risida", "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida", "O'rmon to'g'risida" va "CHiqindilar to'g'risida"gi ekologik qonunlar va Er kodeksining mohiyati hamda mazmunini kengroq o'rganadilar. SHuningdek, yoshlarimiz bu davrda "Ekologiya huquqi" va "Qishloq xo'jalik huquqi" fanlarini ham belgilangan soat hajmida o'qiydilar. Bu davrda talaba yoshlarimiz olgan bilimlarini amaliyot bilan bog'lash jarayoniga ham ega bo'ladilar.

5. Oliy o'quv muassasalarida yoshlarimiz bevosita aniq yo'nalish va mutaxassisliklarga ega bo'lib, ekologik huquqiy bilim saviyalarini o'z sohalari asosida o'zlashtiradilar. Bugungi kunda Respublikamizda 75 ta oliy o'quv yurtlari bo'lib, 2008-2009 o'quv yilida 52 mingdan ziyod bakalavr va 8312 nafar magistrlar bitirib ular tomonidan biologik – ekolog, pedagog – ekolog, yurist – ekolog, ekolog – texnolog, ekolog – injener, ekolog – ximik, ekolog – auditor va boshqa mutaxassislar tayyorlashmoqdalar. Oliy o'quv yurt talabalariga ancha keng sohadagi bir qator fanlar o'qitilmoqda. Masalan, "Ekologiya", "Ekologiya huquqi", "Qishloq xo'jalik huquqi", "Suv huquqi", "Er huquqi", "O'rmon huquqi", "Kon huquqi", "Atrof tabiiy muhit muhofazasi", "Ekologik huquqiy javobgarlik" va "Xalqaro ekologiya huquqi" kabi fanlar shular jumlasidandir.

6. Magistratura va aspirantura jarayonida aniq mutaxassis bo'lgan, chuqur ekologik huquqiy bilim saviyaga, ma'naviyat va madaniyatga ega bo'lgan yoshlarimiz hayot va ilm-fan yo'lidagi ko'plab ijobiy ishlarni amalga oshirib, ilm-fan sohasida magistrlik va nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladilar. Masalan, TDYUIDa alohida ushbu soha bo'yicha magistrlik yo'nalishi va 12.00.06. tabiiy resurslar huquqi; agrar huquq; ekologik huquq yo'nalishi bo'yicha aspiranturada o'qib nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishlari mumkin.

YUqoridagi holatlar shuni ko'rsatmoqdaki, Konstitutsiya talablariga ko'ra, yoshlarga doimiy ravishda ekologik huquqiy ta'lim tarbiyani olib borishda quyidagilarga e'tibor berish o'rinlidir:

birinchidan – yoshlarda ekologik huquqiy ta'lim tarbiyani uzluksizligiga, chambarchas olib borilishi va o'qitilishiga erishish;

ikkinchidan – amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlariga "YOshlarga ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya berish" bilan bog'liq alohida bob va moddalar kiritish;

uchinchidan – bu sohada tegishli vazirlik, qo'mita va tegishli korxonalar, muassasalar, tashkilotlarning o'zaro hamkorligini kuchaytirish;

to'rtinchidan – huquqshunos va ekologiya mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talaba-yoshlarimizga "Ekologik-huquqiy ta'lim-tarbiya" maxsus kursini o'qitish va joriy etish;

beshinchidan – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qabul qilingan ekologik va agrar qonun talablarini hamda ularni mohiyatini yoshlarimizga va aholiga kengroq tushuntirish;

oltinchidan – talaba-yoshlarga ekologik huquqiy ta'lim va tarbiya berishda akmeologik hamda valeologik xususiyatlarni inobatga olish;

ettinchidan – Konstitutsiya talablariga ko'ra, xalqaro standartlarga mos har tomonlama ekologik-huquqiy bilim bera oladigan zamonaviy o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish ham maqsadga muvofiqdir.

Xullas, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq muammolarni konstitutsiyaviy talablarini bajarish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq talablarni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz orasida kengroq tushuntirish, konstitutsiyaviy talablarga ko'ra qabul qilingan ekologik va agrar qonunlar mohiyatini ham kengroq o'rganish, targ'ib qilish hamda o'z hayotimizga kengroq qo'llashimiz, ekologiya sohasidagi konstitutsiyaviy talablarni mustahkamlaydi va xalqaro andozalarni o'zida mujassam etadi.

### **Nazorat savollari**

1. Konstitutsiyada atrof tabiiy muhitni ekologik-huquqiy muhofaza qilish
2. Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik huquqlarini muhofaza qilinishi va kafolatlanishi
3. Konstitutsiya asosida yoshlarga ekologik-huquqiy ta'lim va tarbiya berish
4. Transchegaraviy ekologik muammolar
5. Oilada huquqiy ta'lim tarbiya

### **3-MA'RUZA**

#### **Mavzu: EKOLOGIYA SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA IQTISODIY – HUQUQIY CHORA-TADBIRLAR.**

##### **Reja**

- 3.1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasi: prinsiplari, shakl va funksiyalari
- 3.2. Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqi tushunchasi va uning asosiy belgilari
- 3.3. Ekologiya sohasidagi boshqaruvning iqtisodiy chora-tadbirlari.
- 3.4. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining tizimi va ularning vakolatlari

### **3.1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasi: prinsiplari, shakl va funksiyalari**

Ekologiya davlat boshqaruvi hamda nazoratini kuchaytirish, tashkil etish va uni olib borish davlatimiz ekologiya siyosatining asosini tashkil etadi. Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi masalasi alohida ilmiy ish ob'ekti sifatida keng o'rganilgan va "Tabiatni muhofaza qilish to'hrisida"gi qonunda ham o'z aksini topgan. Mustaqillik davrida chop etilgan bir qator ilmiy ishlar, maqolalar va darsliklar ekologiya sohasida davlat boshqaruvi muammosi o'zida mujassamlashtirdi.

Sobiq Ittifoq davrida ma'muriy-buyruqbozlik ushbu sohaga hamo'zining salbiy ta'sirini ko'rsatgan edi. Hozirgi sharoitda ko'p mulkchilikning xususiyatlari inobatga olinib ekologiya sohasida davlat boshqaruvi amalga oshirilmogda. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi va inson o'rtasidagi mavjud muvozanatni saqlashga qaratilgan, tabiat resurslaridan foydalanuvchi sub'ektlarning o'z huquq va majburiyatlarini vaqtida amalga oshirishlari, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish tartibi bilan bevosita bog'liqdir.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining ob'ekti –insonning yashashi uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish borasidagi faoliyati va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ularni muhofaza qilishdir. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvining maqsad tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza bilan bog'liq tadbirlarni o'tkazish, bajarilishini ta'minlash, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi ekologik qonunlarga qat'iy rioya etish, inson hayoti uchun qulay ekologik muhit yaratish mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish hamda tabiat boyliklarini kelajak avlod uchun hamda davlatimizn ravnaqi uchun ko'z qorachig'idek saqlashdan iborat bo'lishi kervk.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi afzalligini ta'minlash bir qator prinsiplarga amal qilishni ham taqozo etadi. Bular:

- inson hayoti va uning sog'lig'ini ta'minlash, buning uchun tabiat obe'klarini saqlash va tiklab borish

- tabiat resurslariga nisbatan davlat mulkchiligi;

- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida ekologik muammolarni hal qilishga davlatning alohida e'tibor berishi;

- ekologiya sohasida davlat boshqaruvini olib borish, tashkil etish va bajarish jarayonida turli samarali iqtisodiy metodlardan foydalanish lozimligi;

- ekologik muammolarni hal qilishda keng jamoatchilik, fuqarolar, jamoat tashkilotlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqaruv organlarini jalb etishlik;

- demokratik sentralizm va qonuniylik;

- kelajak avlod oldida ekologik muammolarni hal etishdagi javobgarlik kabi va boshqa asosiy xususiyatga ega bo'lgan prinqiylari mavjud. Bulardan tashqari ushbu sohada qonunchilik, rejalashtirish va bo'yosunish kabi umumiy prinqiylarni ham o'z ichiga oladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi uch xil shakl asosida tashkillashtiriladi:

1) Huquq ijodkorligi- ekologiya sohasini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan normativ –huquqiy xujjatlarni tayyorlash va qabul qilish;

2) huquqni tadbiiq etish – davlat tomonidan aniq tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilingan normativ xujjatlarni boshqarish jarayonida qo'llashni ta'minlash;

3) huquqni muhofaza qilish- davlatning ekologiya sohasini boshqarish va bu bilan bog'liq bo'lgan boshqa talablarni o'z vaqtida bajarmaganlik uchun tegishli javobgarlik belgilashi orqali amalga oshiriladi.

Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini tashkil etishning alohida metodlari mavjud bo'lib, bunda albatta ko'p mulkchilik va sub'ektlarning ushbu sohadagi xususiyatlari inobatga olinadi. Masalan, ko'rsatmaning majburiyiligi, chiqarilgan buyruqlarning davlat organlari tomonidan ruxsat berilishi (ekolik ekspertiza uchun) va boshqalar. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish jarayoni davlat boshqaruvini mustahkamlovchi bir qator funksiyalarga tayanadi. Bular:

- atrof tabiiy muhit sifatining normativlari va standartlari;
- ekologik monitoring mavjudligi;
- tabiat resurslariga nisbatan ekologik kadastrning yuritilishi;
- ekologik ekspertizaning o'tkazilishi;
- ekologik nazoratni tashkillashtirish va olib borish;
- ekologik to'lov va soliqlarni undirish;
- ekologiya sohasidagi qonunlarni buzganlik uchun javobgarlikka tortilishi nazarda tutiladi.

### **3.2. Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqi tushunchasi va uning asosiy belgilari**

Tabiat resurslari-er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, o'rmon, atmosfera havosi va boshqalarga nisbatan mulkchilik eng muhim siyosiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida, "Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralarni umummilliy boylikdir ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir",-deb ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy –davlat va ma'muriy –hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralarning tizimini belgilaydi hamda tabiat boyliklaridan mustaqil foydalanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining moddiy asosi uning mulkidir.

Respublika hududidagi er, er osti boyliklari, suv va o'rmonlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiiy va boshqa resurslar, respublikaning ma'naviy boyliklari O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi, mulk hisoblanadi" (7-modda)

Oliy Majlisning sessiyalarida qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (5-m), "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi (3-m), "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi (4-m), "Er osti boyliklari to'g'risida"gi (3-m), "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (3-m), "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi (1-m), "Yer kodeksi"ning (16-m), "O'rmon to'g'risida" (4-m) qonunlar tabiat resurslariga nisbatan belgilangan mulkchilikni qonun doirasida hal etishga qaratilgan.

Shu bilan birga tabiiy resurslarga nisbatan mulkchilik huquqining quyidagi belgilari ham mavjud.

1. Tabiiy resurslarning ajralmasligi (o'zaro bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi, birligi)- bunda ma'lum bir tabiiy ob'ektiv mulk sifatida boshqa bir ob'ekt4tdan ajratib bo'lmaydi. Masalan, yerdan yer osti boyligini, suvdan baliqni ajratib bo'lmaydi. Zero, suv ob'ektlariga mulk huquqi baliqqa mulk huquqidan ajralmasdir.

2. Tabiiy resurslarning bebaholigi yoki qiymatining yo'qligi-ayrim tabiiy ob'ektlar (tuproq, er qa'ri, bog', sun'iy-o'rmon, hayvonot va o'simliklar dunyosining evolyusion rivjlanishi va kishilarning zaruriy mehnat faoliyatining mujassamlashgan holdagi natijasi ekanligi, uning aniq bir qiymatini belgilab olish imkoniyatini bermasligi. Masalan, bir paytning o'zida er ko'chmas mulk hamda tabiiy ob'ektning ajralmas bir bo'lagi bo'lib qoladi.

3. Tabiiy resurslarning moddiyligi – o'zining o'ktiv ko'rsatkichlariga binoan tabiiy resurslarni mulk sifatida o'zlashtira olishi hki undira olmasligi. Masalan, atmosfera havosi, fazoviy elementlar, iqlim resurslari va hakoza.

Tabiiy resurslarga nisbatan mulk huquqining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib taxminan quyidagi turlarga bo'lish mumkin.

1. Umumsiyosiy tabiiy resurslar- davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining vakolat doirasiga kiruvchi mudofaa zaruriyatlari, xavfsizlikni ta'minlash, davlat chegaralarini qo'riqlash va shunga o'xshash siyosiy vazifalarni bajaruvchi tabiat ob'ektlari, er uchastkalari yoki suv manbaalari kiradi.

2. Umumiqtisodiy tabiiy resurslar – sanoat, transport, energetika, kosmik tizimlar, yadro va shunga o'xshash boshqa iqtisodiy zarur ob'ektlar va er uchastkalari bo'ladi.

3. Umumeologik tabiiy resurslar – bularga ekologik vazifalarni bajaruvchi alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, er uchastkalari, suv manbaalari, akvatoriyalari va boshqa tabiiy ob'ektlar kiradi.



Ushbu kategoriyaga tarixiy va tabiiy yodgorliklar o‘simlik va hayvonot dunyosi, alohida tabiiy ob‘ektlar-tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan yodgorliklar, noyobturdagi daraxtlar, mo‘jizaviy sharsharalar, tabiiy va tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan cho‘qqi –tosh, nodir er osti boyliklari va boshqa ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan topilmalar kiradi.

### **3.3. Ekologiya sohasidagi boshqaruvning iqtisodiy chora-tadbirlari.**

Mamlakatimizda ekologiya sohasida boshqaruvni takomillashtirish- ekologik –iqtisodiy metodlarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Ularga ekologik to‘lovlar, ekologik soliq, ekologik sug‘urta, tabiatni muhofaza qilish tizimidagi rag‘batlantirish kabilar kiradi. Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to‘lovlr-tabiiy resurslardan maxsus foydalanganlik uchun va tabiat ob‘ektlarini qayta tiklash hamda muhofaza qilish choralari qo‘llash maqsadida soliq, ijara va normativ baholar shaklida davlat tomonidan foydalanuvchilardan undirib olinadigan to‘loalardir.

Tabiatdan maxsus foydalanganlik uchun to‘lovlar, ularning mohiyati va mazmuni, to‘lash, undirish tartibi hamda boshqa huquqiy asoslari “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 34-moddasida o‘z ifodasini topgan. Atrof tabiiy muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganlik va oqizganlik hamda ishlab chiqarish va iste‘mol chiqindilarini joylashtirganlik uchun to‘lov tabiatni muhofaza qilish jamg‘armasiga kelib tushadi.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini pul bilan ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi va uning joylardagi idoralari huzurida tabiatni muhofaza qilish respublika jamg‘armalar tashkil etiladi. Tabiatni muhofaza qilish jamg‘armalarini tuzish va ulardan foydalanish tartibi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Tabiatni muhofaza qilish jamg‘armalari to‘g‘risidagi Nizom bilan belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ekologik soliqlar, “Soliq kodeksi” himda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va davlat Soliq qo‘mitasi Adliya vazirdigi tomonidan 1997 yil 26 dekabrda tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Ekologiya solig‘ini hisoblash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga” bilan tartibga solinadi. Mazkur kodeksning 110-moddasiga asosan tovarlar ishlab chiqaruvchi, ishlar bajaruvchi, xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar ekologiya solig‘i to‘lovchilaridir. Ekologiya solig‘i bir foizli stavka bo‘yicha to‘lanadi.

Soliq kodeksining 113-moddasiga binoan quyidagilar ekologik solig‘idan ozod qilinadilar -“Nuroni” jamg‘armasi va uning korxonalari – bo‘shatib olinayotgan mablag‘lardan jamg‘armaning Nizomda belgilangan vazifalarini bajarish uchun foydalangan taqdirda; -ishlovchilar umumiy miqdorining kamida 50 foizi nogironlar bo‘lgan yuridik shaxslar . Savdo, vositachilik, ta‘minot, sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug‘ullanayotganlar bundan mustasno.

O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning tifloslanishi tabiiy resurslar sifatining yomonlashuvi oqibatida zarar etishi hollari nazarda tutib korxonalar, muassalar va tashkilotlarning mol-mulki ixtiyoriy hamda majburiy sug‘o‘rta qilinadi.

SHuningdek, ekologiya sug‘urtasining tartibi va shartlari O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida belgilab qo‘yilgan. SHunisi e‘tiborga sazovorki, tabiatni muhofaza qilish tizimida rag‘batlantirish katta ahamiyatga ega. Amaldagi “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunning 37-moddasi aynan shu masalaga bag‘ishlangan. Unga asosan tabiatdan oqilona foydalanish, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishni rag‘batlantirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

-korxonalar, muassalar, tashkilotlar va fuqorolar tabiat resurslaridan oqilona foydalanish va tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirganlari taqdirda ularga soliq solishda imtiyozlar berish;

-tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va tabiat muhofazasini ta‘minlash borasidagi chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun imtiyozli shartnomalarda qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar (ssudalar) berish;

Asosiy ishlab chiqarish fondlari uchunyuqori amortizatsiya normalari belgilash;

Tabiatni muhofaza qilish jamg'armalari mablag'larining bir qismini ifloslantiruvchi moddalar chiqarish oqizishni kamaytirish chora-tadbirlarini ro'yobga chiqarish maqsadida korxonalar, muassalar, tashkilotlar va ayrim shaxslarga foizli qarzlarni sifatida shartnoma asosida berish nazarda tutiladi.

### **3.4. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining tizimi va ularning vakolatlari**

O'zbekiston Respublikasida ekologik muammolarni hal etish –davlat organlarining birgalikda va chambarchas ish olib borishini taqozo qiladi. Konstitutsiyaning 11-moddasiga asosan “O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatigi bo'linishi prinsipiga asoslanadi”.

Mazkur ko'rsatma shundan dalolat beradiki, yuqoridagi, yuqoridagi organlar o'z huquqiy vakolatlari jarayonida ekologik muammolarni hal etishda davlatning ekologik siyosatini amalga oshiradilar. “Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonuniga ekologiya sohasida davlat boshqaruviga katta e'tibor berilib, alohida II-BOB “Davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarining tabiatni muhofaza etishga taalluqli huquqiy munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolotlari” (7-11 moddalar) deb nomlanadi.

Davlat boshqaruv organlarini ekologiya sohasidagi vakolatlariga qarab quyidagi tizimga bo'lish mumkin.

Umumiy va maxsus

Umumiy davlat boshqaruvi organlariga asosan:

- a) Prezident va Prezidentlik devoni
- b) Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati;
- v) Vazirlar Mahkamasi;
- g) Qoraqalpog'iston Respublikasi;
- d) Jo'qorg'i Kengesi;
- e) Mahalliy hokimiyatlar kiradi.

Prezident ekologiya sohasidagi ishlarni amalga oshirish jarayonida Konstitutsiyaning 93-moddasida ko'rsatilgan yoki o'z vakolatiga kiradigan boshqa masalalarni hal etadi. SHuningdek, Prezident o'z vakolati doirasida:

- 1) Ekologiya sohasidagi qonunlarni imzolaydi va shunga oid farmon, farmoyish va qarorlar qabul qiladi;
- 2) Ekologik xavfsiz muhitni ta'minlash uchun zaruriy chora-tadbirlar ko'radi;
- 3) Oliy Majlis tasdig'iga Tabiatni muhofaza qilish qumitasining raisi lavozimiga nomzod taqdim etadi;
- 4) Ekologik nqiroz yoki talofat ko'rgan hududlar yoki butun xudud bo'yicha favqulodda holat joriy etadi;
- 5) Respublika ichki va xalqaro ekologik siyosatiga doir vakolatlarni amalga oshiradi va boshqalar.

“Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida”gi qonunning 7-moddasiga asosan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlariga quyidagilar kiradi.:

- 1) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilash;
- 2) Davlat ekologiya dasturlarini tasdiqlash;
- 3) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi respublika qonun xujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilish;
- 4) Hududlarni favqulodda ekologik holat, ekologik ofat va ekologik halokat zonalari deb e'lon qilish, bunday zonalarning huquqiy rejimi va jabrlanganlar maqomini belgilash;
- 5) Tabiatni muhofaza qilishga taalluqli qonunlar ijrosi ustidan nazoratni muvofiqlashtirib borish;
- 6) Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovning chegara miqdorlarini belgilash, to'lovlarni undirish bo'yicha imtiyozlarni belgilash;
- 7) Qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal qilish nazarda tutiladi.

Amaldagi qonunchilikka asosan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning davlat boshqaruvini mamlakat qonunlari va boshqa normativ xujjatlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

Vazirlar Mahkamasi tabiatni muhofaza qilish sohasida:

- 1) Tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosat yuritish;
- 2) Tabiat resurslaridan foydalanishni tartibga solish;
- 3) Tabiiy resurslarga nisbatan tabiat kadastr yuritilishi tartibini belgilash va bunday kadastr yuritilishini ta'minlash, respublika ahamiyatini molik tabiiy resurslarning zahiralari tasdiqlash;
- 4) Ekologik jihatdan tang vaziyatlar, tabiiy ofatlar va falokatlarning oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish;
- 5) Tabiiy ofatlar va yirik halokatlarning oqibatlarini tugatish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- 6) Tabiiy resurslardan foydalanganlik, atrof tabiiy muhitning ifloslanganlik, chiqindilar, zarali ta'sir etuvchi boshqa narsalarni joylashtirganligi uchun to'lov tartibini, shuningdek, tabiiy resurslardan foydalanish, chiqindilar joylashtirish limitlarini belgilash;
- 7) Ekologiya ta'limi va tarbiyasi tizimini yaratish hamda uning amal qilishini ta'minlash;
- 8) Tabiatdan alohida tartibda foydalanadigan hududlarning chegaralarini, tabiatni muhofaza qilish va xo'jalik faoliyati rejimlarini tasdiqlash;
- 9) tabiatni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish;
- 10) O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlarida nazarda tutilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirish ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakolat doirasiga kiradi.

SHuningdek, tabiatni muhofaza qilish sohasida davlat hokimiyati va boshqaruvi mahalliy idoralarining vakolatlari ham mavjud:

- 1) O'z hududida tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilash, mintaqaning (hududning) ekologik dasturini tasdiqlash;
- 2) Tabiiy resurslarni hisobga olishva ularning ahvoliga baho berish, ekologik jihatdan zararli bo'lgan ob'ektlarni ro'yxatga olish;
- 3) Tabiatni muhofaza qilishga doir tadbirlarni moddiy-texnik ta'minlash;
- 4) Tabiiy resurslardan foydalanish huquqini beruvchi, sanoat yoki ro'zg'or chiqindilarini to'plash yoki ko'mib tashlashga ruxsatnomalarni belgilangan tartibda berish yoki ularni bekor qilish.;
- 5) Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun to'lovlar undirish;
- 6) Tabiatni muhofaza qilish ustidan nazorat o'rnatish, atrof - muhitga zarar etkazayotgan mahalliy ahamiyatga molik ob'ektlar faoliyatini vaqtincha yoki butunlay to'xtatish va qayta ixtisoslashtirish to'g'risida qarorlar qabul qilish ko'zda tutiladi.

**Maxsus tizimga** kiruvchi davlat organlari ekologiya sohasidagi tegishli vakolatlarga qarab **kompleks, tarmoqlararo** va **funksional** guruhlariga bo'linadi.

**1. Kompleks guruhlariga** kiruvchi davlat organlariga quyidagilardir.

- a) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi;
- b) Sog'liqni saqlash vazirligi;
- v) Davlat sanitariya nazorati;
- g) O'zgidromet;
- d) Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- e) O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi.

**2. Tarmoqlararo guruhga** quyidagilar kiradi:

- a) Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi;
- b) O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi;
- v) Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi;
- g) Ichki ishlar vazirligi;

d) O'zgeodezkadastr davlat qo'mitasi;

3. **Funksional guruhga** quyidagilar kiradi:

a) Ichki ishlar vazirligi;

b) Bojxona qo'mitasi;

v) Davlat solih qo'mitasi;

d) Sanoatda, konchilikda va maishiy sektorda ishlarni bexatar olib borishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi;

e) Davlat veterinariya nazorati;

j) Davlat arxitektura qurilish qo'mitasi va boshqalar.

YUqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan barcha vazirlik va qo'mitalar ekologiya sohasida boshqaruv va nazorat etish ishlarini amalga oshirish jaryonida O'zbekiston Respublikasi qonunlariga Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining barcha qarorlari hamda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan qabul qilingan qonun va qarorlarni bajaradilar, shuningdek o'z nizomlari va boshqa normativ hujjatlarga tayanib ish olib boradilar.

#### **Nazorat savollari**

1. Ekologiya sohasida davlat boshqaruvi tushunchasi: prinsiplari, shakl va funksiyalari

2. Tabiat resurslariga nisbatan mulk huquqi tushunchasi va uning asosiy belgilari

3. Ekologiya sohasidagi boshqaruvning iqtisodiy chora-tadbirlari.

4. Ekologiya sohasidagi davlat boshqaruvi organlarining tizimi va ularning vakolatlari

#### **4-MARUZA**

### **Mavzu: ATROF TABIIY MUHITNI XALQARO EKOLOGIK HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

#### **Reja**

Ekologiya huquqida atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan kelib chiqadi va xalqaro ekologiya huquqiga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur (prinsiplarni) tamoyillarni qo'llashdan asosiy maqsad, tabiiy muhitni va uning tamoyillarini saqlash hamda ulardan oqilona foydalanishdir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish tamoyillari, asosan BMT va uning atrof muhit bo'yicha o'tkazilgan Stokgolm konferensiyasi (1972), Evropada xavsizlikni ta'minlashning yakuniy hujjatida (Xelsinki, 1975) va Umumjahon tabiat xartiyasida hamda Rio-de-Jeneyro konferensiyasi (1992) qarorlarida aniq ko'rsatib berildi.

1. **Tabiatni muhofaza qilish va uning matanosibligini saqlash tamoyili.** Bunga asosan, barcha davlatlar tabiat va uning boyliklarini muhofaza qilishlari hozirgi va kelajak avlodlar farovonligini ko'zlab ekologik tadbirlarni birgalikda amalga oshirishlari lozim. Zero, tabiatni muhofaza qilish ishida barcha davlatlar bir – birlari bilan hamkorlik qilishlari zarur. Bunday ekologik xamkorliklar teng huquqli va o'zoro manfaat asosidagi shartnomalarga muvofiq amalga oshirilishi shart.
2. **O'z hududida tabiat boyliklariga nisbatan suverenitet prinsipi.** Ushbu prinsip dastlab BMT Bosh Assambleyasining 1962 yil 14 dekabrda qabul qilgan "Tabiiy boylik manbalari ustidan ajralmas suverenitet to'g'risida" gi Qarorida o'z ifodasini topgan. Bu prinsip har bir davlat o'z tabiiy boyliklarini o'z siyosatiga muvofiq erkin tasarruf etish bo'yicha suveren huquqqa ega ekanligini ko'zda tutadi, boshqa davlatlarga esa bu huquqni hurmat qilish majburiyatini yuqlaydi.
3. **Inson ekologik huquqning afzalligi.** Bu prinsipga asosan, insonning yashashi uchun qulay ekologik sharoit bo'lishini ta'minlash, har qanday jarayonda insonni ekologik yashash omili birinchi o'rinda turishi lozim.
4. **Hamma sohada ekologik nazoratini tashkil etish va olib borish.** Olib borilayotgan barcha nazorat tartibi xalqaro huquq qoidalariga mos bo'lib, O'zbekiston

Respublikasida “Tabiatni muxofaza qilish to‘g‘risida” gi Qonunning VII-bo‘lim 28-32 – mavzulari asosida amalga oshirilishi lozim.

5. **Xalqaro miqyosda ekologik axborotni almashinish tamoyili.** Mazkur holat bo‘yicha davlat atrof tabiiy muhit xolatini kuzatib borish xizmati tabiiy muhitda sodir bo‘layotgan fizik, kimyoviy, biologik jarayonlarni, atmosfera havosi, tuproq, er usti va er osti suvlarning ifloslanish darajasini, ifloslanishning o‘simlik va hayvonot dunyosiga ta’siri oqibatlarini kuzatib borish, manfaatdor tashkilotlar va aholini atrof tabiiy muhitni sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar haqida joriy va shoshilinch axborotlar hamda bu muhit holatiga doir taxminlar bilan ta’minlash maqsadida tashkil etildi.
6. **Favqulodda ekologik vaziyat holatida davlatlarning bir-birlariga o‘zaro yordam ko‘rsatish.** Davlatlarning o‘zoro kelishuvlari asosida favqulodda ekologiya vaziyat va ekologiya ofati mintafalarida shu vaziyatni keltirib chiqargan ishlar to‘xtatilib qo‘yiladi, atrof tabiiy muhitga zararli ta’sir etuvchi faoliyat (aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq faoliyat bundan mustasno) taqiqlanadi, tabiiy muhitni tiklash va sohlomlashtirish chora – tadbirlari ko‘rildi.
7. **Xalqaro ekologik huquqiy kelishmovchilik va nizolarni tinch yo‘llar bilan hal etish.** Xalqaro miqyosda kelib chiqadigan ekologik huquqiy nizolarni, davlatlarning o‘zoro kelishuviga asosan tuzilgan bitim yoki shartnomaa asosida tinch yo‘l bilan xal etiladi.

SHuningdek, hozirgi davrda yana bir qator tamoyillarni shakllanish jarayoni kechmoqda:

- boshqa davlatlarning ekologik masalalar bilan bog‘liq bo‘lgan ishlariga aralashmaslik;
- ekologik muammolarni hal etishdagi hamkorlik;
- tinchlik va ekologik xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- ekologik muammolarni hal qilishni ko‘p tomonlama kelushuv asosida rivojlantirish;
- ekologik baho berish va boshqalar.

SHu o‘rinda fuqorolarning ekologik huquqlarini mufoxazalashning xalqaro huquqiy asoslariga to‘xtalib o‘tishimiz rejaga muvofiq. Ta’kidlash o‘rinliki, Inson huqlari eengiyasi deklaratsiyasi hozirgi zamonda inson erkinliklari kafolatining buyuk xartiyasidir. U shaxsning ham fuqorolik siyosiy, ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklar ko‘lamini o‘zida ilk bor to‘la mujassam etgan xalqaro-huquq hujjat hisoblanadi. Mazkur hujjatning qabul qilinishi xalqaro munosabatlar rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Deklaratsiyaning qoidalari O‘zbekiston Konstitutsiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli him qilinishini ta’minlaydigan milliy qonunchilik me’yorlarida ifodasini topgan. Mustaqillik yillarida ushbu Deklaratsiya matiriali o‘zbek tilida 0,5 milliondan ziyod nusada chop etildi.

2008 yil 1 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasiga qabul qilinganligining 60yilligiga bag‘ishlangan Tadbirlar dasturlar to‘g‘risida” Farmon qabul qildi. Mazkur Farmon Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi 60 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston inson huquqi va erkinliklarini yanada samaraliroq rag‘batlantirish va muhofaza etishga qaratilgan aniq tadbirlar dasturini belgilab berdi. Tadbirlarda davlat tashkilotlari va muassasalari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalarining faol ishtirok etishi eng muhim vazifa ekani alohida qayd etildi. Bulardan ko‘zda tutilgan maqsad, avvalo insonning asosiy huquqlarini, jumladan, ekologik huquqlarini tushunishni yaxshilashga ko‘maklashish, O‘zbekiston Respublikasining Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasi qoidalarini milliy qonunchilikda mustahkamlash bo‘yicha huquqiy yo‘nalishdagi faoliyati haqida keng xabardorlikni yo‘lga qo‘yishdan iboratdir.

SHu ma’noda hzirgi kunda ekologiya muammosi inson hayotning tabiiy ravishda davom etishi va uni saqlanib qolishi uchun eng xafli manba bo‘lib qolmoqda. Afsuski, keyingi yillarda tabiatning insonga ko‘rsatayotgan mehr-muhabbati va ijobiy ta’siriga nisbatan insonni tabiatga bo‘lgan zug‘umi, vahshiyliigi, tabiat boyliklaridan

xo'jasizlarcha foydalanishi va boshqa salbiy munosabatlari kuchayib ketmoqda. Ana shunday jarayonda dunyodagi hamma davlatlarning o'zoro hamkorligi asosida tabiatni muhofaza qilish va ekologiya masalasiga alohida etibor qaratishini taqozo etadi. Agarda ushbu jarayon shunday davom etadigan bo'lsa turli ekologik muammolar va boshqa tirik mavjudotni jumladan, insoniyat hayotini barbod bo'lishi insoniyat hayotini barbod bo'lishi genefondini butunlay o'zgarib ketishiga, tabiat resurslaridan vahshiylarcha foydalanishga, atrof tabiiy muhitni qattiq ifloslanishiga va boshqa xavfli halokatlarga olib kelishi mumkin.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ekologiya muammosi dunyoviy, global, olamshumil chegara bilmaydigan aksincha o'zoro erkinlika hal qilinadigan muammodir. Uning xalqaro huquqiy ekologik asoslari BMTning Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasida (1948 yil 10 dekabr), BMT Bosh Assamblehsining 1942 yil 14 dekabrda "Tabiiy boylik manbalari ustidan ajralmasinveste" qarorida, "Insonni o'rab turuvchi muhit to'g'risida" Tyuning Stokgolm deklaratsiyasida (1972 yil); Davlatlarning istedodiy huquq va majburiyatlari xartiyasi (1972 yil), YUNESKOning umumjahon madaniyati va tabiat merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya (1972 yil); BMT Bosh Assambleyasining davlatlarning er tabiatini hozirgi va kelajak avlod uchun saqlab qolishi uchun tarixiy javobgarligi to'g'risidagi deklaratsiyasida (1974 yil); Tabiat umumjahon xartiyasi (1982 yil); Tabiiy muhitga nisbatan harbiy yoki har qanday boshqa turdagi vositalardan zararli foydalanishni ta'kidlash to'g'risidagi konvensiyada (1977 yil); Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasi (1982 yil); Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena invensiyasi (1985 yil); Xavfli chiqindilarni davlat chegaralaridan tashqariga tashish va ularni chiqarib tashlashni nazorat qilish to'g'risidagi Bazel konvensiyasi (1989 yil), Atrof-muhit va rivojlanish to'g'risidagi Rio-de-Janeyro deklaratsiyasi (1992 yil), Iqlim o'zgarishi bo'yicha konvnsiya (1993 yil), Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risida 1996 yil Jenevada qabul qilingan mineral protokolida; Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi (18.05.1993); Ozon qatlamini emuruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga London tuzatishi (01.05.1998); Ozon qatlamini emuruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga Kopengagen tuzatishi (01.05.1998); Tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatiuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa yovuz maqsadlarda foydalanishni ta'kidlash to'g'risida konvensiya (26.06.1993); Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi Doiraviy konvensiya (20.06.1993) (Kiot prtokoli, 1999 yil); Jiddiy qurg'oqchilikni va / yoki sahroga aylanish jarayonini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, ayniqsa, Afrikada sahroga aylanishiga qarshi kurash bo'yicha konvensiya (31.08.1995 yil); Xavfli chiqindilarni transchegaraviy olib o'tish ularni yuqotishni nazorat qilish to'g'risidagi Bazel konvensiyasi (22.12.1995); Biologik xilma -xillik to'g'risida konvensiya (06.05.1995); Butun jahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish to'g'risida konvensiya (22.12.1995); Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi flora va faunaning turlari bilan xalqaro savdo to'g'risida konvensiya (01.07.1997); Ko'chib yuruvchi yovvoyi xayvon turlarini saqlash bo'yicha konvensiya (01.05.1998); Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan asosan suvda suzuvchi hayvonlar yashash joylarda hisoblangan suv-botqoq joylar to'g'risida Ramsar konvensiyasi (30.08.2011) va boshqa xalqaro hququqiy ekologik normalarda o'z aksini topgan.

YUqorida ko'rsatilagan tamoyillardan tashqari, umuman xalqaro miqyosda davlatlar va fuqorolarning ekologik huquqlarini kafolatlashning yana bir qator tamoyillari ham yuridik adabiyotlarda talqin etilgan. Hatto fuqorolarning ekologik huquqlarini kafolatlashning xalqaro hamkorlikdagi xususiyatlar ham zamon talabi asosida ko'rsatib tahlil qilingan.

Fikrimizcha, yuqoridagi tamoyillar fuqorolarning ekologik huquqlarini kafolatlashga katta xazmat qilib, ularni quyidagi yangi tamoyillar bilan to'ldirish maqsadga muvofiqdir.

**Birinchidan** - tabiatni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etishda nafaqat bir davlatning, balki xalqaro huquq normalar asosida boshqa davlatlarning ham manfaatlarini inobatga olish;

**Ikkinchidan** - qonunlarni va davlat standartlarini ekologiyalashtirish;

**Uchinchidan** – ekologik agressiya (ekotsid)ni man etish va oldini olish;

**To'rtinchidan** - favqulodda vaziyatlar, ekologik falokat va ekologik ofatlar chog'ida xalqaro hamkorlikni ta'minlash hamda yordam berish;

**Beshinchidan** - ekologik xavsizlikni ta'minlashning yagonaligi hamda majburiyligi va boshqalar.

SHu nuqtai nazarda olganda fuqorolarning qanday ekologik huquqlari mavjud? - degan savol tug'ilishi mumkin. Amaldagi qonun talablariga ko'ra fuqorolarning quyidagi ekologik huquqlarini ta'kidlash mumkin. Bular jumlasiga; 1) Hayoti va sog'ligi uchun qulay atrof tabiiy muhitga ega bo'lish ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 12-moddasi); 2) Tabiiy muhitning holati haqida aniq axborotga ega bo'lish (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 29-moddasi); 3) Ekologik huquqbuzarlar tomonidan etkazilgan zarar o'rnini qoplash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 54-moddasi); 4) Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish bo'yicha jamoat birlashmalari va uyushmalarini tuzish, bunda tuzilmalarning a'zolari bo'lish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 34-moddasi); 5) Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalari bo'yicha davlat mezonlariga xatlar, ariza va shikoyatlar bilan murojaat qilish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 35-moddasi); 6) Jamoatchilik ekologik ekspertizasini o'tkazish haqida takliflar kiritish va uning natijalari haqida axborot olish ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 24-27-moddalari); 7) Texnologik zararli ob'ektlarni joylashtirish, kurish va foydalanishga topshirish haqida qarorlarni bekor qilinishi ma'muriy va sud tartibida talab qilish ("Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 52-moddasi) va boshqalar.

YUqoridagi qonunlar fuqorolarning ekologik huquqlarning tabiiy muhit sharoitlarni saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunlarda ko'rsatilgan talabdan maqsad inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'un muvozanatda rivojlanishini, ekologik tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim ob'ektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan fuqorolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

Fikrimizcha, yuqorida ko'rib chiqilgan barcha fuqorolarning huquqlarini kafolatlash tamoyillari hamda fuqorolarning ekologik huquqlari hozirgi zamon talabi hamda kafolatlanishi vaqtida bajarilishi, unga amal qilinishi hamda kafolatlanishi lozim bo'ladi. SHunday ekan, hozirgi zamon talabi asosida aholi va kelajak avlodning salomatligi uchun ularni muhitni saqlash o'zaro hamkorlik jarayonlarini kuchaytirish zarur. Bundan tashqari har yili respublikamizda 100 mln tonna ishlab chiqarish chiqindilar hosil bo'lib, atmosfera havosiga 2 mln tonnasi, 138 mln tonnasi esa turli suv havzalariga chiqarilib tashlanmoqda.

Demak, yuqorida mavjud ekologik muammolar fuqorolarning ekologik huquqlarini to'la amalga oshirish va ta'minlash hamda kafolatlashda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. SHuning uchun bu sohada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ishlab chiqarishda yangidan yangi texnologiyalarni qo'llash, sof ekologik muhitni yaratish zarur. Prezident I.A.Karimov kuchli demokratik huquqiy davlat fuqorolik jamiyatini bapros etishning asosiy nuqtalaridan bir inson huquqlari ekanligini uqtirib, "Inson huquqlari hoyasi Oliy Majlis faoliyatida doimiy o'rin egallashi kerak. Har qanday qonun harakat sohasidan qati nazar, ishlab chiqilayotgan va muhokamaga mos kelishiga alohida 'etibor qaratish zarur.

Ana shu tamoyillarga og‘ishmay rioya etgan holdagina biz chin ma’nodagi huquqiy adolatparvar davlat qurishga erisha olamiz” – deb ta’kidlagan edi.

Fikrimizcha, mazkur g‘oya bevosita inson va fuqorolarning ekologik huquqlarini va uni ta’minlashga ham xizmat qiladi. Xullas, inson va fuqorolarning ekologik huquqlarini kafolatlash va ularni ta’minlash katta ahamiyatga ega bo‘lib u ko‘plab dunyoviy tamoyillarga asoslanishi hamda xalqaro hamkorlik asosida hal etilishi zamonaviy ahamiyatga egadir.

Tabiat, jamiyat va inson o‘rtasidagi ekologik mutanosiblikning buzilishi biosferani, uning yaxlitligi hayotiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan atrof tabiiy muhit sifatini o‘zgarishiga olib kelmoqda. SHu muosabat bilan YUrtboshimiz I.A.Karimov to‘g‘ri ta’kidlagandek **“Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolardan biridir. Uni hal qilish barcha xalqlarning manfaatlaridan mos bo‘lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko‘p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog‘liqdir.”**

Demak, mazkur g‘oya bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-tabiat muhitni muhofaza qilish hamda tabii resurslardan oqilona foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni hamda takomillashtirishni taqozo etadi. Takidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi bugunlik kunda atrof-tabiat muhitni muhofaza qilish bilan shug‘ullanuvchi institutlar, ekologik qonunchilik va siyosatni isloh qilish, takomillashtirishga qaratilgan keng miqyosdagi dasturni amalga oshirishni boshladi. SHu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida quyidagi yo‘nalishlarda hamkorlik olib bormoqda.

1. **Ikki tomonlama hamkorlik.** Mazkur hamkorlikda O‘zbekiston bilan: - AQSH (1994 y), Gruzuya (1995 y), Janubiy Koreya respublikasi (1995), Malayziya (1996), Isroil (1997), Slovakiya (1998), Tojikiston (1994), Tayland (1998), Turkiya (1996), Turkmaniston (1996), Ukraina (1998), Xitoy (1997), Hindiston (1996), Qozig‘iston (1997), Qirg‘iziston (1996), SHveysariya (1998), Birlashgan arab Amirliklari (1998), YAponiya (1994) ikki tomonlama hamkorlik olib borilmoqda.
2. **MDH doirasida hamkorlik.** 2000 yilda tayyorlangan va davlat rahbarlari tomonidan imzolangan 2025 yilgacha davrda MDH rivojlanishi bo‘yicha harakatlar dasturida atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha qator tadbirlar ko‘zda tutilgan (atrof-muhit monitoringi, ekologik xavfsizlik, sanoat chiqindilarni sertifikatsiyalash, hamda ularni markirovka qilish yagona tizimi va boshqalar). Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston mintaqaviy integratsiya modellari hamkorlikni alohida MDH a‘zolari bilan ikki tomonlama kelushuvlar asosida (Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Gruzuya) hamda MDH ijrochi qo‘mitasi yordamchi organi hisoblangan millatlararo ekologik Kengash bilan amalga oshiradi.
3. **Mintaqaviy hamkorlik.** Bugungi kunda O‘zbekiston 1992 yildan buyon ESKATO a‘zosi hisoblanadi. Markaziy Osiyoning beshta mamlakatlari tomonidan (YUNEP, OTB, BMTTD moliyaviy va texnik yordamida) atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar mintaqaviy rejasini ishlab chiqish, mintaqaviy hamkorlikka ijobiy misol bo‘ladi. Hozirgi kunda mintaqamamlakatlar tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha mustaqil me‘yorli sifat ishlari chiqishlar va amalga atrof –muhitni muhofaza qilish sohasida esa mintaqaviy va dunyo miqyosida hamkorlik qilishlari mumkin.
4. **Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik.** O‘zbekiston Respublikasi Evropa Hamjamiyati hamda uning a‘zolari o‘rtasida hamkorlik va sherikchilik to‘g‘risida bitim imzolangan. Ushbu bitimning 54-bandi atrof-muhitni va sog‘liqni saqlashga bag‘ishlangan hamda hamkorlikning 22 ta maqsad va sohalarni o‘z ichiga oladi, jumladan: suvning sifati, tranchejaraviy suvlar va havoning ifloslanishi;



- Tranchegarviy miqyosida atrof – muhitga ta'sir ko'rsatishni baholash to'g'risida BMT EIK konvensiyasini qo'llash;
- CHiqindilar boshqaruvi va Bazel konvensiyasini bajarish;
- Biologik xilma xillikni saqlash va iqlimni global o'zgarishi bilan kurashish;
- Sanoat korxonalarini xavfsizligi, kimyoviy xavfsizlik va ekologik toza texnologiyalardan foydalanish;
- Ofatlar va falokatlar hamda boshqa favqulotda vaziyatlar to'g'risida oldindan ogohlantirish;
- Mamlakat ekologik qonunchiligini Evropa ittifoq qonunchiligiga moslashtirishdir. E'tiborli tomoni shundaki, 2004 yil 11 marta 2004-2008 yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining Evropa Ittifoqi va unga a'zo davlatlar bilan hamkorlikni takomillashtirish bo'yicha choralar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 134-sonli Qarorining qabul qilinishi ikki tomonlama loyihalarni amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

**1. Xalqaro hamkorlik.** Bugungi kunda atrof - muhitni muhofaza qilish masalalari muhimligini global darajada xalqaro jamoatchilik tomonidan tan olinishi va atrof - muhitni muhofaza qilish bo'yicha keng faoliyat boshlanishi O'zbekistonning mustaqilligi e'lon qilinishi bilan mos keladi. Xalqaro tabiatni muhofaza qilish hamkorligi asosiy yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati strategiyasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston mustaqillikdan keyin 1992 yilda BMT ga a'zo bo'ladi va bir qator dasturlari hamda maxsus tashkilotlari bilan hamkorlik qila boshladi.

Ayniqsa, O'zbekistonning YUNEP, BMTTD, YUNESKO, XMT, YUNIDO, BMT ENK, ESKATolar bilan hamkorligi ekologik hamkorlikdan hal qilishga katta yordam bermoqda.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tabiatni muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik yo'nalishlarini shakllantirish va rivojlantirish mamlakatimiz ekologik salohiyatini saqlab qolishga xalqaro ekologik siyosatni mustahkamlashga yordam beradi. Buyuk mutafakkir Suqrot aytganidek, "dunyodagi buyuk kuchlar ko'p, uning tabiatda insondan qudratliroq kuch yo'qdir". Demak, ona tabiatni kelajak avlodga bus – butun va benuson, musaffo holatda oshirish har bir jamiyat a'zosini, musaffo holatda yaratish har bir jamiyat a'zosini, zero butun halqlar oldida tuzilgan hamkorlikda xalq qilinishi lozim bo'lgan muammodir. YA'ni, Pokiston va Tojikiston mutaxassislarining tadqiqot rejalariga ko'ra Tojikiston alyuminiy zavodi xududida insonning nafas olish organlari, oshqozon tizimi, qon va qon aylanish organlari va shu kabi kasalliklar bo'yicha murojaat natijalari aniqlanib tursunzoda hududida (1,6) va Sariosiyo tumanida (1,8) bolalar rivojlanishida tug'ma anomaliyalar chastotasi hududlardaidan ko'ra ortgani aniqlangan. SHuningdek, Toshhovuz hududida florani 184 xil gulli o'simliklarning 124 turi va 35 oilasiga tegishligi aniqlangan. Keyingi 10 yil mobaynida 70 ga yaqin juda chidamli, qolgan 114 xili 20-15 yil ichida yo'q bo'lib kegan. YOyinki, Orol inqirozini oliylik. U insoniyat tarixidagi eng usgan ekologik va gumanitar falokatlardan biridir. Dengiz havzasida yashayotgan 35 mln.ga yaqin odamlar uning salbiy ta'siri ustida qolmoqda. YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ekologik muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va uni takomillashtirib borish muhim ahamiyatga egadir. Uni amalga oshirish maqsadida: birinchidan – ekotizimning nisbatan barqarorligini saqlab qolishga imkon beruvchi tabiatdan oqilona foydalanish jarayonlarini muvofiqligiga erishish; ikkinchidan, ekologik muammolarni hal qilish hamda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishda yangi texnologiyalardan foydalanish; uchinchidan xalqaro standartlarni hisobga olib atrof muhitni ifloslantirish manbalarini samarali tozalash inshootlari va qurilmalari bilan jihozlash tizimini joriy etish; tshrtinchidan, ayniqsa, Markaziy Osiy mintaqasida ekologik monitoring, prognoz va axborot bo'yicha yagona tizimni shakllantirish hamda ekologik xavfsizlik tizim holatini

barqarorlashtirish; beshinchidan, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish; oltinchidan ekologik muammolarni hal etishda davlatlararo ekologik formulalar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

#### **Nazorat savollari**

1. Tabiatni muhofaza qilish va uning matanosibligini saqlash tamoyili
2. O'z hududida tabiat boyliklariga nisbatan suverenitet prinsipi
3. Inson ekologik huquqning afzalligi
4. Hamma sohada ekologik nazoratini tashkil etish va olib borish
5. Xalqaro miqyosda ekologik axborotni almashinish tamoyili
6. Favqulodda ekologik vaziyat holatida davlatlarning bir-birlariga o'zaro yordam ko'rsatish
7. Xalqaro ekologik huquqiy kelishmovchilik va nizolarni tinch yo'llar bilan hal etish.

### **5-ma'ruza**

#### **Mavzu: SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-XUQUQIY JIXATLARI**

##### **Reja:**

- 5.1 Suvdan oqilona foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari**
- 5.2 Suv resurslaridan foydalanishda ekologik munosabatlarning maqsadi va vazifalari**
- 5.3 Suv resurslarini ekologik-xuquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari**
- 5.4 Suv resurslaridan foydalanishni ekologik-xuquqiy jixatdan tartibga solish zaruriyati**
- 5.5 Suvdan foydalanish xuquqi tushunchasi**
- 5.6 Suvdan foydalanish xuquqining tamoyillari, usullari va tizimi**
- 5.7 Davlat suv fondi va uni boshqarish**

**Adabiyotlar:** 5, 18, 19, 32,

Tayanch iboralar: prioritet, meliorativ, agrotexnika, agromeliorativ, gidrotexnik.

**5.1 Suvdan oqilona foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari.** Suvdan oqilona foydalanish-suvning foydali xususiyatlaridan jismoniy va yuridik shaxslarning qonun talablari asosida foydalanishi.

Suvdan foydalanuvchilar qatoriga barcha mulk shaklidagi korxonalar, muassasa, tashkilotlar va fuqarolar kiradi. Suv munosabati ob'ekti yuqorida sanab o'tilgan barcha suv fondi toifalaridir. Ularga xalq xo'jaligining barcha soxalarida umumiy yoki maxsus ravishda suvdan foydalanishga ruxsat beriladi. Umumiy foydalanish-suvning holatiga ta'sir qiladigan inshootlar yoki qurilmalarni qo'llamagan tarzda suvdan foydalanish. Agarda ularni qo'llab foydalanilsa, maxsus foydalanishga tegishli bo'ladi. Ularning ruyxati maxsus davlat boshqaruv organlari tomonidan belgilab qo'yiladi. Suvdan foydalanish birgalikda va tanxo (yuridik shaxslarga butunlay yoki qisman berib qo'yilsa), birlamchi (tanxo foydalanuvchilarga boshqa sub'ektlarga foydalanish uchun berish xuquqi bilan) yoki ikkilamchi tarzda amalga oshiriladi.

Suv ob'ektlari, avvlambor, prioritet me'yor asosida aholining ichimlik suviga bo'lgan talabini qondirish uchun beriladi. Suvlarni foydalanishga berish tartibi (tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan holda) «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 26-31 moddalarida aks ettirilgan. Ushbu talablar suvning ekologik tizimlarda turuvchi unsur sifatida qarashni nazarda tutib ruxsatnomalar berish, milliy lashtirish, xaq to'lash va muddatlarini belgilash orqali amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanuvchilarning xuquqlari quyidagilardan iborat:

- maqsadli foydalanish;
- zarur bo'lgan inshootlar, qurilmalar va boshqa ob'ektlarni «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning IV bobida ko'rsatilgan talablar asosida qurish;
- beriladigan suvning miqdori va sifatini tekshirish;
- olinmay qolgan suv uchun tovon to'lashni talab qilish (tegishli shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan istisno). Masalan, 2001-2002 yillarda suv tanqisligi tufayli Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida sug'orish me'yorlari qisqartirilgan hamda ekin turini tanlash cheklangan;
- qonunda taqiqlanmagan boshqa xuquqlardan foydalanishlari ham mumkin.

Suvdan foydalanuvchilar xuquqlari davlat tomonidan muhofaza etiladi. Lekin davlat va jamoat ehtiyojlari, ekologik xavfsizlik, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy holatlarda foydalanuvchilarning xuquqlari cheklanishi mumkin.

Suvdan foydalanuvchilarning ekologik nuqtai nazardan qaralgan burchlari:

- suvdan oqilona foydalanish, suv sifati hamda tozaligini qayta tiklash va yaxshilash to'g'risida qayg'urish;
- suv olishning belgilangan me'yorlariga rioya etish;
- ifloslangan suvlarni suv ob'ektlariga oqizishni tamomila to'xtatish chora-tadbirlarini qurish;
- tabiiy ob'ektlarga zarar yetkazilishi yo'l qo'ymaslik;
- suv muhofazasi ob'ektlarini soz holda tutish, ularning ishlatish sifatlarini yaxshilash, olinayotgan suvni hisob-kitob qilib borish;
- suvga oid to'lovlarni o'z vaqtida to'lash.

Yuqorida qayd etilgan talablar bajarilmasa, yuridik va jismoniy shaxslarning suvdan foydalanish xuquqlari tegishli qonun xujjatlari asosida bekor qilinishi mumkin. Yetkazilgan zarar «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 39-moddamiga asosan chiqarilgan Nizom, yo'riqnomalar asosida Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan hollarda va tartibda undirib olinadi.

Suv qonunchiligiga binoan suv ob'ektlaridan foydalanish:

- ❖ aholining iste'moli, maishiy va boshqa ehtiyojlari;
- ❖ davolash, kurort va sog'lomlashtirish;
- ❖ qishloq xo'jaligi ehtiyojlari;
- ❖ sanoat maqsadlari va issiqlik energetikasi ehtiyojlari;
- ❖ baliqchilik xo'jaligi ehtiyojlari
- ❖ ovchilik xo'jaligi ehtiyojlari;
- ❖ alohida qo'riqlanadigan hududlar joylashgan suv ob'ektlari;
- ❖ suv transport ehtiyojlari;
- ❖ oqova suvlarni oqizish;
- ❖ yong'inga qarshi qurish ehtiyojlari;
- ❖ davlat va jamoat ehtiyojlari;

- ❖ suv omborlari, gidrouzellar va boshqa suv inshootlari;
- ❖ Orol dengizi xavzasidagi suvdan davlatlararo foydalanish.

Mamlakatimizda ularning har biri bo'yicha alohida me'yoriy hujjatlar qabul qilinadi va ekologik-xuquqiy foydalanish hamda muhofaza qilish ta'minlanadi.

Suv-hayot manbai bo'lgani uchun ham undan foydalanishda birlamchi xuquqiy talab sifatida ekologik jihatdan muhofaza qilish me'yorlari o'rnatiladi. Suv qonun hujjatlarida, xususan, «suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 24-bobida aynan shu masalani xuquqiy jihatdan tartibga solish qoidalari va me'yorlari o'rnatilgan. Unga binoan suv ob'ektlari kishilar sog'lig'iga, suvdan yashovchi tirik organizmlarning kamayishi, suvning xossa va xususiyatlari (hattoki o'zini o'zi tozalab turish), suv rejimining buzilishi natijasida sodir bo'ladigan boshqa ko'ngilsiz holatlarning kelib chiqishini muhofaza qilishni belgilovchi va amalda tatbiq qiluvchi yagona tartibot suvni ekologik-xuquqiy muhofaza qilish deb yuritiladi.

1997 yil 25 aprelda «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 98-moddasiga o'zgartirishlar kiritilib, suvlarni ekologik-xuquqiy muhofaza qilishni ta'minlovchi tadbirlarni amalga oshiruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar mahalliy xokimiyat va davlatning maxsus vakolatlangan organlari bilan kelishgan holda texnologik, o'rmon – meliorativ, agrotexnika (to'g'rirog'i, agromeliorativ), gidrotexnik, sanitar-texnik tadbirlarni o'tkazishlari shart deb qo'yildi. Ushbu yuridik shaxslar suvga turli maishiy, sanoat, kimyoviy va fizik chiqit va chiqindilarni chiqarishlari ta'qiqlanadi. «Chiqindilar to'g'risida»gi qonunning 14-moddasiga binoan korxonalar, tashkilot va muassasalar chiqindi bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish xuquqiga egalar, lekin Ushbu xuquqlari mazkur Qonunning 17-moddasida ko'rsatilgan xavfsizlik talablari, ya'ni fuqarolar hayoti va sog'lig'iga yoki atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va ekologik xavfsizlikni ta'minlaydigan holatdagina ruxsat beriladi. Ularning burchlari «suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 103-moddasida aks ettirilgandir.

Suv ob'ektlarini muhofaza qilish maqsadida muayyan alohida quriqlanadigan okrug va hududlar ajratib olinadi. 1992 yil 7 apreldagi Vazirlar Mahkamasining 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekistonda ekologik-xuquqiy rayonlashtirish, suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlar, ichimlik va maishiy suv ta'minoti ob'ektlari, davolash va madaniy sog'lomlashtirish hududlariga doir Nizom»ga muvofiq olib boriladi.

O'zbekistonda Suqoqsoy, Boshqizilsoy, Nuvalisoy kabi kichik daryolar yer usti oqar suvlarning aksariyatini tashkil qiladi. Ularda ekologik-xuquqiy talablar Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi va maxsus vakolatlangan organlari bilan birgalikda amalga oshirilishi kerak.

Suv toshqini va sel ketishi natijasida yuzaga keladigan zararli ta'sirlarning oldini olish uchun tuman hokimligi tegishli chora-tadbirlar quradi. Katta talafotlarga olib keladigan suv bilan bog'liq bo'lgan tabiiy hodisalarning oldini olish va ularni bartaraf etish 1999 yil 20 avgustdagi «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasi, viloyat, tuman va shahar hokimiyatlari qoshida tuziladigan komissiyalar orqali hal qilinadi. Ilmiy, metodik va amaliy ishlarni Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning bo'linmalari olib boradi. Moliyaviy ta'minot va moddiy yordam esa tashkilot, korxonalar, muassasalar, xo'jaliklar va mahalliy byudjet hisobidan, Respublika va mintaqaviy dasturlar bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar esa Respublika byudjetidan amalga oshiriladi.

Yer osti suvlarini ekologik-xuquqiy muhofaza qilish, birinchi navbatda, suvni chiqaruvchi va undan foydalanishni ta'minlovchi idoralarning xuquq va majburiyatini belgilash bilan boshlanadi. Chunki yer osti suvlari joylanishining o'ziga xos tomonlari yer

qa'ridan foydalanuvchilarning hatti-harakatlariga bevosita bog'liqdir. Yuridik va jismoniy shaxslar yer qa'ridan yoki yer osti suvlaridan foydalanishda ularning kamayib ketishi, foydali xususiyatlarini yo'qotishi yoki ifloslanishiga yo'l qo'ymasliklarga shart.

Suv qonunchiligi suvlarni ekologik-xuquqiy muhofazalash me'yorlarining amalda bajarilishini iqtisodiy ta'minlash maqsadida: suvdan maxsus foydalanilganlik, suv ob'ektlarini ifloslantirganlik va ularga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa xil to'lovlari o'ndirib olinadi. Ushbu to'lov turi, miqdorli va tartibi Soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Moliya vazirligi va tegishli davlat organlarning qonun osti me'yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda amalga oshiriladi. Suvdan tejab-tergab, yangi texnologiyalar asosida foydalanuvchilar uchun «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 106 moddasiga muvofiq ravishda xuquqiy (masalan, birlamchi foydalanuvchi), iqtisodiy (imtiyozli kredit), tashkiliy (qo'shimcha korxonalar tashkil etish), ijtimoiy (tajribalarini keng targ'ib qilish), ekologik (ekologik to'lovlardan ozod etish) va boshqa rag'batlantirish omillarining samarali tizimini qo'llash mumkin.

Suvdan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida suv zaxiralari davlat yo'li bilan hisobga olinadi. Uning tarkibiga yagona suv fondini tashkil etuvchi suvlarning miqdori, sifati, aholini va xalq xo'jaligining ehtiyojlari uchun suvdan foydalanishga oid ma'lumotlar kiritiladi. 1990-2001 yillar mobaynida O'zbekistonda toza suvdan foydalanish 52,4 kub km dan 44 kub km ga kamaygan. Undan qayta ishlatiladigani 5,9 kub km dan 4,0 kub km, ifloslangan suvlarni suv shoxobchalariga tashlash 32,7 kub km dan 16,9 kub km, tozalab tashlangan suvlar 12,1 kub km dan 10,5 kub km ga kamaygan. Bu degan so'z xalq xo'jaligida suvdan foydalanish va uni tozalash, oqova suv sifatini oshirish mustaqil Respublikamizda kundan-kunga yaxshi yo'lga qo'yilmoqda.

Suvdan ekologik jihatdan foydalanish va uni muhofaza etishni rejalashtirishda prioritet masala bo'lib aholining ichimlik va maishiy xizmati inobatga olinadi. Rejalashtirish ilmiy va kadastr ma'lumotlariga asoslangan, suv xo'jaligi balanslari, kompleks foydalanish, suvga so'ngra, maishiy xizmatga bo'lgan talabi muhofaza qilish jadvallarini hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

Davlat suv kadastrini «Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonun va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1998 yil 7 yanvarda 11-son qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida davlat suv kadastrini ishlab chiqish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq olib boriladi. Suvning mavjud miqdori va undan foydalanish darajasini baholash esa, daryo havzalari va tumanlar bo'yicha suv xo'jaligi balanslari asosida belgilanadi. Suvdan kompleks foydalanish va uni muhofaza qilishning bosh va havza (hududiy) jadvallarida aks etgan bo'ladi. Bularning hammasi, jumladan, suv monitoringi ham Vazirlar Mahkamasi belgilab bergan tartibda davlat byudjeti hisobidagi tegishli davlat idoralari tomonidan olib boriladi.

Suvdan oqilona foydalanish hamda uni muhofaza qilish talablarini buzgan yuridik va jismoniy shaxslar tegishli javobgarlikka tortiladilar. Masalan, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 114-moddasiga muvofiq suvdan foydalanish xuquqini boshqalarga berish hamda davlatning egalik xuquqini oshkora yoki yashirin tarzda buzadigan boshqa xil bitimlar xaqiqiy hisoblanmaydi.

Suv qonunchiligiga oid javobgarlik va tegishli yuridik jazo quyidagi hollarda qo'llaniladi;

- ❖ suv ob'ektlarini o'zboshimchalik bilan egallab olgan yoki suvdan o'zboshimchalik bilan foydalanilganda;
- ❖ suvdan foydalanish limitlarini buzgan holda suv olganda;
- ❖ daryolarni bulg'agan va ifloslanganda;

- ❖ suvni bulg'ash va ifloslanishning yoki suv yetkazadigan zararli ta'sirning oldini oladigan inshootlari va qurilmalari bo'lmagan korxonalarni, kommunal ob'ektlarni va boshqa ob'ektlaridan ishga tushirganda;
- ❖ suvdan (suv ob'ektlaridan chiqarib yoki ajratib olingan suvdan) xo'jasizlik bilan foydalanganda;
- ❖ suv havzalarida suvni muhofaza qilish rejimini buzib, uning bug'lanishiga, tuproqni suv yuvib ketishiga va boshqa zararli hodisalar ro'y berishiga sabab bo'lganda;
- ❖ suv xo'jaligi inshootlari va qurilmalariga shikast yetkazgan va ularning vayron qilganda;
- ❖ suv xo'jaligi inshootlarini va qurilmalarini ishlatish qoidalarini buzganda;
- ❖ suvning holatiga ta'sir qiluvchi to'siqlar, nasos stantsiyalari va boshqa inshootlarni o'zboshimchalik bilan ko'rganda;
- ❖ suv haqi va suvdan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun solingan jarimalarni o'z vaqtida to'lamaganda;
- ❖ rejalarda ko'zda tutilib, suvni bug'lanish, ifloslanish va kamayib ketishidan saqlashni, shuningdek, suv holati va rejimini yaxshilashni ta'minlovchi gidrotexnika, texnologiya, o'rmon-melioratsiya, sanitariya-texnika tadbirlari va boshqa tadbirlarni amalga oshirilganda;
- ❖ vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlariga o'zboshimchalik bilan ulaganda;
- ❖ foydalanish va kuzatish quduqlarini yo'q qilib tashlagan yoki ularga zarar yetkazganda;
- ❖ suv quduqlarini burg'ilashning belgilangan qoidalari va texnologiyasini buzganda;
- ❖ suvni muhofaza qilish inshootlari va qurilmalarini qurishning me'yoriy muddatlarini barbod qilganda;
- ❖ qurilish tugallanmagan suvni muhofaza qilish inshootlarini ularning samarali ishlashiga salbiy ta'sir etuvchi, kamko'stini bitirmay va loyihadan chetga chiqishlar bilan foydalanishga topshirganda;
- ❖ suvni muhofaza qilish hududlariga rioya etilmaganda;
- ❖ suvdan foydalanilganlik haqidagi davlat hisobotlarini taqdim etmagan yoki ushbu ma'lumotlarni buzib ko'rsatganda;
- ❖ tabiatni muhofaza qilish ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organlarning ko'rsatmalarini bajarmaganda;
- ❖ alohida qo'riqlanadigan suv ob'ektlari rejimini buzganlikda aybdor bo'lgan shaxslar qonunlarga muvofiq jinoiy, ma'muriy va o'zga tarzdagi javobgarlikka tortiladilar. Qonunlarda suvga oid boshqa turdagi xuquqbuzarliklar uchun ham javobgarlik belgilab qo'yilishi mumkin.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dexkon xujaliklari xamda fukarolar suv tugrisidagi konunlarni buzish natijasida yetkazilgan zararlarni konunlarda belgilangan mikdorda va tartibda koplashlari shart.

Uzboshimchalik bilan egallab olingan suv ob'ektlari va konunchiz foydalanish vaktida kilingan xarajatlar koplanmagan xolda uz egasiga kaytarib olib beriladi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yetkazilgan zararni koplash tegishli konunlarda belgilangan mikdorda va

tartibda amalga oshiriladi. Suv ob'ektlari, shaxslar va davlatga zarar yetkazishda aybdor bulgan mansabdor shaxslar xamda boshka xodimlar ma'muriy javobgarlik koidalariga muvofik ravishda moddiy javobgarlikka tortiladilar.

## **5.2 Suv resurslaridan foydalanishda ekologik munosabatlarning maqsadi va vazifalari.**

Suvni xuquqiy muhofaza qilishdan maqsad suv resurslari va ularning manbalaridan oqilona foydalanish, suvni tabiiy xossalarini saqlash, uni ifloslanishidan, zaxarlanishidan, tarkibi buzilishidan himoya qilish ayniqsa, suvni sanitariya talablariga mosligi va unda yashaydigan tabiiy mavjudotni ekologik me'yor holatini ta'minlashdan iborat bo'lishi lozim.

Amaldagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunning XXIV bobida suvni xuquqiy muhofaza qilishning maqsadi o'z ifodasini topgan.

Hamma suvlar (suv ob'ektlari) aholi sog'lig'iga zarar yetkazishi, shuningdek, baliq zahiralarning kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyati kamayishi, suvning gidrologik va gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak.

Ta'kidlash o'rinliki, suv resurslaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilish ko'p hollarda nazorat qilish tartibi bilan bog'liq bo'ladi.

Mazkur masala yuzasidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 24 maydagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarning texnik holatini hamda bexatar ishlashini nazorat qilish Davlat inspeksiyasi (Davlat suv xo'jalik nazorat)ini tashkil qilish to'g'risidagi Farmoni katta ahamiyatga ega.

Xalq xo'jaligini faoliyat ko'rsatishi, qishloq xo'jaligi ekinlaridan barqaror hosil olinishi suv xo'jaligi ob'ektlarining ishonchli hamda bexatar ishlashiga bog'liqdir. Mana shunday shar – sharoitlarni ta'minlash bunday ob'ektlarning texnik holati ustidan nazorat kuchaytirilishi, turli vazirliklar va idoralar faoliyati muvofiqlashtirishini, Markaziy Osiyo davlatlaridagi suv xo'jaligi tashkilotlarining baxamjixat hararakat qilishlarini taqozo etadi. Shuningdek, katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining ishonchli texnik holatini hamda bexatar ishlashini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Bundan tashqari, hozirgi paytda aholi yashash joylarini ichimlik suvi bilan ta'minlash va uni muhofaza qilish maqsadida hukumat tomonidan ham bir qator chora – tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu muammoning yechimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 1 iyunda qabul qilingan «Qishloq aholi yashash joylarini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni yanada yaxshilash chora – tadbirlari to'g'risida»gi Qarorida ham o'z ifodasini topgan.

Uning 5 – bandida qishloq aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash samaradorligini oshirish va sifatini yaxshilash maqsadida qishloq suv ta'minoti idoraviy tizimlarni kommunal xizmat ko'rsatish hududiy organlari balansiga berish yo'li bilan yo'li bilan ichimlik suv ta'minoti sohasida tarkibiy o'zgartirishlarning amalga oshirish va mintaqaviy va mintaqalararo magistral suv quvurlaridan foydalanishning yagona tizimini yaratish maqsadga muvofiq deb hisoblanishi alohida ko'rsatilgan.

Suvni xuquqiy muhofaza qilish maqsadiuning ma'lum vazifalarini ham amalga oshirish holati bilan bog'liqdir.

«Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunda ko'rsatilishicha, «Hamma suvlar aholi sog'lig'iga zarar yetkazishi shuningdek baliq zahiralarning kamayishi, suv ta'minoti sharoitining yomonlashishi hamda suvning fizikaviy, kimyoviy va biologik xossalari pasayishi, suvning tabiiy tozalanish xususiyatining kamayishi suvni gidrologik va

gidrogeologik rejimining buzilishi natijasida kelib chiqadigan boshqa ko'ngilsiz hodisalarga olib kelishi hollaridan muhofaza qilinishi kerak» (97 - modda).

Suv to'g'risidagi qonunda, faoliyati suvlarining holatiga ta'sir etuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassalar, mahaliy hokimiyat organlari, tabiatni muhofaza qilish, suv xo'jaligi, sanitariya nazorati organlari hamda boshqa mafaatdor idoralar bilan kelishilgan holda texnologiya, o'rmon – melioratsiya va agrotexnika, gidrotexnika, sanitariya – texnika tadbirlarini o'tkazishlari shart, deb ko'rsatilgan.

Suv manbalarini ifloslanishdan muhofaza qilishning eng yaxshi yo'li markazlashgan suv ta'minotini tashkil qilishdan iborat.

Ochiq suv havzalaridan suv olinadigan joyni tanlashda suvning ifloslanmasligi, suv havzasiga yetarli miqdorda suv tushib turishini, suv havzasi atrofining to'silganligini, qirg'oqning buzilmasligini hisobga olish kerak. Suv olinadigan joyni tanlash har safar murakkab sanitariya masalasi hisoblanadi. Muhimi, suv olinadigan joyni tanlash oqova suvlar tushadigan joydan yiroqligi aholi yashaydigan punktning istiqboli, ya'ni kengayishi nazarda tutiladi. Shuningdek, suv olinadigan joy daryo irmoqlari chuqurligi kamida 2,5 metr bo'lgan, qirg'og'i yuvilmaydigan joydan olinadi. Bu qoida suv omborlariga ham tegishlidir.

Har qanday suv manbai, ayniqsa ochiq suv havzalari tashqi muhit bilan bog'langanligi va suv sifatiga tabiiy hodisalar, sanoat va communal qurilishlar, aholining xo'jalik va turmushdagi faoliyati ta'sir qilishni hisobga olib, vodoprovod qurilishida albatta, sanitariya zonasi tashkil etish kerak.

Mavjud qonunchilikka asosan tashkilotlar barcha vodoprovod uchun sanitariya muhofazasi zonasi tashkil qilishlari kerak.

Sanitariya maishiy suv ta'minotidan foydalanadigan rayonlarda sanitariya muhofazasi zonasi yaratish zarur. Bunday hollarda sanitariya nazorat organlari va shu teritoriyadagi suvdan foydalanishni va muhofaza qilishni boshqaradigan organlarga quyidagi hajmli yer ajratiladi:

- *ochiq suv havzalari uchun 100 m. Suvni ikkala qirg'og'iga inspektorlik yo'llari qilinadi, shahar doirasida esa qirg'oqlar qo'shimcha ravishda obod qilinadi:*
- *o'zanli va suv qo'yilib turadigan suv ombori uchun 300 m chor atrofi muhofaza qilinadi:*
- *artezian quduq uchun foydalaniladigan ayrim quduqlar, buloqlar va chashmalar yoki yer osti suvlari usti 30 m radiusda suvga chidamli materiallar bilan yopiladi, maydoni kamida 0,25 ga bo'ladi;*
- *ayrim quduqlar uchun yer osti suvi yoki infiltratsion suvdan foydalanganda 30 m radiusda usti yopiladi, maydoni kamida 0,75 ga bo'ladi.*

Ayrim rayonlarda, masalan, yirik shaharlar yoki korxonalarda qishloq xo'jaligida zaxarli ximikatlar ko'p ishlatilganda sanitariya nazoratining tegishli organlari talablariga ko'ra, bu zonalar kengaytirilishi mumkin.

SHuningdek, yuqorida ko'rsatilgan «Davlat suv xo'jalik nazorati»ning suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 24 maydagi Farmonida belgilab berilgan.



«Davsuvxo'jaliknazorat» davlat nazorat organi hisoblanib, quyidagi asosiy vazifalarni hal etilishini ta'minlaydi:

- ✓ *katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanishda ularning ishochli texnik holatini ta'minlash ustidan nazoratni amalga oshirish hamda bexatar ishlashini ta'minlash;*
- ✓ *-katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarining bexatarligi mezonlari hamda qoidalarini ishlab chiqishni tashkil qilish va tasdiqlash;*
- ✓ *manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlari texnik holatining ishonchliligi hamda bexatar ishlashini ekspertizadan o'tkazish;*
- ✓ *manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlari texnik holatining ishochliligi hamda bexatar ishlashini ekspertizadan o'tkazish;*
- ✓ *tegishli vazirliklar va idoralar bilan birga bog'liq hodisalarni oldini olishga doir takliflarni ishlab chiqish;*
- ✓ *katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlarni qurish va qayta qurish loyihalarni ekspertizadan o'tkazishni tashkil etish, ularni barpo etish sifati va foydalanishga qabul qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;*
- ✓ *tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda katta va alohida muhim davlatlararo hamda chegara bo'yi suv xo'jaligi ob'ektlaridan puxta va bexatar foydalanish masalalarining Markaziy Osiyo davlatlari bilan bartaraf etilishini ta'minlash;*
- ✓ *katta va alohida muhim suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanishda ularning ishonchlilix texnik holatini oshirish masalalarini ko'rib chiqish hamda ularni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish.*

«Davsuvxo'jaliknazorat» ning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari vazirliklar, idoralar, korporatsiyalar, kontsernlar, uyushmalar, korxonalar, muassalar, tashkilotlar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijro etish uchun majburiy hisoblanadi.

Suv qonunchiligi va ushbu talablarni bajarmaslik suvdan xo'jasizlarcha nooqilona foydalanish deb hisoblanib, uni muhofaza qilishni xuquqiy tartibini buzish deb qarash mumkin.

Xullas, suvni xuquqiy muhofaza qilishning asosiy maqsadi va vazifalari suv, tabiatni muhofaza qilish, yer, o'rmon, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish hamda boshqa ekologik sanitariya to'g'risidagi qonun talablarini amalga oshirish va ularni bajarishini ta'minlashdan iborat.

**5.3 Suv resurslarini ekologik-xuquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.** Suvni muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida» gi Qonunning 97-102 maddalari bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunda suvni xuquqiy muhofaza qilish masalasi yetarlicha o'z ifodasini topmagan bo'lsada, ammo uning ayrim chora tadbirlari ustida to'xtab o'tilgan. Jumladan, qonunning 99 moddasida quyidagilar taqiqlanadi:

- ishlab chiqarish chiqitlari maishiy va boshqa xil chiqitlar hamda
- chiqindilarni suv ob'ektlariga tashlash;
- moylarning, yog'ochlarning kimyoviy va neft maxsulotlarining to'kilib
- sochilishi natijasida suvning bug'latish va ifloslantirish;
- suv havzalarining yuzi, suv havzalarining qoplab turgan yaxlar

- muzliklarning yuzasi, sanoat chiqitlari, maishiy chiqindi va boshqa
- tashlandiq chiqitlar shuningdek, yer usti va osti suvlarining
- sifatini yomonlashtirib yuboradigan neft va kimyoviy maxsulotlar bilan bug'latish va ifloslantirish;
- suvni o'g'itlar va zaxarli ximikatlar bilan bug'latish.

Ushbu Qonunning 101-moddasida, yer osti suvlarini muhofaza qilish tartibi ifodalangan. Yer osti suvlari chiqarish va undan foydalanish bilan shug'ullanuvchi idoralar suv chiqarilayotgan uchastka va unga to'xtash hududlarida yer osti suvlariga doir rejimlariga rioya etilishini kuzatib borishlari, shuningdek foydalanayotgan suvning miqdori va sifatini hisobini yuritishlari shart.

Basharti, foydali qazilmalar konlarini qidirish, ularni o'rganish va ulardan foydalanish bilan bog'liq burg'ilash hamda boshqa kon qidiruv ishlarini bajarish chog'ida yer osti suvlari bor qatlamlar aniqlangan taqdirda bu haqda tabiatni muhofaza qilish, suv xo'jaligi organlariga ma'lum qilinishi hamda belgilangan tartibda yer osti suvlarini muhofaza qilishga qaratilgan chora tadbirlar qurilishi lozim. Basharti, sanoat oqova suvlarini oqizish uchun qaziladigan quduqlar suvli qatlamlarni ifloslantirish manbaiga aylanishi mumkin bo'lsa, bunday quduqlar qazish hollari man etiladi.

O'z-o'zidan suv chiqarib, suvni foydalanish uchun yaroqsiz bo'lgan quduqlarga suvni boshqarish uskunalari o'rnatilishi, ular qonunlardan belgilangan tartibda to'xtalib qo'yilishi yoki tugatilishi lozim.

Sifatli yer osti suvlari to'planadigan manbalar hududida qattiq va suyuq chiqindilar to'plash, axlatxonalar barpo etish, yer osti suvlarining ifloslanish manbaiga aylanish ehtimoli bo'lgan sanoat, qishloq xo'jalik ob'ektlari va boshqa ob'ektlar qurilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Yer osti suvlarini muhofaza qilish chora tadbirlarini qurish, shu jumladan quduqlarni kuzatish tarmog'ini yaratish faoliyati yer osti suvlarining holatiga ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Qonunning 102 – moddasida quyidagilar ta'kidlanadi: xo'jalik faoliyati kichik daryolarning holati va rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, dehqon xo'jaliklari suv xo'jaligi, tabiatni muhofaza qilish organlari bilan birgalikda suvni, uning musaffoligi va sifatini saqlash chora tadbirlarini qurishlari lozim.

Yuqoriladigan ko'rinib turibdiki, suvni xuquqiy muhofaza qilish, suv xuquqi me'yorlari bilan hamda boshqa xuquq me'yorlari bilan ham tartibga solinadi.

Suvni muhofaza qilish, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi «Tabiatni muhofaza qilish», «O'rmon to'g'risida»gi, «Yer kodeksi», «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi, «Ekologik ekspertiza», «CHiqindilar to'g'risida»gi qonunlar hamda Mehnat, Fuqarolik, Jinoyat va ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar bilan tartibga solinadi.

Bulardan tashqari, suvdan foydalanish maqsadiga qarab, «Fermer xo'jaligi»; «Dehqon xo'jaligi», «Qishloq xo'jalik kooperativlari to'g'risida»gi qonunlari bilan ham tartibga solinishi mumkin.

Suvni xuquqiy muhofazasi to'g'risida gapirganda «Suv muhofazasi», «Suvni xuquqiy muhofaza qilish», «Suvdan foydalanish huquqini himoya etish» kabi tushunchalar ma'nosini to'g'ri tushunish va farqlash lozim.

Suv muhofaza – bu «Suv resurslari va manbalarini muhofaza qilish» tushunchasiga nisbatan keng bo'lib, u o'zida suvni muhofaza qilish jarayonida barcha tabiat boyliklarini ham saqlash, tiklash va ulardan foydalanishda sanitariya biologik va ekologik talablari rioya qilish

jarayonida suvni muhofaza qilishni talab etadi. «Suvni xuquqiy muhofaza qilish» jarayoni esa, tabiatni muhofaza qilish, suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonun talablariga asosan, suv manbalaridan oqilona foydalanish, uni tabiiy xossasini saqlash, ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, suv resurslarini, manbalarini muhofaza qilishga qaratilgan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda, suv, sanitariya to'g'risidagi qonun talablarini buzilishiga qarshi kurashish, suvdan foydalanish va uning muhofaza qilish sohasidagi xuquqbuzarliklarni oldini olish bilan bog'liq va boshqa holatlarni o'z ichiga oladi.

«Suvdan foydalanish xuquqini himoya qilish» deganda esa, suvdan foydalanuvchilarning xuquq va manfaatlarini himoya etish, ya'ni suvdan foydalanuvchilarning suv munosabatlari bo'yicha sub'ektiv xuquq vakolatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilishni bartaraf etishga qaratilgan xuquqiy ekologik me'yorlar yig'indisi tushuniladi.

**5.4 Suv resurslaridan foydalanishni ekologik-xuquqiy jihatdan tartibga solish zaruriyati.** Sayyoramizda garchand suv bilan egallangan maydon quruqlikka nisbatan ikki barobar ko'p bo'lsa-da, uning ekologik muammosining yechimini topish juda dolzarbdir. Bunga sabab:

Birinchidan. Suv tirik organizmlar, jumladan, inson massasining 90% dan ortig'ini tashkil qilgan holda u doimo aylanma (tsirkulyativ) harakatda. Aylanma harakatdagi suv chuchuk, toza va musaffo bo'lishi talab etiladi. Aks holda tirik organizmlar nobud bo'ladi.

Ikkinchidan. Chuchuk suvlar zahiralari Sayyoramizda bir tekis tarqalmagan. Yer usti suvlari (daryo, ko'l, suv omborlaridagi suvlar)ning 70% aholi yashashi noqulay bo'lgan shimoliy sovuq yoki baland tog' mintaqalaridadir. Ayrim mamlakatlar (Kanada, Norvegiya, Rossiya...) da suv toshqinlari muammosi yuzaga kelayotgan bo'lsa, ayrimlarida (O'zbekiston, arab mamlakatlari, Turkmaniston...) suv tanqisligi juda katta muammodir.

Uchinchidan. Toza suv doimo harakatdadir. U ko'pincha daryolar orqali bir davlatdan ikkinchi bir davlatga o'tib boradi. Bu degan so'z daryo suvining muhofazasi xalqaro muammolar toifasiga kiradi va davlatlardan juda katta diplomatik mahorat talab qiladi.

To'rtinchidan. Okean suvlarining keskin ravishda ifloslanishi atmosfera havosida kislorodning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Chunki kislorodni «ishlab chiqaruvchi» okean yuzasidagi planktonlar ifloslanayotgan okean suvlarida kamayib boryapti.

Beshinchidan. Deyarli barcha xalq xo'jaligi sohalarida suv ishlatiladi. Hidroresurslarning imkoniyati kamayib, unga talab esa ko'payib bormoqda. Xo'jalikda ishlatilayotgan suv ham, afsuski, toza-chuchuk bo'lishi kerak ekan. Agrar respublika bo'lgan O'zbekistonda xalq xo'jaligining asosiy tarmog'i-qishloq xo'jaligi. Qishloq xo'jaligi maxsulotining 95% sug'oriladigan yerlardan olinadi.

Oltinchidan. Markaziy Osiyoda chuchuk suv zahirasi-183 km kub (undan Amudaryo 78 km kub va Sirdaryoda-36 km kub). uning aksariyati sug'orish uchun ishlatiladi va turli sun'iy suv havzalari (kolektor, drenaj, suv omborlari, tashlandiq ko'llar)da va yer ostida yig'ilib, Orol ko'li muammosini yuzaga keltirdi.

Xalqimiz «Suv-hayot manbai, suv bor joyda hayot bor», deb bejiz aytmagan. Suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish nafaqat global, regional, balki o'ta dolzarb milliy masaladir.

Suv resurslarini ekologik-xuquqiy jihatdan tartibga solish uchun mustaqil O'zbekistonimizda bir qancha ishlar qilingan. Masalan:

- ✓ suv va suvdan foydalanishga oid 20 dan ziyod maxsus va umumiy qonunlar qabul qilindi;

- ✓ Orol dengizi muammosi BMT va uning tashkilotlari tomonidan xalqaro darajadagi masalalar toifasiga ko'tarildi;
- ✓ suvlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishga yo'naltirilgan me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, dastur va loyihalar ishlab chiqildi;
- ✓ milliy, regional, global miqyosda shartnomalar tuzildi va h.k.
- ✓ Kelajakda, bizning fikrimizcha, O'zbekiston qonunchilik tizimida:
- ✓ Orol va Orol bo'yiga iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatdan «alohida muhofaza hudud» maqomini berish;
- ✓ Orol dengizi to'g'risidagi qonunni ishlab chiqish va qabul qilish;
- ✓ xalqaro suv havzalari va daryolarni muhofaza qilishga doir shartnomalar, monitoring –nazorat-ekspertiza-javobgarlik tizimini yaratish;
- ✓ suvlardan foydalanishni qat'iy hisobga olish va to'lovni shakllantirish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 19-moddasida bayon etilganidek, O'zbekiston Respublikasida suv va suv havzalaridan foydalanishning ekologik-xuquqiy shartlari quyidagilardan iborat:

- ❖ er usti, yer osti va dengiz suvlaridan zarur miqdordagi suvning tabiiy aylanishini saqlash, uning me'yorida ko'rsatilgan darajada tozaligini ta'minlash;
- ❖ suv o'simliklari va hayvonlarini asrash;
- ❖ suv havzalarining ifdloslanishiga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ suvda ekologik muvozanatni saqlash va suv havzasiga landshaft elementi sifatida ziyon yetkazmaslik;
- ❖ maxsus vakolatli davlat organlari daryo irmoqlari hosil bo'ladigan joylarda, suv sohili mintaqalarida daraxtzorlarni tiklashlari va dov-daraxtlarni ko'paytirishlari hamda ularning saqlanishini ta'minlashlari shart.

Konstitutsiyamizning 55-moddasi, Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 5-moddasiga muvofiq suv, boshqa tabiiy ob'ektlar singari umumilliy boylik-davlat mulkidir, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofazalanadi.

**5.5. Suvdan foydalanish xuquqi tushunchasi.** Suv resurslarini tabiat va jamiyat tizimidagi ijtimoiy munosabatlarda tutgan o'rni beqiyosdir. Chunki, suv resurslari tabiatning ajralmas qismi sifatida yer, osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tabiiy qonuniyatlar asosida ekologik tizimning barqaror evolyutsion rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatda suv resurslari o'ziga xos muhim o'rin tutib, avvalo insonning hayoti uchun zarur tiriklik manbai, jamiyat hayotida aholining turli ehtiyojlarini qondirish uchun iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy – marifiy sohalarida ham asosiy tabiiy resurs sifatida ahamiyati cheksizdir.

Bundan tashqari, suv O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini barcha tarmoqlari, shu jumladan agrosanoat tizimi uchun muhim strategik tabiiy resurs hisoblanadi. Respublikamizda 4,3 mln.ga sug'oriladigan yerlar bo'lib, unda asosiy qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtiriladi. O'zbekiston aholisi ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojlarini 60 foiz, yer osti suvlari orqali qondiriladi. Markaziy Osiyo suv hajmi cheklangan mintaqalardan biri sifatida asosiy suv manbai Amudaryo, Sirdaryo va boshqa daryo, suv havzalaridan iboratdir. Bugungi kunda suvga bo'lgan talab va ehtiyojning oshishi esa, ulardan ilmiy – amliy

jihatdan asoslangan ravishda oqilona foydalanish, hamda muhofaza etish choralarini ko'rishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng ekologik siyosatni birinchi navbatda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularning tabiiy holatini yaxshilashga qaratilgan muhim chora tadbir oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 55 – moddasida suv resurslari boshqa tabiiy boyliklarimiz singari umummilliy boylik bo'lib, ulardan faqat oqilona foydalanish zarurligi hamda ularning davlat tomonidan muhofaza qilinishi kabi xuquqiy tamoyillari hozirgi davrda shakllanib borayotgan suv qonunchiligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlarini belgilaydi.

Suvga oid qonun hujjatlarining shakllanishi o'z navbatida suv xuquqini paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bugungi kunda O'zbekiston xuquq tizimida suv xuquqi o'z mustaqil o'rniga, asosiga ega bo'lgan tobora takomillashib borayotgan xuquq sohalaridan hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida suv resurslaridan foydalanish o'z navbatida suvlarning holatini yomonlashishi, hajmining kamayishi kabi salbiy omillarni paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun jamiyatning turli tarixiy davrlarida suvdan foydalanish va muhofaza qilishga doir xuquqiy chora – tadbirlar joriy etiladi.

Ushbu holat o'z navbatida, suv resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Suv xuquqi suv resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy tomondan tartibga solishni o'rganuvchi fandır. O'z navbatida suv xuquqi respublikamiz xuquq tizimida o'z o'rnini, salohiyati, mustaqil yo'nalishi va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan xuquq sohasi hisoblanadi.

Davlat va xuquq nazariyasiga asosan mustaqil xuquq sohasi sifatida e'tirof etilayotgan xuquq birinchidan-ma'lum ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi; ikkinchidan-xuquqiy munosabatlarni tartibga solishda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi; uchinchidan, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda maxsus tamoyil, usullarni qo'llanilishi; to'rtinchidan; ma'lum ijtimoiy munosabat boshqa turdagi xuquqiy choralar bilan amalga oshirib bo'lmasligi va boshqa talablarga javob berishi lozim.

Suv xuquqi yuqorida ko'rsatilgan barcha talablarga javob beradi. Xususan, birinchidan-suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, ikkinchidan-suvlardan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq xuquqiy me'yoriy hujjatlar suvlarning ekologik holati sifati ko'rsatkichlari bilan bog'liq xususiyatlari asosida qabul qilinadi va tartibga solishda ishtirok etadi, uchinchidan-suvga oid maxsus xuquqiy tamoyil va usullarga ega bo'lib, ushbu ijtimoiy munosabatlarni boshqa yo'nalishdagi xuquqiy chora – tadbirlar bilan tartibga solib bo'lmaydi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, suv tabiatning ajralmas tarkibiy qismi va xuquqiy munosabatlarning ob'ekti sifatida ham o'z xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlar esa suv xuquqiy munosabatlarining murakkabligi, kengligi, xilma – xilligini ko'rsatadi. Ma'lumki, davlat va xuquq nazariyasiga asosan xuquq sohalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida tutgan o'rnini va darajasi nuqtai nazaridan mustaqil va kompleks (ya'ni, majmualashgan yoki keng qamrovi) xuquq soxalariga bo'linishi mumkin.

Mustaqil yo'nalishdagi xuquq soxalari ma'lum ijtimoiy munosabatlarni o'zining kuchi, imkoniyatlari doirasida tartibga soladi. Masalan, ma'muriy xuquq, jinoyat xuquqi, fuqarolik xuquqi, mehnat xuquqi va boshqalar.

Kompleks, ya'ni keng qamrovli ahamiyatga ega bo'lgan xuquq soxalari ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda boshqa xuquq soxalarining xuquqiy qoida talablari va tamoyillaridan foydalanadi.

Suv xuquqi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, birinchidan, suvga oid xuquqiy tamoyil, usul va qoida talablarini qo'llaydi, ikkinchidan, suvga doir ijtimoiy masalalarni hal qilishda boshqa xuquq soxalarining qoida talablaridan foydalanadi. Albatta, suv xuquqida belgilangan chora – tadbirlar, ya'ni suvga oid xuquqiy tamoyil, qoida – talablar ekologik xuquqiy tamoyil, talablar bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, suv bilan bog'liq masalalarni hal qilishda ma'muriy, jinoiy, fuqarolik, mehnat va xo'jalik xuquqining vosita va qoida – talablari ham keng qo'llaniladi.

SHunday qilib, suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar o'rtasida paydo bo'ladigan ijtimoiy munosabatlarni xuquqiy tomondan tartibga solish suv xuquqining predmeti deb, aytiladi.

**5.6 Suv foydalanish xuquqining tamoyillari, usullari va tizimi.** Hammamizga ma'lumki, har bir xuquq sohasi, shu jumladan, suv xuquqi ham suvga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish jarayonida o'ziga xos tamoyil va usullariga ega bo'lib, tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning doirasi, ko'lamidan kelib chiqadi.

Xuquq soxalarinin, jumladan suv xuquqining tamoyillari suvdan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni xuquqiy tartibga solish maqsad va vazifalari yo'nalishlarini belgilashga xizmat qiladi. Suv xuquqining tamoyillari tabiiy qonuniyatlarga tayangan holda barcha yuridik va jismoniy shaxslarning suvga bo'lgan xatti harakatlarini ilmiy jihatdan asoslangan holda yo'naltirishdan iboratdir.

Suvga doir munosabatlar doirasi murakkabligi suv xuquqi tamoyillarining quyidagi tizimga bo'linishiga olib keladi:

*-Davlat va xuquqning umumiy tamoyillari;*

*-Suvga doir maxsus tamoyillar.*

Ma'lumki, suv xuquqi xuquq tizimining sohasi sifatida suvga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda davlat va xuquq tizimining quyidagi umumiy ahamiyatdagi tamoyillaridan foydalaniladi;

- *qonuniylik;*
- *ijtimoiy adolat;*
- *oshkoralik;*
- *ishontirish va majburlov choralarining qo'llanilishi;*
- *shaxslarning xuquq va burchlarining birligi va boshqalar.*

Suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning maxsus tamoyillari davlat va xuquqning umumiy tamoyillariga asoslangan holda olib boriladi. Suvga doir ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi Qonunida ushbu soxadagi umumiy va maxsus tamoyillar belgilanmagan. Biz o'ylaymizki, O'zbekiston Respublikasining yangi suv qonunchiligi maxsus tamoyillarni o'z ichiga olishi o'z navbatida suvga doir davlat siyosatini to'g'ri yo'naltirishga xizmat qiladi.

Suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning maxsus tamoyillari quyidagilardan iborat:

- *atrof tabiiy muhitning barqarorligin saqlash;*
- *aholining suvga bo'lgan xuquqlarini kafolatlash;*
- *suv resurslaridan umumiy foydalanganlik uchun xaq olinmasligi;*
- *suv resurslaridan maxsus foydalanganlik uchun xaq olinishi;*

- *suvga nisbatan davlat mulkining qo'llanilishi;*
- *suvga doir munosabatlarni boshqarishda havza tamoyilning qo'llanilishi;*
- *suvlarni muhofazakilik va tejab foydalanganlik uchun rag'batlantirish choralarini belgilanishi;*
- *suvga yetkazilgan zararni qoplash va undirishning majburiyligi;*
- *suv kadastirini yuritishning majburiyligi va boshqalar.*

Ushbu maxsus tamoyillar asosida O'zbekiston Respublikasida suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish jarayoni ta'minlanadi va kafolatlanadi.

Suv xuquqi predmeti, yo'nalishlari, maqsad va vazifalarga ega bo'lgani kabi u usullariga ham ega bo'lib, suvga doir munosabatlarni davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va mansabdor shaxslar tomonidan tartibga solish shakllari belgilanadi.

Suv xuquqida asosan quyidagi usullar qo'llaniladi:

- ✓ *Ekologiyalashtirish;*
- ✓ *Ma'muriy – xuquqiy;*
- ✓ *Fuqoroviy – xuquqiy;*

Ekologiyalashtirish usuli – suvlarni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish jarayoniga jamiyat hayotining barcha jabhalari, xalq xo'jaligining turli soxalarini jalb etish orqali amalga oshiriladi.

Maxmuriy xuquqiy usul – davlat va xuquqning muhim usullaridan biri bo'lib, davlatning boshqaruv chora – tadbirlarning qo'llanilashida namoyon bo'ladi.

Suv xuquqida mazkur usul keng qo'llanilib, suvlarni muhofaza qilish va suv resurslaridan oqilona foydalanish jarayonini ta'minlovchi qoida – talablarning belgilanishi, barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ekologik qoida talablarga buzilgan taqdirda javobgarlik chora tadbirlarni qo'llashda katta ahamiyatga egadir.

Fuqaroviy xuquqiy usul - suv xuquqida tobora rivojlanib borayotgan usul sifatida bevosita suv xuquqiy munosabatlari ishtirokchilarning tengligi, moddiy rag'batlantirish, suvlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishda iqtisodiy chora tadbirlarning qo'llanilishida namoyon bo'ladi.

Ekologiyalashtirish, ma'muriy xuquqiy, fuqarolik xuquqiy usullar orqali suv xuquqiy munosabatlari tartibga solinadi.

Suv xuquqi xuquq tizimidagi boshqa xuquq soxalari bilan bog'liq bo'lib, suv xuquqiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi. Suv xuquqiy munosabatlarni tartibga solishda konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy va xo'jalik xuquqi soxalarining tamoyil, qoida va talablari ham ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasining qonunlari suvdan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq umumiy va maxsus tamoyil, qoida talablar belgilangan bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlarda ko'rinadi:

- *suvga doir davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining vakolatlari;*
- *xuquqni muhofaza qilish organlarining suv xuquqiy tartibotni*
- *mustaqamlashdagi vazifalari;*
- *fuqarolarning majburiyatlari;*
- *foydalanuvchilarining ekologik xuquqlari;*

- *suvga doir davlat siyosatining asosiy tamoyillarining belgilanishi va boshqalar.*

Ushbu muhim yo'nalishlarda suv xuquqi konstitutsiyaviy xuquq bilan o'zaro bog'liqdir.

**5.7 Davlat suv fondi va uni boshqarish.** Yurisprudentsiyada Suv xuquqi mustaqil xuquq soxasi sifatida qaraladi. Lekin u O'zbekistonda to'liq shakllanmagan fan soxasidir. Mamlakatimizda suv muammolarining ortib borayotganligi suv xuquqini ham rivojlantirishni talab etmoqda. Sobiq Ittifoq respublikalari ichida birinchi bor Toshkent Davlat yuridik institutida Suv xuquqi darsligi ishlab chiqildi va magistr'larga mustaqil xuquq predmeti sifatida o'tilmoqda.

Yer singari suvni muhofaza qilish va undan foydalanishni ham xuquqiy jixatdan tartibga solish uchun turli xil toifalarga ajratib olinadi. Aynan o'sha toifalar bo'yicha ijtimoiy munosabatlar ekologik-xuquqiy jihatdan tartibga solinadi.

1993 yil 6 maydagi «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga ko'ra, O'zbekistonda yagona suv fondi uch toifaga ajratilgan:

- yer usti suvlar (daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, hovuzlardagi suvlar);
- yer osti suvlari va muzliklar;
- xalqaro suvlar (Amudaryo, Sirdaryo, Orol dengizi, Zarafshon va shu kabi ikki va undan ortiq davlat hududlaridan oqib o'tadigan yoki ularning hududida joylashgan suv havzalari va suv manbalari).

Suv davlat mulki bo'lganligi uchun ham suvga oid munosabatlar davlatning umumiy va maxsus vakolatlangan organlari tomonidan tartibga solinadi.

Oliy Majlis to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonun hamda «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga binoan , Oliy qonun chiqaruvchi hokimiyat sifatida suvga doir munosabatlarni tartibga solishda tegishli qonunlar ishlab chiqadi, qabul qiladi va ularning bajarilishini nazorat qiladi, suvga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilaydi va strategik dasturlarni qabul qiladi.

Vazirlar Mahkamasi o'zi to'g'risidagi qonunda kelib chiqqan holda, «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 6-moddasida belgilangan vakolatlariga binoan: suvlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish soxasida yagona davlat siyosatini o'tkazadi; maxsus vakolatlangan davlat organlarining faoliyatini uyg'unlashtiradi; suvdan foydalanishning me'yorlari va limitlarini tasdiqlaydi; suv kadastri-monitoringi-nazorati tizimini yaratadi va uning yuritilishini ta'minlaydi; suvga tegishli yirik xodisa va jarayonlar yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqadi; suv to'lovlari va xaq o'ndirish tartibini belgilaydi; davlatlararo munosabatlarni rivojlantiradi va qonunlarda nazarda tutilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan keyingi 10 yil mobaynida 100 dan ziyod munosabatlarni tartibga solishga doir qaror, yo'riqnoma hamda ko'rsatmalar ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza etish ustidan davlat nazoratini mahalliy hokimiyat hamda boshqaruv organlari, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi, sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi o'zlari to'g'risida qabul qilingan qonunlar va nizomlar asosida olib boradilar. Idoraviy nazorat esa Geologiya va mineral resurslar davlat qumitasiga topshirilgan.

Suvga oid munosabatlarni tartibga solishda nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari va jamoalarning vakolatlari tegishli qonunlarda belgilangan va ular davlatga ko'makdosh ekanligi ifoda etilgan. Bizningcha, o'zini o'zi boshqarish organlari va jamoat



birlashmalari nafaqat ko'makdosh, balki mustaqil nazorat olib boruvchi sub'ekt bo'lishi demokratik jamiyat talablarini bajarish va fuqarolik jamiyatini o'rnatishda katta xizmat qiladi.

### **Nazorat savollari**

1. Suv resurslaridan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz?
2. Suvdan foydalanuvchilarning xuquqlari nimadan iborat?
3. Suvni ekologik-xuquqiy muhofaza qilish deb nimaga aytiladi?
4. Suv qonunchiligiga oid javobgarlik va tegishli yuridik jazo qanday hollarda qo'llaniladi?
5. Suv resurslarini nima uchun ekologik-xuquqiy muhofaza etish zarur?
6. Suv ob'ektlariga nimalar kiradi?
7. Suvga oid munosabatlarda umumiy va maxsus davlat boshqaruv organlarining funktsiyalari qanday?
8. Suvlarni ekologik-xuquqiy muhofaza qilishning xuquqiy asoslarini keltiring?
9. Suvdan foydalanuvchilarning xuquqlari nimalardan iborat?
10. Suvdan foydalanuvchilarga qanday majburiyatlar yuklatiladi?
11. Markaziy Osiyoda suv muammolari va ularning ekologik-xuquqiy yechimi qanday?
12. Qanday suv ob'ektlardan foydalanish O'zbekistonda xalqaro-xuquqiy me'yorlar asosida tartibga solinadi?
13. Jinoyat kodeksida suvga oid xuquqbuzarliklar uchun qanday sanksiyalar o'rnatilgan?
14. Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish talablarini aytib bering.
15. Suvdan foydalanish me'yorlari bormi?

### **6-ma'ruza**

#### **Mavzu: YER MUNOSABATLARIDA EKOLOGIK-XUQUQIY QOIDALAR**

#### **Reja:**

**6.1 Yerga ekologik-xuquqiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati**

**6.2 Yerlarni xuquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari**

**6.3 Yer fondi toifalari bo'yicha ekologik-xuquqiy qoidalar**

**6.4 Yerdan foydalanishda nazoratning ekologik xuquqiy javobgarligi**

**Adabiyotlar:** 5, 12, 18, 20, 35,

**Tayanch iboralar:** *gumus, konservatsiya, rekreatsiya, transplantatsiya, eroziya*

#### **6.1 Yerga ekologik-xuquqiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati**

Yerlarni muhofaza qilish deb ulardan belgilagan maqsadda oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, o'rmon fondi yerlarining samaradorligini tiklash va oshirish, qishloq xo'jalik oborotidan va aloxida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan yerlarning asossiz ravishda olib qo'yilishining oldini olish, ularni zararli antropogen ta'sirdan himoya qilishga qaratilgan xuquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimiga aytiladi.

Yerlarni muhofaza qilish yerlarga murakkab tabiiy xosilalar (ekotizimlar) tariqasida, ularning tabiiy hudud va mintaqaga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan tarzda atroflicha yondashish asosida amalga oshiriladi.

Yer kodeksining 79-modda 4-qismiga binoan yer munosabati qatnashchilari, ya'ni yer egalari, foydalanuvchilar va ijarachilar:

\* hududni oqilona tashkil etadilar, ya'ni yerlarni yer fondi toifalari va yer uchastkalariga ajratishda, avvalambor, ularni muhofaza qilish nuqtai nazaridan qaraydilar;

\* ( tuproq unumdorligi, tuproq osti «ona jinslar» ni xossa va xususiyatlari kabi zaruriy tabiiy jarayonlarning kechuvini ta'minlaydilar;

\* ( yerlarni suv va shamol eroziyasidan, sellardan, suv bosishdan, zaxlanishdan, qayta shur bosishdan, qaqrab qolishdan, ishlab chiqarish chiqindilari, kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishdan, xarob qiladigan boshqa jarayonlardan himoya qiladilar;

\* ( hosildan qolgan qishloq xo'jalik yerlaridagi tuproq unumdorligini boshqa usullar bilan qayta tiklashning iloji bo'lmasa, bu yerlarni konservatsiya (saqlab solish) qiladilar;

\* ( buzilgan (jarlangan, o'pirilgan, yemirilgan, texnogen buzilgan) yerlarni qaytadan ekinzorlarga aylantiradilar, ularning unumdorligi va boshqa foydali xususiyatlarini (xossalarini) oshiradilar;

\* ( yerlarni buzish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni amalga oshirish chog'ida tuproqning yuqori unumdor (chirindiga boy qatlami 20-30 sm) qatlamini sidirib oladilar (transplantatsiyalaydilar), undan foydalanadilar va uni saqlab qoladilar.

Davlat, jamoat va nodavlat tashkilotlari esa, ushbu ekologik-xuquqiy talablarning bajarilishi yuzasidan dastur, reja, loyixalar ishlab chiqadilar, chet el sarmoyasini kiritadilar va uni amalga oshirish uchun butun kuch va idroklarini sarflashlari ham qonunga oshirish uchun butun kuch va idroklarini sarflashlari ham qonunchilikda aks ettirilgan.

Masalan, 1999-2005 yillarda O'zbekiston Respublikasining atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish ishlari dasturini amalga oshirish tadbirlarida o'pirilishlar, ko'chki va sel kelish xavfini baholash uchun davlatning tegishli organlariga Respublika byudjetidan 26 mln.sum ajratilgan. Atrof-muhit monitoringiga esa idoralar va korxonalar mablag'laridan 1,3 mlrd. sumdan ortiq mablag' sarflanishi ko'zda tutilgan.

2003 yilga kelib O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning yarmidan ko'pi sho'rlangan, tuproqda chirindi miqdori (gumus) 30-50% kamaygan, 30 mln.gektar yerda suv va shamol eroziyasi o'z salbiy oqibatlarini ko'rsatmoqda, cho'l va chala cho'l mintaqalarida yer degradatsiyasi, tog' oldi hududlarda esa cho'llanish jarayoni ketoqda. Respublikamizda jon boshiga to'g'ri keladigan ekin maydoni 0,22 gektardan 0,17 gektarga tushib qoldi. Aholisi jadal sur'atlarda (12 yil ichida 5 mln. kishiga ko'paygan, bu degan so'z Turkmanistondan yoki Qirg'izistondan ko'p axoliga shu davrda o'sgan) o'sib kelayotgan O'zbekistonda yer va suv muammosi o'ta muhim va dolzarbdir. Shuning uchun ham bizda yerlarni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

Ob'ektlar, imoratlar va inshootlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ulardan foydalanishda yuqorida qayd qilingan yerlarni muhofaza qilish tadbirlarni nazarda tutish, ularni ekologik-ekspertizalash, yer tuzish va ularni ilmiy asosda joylashtirish Yer kodeksining 80-moddasiga muvofiq talab etiladi.

Kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslantirish hamda ifloslangan yerlardan 1992 yil 3 iyulda qabul qilingan «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonunning 11-moddasiga binoan oldini olish va Yer kodeksining 81-moddasiga asosan foydalanish tartibi o'rnatilgan.

Yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish uchun, albatta, moddiy va moliyaviy baza bo'lishi kerak. Yer kodeksining 82-moddasida ko'rsatilgan talablar bo'yicha Davlat byudjetidan, maxalliy hokimiyat byudjetidan, ekologik jamg'arma, xalqaro ekologik jamg'arma, loyiha, grant kabilarga millionlab so'm miqdorda mablag' ajratilmoqda. Birgina

mahalliy ekologik davlat jamg'armalariga 2001yilda 254 mln. so'm kelib tushgan, lekin sarflangan 237,4 mln. so'mdan 135 mln. so'm tashkiliy va ma'rifiy ishlarga sarflanishini ijobiy holat deb bo'lmaydi. Afsuski, ekologik to'lov va soliqlardan tushayotgan mablag'ning 80% davlat byudjetiga, atigi 20% mahalliy tabiatni muhofaza qilish jamg'armalariga tushishi yerlarni muhofaza qilishga qaratilgan tadbirlarning moliyalanishini kamaytirib yubormoqda. Chet davlatlarda ekologik to'lov va soliqlardan tushadigan mablag'-Rossiyada 60:40, germaniyada esa 50:50 nisbatdadir.

**6.2 Yerlarni xuquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari.** Yerga oid munosabatlar nafaqat yer qonunchiligi (Yer kodeksi, 3 modda), balki ekologik qonunchilik («Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida», 17-modda) asosida ham tartibga solinadi. Modda va energiya almashinuvi hamda organizmlarning ozuqa zanjirida tuproqning o'rni beqiyosligini inobatga olgan holda, «tuproq to'g'risida» alohida qonun qabul qilish va uni Konstitutsiyamizning 55 –moddasiga asosan alohida bir tabiiy ob'ekt sifatida e'tirof etish lozim.

Yer munosabatlarini tartibga solishda Vazirlar Mahkamasi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari Yer kodeksining 4-7 moddalarida aks ettirilgan. Ammo qolgan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarning yerga oid vakolatlari yer qonunchiligida to'liq berilmagan.

Yer qonunchiligida yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishning xuquqiy ta'minlash yo'llari 4 rasmda ko'rsatilgan. Yerlarni ekologik-xuquqiy muhofaza qilish, avvalambor, ularning son, sifat va miqdor ko'rsatkichlari hamda aholining yerga bo'lgan talabini qondirish nuqtai nazaridan toifalarga ajratiladi. Yer kodeksining 2-bobi yer fondi toifalarini ushbu ko'rsatkichlarga ko'ra 8 qismga ajratib beradi. o'nta to'rtinchi toifa-tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar alohida ajratib olingan. Yer toifalarining birini ikkinchisiga o'tkazish, uning qimmatiga hamda davlat-jamoat ahamiyatiga qarab boshqarish markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi. Har bir toifa uning kadastr ko'rsatkichlariga qarab, yer uchastkalarini egallash, foydalanish va mulkchilik qilish maqsadida bo'lib beriladi.

Yer fondi va yer uchastkalari ajratilgandan so'ng, ularda yer tuzish ishlari olib boriladi.

Yer tuzish (Yer kodeksining 12-moddasiga ko'ra)-erlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishni tashkil etishga, yer resurslarini hisobga olish va baholashga, qulay ekologik muhitni vujudga keltirishga va tabiiy landshaftlarni yaxshilashga, yer tuzishning hududiy va ichki xo'jalik rejalarini tuzishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.
--

Yer tuzish ishlari 1999 yil 11 noyabrda tasdiqlangan «Asosiy Nizom»ga muvofiq olib boriladi. Yer tuzish ishlari davlat yer kadastrari (Davlat kadastrlari to'g'risidagi qonun) va yer monitoringini (Yer kodeksi, 14-modda) olib borishga asos bo'la oladi.

Yer tuzish, kadastrni yuritish va monitoringni olib borish jismoniy va yuridik shaxslarning Yer kodeksining 16-moddasida aks ettirilgan yerga nisbatan bo'lgan xuquqlarini aslo inkor etmaydi. Faqatgina egallovchi yoki foydalanuvchilarning majburiyatlarini ham aniqlashtiradi. Unga binoan har bir shaxs yer uchastkasidan mulk xuquqi, umrbod egalik qilish va meros qilib qoldirish, doimiy, muddatli yoki birgalikda foydalanar ekan ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan yerga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdir. Bunday ekologik talab yer uchastkasini realizatsiya qilish (egalik qilish va foydalanish uchun berish), ijara (shartnoma asosida xaq evaziga muddatli egalik qilish va foydalanishga berish), qidiruv ishlari (geologik suratga olish va qidirish, geodeziya va shu kabilar), imorat qurish, yakka tartibda uy-joy qurish hamda uni obodonlashtirishda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi shart.

Yerlardan oqilona va samarali foydalanish, unga yetkazilgan antropogen zararni qoplash, tuproq unumdorligini ko'tarish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida yerdan maxsus foydalanganlik uchun to'lovlar o'ndirib olinadi. Yer to'lovi yuridik va jismoniy shaxslar uchun alohida yer solig'i yoki ijara xaqi sifatida o'ndirib olinadi. Yer solig'i stavkalari (Soliq kodeksining 96-98 –moddalariga binoan) yer uchastkasining sifati, joylashgan manzili va suv bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab belgilanadi.

Yer uchastkasini saqlashda ekologik talablar Yer kodeksining 29-moddasida bayon etilgan. Ularga: yer uchastkasidan foydalanish maqsadini o'zgartirmaslik, yer unumdorligi saqlash va oshirish; irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini soz holatda saqlash chora-tadbirlarini amalga oshirish; tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya qilish yoki muayyan ishlarni bajarish, shu jumladan, tuproq qatlami, noyob o'simliklarni, tabiat yodgorliklarini asrash. Ushbu ekologik talablar yer uchastkasining xuquqiy maqomiga kiritiladi va tegishli qonun xujjatlari bilan belgilanadi.

O'zganing yer uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish xuquqida ham foydalanuvchilar ixota daraxtlarini ekish va tabiatni muhofaza qilishga taaluqli boshqa ob'ektlarni barpo etishga ruxsat beriladi.

Yer kodeksining 36-moddasiga binoan jismoniy va yuridik shaxslarning yer uchastkasiga bo'lgan xuquqlari ushbu moddaning 7-bandi-er uchastkasidan oqilona foydalanilmaganda (uch yil davomida kadastr bahosidan kam hosildorlikka erishilganda), 8-bandi-tuproq unumdorligi pasayishiga, uning kimyoviy va radioaktiv moddalar bilan ifloslanishiga, ekologik vaziyatning yomonlashuviga olib keladigan usullar bilan foydalanilgan taqdirda bekor qilinadi yoki tegishli davlat organining taqdimnomasiga binoan olib qo'yiladi.

Davlat va jamoatning ekologik xavfsizligini ta'minlash uchun yer uchastkasi yoki uning bir qismi yer egasining roziligi yoki yerdan foydalanuvchi va ijarachi bilan kelishilgan holda tegishli tuman, shahar, viloyat yohud Vazirlar Mahkamasining qarori bilan olib qo'yilishi mumkin. Agarda yer uchastkasi Yer kodeksining 37, 41-moddalarida ko'rsatilgan shartlar asosida mulk qilib sotib olingan bo'lsa, ekologik nuqtai nazardan ham davlat va jamoat ehtiyojlari uchun qayta sotib olinadi.

Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va mulkdorlarning ekologik xuquqlari va majburiyatlari Yer kodeksining 5-bob, 39-42 moddalarida aks ettirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:


#### **Xuquqlari:**

- \* tabiiy zaxiralardan qonun xujjatlarida belgilangan tarzda foydalanish va foydali xususiyatlarini ishga solish;
- \* erlarni sug'orish, zaxini qochirish, agrotexnika va melioratsiya ishlarini o'tkazish;
- \* qishloq xo'jalik ekinlarini, dov-daraxtlarni sug'orish (limitlarga muvofiq ravishda).

#### **Majburiyatlari:**

- \* belgilangan maqsadda oqilona foydalanish;
- \* tuproq unumdorligini oshirish;
- \* ishlab chiqarishda tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarni qo'llash;
- \* o'z xo'jalik faoliyati natijasida xududda ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik;
- \* erlarni muhofaza qilishga oid Yer kodeksining 79-moddasida ko'rsatilgan va quyida yoritib o'tiladigan tadbirlarni amalga oshirish;

\* foydali qazilma konlarini ishlatish, qurilish, xalq xo'jaligi kommunikatsiyalarini o'tkazish va boshqa ishlarni amalga oshirish uchun berilgan qishloq hamda o'rmon xo'jaligi yerlarini, ularga ehtiyoj qolmagandan keyin, o'z hisobidan qishloq va o'rmon xo'jaligi yoki baliq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish hamda atrofidagi yer uchastkalarining tabiiy holatiga zarar yetkazmaslik va h.k.



2-rasm. Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni xuquqiy ta'minlash yo'llari.

Yuqorida sanab o'tilgan xuquq va majburiyatlarning o'z vaqtida bajarilishi uchun davlat kafolat sifatida xizmat qiladi. Ushbu kafolat qonun xujjatlarida belgilangan tartibda xuquqlarini tiklash, yetkazilgan zarar (jumladan, boy berilgan foyda)ni qoplash, kadastr bahosi teng bo'lgan yer uchastkasini boshqa joydan ajratib berish va inshoot hamda binolarni qurib berish, qayta sotib olish kabilardan iboratdir.

**6.3 Yer fondi toifalari bo'yicha ekologik-xuquqiy qoidalar.** O'zbekistonda yerlarni ekologik-xuquqiy muhofaza qilish talablari sakkiz toifadagi yer fondi uchun ham alohida o'rnatilgan. Bularning ichida eng ko'p tarqalgan (25,8 mln.ga yoki umumiy yer fondining 58%) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning ekologik-xuquqiy holati nafaqat Yer kodeksi (6-bob, 43-58 moddalar), Tabiatni muhofaza qilish, Qishloq xo'jalik kooperativi (SHirkat xo'jaligi), Fermer xo'jaligi, Dehqon xo'jaligi, Korxonalar, Mulkchilik, Qishloq xo'jalik korxonalarini sanatsiya qilish kabi o'nlab qonunlar hamda «Yerlardan samarali foydalanishni oshirish to'g'risida»gi Prezidentning 1994 yil 24 noyabrda Farmoni, «O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni sifat va pullik bahosini belgilashning vaqtinchalik metodikasi» (1998 yil 6 avgust), «O'zbekiston Respublikasida tuproq bonitirovkasi ishlarini olib borish va ma'lumotlarini tasdiqlash» (1998 yil 18 may. 732-sonli VMK) kabi o'nlab me'yoriy xujjatlar asosida ham o'rnatilgan.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarga uning ehtiyojlari uchun berib qo'yilgan va ana shu maqsadlar uchun belgilangan yerlar kiradi. Mazkur yer fondiga nafaqat xaydalgan yerlar, balki pichanzorlar, yaylovlar, tashlandiq yerlar, ko'p yillik dov-daraxtlar (bog'lar, tokzorlar, tutzorlar) bilan qoplangan yerlar, jumladan, qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ichki xo'jalik yo'llari, kommunikatsiya, o'rmonlar, yopiq suv havzalari, binolar, imoratlar va inshootlar egallagan yerlar ham kiradi.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarning eng qimmatlisi sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Sug'oriladigan yerlar-qishloq xo'jaligida foydalanish va sug'orish uchun yaroqli bo'lgan, suv resurslari shu yerlarni sug'orishni ta'minlay oladigan sug'orish manbai bilan bog'langan doimiy va muvaqqat sug'orish tarmog'iga ega bo'lgan yerlardir. Ularning umumiy maydoni 4,3 mln.ga bo'lib, butun tovar qishloq xo'jalik maxsulotining 95% dan ortig'ini beradi. Shuning uchun ham O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning alohida ekologik-xuquqiy maqomi belgilangandir.

Yer kodeksining 44 moddasiga ko'ra, sug'oriladigan yerlarni sug'orilmaydigan yerlar sirasiga o'tkazish, alohida zarurat tug'ilganda Vazirlar Mahkamasi bilan kelishga holda, viloyat hokimining qaroriga binoan amalga oshiriladi. Kadastr bahosi o'rtacha tuman bonitet balidan (sifat ko'rsatkichidan) 20% ko'p bo'lsa, «alohida qiymatga ega bo'lgan unumdor sug'oriladigan yerlar» jumlasiga kiradi va ularni sug'orilmaydigan yerlar jumlasiga o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi yoki Vazirlar Mahkamasining alohida qarori kerak bo'ladi.

Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanilayotgan shirkat xo'jaliklari, dehqon va fermer xo'jaliklari, fuqarolar, jamoa bog'dorchiligi, polizchiligi va uzumchiligini yuritayotgan shaxslar o'z yer uchastkalaridan belgilangan maqsadlarda qishloq xo'jalik tovar maxsulotlarini ishlab chiqarish xuquqiga egadirlar. Lekin ular biznes rejalarida tuproq unumdorligini yaxshilash va yerlardan oqilona foydalanish yuzasidan aniq tadbirlarni nazarda tutishlari shart. Mulkchilikning qaysi shaklida bo'lishidan qat'i nazar, jismoniy va yuridik shaxslarga (Yer kodeksining 49-58 moddalarida ko'rsatilganidek) yer berish tartibi tuproqlarning ta'biy iqlim sharoiti, ekologik holati va kelajak istiqbollari hamda mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga qarab o'rnatiladi.

Aholi punktlari (shaharlar, aholi qo'rg'onlar va qishloq aholi punktlari) yerlarining sifat va son ko'rsatkichlariga ko'ra, uning ichida daraxtzor va alohida muhofaza etiladigan hududlar uchun aholini toza atrof-muhitga bo'lgan talabini qondirish maqsadida yerlar ajratiladi. 2002 yil 4 apreldagi Shaharsozlik kodeksining 36, 47, 51-moddalarida aholi punktlari hududlarini rivojlantirish tarixlarida atrof-muhitni muhofaza qilish, rekreatsion zonalarni yaratish, shahar atrofi yashil hududlarini barpo qilish majburiy holat qilib kiritilgan. Shahar va aholi punktlarini qurish va rivojlantirish loyihalari (Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunning 11-moddasiga ko'ra) mutaxassis ekologlarning xulosalash ob'ekti hisoblanadi.

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarda ularning atrof tabiiy muhitga yetkazadigan zararini kamaytirish, tabiiy-texnogen xodisalar va jarayonlardan buzilishining oldini olish uchun yashil muhofaza polosalari va zonalarini barpo etish talab qilinadi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerlari tarkibidan tabiatni muhofaza qilish maqsadida mo'ljallangan yerlar ajratilib olinadi. Yer kodeksining 72-moddasida ushbu yerlarni ajratish, berish va ularni muhofazalashning umumiy talablari berilgan. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risidagi qonunda esa ushbu talablar kengaytirilgan va aniqlashtirilgan tarzda ifoda etilgan. Mazkur matnning VII bobida biz alohida muhofaza etiladigan hududlarning ekologik-xuquqiy tartiboti haqida atroflicha to'xtalib o'tamiz.

Sog'lomlashtirish, rekratsiya va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlarda ham atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish aholining salomatligini tiklash, dam olishini yuqori darajada uyushtirish va tarixiy yodgorliklarning saqlab qolinishini ta'minlash uchun ham kerakdir. Aks holda, ushbu maqsadlarni amalga oshirishning iloji ham bo'lmaydi.

O'rmon, Suv va suvdan foydalanish to'g'risidagi qonunlar Yer kodeksining 10-bob 76-78 moddalariga muvofiq o'rmon fondi, suv fondi va zaxira yerlardan foydalanishning ekologik-xuquqiy nomralari o'rnatilgan. O'rmon va suvning o'zi ekologik tizimda turuvchi tabiiy ob'ekt hisoblanadi. Shuning uchun ham ularni bus-butun saqlash ekologik-xuquqiy talabning bir qismidir.

**6.4 Yerdan foydalanishda nazoratning ekologik xuquqiy javobgarligi** Yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan nazorat nafaqat davlatning maxsus vakolatlangan organlari (Tabiatni muhofaza qilish va Yer resurslari davlat qumitalari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bosh boshqarmasi, Davlat sanitariya nazorati, mahalliy davlat hokimiyati organlari) balki jamoat va nodavlat tashkilotlarning nazoratidan ham iboratdir.(5-rasm)

Yer nazorati –erlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid, yer qonun hujjatlari talablarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini davlat organlari, jamoat birlashmalari hamda vakolatlangan idoralar va shaxslar tomonidan tekshirish.


Davlat yer nazorati (inspeksiyasi) esa davlatning mahalliy hokimiyat va maxsus vakolatli organlarining yer munosabati qatnashchilari (sub'ektlari)ning yer uchastkalaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir faoliyatlarini tekshirish. Ushbu faoliyat tegishli davlat organlarining Nizomlariga muvofiq amalga oshiriladi va yer nazorati inspektorlariga muayyan vakolatlarni beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-121 moddalari va «Prokuratura to'g'risida»gi qonunning mohiyatidan kelib chiqqan holda davlatning maxsus nazoratini Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradilar.

Prokuror nazorati deb prokuratura tomonidan yer munosabatlari sub'ektlari (jumladan, davlat organlari va mansabdor shaxslar) faoliyati yer qonun xujjatlariga mosligini tekshirishga aytiladi.

Fuqarolik jamiyatida har bir ijtimoiy munosabatlar kishilarning uyushgan qismi tomonidan ham tekshirilishi nazarda tutiladi. Jamoat yer nazorati-erlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish borasidagi yer qonunchiligi talablariga rioya etishni nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tekshirish. Yer nazorati ikki xil shaklda olib boriladi-axborotlash va jazolash.

Yer nazoratining axborotlash shakli-ogoxlantiruvchi va jazolovchi choralarni qo'llash maqsadida davlat nazoratining yer munosabati sub'ektlarining yer qonunchiligi talablarini bajarilishlariga doir zaruriy ma'lumotlarni yig'ish va ularni umumlashtirishga qaratilgan tekshirish turi..



3-rasm. Yerlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishi nazorat qilish.

Yer nazoratining jazolash shakli-erlarni muhofaza qilish hamda ulardan oqilona foydalanish bo'yicha qonun talablarini bajarmaydigan va ularga rioya etmaydigan xuquqbuzarlarga nisbatan davlatning majburlov choralarini qo'llashga qaratilgan tekshirish turi.

Yer nazoratini amalga oshirishning umumiy qoidalari Yer kodeksining 84-85 moddalarida aks ettirilgan. Unda ekologik-xuquqiy talablar bo'yicha tekshiruv ishlarini olib borish prioritet (birdamchi) me'yor sifatida berilgandir.

Yer qonunchilik talablarining buzilishi yer munosabati qatnashchilarini yuridik javobgarlikka tortishga asos bo'la oladi.

Yer nazoratini olib borish yer egalari, foydalanuvchilar, ijarachilar va mulkdorlarga yetkazilgan zararni, jumladan, ekologik zararni qoplash (Yer kodeksi, 86-modda), qishloq va o'rmon xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiliklarining o'rnini qoplash (Kodeksining 87-moddasi), yuridik javobgarlik sanksiyalarini qo'llashga (Kodeksning 90-moddasi) xamda o'zboshimchalik bilan egallab olingan yerlarni qaytarib olishga asos bo'la oladi.

1 jadval

**Yer muhofazasiga oid qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**

*Yer qonunchiligining buzilish turlari*

*Javobgarlik*



Yerlardan belgilangan maqsadlarda foydalanmaslik	MJK-105-106.JK-7,270. YEK-90, TMKK-47-48,52.
Yerlarni yaroqsiz holga keltirish, ularni kimyoviy va radioaktiv moddalar, ishlab chiqarish chiqindilari hamda oqova suvlari bilan ifloslantirish	MJK-77, 89, 91, 104. JK-193-197,201. FK-985 TMKK-47-51.MK-181.
Yer holatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ob'ektlarni joylashtirish, qurish, loyihalashtirish va foydalanishga topshirish	MJK-96 TMKK-47
Ekologik talablarni bajarmaslik	MJK-91.MK-181. JK-172, 193. TMKK-47-52.
Vaqtincha egallab turgan yerlarni qaytarish muddatini qaytarish muddatini buzish yoki yerlarni belgilangan maqsadlarda foydalanishga yaroqli holatga keltirishga oid majburiyatlarni bajarmaslik	MJK-67. JK-197. TMKK-47-51. FK-985.
Davlat yer kadastrini ma'lumotlarini buzib ko'rsatish	MJK-68. JK-209. TMKK-47.
O'zboshimchalik bilan pichan o'rish va chorva mollarini boqish	MJK-82. JK-197. TMKK-47. FK-985.
Yerlardan xo'jasizlarcha foydalanish, tuproq unumdorligini pasaytiruvchi omillarga yo'l berish, yerlarning holatini yomonlashtirish	MJK-65, 95. JK-195, 197, MK-181. FK-195

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning 47-moddasi, Yer kodeksining 90-moddasi, Mehnat, Fuqarolik, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat kodekslariga muvofiq ravishda yer to'g'risidagi qonun xujjatlarini buzganlar uchun intizomiy, fuqaroviy, ma'muriy va jinoiy jazo qullaniladi. 1-jadvalda ekologik-xuquqiy munosabatlarga doir xuquqbuzarlik turlari, tegishli javobgarlik va maxsus qonunlarning muayyan moddalari ko'rsatib o'tilgan.

### **Nazorat savollari**

1. Yerning yuridik ma'nosi qanday?
2. Qanday yer muammolari sizga ma'lum?
3. Yer muammolarining xuquqiy jixatdan yechimini topish uchun nimalar qilinadi?
4. Yer tuzish deganda nimani tushunasiz?
5. Yerlarning ekologik-xuquqiy muhofaza qilish deganda nimani tushunasiz?
6. Yerlardan oqilona foydalanish tartibi qanday?
7. Ekologik xuquq qanday yerga oid munosabatlarni tartibga soladi?
8. Yer egasi, yerdan foydalanuvchi, ijarachi va mulkdorlarning ekologik xuquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?
9. Yer fondi toifalari bo'yicha ekologik-xuquqiy munosabatlar o'rnatiladimi?
10. Yer resurslari davlat qumitasiga qanday vakolatlar berilgan?
11. Davlat yer kadastrini olib borishning ekologik-xuquqiy jixatlarini sanab o'ting.

12. Yerga oid qanday xuquqbuzarliklar ekologiya sohasidagi javobgarliklar toifasiga kiradi?

### 7-ma'ruza

## **Mavzu: ATMOSFERA HAVOSIGA TA'SIR ETISHNING EKOLOGIK XUQUQIY ME'YORLARI**

### **Reja:**

**7.1 Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy talablarini umumiy qoidalari**

**7.2 Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy me'yorlari.**

Adabiyotlar: 5, 7, 18, 19, 31

Tayanch iboralar: akustik, atmosfera xavosi, dezintikatsiya, defolyatsiya, imperativ,

### **7.1 Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy talablarini umumiy qoidalari.**

Atmosfera havosining o'ziga xos xususiyati-doimo harakatda bo'lishi va uni biron-bir sub'ekt tomonidan mulk sifatida o'zlashtira olish imkoniyatining yo'qligi Shuning uchun ham «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 1-moddasida u davlat mulki deb e'tirof qilinmagan. Atmosfera havosi- umuminsoniyat boyligi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Ekologik xuquqning boshqa manbalaridan farqli, unda ko'proq xalqaro xuquq me'yorlarini aks ettirish maqsadga muvofiqligi ham aynan ushanda.

Konstitutsiyamizning 50-moddasi va mazkur Qonunning 4-moddasiga ko'ra, fuqarolar o'z hayoti davomida qulay atmosfera havosiga ega bo'lish xuquqi va uni saqlash sohasida imperativ majburiyatlarga egadirlar. Davlat o'zining vakolatlangan organlari (Vazirlar Mahkamasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi, mahalliy davlat hokimiyati) orqali atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini amalga oshiradi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish standartlari va me'yorlari Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. Agarda kishilarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi atmosfera havosi standarti Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan o'rnatilgan, iqlim, ozon qatlami va boshqa havo standartlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tomonidan o'rnatiladi. Atmosfera havosi sifatining me'yorlari Davlat standartlari boshqarmasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tomonidan quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha belgilanadi:

- atmosfera havosida ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarning inson va atrof tabiiy muhit ob'ektlari (tirik organizmlar) uchun yo'l qo'yiladigan darajada to'planishi;

- fizik omillar atmosfera havosiga akustik, elektromagnit, ionlashtiruvchi hamda boshqa xil zararli ta'sir ko'rsatishining inson va atrof tabiiy muhit ob'ektlari uchun yo'l qo'yiladigan darajalari;

- ayrim mintaqalar yoki ekologik inqirozli hududlar uchun alohida me'yorlarning belgilanishi ham mumkinligini Qonun alohida e'tirof etadi. Chunki Orol va Orol bo'yi, Surxondaryoning shimoliy hududlarida atmosfera havosida tuz, fenol, ftor va uglerod oksidining ko'payishi tegishli moddalar bo'yicha atmosfera havosini ifloslantirish me'yorlarini juda qattiq me'yorlanishiga sabab bo'ladi.

Doimiy manbalardan atmosfera havosiga zararli ta'sir ko'rsatish me'yorlari alohida o'rnatiladi. Ularni Sog'liqni saqlash vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. O'zbekistonda atmosferaga 150 turdagi ifloslantiruvchi moddalar chiqariladi. Xavfli darajasiga qarab ular sinflarga ajratiladi. 1-sinf moddalariga: og'ir metallar, vanadiy, benzapiren, ozon, mishyak va shu kabilar kiradi. 2000

yilga kelib doimiy zararli ta'sir ko'rsatish manbalari 1971 tonnaga yetgan. Tozalagichlarning 85% me'yor holda faoliyat yuritmoqda. Qolganlarida ularning o'rnatilishi yoki yangisi bilan almashtirilishi talab etiladi.

Yangi qonunning o'ziga xos tomonlaridan yana biri atmosfera havosidan foydalanishga doir me'yorlarning o'rnatilishidadir. Ushbu foydalanish me'yorlari ko'chma manbalar, doimiy ifloslantiruvchi manbalar, fizik omillar bo'yicha alohida o'rnatilgan. Me'yorlarning eng yuqori ko'rsatkichlari atmosfera havosining tabiiy tarkibining o'zgarishiga olib kelmaydigan darajada belgilanadi. Atmosfera havosidan foydalanish me'yorlari, korxonalar, muassasa, tashkilotlar tomonidan ishlab chiqiladi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasida tasdiqlanadi.

Ko'chma manbalardan atmosfera havosiga zararli ta'sir ko'rsatish me'yorlari Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilab qo'yiladi. Ayniqsa, bu o'rinda Yangi qonun avtomobil, traktor, tramvay, trolleybus, samolyot, poezdlar tomonidan chiqariladigan tovushlarga birinchi bor alohida e'tiborni qaratgan. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida harakatdagi texnika manbalarining tovushi uni milliy hududda yurishi, uchishi va suzishiga ruxsat berilishini belgilovchi bosh me'yordir. Ushbu talablarga davob berish uchun ham O'zbekiston shovqinsiz UzDEU avtomashinalarini ishlab chiqmoqda, A-300, Boing-474 kabi samolyotlarni sotib olmoqda. Ular barcha ekologik me'yorlarga javob beradi va dunyoning barcha chekkalarida ushbu texnikalardan foydalanish imkonini yaratadi.

Doimiy ifloslantiruvchi manbalardan atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar hamda biologik organizmlarni chiqarish va foydalanishni tartibga solish Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tomonidan beriladigan ruxsatnomalarga binoan yo'l qo'yiladi.

Qonunning 14-moddasida barcha turdagi yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallarini standartlashtirish talabi o'rnatilgan. Bu degan so'z Energetika vazirligiga qarashli issiqlik stantsiyalari isitish va sanoat qozonlarida yoqilg'ini ishlatishni «Uzneftgaz» korporatsiyasi bilan kelishgan tarzda, muayyan standartlarga muvofiq ravishda olib boradi. Yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallarining talabi Farg'ona va Shurtangaz zavodlarida jaxon standartlariga moslashtirilishi shart. Standartlarni o'rnatish va nazorat qilish juda serchiqim tadbir bo'lib, u mazkur korxonalar tomonidan Tabiatni muhofaza qilish qumitasi bilan kelishilgan tarzda olib boriladi. Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasining ma'lumotlariga ko'ra, shahar va aholi qo'rg'onlarida atrof-muhitning ifloslanishi, avvalombor, yoqilg'i materiallari sifatining yomonligi va motor yoqilg'isining tarkibida oltingugurtning ko'pligida, deb xulosalangan. Yaqin kelajakda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi etilsiz yoqilg'ilarni ishlab chiqarish niyatida. Ana ushanda Yevropa, Yaponiya, Amerikada bo'lgani kabi O'zbekistonda ham atmosfera havosi nisbatan musaffolashadi, degan niyatdamiz.

Sobiq Ittifoq hududida mustaqil respublikalarning paydo bo'lishi, ularda yaxshi amallarning ko'payishi bilan bir qatorda, noekologik oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Bunga misol qilib rivojlangan mamlakatlardan keltirilgan eski avtomobil parkining to'planishi va ularni nosoz ekspluatatsiya qilinishi. 1997 yildan boshlab, Ushbu holat O'zbekiston uchun qo'llanilmadi. Birinchi navbatda, «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda chetdan olib kiriladigan mashinalarga katta talablarning qo'yilishi (15-modda) va bojxona to'lovlarining ko'paytirilishi. IIV, DYXXBB va Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi respublika hududida xalqaro standartlarga mos ravishda avtomobillarga oid ekologik me'yorlarni tatbiq qilishga kirishgan.

Suveren O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Chunki Asaka, Samarqand, Urganch shaharlarida yengil va yuk avtomashinalari, Toshkentda esa samolyot, traktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqarila boshlandi. Qonunning 16-moddasi aynan transport va boshqa qatnov vositalari hamda qurilmalarini ishlab chiqarish va ulardan foydalanishning ekologik talablarini o'rnatdi.

Ushbu talablarga javob bermaydigan texnik vositalarni ishlab chiqarish taqiqlanadi. Xuddi ana shunday ekologik talab bundan buyon avtoservis xizmatlari uchun ham qo'llaniladigan bo'ldi (17-modda). Avtoservislarda, albatta, atmosferaga chiqariluvchi gazlarni va ovozni tekshirish bo'yicha diagnostika va tuzatish asboblari hamda mutaxassislarining bo'lishi talab etiladi. Qonunning 22-moddasida transport magistrallarida avtomobillarni nazorat qilish uchun yuridik asos yaratildi. Bu me'yor ham atmosfera havosini muhofaza qilishning xalqaro standartlariga mos tushadi.


**7.2 Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy me'yorlari.** Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining Navoiy, Qo'qon, Chirchiq, Namangan, Buxoro kabi o'nlab shaharlarida yirik kimyoviy, neft-kimyoviy, gaz-kimyoviy korxonalar mavjud. «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 18-moddasida kimyoviy moddalarni ishlab chiqaruvchi va ulardan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar uchun yo'l qo'yiladigan me'yorlar belgilangan, ularni nazorat qilish usullari va ekologik –toksikologik pasportlarini Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi va Sog'liqni saqlash vazirligi belgilangan tartibda ishlab chiqilishi ko'rsatilgan. Ishlatish taqiqlangan yoki ishlatishga yaroqsiz bo'lib qolgan har qanday kimyoviy moddalarning zararsizlantirilishi, borlarini esa xalq xo'jaligida va ayniqsa, qishloq xo'jaligida foydalanishning qattik me'yorlari o'rnatilishi talab etiladi. Yangi Qonun atmosfera havosini muhofaza qilish maqsadida osmondan turib (samolyot yoki vertolyot kabi uchuvchi vositalar yordamida) defolyatsiya yoki dezintikatsiya qilishni taqiqlaydi.

Ozon qatlamini muhofaza qilishga doir Vena konvensiyasi va ozon qatlamini buzuvchi moddalarga doir Monreal protokoliga qo'shilgan O'zbekistonda, ozon qatlami Atmosfera havosini ekologik-xuquqiy muhofaza qilishning maxsus ob'ekti sifatida qaraladi. Qonunning 19-moddasiga muvofiq, ozonni buzuvchi moddalar bo'lgan buyumlardan foydalanuvchi va ularni ta'mirlovchi korxonalar, muassasalar hamda tashkilotlar bunday moddalarni hisobga olishi va ozon uchun xavfsiz moddalar bilan almashtirilishini ta'minlashlari lozim. Bu o'rinda freon moddasi ishlatiladigan muzlatgich va konditsionerlarni ta'mirlovchi maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarining ishini tartibga solish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ilgarilari yer qa'ridan foydali qazilmalarni qazib olish, texnogen tashlandiqlarni saqlash ishlarida atmosfera havosini muhofaza qilish talablari o'rnatilmagan edi. Yangi taxrirdagi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunning IV bobi 35,40-moddalariga binoan, yer qa'ridan va uning xosilalaridan foydalanishda, atmosfera havosining ifloslanishiga olib keluvchi ishlarining taqiqlanishi, mas'uliyatli shaxslarning esa majburiyatlari qonun bilan tartibga solinishi belgilab qo'yilgan. «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 21-moddasiga muvofiq, shahar va aholi punktlari hamda ularning atrofida texnogen hosilalarni tashkil etish va tashlandiq chiqitlarni joylashtirish man etiladi. Aholi soni va iqlim sharoitlariga ko'ra, aholi punktlarida tegishli maydonlarda muhofaza zonalarini o'rnatiladi.

Atmosfera havosini muhofaza qilish Yangi Qonun barcha xo'jalik faoliyati, agarda u atmosfera havosiga ta'sir etishi mumkin bo'lsa, ekologik sertifikatsiyalanadi. Ekologik sertifikatsiyalash kashfiyotlar, ixtirolar, sanoat namunalari, texnika va texnologiyalarni joriy etish paytida ham qo'llaniladi. Bu talab O'zbekistonning xalqaro hamjamiyat oldidagi burchi hisoblanadi.

Korxonalar, tashkilot va muassasalar atmosfera havosini ekologik-xuquqiy muhofaza qilish sohasida 4-rasmda bayon etilgan talablarni bajarishga majburdirlar. Aks holda ularning faoliyatlarini to'xtatilishi, bekor qilinishi va xuquqbuzar shaxslar tegishli yuridik javobgarlikka tortilishlari mumkin.



**4-rasm. Yuridik shaxslarning atmosfera havosini muhofaza qilishdagi majburiyatlari**

### **Nazorat savollari**

1. Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun qaysi bir havo muhofazasining xuquqiy me'yorlarini o'rnatadi?
2. Atmosfera havosini muhofaza qilishning umumiy qoidalari nimadan iborat?
3. Qanday ko'rsatkichlar bo'yicha atmosfera havosi sifati aniqlanadi?
4. Sobiq Ittifoq va mustaqillik davridagi «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunlarning asosiy farqi nimada?
5. Davlat standartlari qaysi turdagi ob'ektlar bo'yicha o'rnatiladi?
6. Atmosfera havosining qaysi bir o'ziga xom jixatlarini inobatga olgan tarzda xuquqiy me'yorlar o'rnatiladi?
7. Davlatning maxsus vakolatlangan boshqaruv organlarining funksiyalarini sanab o'ting.
8. Atmosfera havosini ekologik-xuquqiy muhofaza qilish talablari nimalardan iborat?
9. Yuridik shaxslarning atmosfera havosini muhofaza qilishdagi majburiyatlari qanday?
10. Atmosfera havosini muhofaza qilishning kafillik mexanizmi deganda nimani tushunasiz?

### **8-ma'ruza**

#### **Mavzu: O'SIMLIK VA XAYVONOT DUNYOSINI, O'RMONLARNI MUHOFAZA QILISHNING XUQUQIY ASOSLARI**

#### **Reja:**

**8.1 O'simlik dunyosidan foydalanishning ekologik-xuquqiy tartibi**

**8.2 O'rmonlardan foydalanishning ekologik-xuquqi**

**8.3 Xayvonot dunyosiga munosabatning ekologik-xuquqiy maqsadi va vazifalari**

**Adabiyotlar: 5, 16, 18, 19, 28, 31, 34, 43, 44**

**Tayanch iboralar: o'rmonlarni ko'paytirish, o'rmonlarni qo'riqlash, o'rmonlarni tiklash, o'simlik dunyosi ob'ekti, qizil kitob, qo'riqxonalar,**

**8.1 O'simlik dunyosidan foydalanishning ekologik-xuquqiy tartibi.** O'simlik dunyosi O'zbekiston Respublikasida Ekologik xuquqning mustaqil ob'ekti sifatida e'tirof etilgan. Shuning uchun ham 1997 yil 26 dekabrda Oliy Majlisning 1-chaqiriq X sessiyasida «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va foydalanish to'g'risida»gi maxsus qonun (quyida Qonun deb yuritiladi) qabul qilindi. Ushbu Qonunning 1-moddasiga binoan o'simlik dunyosi ob'ekti bo'lib tabiiy sharoitda o'sadigan, takror yetishtirish va genetik fondini saqlash uchun ekib o'stiriladigan yovvoyi o'simliklar hisoblanadi. Aynan ana shu turdagi o'simliklarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishga oid munosabatlar ekologik-xuquqiy munosabatlar toifasiga kiritiladi.


O'rmonlar Ekologik xuquqning mustaqil ob'ekti sifatida aloxida qonun xujjatlari bilan tartibga solinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida o'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish sohasidagi munosabatlar mazkur respublikaning qonun xujjatlari bilan ham

tartibga solinadi. Agarda ushbu masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarda ishtirok etsa va ulardan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, unda xalqaro shartnoma me'yorlari ustuvorlikka ega.

O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish vazifalari 5-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, u qonun xujjatlari orqali floraning tur bo'yicha tarkibini va genetik fondini tabiiy sharoitlarda saqlab qolish uchun xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida o'simlik dunyosi davlat mulki-umummilliy boylik bo'lib, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidir (Qonun, 3-modda).



## **5-rasm. O'simlik dunyosi ob'ektlari va uni ekologik-xuquqiy muhofaza qilish vazifalari**

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish umumiy va maxsus yo'nalishda olib boriladi. Umumiy foydalanish jismoniy shaxslar tomonidan xayotiy zarur ehtiyojlarni qondirish uchun bepul amalga oshiriladi. Qonunning 7-moddasiga ko'ra, jismoniy shaxslar chorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi ozuqa maxsulotini tayyorlash va chorva mollarini o'tlatish kabi xuquqlarga egadirlar. O'simlik dunyosidan maxsus foydalanish yuridik va jismoniy shaxslarni ishlab chiqarish va boshqa faoliyatni amalga oshirish uchun xaq evaziga ruxsatnomalar asosida berib qo'yishdir. Maxsus foydalanish Qonunning 7-modda 4-qismida berilgan bo'lib, ularga: ovchilik xo'jaligi ehtiyojlari; texnik va dorivor xom-ashyoni tayyorlash; oziq-ovqat maqsadlari uchun tayyorlash; daraxt va butalarni kesish; ilmiy-tadqiqotlar olib borish; madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekratsion va estetik maqsadlarda foydalanish; tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish kabi faoliyat turlari kiradi.

Soliq kodeksining 31 moddasiga muvofiq, o'simlik dunyosidan foydalanishda, yangi tashkil qilingan dehqon va fermer xo'jaliklari ikki yil muddatga, ilmiy-tadqiqot va ekologik vazifalarni bajaruvchi tashkilotlar, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtirish maqsadlarini ko'zlagan notijorat yuridik shaxs maqomidagi jamoa uyushmalari esa tegishli xaq tulashtan ozod qilinadilar.

O'simlik dunyosini doimiy va vaqtincha (uzoq muddatli-10 yilgacha, qisqa muddatli-3 yilgacha) foydalanishga berib qo'yiladi. Foydalanish me'yorlari (Qonunning 9-moddasiga binoan) Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi va Respublika Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan holda hamda qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan belgilanadi.

O'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanuvchilar Qonunning 10-moddasiga ko'ra quyidagi xuquqlarga egadirlar.

- berib qo'yish shartlariga muvofiq foydalanish;
- belgilangan tartibda olingan maxsulotni tasarruf etish;
- buzilgan xuquqlarini tiklatish va yetkazilgan zararni qoplatish.

*Ularga qo'yidagi majburiyatlar yuklatiladi:*

- belgilangan qoidalarga rioya etish;
- oqilona foydalanish;
- muhofaza qilish va takror yetishtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- yong'in xavfsizligiga rioya etish, unga qarshi choralar ko'rish va yong'in chiqqan taqdirda uni o'chirish choralarini ko'rish;
- foydalanganlik uchun o'z muddatida xaq to'lash va qonun xujjatlarida belgilangan boshqa xuquq va majburiyatga egadirlar.

Davlatning siyosiy, ekologik va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash aloxida bir tabiiy, texnogen va boshqa xavfsizlik holatlari yuzaga kelgan holda, foydalanuvchilarning faoliyati davlatning umumiy va maxsus vakolatlangan organlari tomonidan cheklab qo'yilishi, to'xtatib turilishi yoki man etilishi mumkin.

Qonunning 11-moddasiga muvofiq, aloxida muhofaza etiladigan ayrim tabiiy hududlar (qo'riqxonalar, qo'riqlanadigan zonalar, tabiat yodgorliklari)da o'simlik dunyosidan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.



Qizil kitobga kiritilgan o'simliklardan foydalanish man etiladi. Lekin qonunda Vazirlar mahkamasining ruxsati bilan noyob va yo'q bo'lib ketayotgan o'simlik dunyosidan foydalanish, ular bilan savdo qilish, chetga olib ketish amalga oshirilishi mumkin. Bunday holatda Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasining taqdimnomasi va Fanlar akademiyasining xulosasi kerak bo'ladi.

O'simlik dunyosidan foydalanuvchi shaxslarning umumiy va maxsus turdagi foydalanish tartibi Qonunning 12-18 moddalarida batafsil ko'rsatib o'tilgan.

Xo'sh, qanday hollarda shaxslarning o'simlik dunyosi ob'ektlaridan foydalanish xuquqi bekor qilinadi? Unga Qonunning 19-moddasida hamda boshqa ekologik me'yoriy xujjatlarda ko'rsatilgan holatlar asos bo'lishi mumkin. Masalan:

- o'simlik dunyosidan foydalanish xuquqidan voz kechilganda;
- belgilangan foydalanish muddati tugaganda;
- yuridik shaxs faoliyati tugatilganda;
- o'simlik dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish, ulardan foydalanish va ularni takror yetishtirish qoidalari, me'yorlari va boshqa talablari buzilganda;
- o'simlik dunyosi ob'ektlarida foydalanganlik uchun xaq belgilangan muddatda to'lanmaganda;
- foydalanish ta'sirida tabiiy o'simliklar turkumida asliga qaytarib bo'lmaydigan o'zgarishlar xavfi tug'ilganda;
- er uchastkalari davlat va jamoat extiyojlari uchun olib qo'yilganda va hokazo.

O'simlik dunyosidan foydalanish tartibi zamon talabiga mos ravishda doimo o'zgarib, takomillashib va rivojlanib borishi tabiiy xoldir.

**8.2 O'rmonlardan foydalanishning ekologik xuquqi.** Kishilar o'rmonlardan doimo foydalanar ekanlar, bir paytning o'zida ular o'rmonlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko'rishga majburdirlar.

O'rmonlardan foydalanish xuquqi deb o'rmonlarning foydali xususiyatlaridan yuridik va jismoniy shaxslarning o'z xo'jalik va boshqa hayotiy extiyojlarini qondirishlari uchun qonun xujjatlarida belgilangan tarzda foydalanishlari tushuniladi.

Ekologik xuquqning printsiplaridan kelib chiqqan holda va «O'rmon to'g'risida»gi qonunning 19,30-moddasiga binoan, o'rmondan foydalanish ma'lum xaq evaziga (maxsus foydalanish) yoki bepul (umumiy foydalanish) amalga oshiriladi. To'lovlar miqdori va ularni undirish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi va unga doimo qo'shimcha hamda o'zgartirishlar kiritib turiladi.

O'rmonlardan foydalanish doimiy va vaqtinchalik bo'ladi. Doimiy foydalanish uchun o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlariga, vaqtinchalik esa (qisqa muddatli-3 yilgacha, uzoq muddatli-10 yilgacha) o'rmon xo'jaligiga kirmagan yuridik va jismoniy shaxslarga berilishi mumkin. Ushbu foydalanish xuquqi O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasining bo'linmalari yoki ular vakolat bergan tashkilot, muassasa yoki korxonalar tomonidan beriladi. O'rmondan maxsus foydalanishga litsenziya yoki chipta asosida yo'l qo'yiladi.

«O'rmon to'g'risida»gi qonunning 30-moddasiga muvofiq, o'rmondan doimiy foydalanuvchilar muayyan xuquq va majburiyatlarga egadirlar. O'rmon fondi uchastkasidan belgilangan tartibda doimiy foydalanuvchilar quyidagi xuquqlarga egalar:

- mustaqil xo'jalik yuritish;
- suv, yer va yer osti boyliklaridan foydalanish;

- yo'l ochish;
- o'rmon maxsulotlarini joylashtirish uchun maydonchalar jixozlash;
- ishlab chiqarish va uy-joy binolari hamda inshootlarini qurish;
- tayyorlangan maxsulotga va uni sotishdan olingan daromadga mulkdor bo'lish;

***Majburiyatlar:***

- o'rmonni muhofaza qilish va qo'riqlash;
- o'rmondan oqilona foydalanish;
- o'rmonni takroriy (qayta) ko'paytirish (tiklash);
- o'rmonning davlat hisobini olib borish;
- o'rmondagi barcha tabiiy ob'ektlarga zarar yetkazmaslik;
- o'rmondan maxsus foydalanganlik uchun to'lovni o'z vaqtida to'lash;
- alohida muhofaza etiladigan o'rmon fondiga tegishli xuquqiy holatni ta'minlash;
- o'zga foydalanuvchi shaxslarning xuquqlarini buzmaslik va qonun xujjatlarida belgilangan boshqa xuquqlar.

O'rmondan vaqtinchalik foydalanuvchilar o'rmon fondi uchastkasida belgilangan tartibda quyidagi xuquqlarga egalar:

- muddatli va tegishli faoliyat yuritish;
- yo'l ochish;
- o'rmon maxsulotlarini joylashtirish uchun maydonchalar jihozlash;
- ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qurish.

***Majburiyatlar:***

- o'zlariga berib quyilgan yaylovlar, pinchazorlardan oqilona foydalanish;
- o'rmondagi tabiiy boyliklarga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik;
- o'rmondan foydalanganlik uchun to'lovni o'z vaqtida to'lab borish;
- o'zga shaxslarning xuquqlarini buzmaslik.

Qonunning 23-moddasiga ko'ra, davlat o'rmondan foydalanuvchilarning qonun bilan belgilangan faoliyatlariga aralashmaslik, xuquqlari buzilgan taqdirda ularni tiklash va yetkazilgan zararni to'la hajmda qoplash majburiyatini oladi. Qonunning 24-moddasida belgilangan tartibda o'rmondan foydalanuvchilar o'z xuquqlaridan voz kechishi, uning bekor qilinishi, olib qo'yilishi, mahrum qilinishi ham mumkin.

*O'rmondan quyidagi maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat beriladi:*

- ✓ daraxtzor va butazorlarni kesish;
- ✓ qo'shimcha tarzda foydalanish (mol boqish, pichan o'rish, asal-arichilik, dorivorlar tayyorlash);
- ✓ ovchilik ehtiyojlari uchun foydalanish;
- ✓ ilmiy-tadqiqot olib borish;
- ✓ madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy, sog'lomlashtirish, rekratsion va estetik maqsadlarda hamda shu kabi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda.

Fuqarolar Qonuning 30-moddasiga binoan, o'rmonda yovvoyi dorivor va ozuqabop o'simliklar, mevalar, qo'ziqorinlar yig'ishni bepul amalga oshirishlari mumkin. Lekin ular yong'in va ekologik xavfsizliklarga rioya etishlari, daraxt va butalarni sindirmasliklari, o'rmon ekinlariga shikast yetkazmasliklari, o'rmondagi atrof tabiiy muhit unsurlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar. Davlat chegarasidagi ormondan foydalanish tartibi Davlat chegaralarini himoya qilish davlat qumitasi va O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi bilan birgalikda belgilangan xuquqiy tartibi asosida o'rnatiladi.

O'zbekistonda o'rmonlar, avvalombor, ekologik funktsiyani bajarar ekan, ularni qo'riqlash, muhofaza qilish, tiklash, ko'paytirish, maxsuldorligini oshirish, ya'ni himoyalashni xuquqiy jixatdan ta'minlash o'ta dolzarb masaladir.

«O'rmon to'g'risida»gi qonuning 32-moddasiga binoan, o'rmonlarni qo'riqlash-tegishli davlat organlari tomonidan o'rmonlardan noqonuniy tarzda foydalanish, ularga zararli ta'sir ko'rsatishdan qo'riqlash.

O'rmonlarni muhofaza qilish esa ularga zararkunandalar, kasalliklar, tabiiy texnogen jarayonlar (eroziya, sel, deflyatsiya, solifluktsiya, abraziya...) ning oldini olish chora-tadbirlarini qo'llash orqali olib boriladi. Ushbu xuquqiy tartib O'rmon xo'jaligi Bosh boshqarmasi tomonidan belgilanadi.

O'rmonlarni tiklash uchun kesilgan o'rmon yoki o'rmonsiz yer o'rniga daraxt va butalar ekish, nav tarkibini yaxshilash, ularning maxsuldorligi va muhofazalash xususiyatini oshirish, genetik fondi va biologik xilma-xilligini saqlab qolish.

O'rmonlarni ko'paytirish o'z ichiga daraxtzorlarning zichligini oshirish, nav tarkibini yaxshilash, qimmatli navlarni ko'paytirish, boshqa yer fondi toifalaridan (masalan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan) o'rmon fondi yer toifasiga kiritish kabi tadbirlarni oladi.

O'rmonlarning maxsuldorligini oshirish ularni takroriy ko'paytirish, nav tarkibini yaxshilash, o'rmon melioratsiyasi va plantatsiyasini tashkil etish orqali amalga oshiriladi.

O'rmonlarni xuquqiy jihatdan himoyalash, yuqorida keltirilgan tadbirlar bilan bir qatorda, Qonuning 37-41 moddalarida belgilangan me'yorlar asosida ham olib boriladi. Masalan, noqonuniy ravishda qo'lga kiritilgan o'rmon maxsulotlarini (daraxt, buta, hayvonot va o'simlik dunyosi turlari) olib qo'yiladi yoki keltirilgan zarar to'liq qoplanadi.

O'rmon fondi yerlarida o'rmonlarning holatiga va ularni takroriy ko'paytirishga ta'sir etadigan korxonalar, inshootlar va boshqa ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushirish, Yangi texnologiyalarni joriy etishga ruxsat berilmaydi. Insonlarning o'rmonlarga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan barcha faoliyat turi ekologik ekspertizadan o'tkazilishi va tegishli davlat organlari bilan kelishilgan holda amalga oshirilishi shart.

O'rmon fondi yerlarida o'rmon xo'jaligini yuritish bilan bog'liq bo'lmagan qurilish va portlatish ishlari, foydali qazilmalarni qazib olish, kabellar, quvurlar va boshqa kommunikatsiyalarni o'tkazish, parmalash va shu kabi ishlar davlat o'rmon xo'jaligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

O'rmonlarni xuquqiy jihatdan muhofazalash «O'rmon to'g'risi»gi qonun xujjatlarining talablarini buzuvchilar faoliyatlarini to'xtatib qo'yish, cheklash yoki taqiqlash orqali amalga oshirilishi mumkin. Ushbu yuridik tusdagi davlat organlarining harakatlari qurg'oqchilik, yong'inlar, ko'chmalar, zilzila, toshqin kabi tabiiy va texnogen salbiy oqibatlardan o'rmonlarni saqlash maqsadida ham qo'llanilishi mumkin.

O'rmonlarni xuquqiy muhofaza qilishning yana bir jihati o'rmonlarni muhofaza qilish, qo'riqlash, ulardan oqilona foydalanish va ularni takroriy ko'paytirishni moliyalashtirish hamda o'rmon xuquqi sub'ektlarini iqtisodiy rag'batlantirish orqali amalga oshiriladi. Bunday

holat Ekologiya xuquqida tabiatni muhofaza qilishning ekologik-iqtisodiy mexanizmini yaratish, deb aytiladi.

O'rmonlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish doirasida kelib chiqadigan nizolar xo'jalik, fuqarolik, ma'muriy va jinoiy protsessual tarzda hal qilinadi va tegishli xuquqbuzarliklar uchun yuridik javobgarlikni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 77-80 moddalarida o'rmon fondidan foydalanish qoidalari, o'rmonda daraxt va butalarni kesish yoki ularni payxon qilish, yohud o'rmonlarni tiklash qoidalarini buzish, mansabdor shaxs yoki fuqarolarga ma'muriy jazoni qo'llashga asos bo'la oladi. Ma'muriy jazo mazkur moddalar bo'yicha Tabiatni muhofaza qilish va O'rmon xo'jaligi inspektorlari tomonidan qo'llanilishi mumkin.

### **8.3 Xayvonot dunyosiga munosabatning ekologik-xuquqiy maqsadi va vazifalari.**

Xayvonot dunyosini ekologik-xuquqiy muhofaza qilish-quruqlikda, suvda, atmosferada va tabiiy erkinlik holatida yashaydigan, O'zbekistonda doimiy yoki vaqtincha yashaydigan yovvoyi xayvonlarni, shuningdek, ilmiy yoki ekologik maqsadlarda yarim erkin sharoitda yoki sun'iy yaratilgan yashash muhitida boqilayotgan xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan oqilona foydalanishni xuquqiy jixatdan tartibga solish.

Maqsad esa hozirgi va kelajak avlod uchun xayvonot dunyosini xuquqiy yo'llar orqali saqlab qolishga erishishdir.

«Xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 2-moddasiga binoan, Ushbu maqsadga erishmoq uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- ✓ xayvonot dunyosining yashash sharoitlarini ta'minlash;
- ✓ ularning xilma-xil turlarini, tabiiy galalari butunligi va yashash muhitini saqlash maqsadida xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- ✓ xayvonot dunyosini tiklash va takror yetishtirish soxasidagi munosabatlarni tartibga solish.

Xayvonot dunyosining inson hayotida tutgan o'rning juda beqiyosligini inobatga olgan holda, O'zbekistonda u davlat mulki-umummilliy boylik deb e'tirof etilgan. Davlat o'zining umumiy va maxsus vakolatlangan organlari orqali xayvonot dunyosini ekologik-xuquqiy jihatdan boshqaradi, tartibga soladi va muhofazasini ta'minlaydi.

Xayvonot dunyosidan unumli foydalanish va uning muhofazasini xuquqiy jixatdan ta'minlash maqsadida mustaqil O'zbekistonimizda bir qator muhim qonun xujjatlari qabul qilindi hamda ularning ekologik-xuquqiy mexanizmi yaratilmoqda.

Xayvonot dunyosining ekologik-xuquqiy jixatlari «Tabiatni muhofaza qilish», «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar», «Xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish» kabi qonunlar, Oliy Majlisning «Noyob va yo'q bo'lib ketayotgan o'simlik va xayvon turlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni tartibga solish» (1993), Vazirlar Mahkamasining «Yovvoyi xayvonlar va o'simliklar muhofazasini kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish choralari», «O'zbekiston Respublikasiga yirtqich qushlar olib kelinishini va ularning chetga chiqarilishini tartibga solish to'g'risida»gi qaror va yo'riqnomalarida to'liq aks ettirilgan.

O'zbekistonda barcha ko'rinishdagi xayvonlar Ekologik xuquqning ob'ekti bo'la olmaydi.

«Xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 4-moddasida O'zbekistonda ekologik-xuquqiy jixatdan tartibga solinadigan xayvonot dunyosi ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

1) kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo'lgan sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchilar, quruqlikda va suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyatsiyalari;

2) yovvoyi hayvon galalari yoki ularning har qanday to'dalari;

3) Qizil kitobga kiritilgan kamyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan turlari;

4) Yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining maxsulotlari.

O'zbekistonda yovvoyi turdagi sut emizuvchi xayvonlarning 6 turkumi mavjud bo'lib, ulardan 6 turi hasharotxo'rlar, 20 turi qo'lqanotlilar, 2 turi quyonsimonlar, 37 turi kemiruvchilar, 24 turi yirtqichlar, 8 turi tuyoqlilardir. Parranda yoki qushlarning-424, suvda va quruqlikda yashovchilarning-3, sudralib yuruvchilarning-59, baliqlarning-83, umurtqasizlarning-58 turi mavjud.

Yovvoyi hayvonlar yakka, oila, gala yoki to'da bo'lib yashaydilar. Ularning bunday hayot kechirishlari minglab yillar davomida evolyutsion tarzda davom etib kelgan. Ularning yashash muhitining buzilishi hayvonlarning qirilib ketishiga sabab bo'la oladi. Shuning uchun xayvonot dunyosini ekologik-xuquqiy muhofaza qilish tartibi ularning galalari va to'dalari hamda yashash faoliyatining mahsuli (in va uyalari) bo'yicha ham olib boriladi.

Alohida muhofaza etishga muhtoj bo'lgan hayvonot dunyosi, ya'ni Qizil kitobga kiritilgan turlariga doir ijtimoiy munosabatlar davlatning xuquqiy jihatdan katta e'tirof berish ob'ekti bo'lib xisoblanadi.

Xayvonot dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilish maqsadida Konstitutsiyamizning 50, 54-moddalaridan kelib chiqqan holda va «Xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga binoan jismoniy va yuridik shaxslarga quyidagi xuquq va majburiyatlar belgilangan:

- xayvonot dunyosi va uning yashash muhitini muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish;
- mazkur masala bo'yicha davlat dasturlarini ruyobga chiqarishga ko'maklashish;
- jamoat ekologik ekspertizasini o'tkazish;
- jamoat nazoratini olib borish;
- tegishli axborot olish;
- keltirilgan zararni qoplash masalasining qo'yish;

Ushbu qonuniy xuquq va majburiyatlarning fuqarolar va ularning jamoalariga yuklatilishi O'zbekistonda demokratik davlatchilik elementlarini shakllantirish va fuqarolik jamiyatini qurishning yana bir muhim yo'li xisoblanadi.

Xayvonot dunyosidan foydalanuvchi va uni muhofaza qiluvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan yetarli darajada ekologik-xuquqiy tartibga solish, uning nazorat tizimini yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Davlatning mazkur masalada ekologik-xuquqiy nazorati esa xayvonot dunyosi kadastri – monitoringi – nazorati – ekspertisasi tizimi orqali olib boriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Ekologiya xuquqida qanday o'simlik dunyosi ob'ektlari ajratiladi?
2. Biologik xilma-xillikmi yoki rang-baranglikmi?
3. Nima uchun o'simlik dunyosini ekologik-xuquqiy jixatdan muhofaza qilish kerak?
4. O'simlik dunyosidan foydalanish kimlarga va qanday talablarda beriladi?
5. O'simlik dunyosining noyob va yo'q bo'lib ketayotgan turlari qayerda berilgan bo'ladi?

6. Qizil kitob xuquqiy manba bo'la oladimi?
7. O'simlik dunyosidan qanday maqsadlarda foydalanish uchun ruxsat beriladi?
8. O'simlik dunyosini muhofaza qilishning xuquqiy tamoyillarini sanab o'ting.
9. Nima uchun o'rmon Ekologik xuquqning aloxida bir ob'ekti hisoblanadi?
10. O'rmonlar qanday funktsiyalarni bajaradi?
11. O'zbekistonda o'rmonlardan foydalanishning prioritet me'yorsi nimada?
12. O'rmonga oid qanday ekologik-xuquqiy munosabat yuzaga keladi?
13. Davlatning maxsus o'rmon boshqaruv vakolati qaysi idoralarga yuklatilgan?
14. O'rmon tuzish deganda nimani tushunasiz?
15. O'rmonlardan foydalanish tartibi va muddati qanday?
16. «O'rmon fondi» bilan «O'rmon yer fondi»ning farqi bormi?
17. O'rmonlarni muhofaza qilishning ekologik-xuquqiy jixatlarini keltirib o'ting.
18. Qanday xayvonlar ekologik-xuquqiy munosabat ob'ekti bo'la oladi?
19. Biologik xilma-xillik deganda nimani tushunasiz?
20. Qaysi qonunlarda xayvonlarni muhofaza qilish tartibi o'rnatilgan?
21. Xayvonot dunyosidan foydalanish iborasiga tushuncha bering.
22. Xayvonot dunyosidan foydalanish nimalarga asosan olib boriladi?
23. Baliq ovlash nima?
24. Ov qilish o'z ichiga nimalarni oladi?
25. Qanday xayvonot dunyosining turlarini ovlash yoki tutish man etiladi?
26. Xayvonot dunyosiga keltirilgan zarar qay tariqa qoplanadi?

## 9-ma'ruza

### **Mavzu: YER OSTI BOYLIKLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-XUQUQIY ASOSLARI**

#### **Reja:**

#### **9.1 Yer osti boyliklarini xuquqiy muhofaza qilish zaruriyati**

#### **9.2 Yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik-xuquqiy talablar**

#### **9.3 Konlardan foydalanish munosabatlarini ekologik-xuquqiy tartibga solish**

Adabiyotlar: 5, 19, 37, 39, 42

Tayanch iboralar: yer osti boyliklarining ekologik funktsiyasi, kontservatsiya, rekultivatsiya, funktsional,

#### **9.1. Yer osti boyliklarini xuquqiy muhofaza qilish zaruriyati**

Yer osti boyliklarining ekologik funktsiyasi-ekologik tizimda turuvchi, yer ustining tabiiy fundamenti, tuproq va ularni hosil qiluvchi ona jinslarning tarkib topishidagi mineral asosi ekanligi.

Mineralning kimyoviy, fizik va biologik yemirilishi natijasida ona jinslar hosil bo'ladi va tirik organizmlarning faoliyati natijasida ular tuproqqa aylanadi. Bunday tabiiy jarayon er osti minerallarining ekologik tizimlarda ishtirok etishini ta'minlab beradi.

Yer osti boyliklarining xuquqiy holati-er osti boyliklarini muhofaza qilish, mineral xom ashyodan o'ta samadorlik bilan foydalanish va buning natijasida buzilgan tabiiy komplekslarni qayta tiklashda yuzaga keladigan munosabatlarning xuquqiy tartibga solinishi.

O'zbekiston Respublikasida yer osti boyliklarining xuquqiy holati Konstitutsiyada belgilangan imperativ me'yorlar va uning asosida ishlab chiqilgan umumlashtirilgan me'yorlar (Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida, Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida...) kodifikatsiyalangan (Yer kodeksi, Jinoyat kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks, Fuqarolik kodeksi...) va ixtisoslashtirilgan (Yer osti boyliklari to'g'risida, Kontsessiyalar to'g'risida...) qonunlar va qonun osti me'yoriy xujjatlar asosida tartibga solinadi.

Yer osti boyliklaridan xuquqiy foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir ijtimoiy munosabatlar ushbu xuquq tarmog'ining predmetidir. Yer osti boyliklarini xuquqiy tartibga solish mazmuni ruxsat beruvchi, oldini oluvchi va ta'qiqlovchi xuquqiy me'yorlar orqali ularni muhofaza qilish hamda ulardan o'ta samaradorlik bilan foydalanishdir.

**9.2 Yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik-xuquqiy talablar.** Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofazalashning ekologik-xuquqiy talablari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50,54 va 55 –moddalarida imperativ shaklda o'z aksini topgan. Ularga binoan, har bir fuqaro yoki mulkdor atrof tabiiy muhitga (jumladan, yer osti boyliklariga) nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi va ulardan oqilona foydalanishi zarur. Ushbu shartlar kengaytirilgan tarzda «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda berilgan bo'lib, unga muvofiq (18-modda) yer osti boyliklaridan yuridik va jismoniy shaxslar quyidagi ekologik talablar asosida foydalanishlari mumkin: qazilma boyliklarni qazib olishda mineral xom ashyodan kompleks va oqilona foydalanish ta'minlansa; atrof tabiiy muhit va yer osti boyliklari ifloslanishining oldi olinsa; foydalanilgan yer uchastkalarini rekultivatsiya (qayta tiklash yoki buzilgan yerlarni qayta madaniylashtirish ishlari) qilinsa; qayta tiklanadigan foydali qazilmalardan tabiiy qayta tiklanishga erishilsa.

*Umumlashtirilgan ekologik-xuquqiy talablar ixtisoslashtirilgan holda yangi taxrirdagi 2002 yil 13 dekabr «Yer osti boyliklari» va 1995 yil 30 avgustdagi «Kontsessiyalar to'g'risida»gi qonunlarda o'z aksini topgan va ular quyidagilardan iborat:*

- ❖ tog'-kon sanoatidagi ishlarni (qidiruv, kovlash va rekultivatsiya qilish) yer qa'ridan foydalanish loyihasiga muvofiq olib borish va uni ekologik ekspertizadan o'tkazish;
- ❖ yer qa'rini to'la-to'kis o'rganish, yer osti boyliklaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda ularni muhofaza qilish;
- ❖ konlarning foydali qazilmalar mo'l uchastkalarini tanlab ishlatish, mineral xom ashyo qazib olish va uni qayta ishlashda foydali qazilmalarning me'yordagidan ortiq nobudgarchiligiga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ yer osti boyliklaridan foydalanish bilan bog'liq ishlarning zararli ta'siridan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish;
- ❖ yer osti boyliklaridan foydalanish chog'ida buzilgan yer uchastkalarini ulardan keyinchalik boshqa maqsadlarda foydalanish uchun yaroqli holatga keltirish;
- ❖ ichimlik suvi sifatida foydalaniladigan suv to'plash va yer osti suvlari to'planadigan maydonlarda tog'-kon sanoati va maishiy chiqindilarning yig'ilib qolishiga yo'l qo'ymaslik;
- ❖ alohida ilmiy va madaniy qimmatga molik yer osti boyliklari uchastkalarini davlat qo'riqxonalari yohud tabiat, yoki madaniyat yodgorliklariga mo'ljallab ajratib olish;
- ❖ chet ellik investorlar yer osti boyliklaridan foydalanish davomida atrof-muhitni muhofaza qilish va ishlarni ekologik jihatdan bexatar olib borishlari hamda yer usti yohud yer osti uchastkalarini bosqichma-bosqich bexatar qilib qaytarib berishlari

va qonun-xujjatlarda nazarda tutilgan boshqa ekologik-xuquqiy chora-tadbirlarni olib borish.

Yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishdagi ekologik-xuquqiy talablar bevosita yoki bilvosita «Chet el investitsiyalari», «Mulkchilik», «Suv va suvdan foydalanish», «O'simliklar va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunlar, Yer kodeksi, Soliq kodeksi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Konchilik tashlamalarini foydali qazilma konlari ishlab chiqish uchun berish tartibi to'g'risida», «Qazib olingan va qazib olish jarayonida yo'qotilgan foydali qazilmalarning zaxiralarini yer osti boyliklaridan foydalanuvchilar xisobidan o'chirish tartibi to'g'risida», «Foydali qazilmalarni ishlab chiqish paytida yer osti boyliklarini muhofaza qilishning yagona qoidalari»ga bag'ishlangan qarorlarda aks ettirilgan.

Amaldagi me'yoriy xujjatlarda aks ettirilgan yer ostidagi boyliklardan foydalanishdagi ekologik-xuquqiy talablarning moxiyati va vazifalariga ko'ra 4 guruxga ajratish mumkin;

1) yer osti boyliklarini to'liq va kompleks holda o'rganish orqali ularni ishlatish yoki kontservatsiya qilish orqali muhofazalash;

2) mineral xom ashyolarni qidirish, qazib olish va rekultivatsiya qilishni faqatgina ixtisoslashtirilgan davlat organlar nazoratida olib borish va ularni amalga oshirish davomida atrof tabiiy muhitning boshqa ob'ektlariga zarar yetkazmaslik;

3) ishlatilgan konlarni yoki ularni ekspluatatsiya qilish davomida yer uchastkalarini o'z vaqtida rekultivatsiya qilib borish;

4) noyob turdagi mineral boyliklarni va ularning komplekslarini alohida muhofaza qilish tartibini o'rnatish.

### **9.3 Konlardan foydalanish munosabatlarini ekologik-xuquqiy tartibga solish.**

O'zbekiston Respublikasi bozor munosabatlariga o'tishning besh tamoyilidan biri - davlatning bosh isloxotchiligidir. Davlat isloxtlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekan, yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishning hozirgi zamon talablariga mos tushadigan siyosiy yo'lini ishlab chiqishi hamda uni izchillik bilan amalga oshirishi kerak. Chunki «ijtimoiy jixatdan yo'naltirilgan hozirgi bozor- davlat tomonidan tartibga solib turiladigan bozordir».

Konchilik munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish vazifalari Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning II bobiga binoan quyidagilardan iborat:

- ✓ yer osti boyliklarini geologik jixatdan o'rganish va muhofaza qilish, mineral resurslardan oqilona, kompleks foydalanish, ular bilan bog'liq bo'lgan ishlarni bexatar yuritishga doir me'yorlar va qoidalarni belgilash;
- ✓ mineral xom ashyo bazasini rivojlantirishni ta'minlash;
- ✓ foydali qazilmalarning asosiy turlarini qazib olishning hozirgi paytdagi va istiqbolga mo'ljallangan hajmlarini belgilash;
- ✓ yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun to'lovlarni belgilash va o'ndirish;
- ✓ yer osti boyliklari kadastrini o'tkazish, monitoringini olib borish;
- ✓ yer osti boyliklarini muhofazalash va ulardan oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini o'rnatish va h.k.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalarni bajarishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, davlat organlarining o'zi to'g'risidagi qonunlar yoki nizomlariga muvofiq konchilik munosabatlarini tartibga solib turadi. Ularning vakolatlari mohiyati va mazmuniga ko'ra 2 katta guruxga: umumiy va maxsus boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga ajratiladi.



Umumiy boshqaruv vakolatidagi davlat organlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va mahalliy hokimiyat organlari kiradi. Maxsus davlat boshqaruv organlari o'z navbatida-kompleks, sohalar va funksional boshqaruv organlariga ajratiladi.

Yer osti boyliklarining xuquqiy holatini belgilovchi ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining faoliyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir. Konstitutsiyamizning 78-moddasi va 1994 yil 22 sentyabrdagi o'zi to'g'risidagi konstitutsiyaviy qonunning 4-moddasidagi Oliy Majlis quyidagi vakolatlarga ega.

- er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlarni ishlab chiqadi, qarorlar qabul qiladi va ularning ijrosini nazorat qilishni tashkillashtiradi;
- unga hisobot beruvchi Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi orqali yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik xavfsizlikni ta'minlashning kompleks nazoratini tartibga solib turadi;
- davlatning yer osti mineral xom ashyo bazasidan foydalanish dasturlarini qabul qiladi, bu borada ichki va tashqi siyosatning asosiy yo'nalishlarini tasdiqlaydi;
- mineral resurslardan foydalaganlik uchun to'lovlarni joriy qiladi va ularga oid imtiyozlarni belgilaydi;
- konchilik sanoatini rivojlantirish bo'yicha byudjet harajatlarini qabul qiladi;
- yer osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha bitimlarni ratifikatsiya (tasdiqlaydi) hamda denonsatsiya (barvaqt to'xtatadi) qilish kabi ishlarni amalga oshiradi.

Oliy Majlis tomonidan 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan «CHet el investitsiyalari to'g'risida»gi qonunning yangi taxriri Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tog'-kon sanoatiga chet el investitsiyalarini jalb qilishning xuquqiy asosini yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasiga muvofiq, Prezident-er osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish borasidagi ichki va xalqaro siyosatini belgilaydi; Ushbu sohadagi ishlar fuqarolarning ekologik xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligiga kafillik beradi; yer osti mineral xom ashyodan foydalanish va uning muhofazasiga doir qonunlarni imzolaydi hamda farmon, farmoyish va qarorlar qabul; ekologik talafot ko'rgan tog'-kon sanoatining hududlari bo'yicha favqulodda holat joriy etadi va shu kabi boshqaruv masalalarni hal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlatimizning ijro etuvchi organi sifatida Konstitutsiyamiz, o'zi to'g'risidagi va Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunning 8-moddasiga ko'ra, bir qator o'ta muhim vazifalarni bajaradi;

- ✓ er osti boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga doir qonunlar ijrosini ta'minlaydi;
- ✓ er osti boyliklari kadastrini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ✓ konchilik va u bilan bog'liq bo'lgan inqirozli holatni bartaraf etadi, yer ostida bo'layotgan tabiiy ofatlarning (endogen jarayonlarni) kelib chiqish sababini aniqlaydi hamda ularning ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlashning chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;
- ✓ er osti boyliklaridan samarali foydalanish, ularni muhofaza qilish hamda qayta tiklash (rekultivatsiyalash) bo'yicha targ'ibot, o'quv, ta'lim va malaka oshirishni yo'lga qo'yadi;
- ✓ mineral xom ashyolardan foydalanish tartibini tasdiqlaydi va shunga o'xshash uz vakolati doirasida faoliyat yuritadi.

Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 13 yanvardagi «Konchilik tashlamalarini foydali qazilma konlarini ishlab chiqish uchun berish tartibi to'g'risida»gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasida «Zarafshon-Nyumont», «WMC Zormitan LTD», «Nyumont-O'zbekiston LTD-Mitsun» kabi qo'shma korxonalar sovet davridan qolgan konchilik chiqitlarini qayta boyitish orqali turli qimmatbaho rangli metallarni olmoqdalar. Chet el firmalarining 15 yillik muddatda va qulay xuquqiy negizda ishlashi tog'-kon sanoatiga yuqori unumdorlikka ega bo'lgan texnologiyalarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida konchilik munosabatlarini tartibga solishda, sobiq Ittifoqdan tubdan farqli ularoq, mahalliy davlat boshqaruv organlarining faoliyatida to'laqonli namoyon bo'la boshladi. Konstitutsiyamiz, «Mahalliy davlat hokimiyati va Yer osti boyliklari to'g'risida»gi qonunning 9-moddasiga muvofiq ular shahar, tuman va viloyat ahamiyatiga molik bo'lgan konchilik munosabatlarini tartibga solishda faol ishtirok etmoqdalar. Ular:

- ❖ er osti va usti mineral xom ashyo resurslaridan foydalanish, ularni ekologik xafsizlik darajasini ta'minlash bo'yicha hududiy boshqaruv dasturlarni ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar;
- ❖ er osti boyliklari kadastrini va monitoringini amalga oshiradilar hamda ularga binoan mahalliy to'lovlarni o'ndirib oladilar;
- ❖ konchilik sanoatidan chiqqan chiqitlarni tashlash, ko'mish uchun ruxsatnomalar beradilar va ularni bekor qiladilar;
- ❖ mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan qurilish, tog'-kon sanoati korxonalarining ekologik faoliyatini nazorat qiladilar va asosli ravishda uni to'xtatib qo'yadilar hamda Konstitutsiyaga va boshqa qonunlarga zid bo'lmagan xuquqiy-ekologik tadbirlarni olib boradilar.

Davlatning yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishdagi maxsus vakolat tizimidagi kompleks boshqaruvni Geologiya va mineral resurslar davlat qumitasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi, Sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiyasi, Favqulodda xodisalar bo'yicha vazirlik olib boradi.
---

Ushbu davlat organlari mulk shaklidan qat'i nazar, yer osti boyliklaridan foydalanilayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatlarini inson salomatligi va atrof-muhit holatiga bezarar olib borayotganlarini boshqarib va nazorat qilib turadi.

Bizlarga ma'lumki, yer osti boyliklaridan bir qator xalq xo'jaligi sohalarida ham foydalanadilar. Shuning uchun har bir sohada o'zining boshqaruv va nazorat bo'linmalari mavjud bo'lib, davlatning maxsus boshqaruv organlariga yordam berish uchun ular maxsus ko'rinishdagi soxaviy boshqaruv vakolatiga egadirlar. Ularga O'zsanoatqurilish, Qishloq va suv xo'jaligi, Mudofaa, Avtomobil yo'llari vazirliklari kabi davlat organlari kiradi.

Davlat boshqaruv organlarining maxsus boshqaruv tizimida funktsional vakolatga ega bo'lgan davlat idoralarining yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solishdagi ahamiyati kattadir. Masalan, alohida muhofaza qilishga molik tog' sanoatiga qarashli ob'ektlarning xuquqni muhofaza qilish organlarining harbiylashtirilgan idoralari tomonidan qo'riqlanishi, ulardagi xo'jalik ishlarining bexatar olib borilishiga va oqibatda, ekologik inqirozli holatning oldini olishga olib kelmoqda. Davlat standartlashtirish va metrologiya qumitasi o'z funktsional vazifasiga ko'ra, mineral xom ashyolarni qidirish va qazib olishlarning xalqaro ekologik standartlarga mos kelishini tartibga solib turadi. Soliq inspeksiyasi esa o'z vakolati doirasida yer osti va usti mineral boyliklaridan foydalanganlik yoki bu foydalanish davomida atrof-muhitni ifloslantirganliklari uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan soliqlar va to'lovlar o'z muddatida undirib olishi orqali tabiatga yetkazilgan zararni moliyaviy qoplashga imkon

yaratadi. Xuquqni muhofaza qilish davlat idoralarining funktsional boshqaruv vazifalari yer osti boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish qonunchiligi buzilishining profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda konchilik qonun xujjatlarini buzganlarga nisbatan jazo choralarini qo'llashdan iboratdir.

### **Nazorat savollari**

1. «Yer osti boyliklari» iborasini tushuntirib bering.
2. Yer osti boyliklarining necha xil funktsiyalari bor va ularni tushuntirib bering.
3. Nima uchun yer osti boyliklarini xuquqiy muhofaza qilish zarur?
4. O'zbekiston Respublikasi «Yer osti boyliklari to'g'risida»gi eski va yangi taxrirdagi qonunlarning asosiy farqi nimada?
5. Kontsessiya shartnomasi qanday shartnoma hisoblanadi?
6. Yer osti boyliklaridan foydalanishni qanday davlat organlari nazorat qiladi?
7. Konchilik munosabatlariga qanday ijtimoiy munosabatlar kiradi?
8. CHet el investorlariga milliy mineral boyliklardan foydalanishda qanday imtiyozlar beriladi?
9. Yer osti boyliklaridan foydalanishning necha turi mavjud?
10. Yer osti boyliklaridan foydalanuvchilarga qanday ekologik- xuquqiy talablar qo'yiladi?
11. Yer osti boyliklari qonunchiligini buzganlik uchun qanday javobgarliklar mavjud?

### **10-ma'ruza**

#### **Mavzu: ANTROPOGEN O'ZGARGAN VA ALOXIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING EKOLOGIK-XUQUQIY JIXATLARI**

#### **Reja:**

**10.1 SHaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xuquqiy jixatlari.**

**10.2 Agrar hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari**

**10.3 Sanoat hududlarning ekologik-xuquqiy jixatlari**

**10.4 Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari**

Adabiyotlar: 5, 13, 19, 22, 23, 25, 38

Tayanch iboralar: Agrar hudud, alohida muhofaza etiladigan hududlar, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, rekratsion hududlar

#### **10.1 SHaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xuquqiy jixatlari.**

Insoniyat ilmiy-texnik inqilobining oqibatlaridan biri urbanizatsiyadir (lotin tilida «urbanus» - shaharlik), ya'ni sanoat va aholining shaharlarda mujassamlasha borishi. Ayniqsa, bu jarayon iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xos bo'lib, ularda aholining 70-80 foizi shaharlarda istiqomat qiladi. Natijada, ularda atrof tabiiy muhitga bo'lgan antropogen bosim boshqa hududlarga nisbatan bir necha bor yuqoridir.

SHaharlarda atrof tabiiy muhitning antropogen o'zgarganlik darajasi, avvalambor, uning katta yoki kichikligiga, sanoatlashganligi va ularning faoliyat yo'nalishlariga, maishiy xizmat ko'rsatish darajasiga va transport tarmoqlarining infrastrukturasiga bog'liq.

Yer kurrasida 170 dan oshiq millioner (aholisi 1 mln.kishidan ortiq bo'lgan) shaharlar mavjud. Aholishunoslik fanining qoidalariga binoan, katta shaharlarga aholisi 0,5 mln.dan oshiq bo'lgan aholi punktlari kirishini inobatga oladigan bo'lsak, yirik shaharlarning soni 2-3 barobar oshib ketadi. Undan tashqari, katta shaharlar biron-bir hududda o'zaro qo'shilib ketadigan bo'lsa, megapolis (grekchadan «megas»-katta, «polis»-shahar) larni hosil qiladi. Masalan, Nyu-York megapolisidan 17 mln. kishi, Mexiko, Tokio, Moskva, Qoxira kabi megapolislardan ham shunga yaqin aholi istiqomat qiladi. O'zbekistonning Toshkent va uning atrofidagi shaharlarida 3 mln. ga yaqin aholi yashaydi. Shaharlar soni bizda 60 yil ichida 120 taga ko'paygan va ulardan aholining 30% dan ortig'i istiqomat qiladi.

Aholining shaharlarda kompakt holda yashashi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir qilishi bilan bir qatorda atrof tabiiy muhitning ekologik xavfsizlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shaharlarda tuproq, o'simlik va xayvonot dunyosi, suv va yer osti boyliklaridan foydalanish o'ta yuqori darajada bo'lgani uchun ham, ularda tabiiy ob'ektlarning holati to'lig'icha antropogen o'zgargan ko'rinishdadir. Shaharlarda tabiiy jarayonlar kishilarning xo'jalik faoliyati bilan uzviy bog'langandir.

Ekologik tizimlarda nafaqat biologik yoki kimyo, balki fizik o'zgarishlar (elektromagnit maydon tebranishlari) ham o'ta kuchaygan ravishda namoyon bo'ladi.

Ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra, shaharlarda quyosh radiatsiyasi 15% gacha kamroq yer yuzasiga yetib keladi. Yomg'ir, do'l va qorlar 10% gacha ko'proq yog'adi, tuman 30-100% ga ko'proq tushadi. Kasalliklar, ayniqsa, yuqumlilari, shaharlarda boshqa hududlarga nisbatan bir necha barobar ko'p ro'yxatga olingandir. Shaharlarda atmosfera havosining keskin yomonlashuvi tufayli aholi o'pka raki kasalliklari bilan qishloqdagilarga nisbatan 40 baravargacha yuqumli kasalliklar bilan esa 2 baravargacha ko'proq xastalanadilar. Shahardagi shovqin shaharliklarda asab kasalliklarini qishloq aholisiga nisbatan 75% gacha ko'paytirib yuborgan. N.K.Komilovning ma'lumotlariga ko'ra Buxoro viloyati shaharlarida aholining qon va qon tomir, psixik buzilish, asab tizimi va nafas olish yo'llari xastaliklari qishloq joylardagi aholiga nisbatan 10-15% ga yuqoridir.

SHaharlarda aholining kontsentratsiyalashuvchi va ayniqsa yuqori malakali ishchi kuchining ko'pligi u yerda sanoatning barcha turlarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. AQSHning Tabiatni muhofaza qilish agentligi shaharlarda sanoat tarmoqlarini ekologik xavfsizlik darajasi bo'yicha 2 turga ajratadi: birinchi turga-atmosfera havosiga yiliga 100 tonnadan ortiq hajmda chiqitlarni chiqaruvchi korxonalar: tog'-kon boyitish kombinatlari, ko'mir boyitish fabrikalari, koks zavodlari, qo'ng'ir ko'mir ishlab chiqaruvchi zavodlar, neft maxsulotlarini saqlash va tashish (hajmi 47,7 mln. litrdan ko'p bo'lsa), kimyo, metallurgiya, mis va alyumin zavodlari, qo'rg'oshin, tsink va qog'oz-tsellyuloza kombinatlari; ikkinchi turga-ko'proq suvlarni ifloslantiruvchi korxonalar: yog'ochni qayta ishlash, qog'oz va tsellyuloza kombinatlari, tekstil, teri oshlash va neorganik (bo'yoq, siyox, mineral o'g'it) va organik kimyo maxsulotlari (plastmassa, sun'iy materiallar, yog'-sovun, pestitsid, gerbitsid) ishlab chiqaruvchi korxonalar, farmatsevtika, rezina, neftni qayta ishlash, oziq-ovqat maxsulotlari, qurilish materiallari, mashinasozlik va metallurgiya sanoati tarmoqlari korxonalari kiradi.

SHaharlarda atrof-muhit holatiga sezilarli ravishda ta'sir qiluvchi omillardan biri-maishiy kommunal xizmat xo'jaligi, uning atrof-muhitga ekologik ta'siri shaharlarning kanalizatsiya va suv ta'minoti, isitishning markazlashganlik darajasiga to'g'ri proporsionaldir. Markazlashgan kommunal xizmat tarmoqlarining yo'qligi tabiiy ob'ektlarning ifloslanishiga va oqibatda, sanitar-epidemiologik holatning kuchayishiga sabab bo'ladi. Maishiy kommunal xizmatning yana bir ekologik ko'rsatkichi qattiq turdagi axlatlarni yig'ish va ularni utillashtirish masalasining yechilganligidadir. O'zbekiston bo'yicha yiliga 30 mln. m<sup>3</sup> maishiy chiqitlar chiqadi va ular shahar atrofidagi rezervuarlarga tashlanadi. Lekin bu chiqitlarning 1/10 qismi shaharlarda qolib ketmoqda.

Maishiy chiqitlarni ajratish, saqlash, qayta ishlash va ularni xuquqiy tartibga solish hanuzgacha yo'l qo'yilmagan muammolardan biridir. Bu masalani ijobiy hal qilishda Toshkent shahar Yunusobod tumani hokimligi tomonidan olib borilayotgan-maishiy axlatlarni yig'ish shoxobchalarini tashkil qilish va ularni navlarga ajratish bo'yicha chora-tadbirlar maqtovga sazovordir.

SHaharlarda atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatish bo'yicha transport sohasi asosiy o'rin egallaydi. Avtomobil transportining umumiy transport vositalari (temir yo'l, havo transporti, metropoliten...) ichidagi salmog'i O'zbekistonda 70-85% ni tashkil etadi. Ekologik toza hisoblangan elektrotransport (trolleybus, tramvay, metropoliten, elektrovoz...) salmog'i umumiy transport vositalari bo'yicha atigi 7-10% ni tashkil etadi, xolos. Toshkent shahrida atmosfera havosining ifloslanishiga katta ta'sir ko'rsatayotgan transport tarmoqlaridan biri-aviatsiya. Ular havoda uglevodorod, azot va uglerod oksidlarining keskin ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Lekin keyingi paytda A-300, «Boing» toifasidagi samolyotlar bilan aviaparklarni to'ldirish bunday salbiy holatning kamayishiga olib keldi.

SHunday qilib, shaharlarda atrof tabiiy muhitga antropogen omillarning ta'sir darajasi va turi boshqa antropogen o'zgargan hududlarga nisbatan o'ziga xos ko'rinishda namoyon bo'ladi. Mutaxassislarning fikricha, shaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish talablari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

- ❖ sanitar va epidemiologik holatni yaxshilash;
- ❖ xo'jalik faoliyatining ekologik xavfsizlik darajasini ta'minlash;
- ❖ axlat va maishiy chiqitlarni qat'iy me'yorlash va ularni utillashtirish;
- ❖ shovqinchizlikni ta'minlash;
- ❖ ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirishni yo'lga qo'yish;
- ❖ transportda alternativ energiya (elektr, quyosh energiyasi, vodorod yoqilg'isi, motorsiz transport...) turidan keng foydalanish;
- ❖ ekologik texnologiyalarni ishlab chiqarishga keng joriy qilish;
- ❖ yashil muhofaza hududlarini barpo qilish;
- ❖ sanoat va energetika korxonalarini, aeroportlarni shahar chekkasiga olib chiqish;
- ❖ qurilish ishlarini tabiiy komponentlarga kam ta'sir etadigan qilib olib borish va rekultivatsiya (qayta tiklash) talablariga rioya etish;
- ❖ maishiy va sanoat suvlarini tozalash va ularni ikkilamchi ishlatish choralarini joriy etish;
- ❖ bino va inshootlarni (ayniqsa o'ta zararli korxonalarda) joyning seysmik talablariga qarab loyihalash, qurish va hokazo.

2002 yil 4 aprelda qabul qilingan «SHaharsozlik kodeksi»ning 4, 6,8 –moddalarida ko'rsatilganidek, jamiyat, davlat va shaxslarning shaharsozlik sohasidagi manfaatlarini inobatga olgan holda, xo'jalik va boshqa faoliyatning atrof-muhitga yetkazadigan zararli ta'siriga yo'l qo'ymaslik, ekologik holatni yaxshilash talabi o'rnatilgan hamda yuridik va jismoniy shaxslarning majburiyatlari belgilangan.

SHu kunda O'zbekiston shaharlarida tabiatni muhofaza qilishning xuquqiy talablari Tabiatni muhofaza qilish, Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Shaharsozlik kodeksi, Yer kodeksi, Suv va suvdan foydalanish, Atmosfera havosini muhofaza qilish, O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, Chiqindilar, Davlat sanitariya nazorati, Avtomobil yo'llari, Davlat kadastrlari, Aholi sog'ligini muhofaza qilish, Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza

qilish to'g'risidagi qonunlar va shular asosida qabul qilingan qonun osti me'yoriy xujjatlarda o'z aksini topgan va ular orqali tartibga solib turiladi.

Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunning maqsadiga ayrim ob'ektlar (jumladan, shaharlar) tabiatni muhofaza qilish, ularda yashaydigan fuqarolarni qulay atrof-muhitga ega bo'lish xuquqini kafolatlash ham kiradi (1-modda). Bunday kafolatni shaharlarda Vazirlar Mahkamasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasining Toshkent shahri, shahar qumitalari, shaharcha va shahar tarkibiga kiruvchi tuman mahalliy davlat idoralari amalga oshiradilar. Shaharsozlik kodeksining 18-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi shaharlarda tabiatni muhofaza qilishga doir yagona siyosatni olib boradi, tabiiy resurslardan foydalanish, ularni baholash, ulardan foydalanganlik va ifloslantirganlik uchun to'lovlarning yagona tartibini belgilaydi, tabiiy ofatlar va yirik avariya yoki ekologik tang vaziyatlardan aholini saqlash va ularni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqadi. Ekologik o'quv-tarbiya va maorif tizimini yaratadi va Ushbu yo'nalishdagi mamlakatimiz ahamiyatiga molik ekologik chora-tadbirlarni olib boradi.

«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 10-moddasi va shaharsozlik kodeksining 19-20 moddalariga binoan mahalliy davlat boshqaruv organlari Toshkent shahri va uning tumanlari, Respublikamiz shahar toifasiga kiruvchi aholi punktlari hokimliklari o'z hududlarida: tabiatni muhofaza qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydilar; tabiiy resurslarni kadastrlash, moddiy-texnika ta'minotini yo'lga qo'yish, sub'ektlarning tabiatdan foydalanishi, uni ifloslantirish, unga chiqitlarni chiqarish va utillashtirish tartibini belgilaydilar; ular faoliyatini cheklash, man qilish, to'xtatish, to'lovlarni o'ndirish va boshqa qonunlarda ko'zda tutilgan vakolalarni ham o'taydilar.

SHahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi idoralari O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi tizimidagi organ bo'lib, u Respublika Davlat qumitatsining «Tasdig'i» va shahar hokimining «Kelishuvi» bilan qabul qilinadigan Nizomlariga binoan faoliyat yurgizadilar va shahar xalq deputatlari, boshqa mahalliy idoralar bilan muvofiqlashgan tarzda ish olib boradilar. Shahar Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi idoralari o'z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlari tegishli hududda sub'ektlar uchun majburiy hisoblanadi.

SHaharlarda xalq xo'jalik tarmoqlari faoliyatining atrof tabiiy muhitga va aholiga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda tabiiy resurslarni tiklab borishni kafolatlovchi me'yorlar va standartlar bilan belgilab qo'yish juda muhim xuquqiy chora hisoblanadi. Ekologik me'yorlarni shaharlarda mahalliy tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi, Sog'liqni saqlash boshqarmasi, sanoatda ishlarni bexatar olib borishni nazorat qilish va kon nazorati bo'linmalari o'zlariga berilgan vakolatlarga muvofiq olib boradilar. Bu me'yorlarga binoan shahardagi korxonalar, tashkilot va muassasalar, fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning atrof-muhitga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan eng yuqori darajasi yoki ruxsat etilgan me'yori (REM, RECHM, RET, REKM...) aniqlanadi. Bunday chegaralanishlar shaharlarda REM (zaxarli moddalar kontsentratsiyalashuvining eng yuqori ko'rsatkichi) atmosfera havosi va suvlar uchun olinadi. Moddalarning atmosfera havosi yoki suvda inson organizmida hech qanday patologik o'zgarishlarga olib kelmaydigan darajasi SN 245-71 raqamli Instruktsiyada REM sanitar me'yorlarining 160 xil moda va 35 turdagi kombinatsiyalarda atmosfera havosi ifloslanish darajasi ruxsat etilgan me'yori bo'yicha belgilangan. Masalan, uglerod oksidi bo'yicha ifloslantirish me'yori sutkasiga 1,0 mg/m<sup>3</sup>, harakatda bo'lmagan ob'ektlar uchun 20 mg/m<sup>3</sup> ga tengdir.

RECHM-shaharlarda ma'lum bir korxonalar yoki tashlash manbai bo'lgan sub'ektlar tomonidan zararli moddalarni chiqarish miqdori. U SN- 369-71 bo'yicha amalga oshiriladi va GOST 17.2.3.02-78 bo'yicha hisoblanadi. Agarda ma'lum bir ob'ektda 2 va undan ortiq tashlagich manbalari (ventilyatsiya va energetik qurilma) bo'lsa, bu korxonalar uchun RECHMning umumiy ko'rsatkichlari belgilanadi. Har bir RECHM bo'yicha tashlash

inventarizatsiyasi (pasporti) tuziladi. Unda tashlandiqlarning son va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar, chiqitlarni tozalash usullari va ekologik texnologiyalarni takomillashtirishning yo'llari berilgan bo'ladi. Bu pasportlarni har 5 yilda alohida bir qabul qilingan shakllarni to'ldirish asosida qayta ko'rib chiqiladi. Xuddi shunday jarayonlar Davlat standartlashtirish va metrologiya boshqarmasi tomonidan RET (okovalarning eng yukori kursatkichi), REKM (kimyoviy moddalarni ishlatishning eng yuqori miqdori) va boshqa me'yoriy ko'rsatkichlar bo'yicha ishlab chiqiladi va shahar sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan tasdiqlanadi.

SHaharlarda alohida bir tabiiy ob'ektlardan foydalanish differentsial qonun, mahalliy boshqaruv va nazorat organlarining qabul qilgan me'yoriy xujjatlari orqali tartibga solinadi.

SHahar hududidagi yerlar Yer kodeksining 8-moddasiga binoan axoli punktlari yerlari fondiga kiradi. Shuning uchun ham ularni alohida muhofaza etish va ulardan foydalanishning o'ziga xos tartibi bor. Ushbu qonunning 59-moddasiga binoan shahar yerlari quyidagi toifalarga ajratiladi: qurilish, umumiy foydalanish; qishloq xo'jaligi; daraxtzorlar; sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadga mo'ljallangan yerlar; alohida muhofaza etiladigan hududlar; suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Biz Agrar hududdagi yerlardan samarali foydalanish deganda, Ushbu yerlardan yuqori hosil olish va tuproq unumdorligini saqlashni tushunsak, shaharlardagi yerlardan oqilona foydalanish deganda esa, qurilish va obodonlashtirish ishlarini ilmiy asoslangan tarzda, joy planirovka majburiyatlariga binoan olib borishni tushunamiz. Shahar yerlari shaharsozlik, yer tuzish xujjatlari bo'yicha chegaralanadi va ulardan maqsadli foydalanish uchun ruxsatnomalar beriladi. Foydalanuvchilar esa yer kodeksining 11 bob, 79-82 moddalarida belgilangan yerlarni muhofaza qilishning quyidagi ekologik talablariga rioya etishlari shart:

- ob'ektlar, imoratlar va inshootlarni joylashtirish, qurish va ulardan foydalanishda yerlarning holatiga salbiy ta'sir
- ko'rsatadigan Yangi texnologiyalarni joriy etish chog'ida Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi ruxsatnomalarini olish;
- har bir xo'jalik jarayonini ekologik ekspertizadan o'tkazish;
- yashil maydon, dov-daraxtlarni iloji boricha saqlab qolish;
- rekultivatsiya qilish;
- maishiy va sanoat chiqitlarini tashlaydigan rezervuarlar tashkil etish va h.k.

SHaharsozlik kodeksining 29-moddasida ko'rsatilganidek, shaharlarda aholini joylashtirishda atrof-muhit holatini mu'tadillashtirish maqsadida:

- alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar;
- suv ob'ektlarini muhofaza qilish zonalari;
- rekratsion hududlar;
- ekstremal tabiiy-iqlim sharoitlariga ega bo'lgan hududlarni tashkil etish belgilangan.

SHaharlarni rivojlantirish loyixalalarida, albatta, ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi talablarni inobatga olish, aholi punktlari rejalarida aholi soniga qarab, sanitar-gigienik me'yorlarni o'rnatish talab etiladi. Shaharsozlik kodeksining 6 bobida shahar atrofi asosan ekologik va sanitar funktsiyalarni bajaruvchi zonalardan iborat bo'lishi prioritet (birlamchi) me'yor tariqasida o'rnatilgan. Mazkur qonunning 7-yakunlovchi bobida ekologik, rekratsion, sanitar-gigienik tadbirlardavlat byudjeti, buyurtmachilar, yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi ifodalangan.

SHaharlarda uy-joy, korxonalar, inshoot va boshqa ob'ektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirish mobaynida aholining ichimlik suvga bo'lgan hamda maishiy ehtiyojlarini qondirish talablarini birinchi navbatda inobatga olish sharti bilan suvdan foydalanishlari «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning 11-moddasida bayon etilgan. Ushbu qonun bo'yicha aylanma harakatdagi suvlarning bug'lanishi, ifloslanishi va kamayib ketishining oldini olish, suv ob'ektlarining boshqa tabiiy ob'ektlarga zarar yetkazishiga yo'l qo'ymaslik, sho'rlanish, zax bosish va qurib qolishdan muhofaza qilish talablari qo'yiladi.

Toza ichimlik suvidan oqilona foydalanish maqsadida katta shaharlarda, xususan, Toshkentda maishiy xizmat va ichimlik suvidan fuqarolarning foydalanish limitlari, «Suvsoz» trestlari 1999 yil yanvariga kelib jon boshiga 9,9 m<sup>3</sup>/ oyiga yoki 118,8m<sup>3</sup>/ yiliga suv sarfi me'yori belgilangan.

Limitdan ortiqcha foydalangan shaxslardan suvning har bir metr kubiga 64% ustama narxlar to'lash orqali amalga oshiriladi.

Suvdan va umuman tabiiy resurslardan foydalanishni cheklash barcha rivojlangan mamlakatlarda qabul qilingan me'yor bo'lib, bu tadbir tabiiy boyliklardan samarali foydalanishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Gretsiya, Isroil kabi mamlakatlar qonunchiligida suvlardan samarali foydalanish o'ta qattiq boshqaruv va nazorat ostiga olingan tadbir bo'lib, u chuchuk suvning zaxirasi, sanoat tarmoqlari va aholining zichligi bilan bog'liq holda olib boriladigan masalalar toifasiga kiradi.

SHahar va aholi punktlarida, uning atrofidagi yashil mudofaa hududlarida yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunga muvofiq yer qa'rining ayrim uchastkalaridan foydalanish cheklangan yoki ta'qiqlangandir.

SHunday qilib, shaharlarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash o'ziga xos xuquqiy boshqaruv va nazorat tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

**10.2 Agrar hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari.** O'zbekiston Respublikasi agrar mamlakat bo'lib, aholisining 60% ga yaqini qishloq joylarda istiqomat qiladi, ishlab chiqarish salohiyatining 1/3 qismi va tashqi savdoning 55% qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan bog'liq. Ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining har ikkitasidan biri agrar sanoatdadir. Shuning uchun ham Prezident I.A.Karimov Vazirlar mahkamasining 1997 yil 8 fevraldagi hisobot yig'ilishida, Oliy Majlisning 1997 yil 25 dekabr, 1998 yil 30 aprel X-XI sessiyalarida qishloq xo'jaligida tub isloxlarni uzatish zarurligi, uning natijasi esa mamlakatimiz hayotini belgilovchi qadam ekanligini o'qitirib olgan.

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston, qadimdan dehqonchilik qilib kelidnadigan o'lka hisoblanadi. Tub aholining tirikchiligi ham tashqi Dunyo bilan o'zaro munosabatlari ham qishloq xo'jalik maxsulotlari va ulardan tayyorlangan maxsulotlar hisobiga amalga oshirilgan. Chor Rossiyasi va sobiq Ittifoq davrida, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmidan to shu kungacha agrar soha mayda va o'rta qishloq xo'jaligi tovar ishlab chikarishdan yirik tovar ishlab chikaruvchi xujaliklariga aylantirildi. Mustaqillik davrigacha Turkiston o'lkasi mustamlaka o'lka bo'lib, SSSRning Yevropa qismidagi korxonalariga paxta, teri, ipak tolasi, meva maxsulotlari kabi xom ashyo maxsulotlari yetkazib berar edi. XX asr boshida O'zbekistonda 1,7-1,8 mln.ga sug'orilib dehqonchilik qilinadigan yerlar maydoni shu asrning 80-yillariga kelib 400 mln. gektarga yetdi. Qishloq xo'jalik maqsadlarida o'zlashtirilayotgan yerlar avvaliga tabiiy iqlim sharoiti o'ta qulay bo'lgan hududlar-CHirchiq, Oxangaron, Zarafshon, Surxon-SHerobod, Qashqadaryo, Quyi Amudaryo, O'rta Sirdaryo vohalari, Farg'ona vodiylarida amalga oshirildi. Aholining eng zich bo'lgan maydonlari ham aynan shu Agrar hududda joylashdi.

Kundan kunga ko'payib borayotgan aholi va agrar sanoat talabi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ekstensiv tarzda oshirib borishga majbur etmoqda. Atrof tabiiy muhitga,



ayniqsa, agrar hududlarda yerga bo'lgan antropogen bosim darajasi ko'payib ketdi. Qishloq xo'jaligi maxsulotlarini ishlab chiqarishning ekstensiv usulini (ekin maydonlarini kengaytirish hisobiga maxsulot miqdorini oshirish) tanlagan sobiq Ittifoqda tabiiy ob'ektlarning ekologik holati keskin yomonlashib ketdi. Mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra keyingi bir asr mobaynida sho'rlangan yerlar maydoni 2 mln. gektarga, shamol va suv eroziyasiga uchragan yerlar 3-3,5 mln.gektarga yetdi, kimyoviy ifloslanish butun sug'orma yer fondining 75-80 % ni tashkil qildi. 25-28 mlrd.kub metrni tashkil qilayotgan oqova va tashlandiq suvlar Amudaryo va Sirdaryolarni, oxir-oqibatda esa, Orol dengizi suvlarining sho'rlanganlik darajasini 203 barobarga, zararli moddalar-pestitsid, gerbitsid, azot, fosfor, kaliy elementlarning miqdorini ruxsat etilgan me'yordan (PDK) 3-4 barobarga ko'payib ketishiga sabab bo'ldi. Dalalarni dorilashning «aero» usuli Agrar hududdagi yovvoyi yoki madaniy o'simlik va xayvonot dunyosiga, atmosfera havosining sifatiga, odam organizmi uchun xavfli bo'lgan toksikan (zararli) moddalarning suvlarda ko'payishiga olib keldi. Yangi o'zlashtirilgan tipik bo'z tuproqlarda uchraydigan va uning unumdorligi haqida morfologik ko'rsatma beradigan yomg'ir chuvalchangi miqdori tuproqning har bir metr kubida 300-1200 dan 1-2 donagacha tushib ketdi yoki umuman uchramaydigan bo'lib qoldi.

Agrar hudud-qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band bo'lgan hududlar. Agrar hududlarda yuzaga kelgan salbiy ekologik holatlar kishilarning hayotiga keskin ta'sir qiladi. Yu.S.Hodimetovning ma'lumotlariga ko'ra, pestitsidlar keng qo'llanadigan hududlardagi aholi orasida nafas olish, endokrin, yurak-qon tomir, jigar kasalliklari, kamqonlik, akliy yetishmovchiligi bo'lgan bolalar tug'ilishi, rak va ginekologiya kasalliklari boshqa noagrar hududlardagidan 2-3 marotaba ko'p uchraydi. Qishloq joylarda 14 yoshgacha bo'lgan bolalarda temir moddasi yetishmaydigan kamqonlik, faol sil kasalligi, virusli gepatit (sariq kasallik) va yuqori nafas yo'llariga mikroblar o'tiradigan kasalliklar tez-tez kuzatilib turildi. 1980 yillarga kelib pestitsidlardan 80 tagacha o'tkir va 60 tagacha surunkali zaxarlanish qayd etilgan.

Bu esa, Agrar hududda antropogen ta'sirning kuchayishiga olib kelmoqda. Antropogen bosim natijasida yuzaga kelgan salbiy ekologik holatni 3 guruxga ajratish mumkin.

Birinchi guruxga qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqarishning negizi bo'lgan tabiiy ob'ektlarning buzilishi; a) turg'unlik yillarida paxta yakkahokimligi va almashlab ekishning yo'lga qo'yilmaganligi oqibatida tuproq unumdorligining pasayib ketishi; b) tuproqlarning sho'rlanishi, eroziyaga uchrashi (suvdan yuvilishi), deflyatsiyalashuvi (shamol orqali uchirilishi), botqoqlashuvi, ifloslanishi, agrokimyoviy va agrofizik ko'rsatkichlarining yomonlashuvi, mikroorganizmlarning kamayib ketishi, kimyoviy tarkibining buzilishi; v) suv ta'minotining buzilishi va sug'orma suvlar kimyoviy tarkibining yomonlashuvi; g) foydali organizmlarning (changlatadigan, zararli hashorat kushandalari, sanitar xayvonlar) kirilib ketishi; d) tabiiy yaylovlar ishlab chiqarish qobiliyatining pasayishi; ye) cho'llanish va tabiiy geodinamik (surilma, jarlanish, o'pirilish, chuqish, degish, solyuflyukatsiya, abraziya) jarayonlarining ortib borishi.

Ikkinchi guruxga ekologik salbiy oqibatlarning kuchayishini ko'rsatish mumkin. Bu nafaqat qishloq xo'jaligiga, balki atrof-muhitning buzilishi natijasida boshqa xalq xo'jaligi soxalariga zarar yetishdir. Misol uchun, gidrografik ob'ektlar (ko'l, daryo, suv omborlari, kolektor-drenajlar)ning ifloslanishi va ulardagi xayvonot dunyosining kamayishi; o'rmon va to'qayzorlarning kamayib ketishi; yovvoyi turdagi xayvonot va o'simlik dunyosi yashash muhitining torayib qolishi; atmosfera havosining tarkibida tuz, chang, og'ir metall kabi kimyoviy moddalarning ko'payib ketishi; ovchilik va baliqchilik xo'jaligining oksab qolishi; qo'riqxonalar va buyurtma qo'riqxonalar singari alohida muhofaza talab etadigan hududlarning muhofaza tartibining buzilishi va hokazo.

Uchinchi guruxga insonlar yashash muhitining Agrar hududda yomonlashuvini olsak bo'ladi. Buning natijasida sobiq Ittifoq davrida XX asrning 70-80 yillariga kelib qishloq aholisining o'rtacha umr ko'rish davri 3-5 yilga qisqargan.

Yuqorida keltirilgan salbiy oqibatlarining 3 guruxi davlatning agrar siyosatidagi iqtisodiy talablar bilan ekologik talablarni o'zaro uyg'unlashgan holda olib borishni talab etadi. Shuning uchun ham Prezident I.A.Karimov o'zining «Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti – to'kin hayot manbai» degan asarida «Dehqonchilik madaniyatini ko'tarish tuproq holatining yaxshilanishi va atrof –muhitning ifloslanishining oldini olish uchun kerak», deb bekor aytmagan. Bu o'rinda jamiyatdagi agrar munosabatlarni tartibga solishning xuquqiy asosini yaratish zamon talabidir. Mazkur dolzarb muammoning qonuniy asosi 1998 yil aprel-mayda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi oliy Majlisning XI sessiyasida qishloq xo'jaligiga oid qabul qilingan bir qator qonunlarda o'z aksini topdi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun, avvalombor, Agrar hududni Ekologik xuquqning alohida bir antropogen o'zgargan va o'ziga xos «ob'ekti» deb qarashni taqozo qiladi. Agrar hududda jamiyatdagi munosabatlarni xuquqiy boshqarish kontsepsiyasini ishlab chiqish talab qilinadi va ushbu qarashlar tizimi davlatning milliy xavfsizlik kontsepsiyasining asosiy elementlaridan biri bo'lib qolishini ta'minlash dardkor.

Sh.X.Fayziev tadqiqotlarida qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik qoida va talablariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar xuquqiy tartibga solish davlat va xuquqning vazifasi deb qaralishi to'g'ri talab etilgandir. Muallif qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik talablari Konstitutsiyamizning alohida bir «Davlatning ekologik siyosati» bo'limida aks etishi kerakligini yoqlab chiqqan. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunida «Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik talablari» degan alohida bir moda kirgizilishi juda ham maqsadga muvofiqligini ko'rsatib o'tgan.

Agrar hududda tabiatni muhofaza qilishning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy va xuquqiy choralari mavjud. Ulardagi ekologik xavfsizlikni ta'minlashning xuquqiy choralari 2 guruxga ajratish mumkin. Birinchisi, xo'jalik yuritishning ekologik me'yorlarini ishlab chiqish va Amaliy tatbiqini ta'minlash; ikkinchisi-antropogen buzilgan hududlarni sog'lomlashtiruvchi me'yorlarni ishlab chiqish va ularni hayotga keng tatbiq qilish.

Har ikkala xuquqiy guruh chora-tadbirlarining, avvalombor, konstitutsiyaviy asosini yaratish kerak bo'ladi. Xo'jalik yuritishning salbiy-ekologik oqibatlarining oldini olishning konstitutsiyaviy asoslari O'zbekiston Respublika Konstitutsiyasining XI bob 50- moddasida fuqarolarning atrof tabiiy muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish majburiyatidan kelib chiqadi. Bozor munosabatlariga o'tish davrida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida yuzaga kelayotgan barcha turdagi mulkdorlar o'z mulkidan foydalanishlarida atrof-muhit holatiga zarar yetkazmasliklari sharti qo'yilgan (54 modda). Davlatga (55-modda), jumladan, mahalliy hokimiyatlarga (100-moddaning 5-bandi) tabiiy zaxiralarni umummilliy Boylik sifatida muhofaza qilish majburiyati yuklatiladi. Lekin jamiyatning ekologik xavfsizligini, xususan, Agrar hududda ekologik inqirozning oldini olishning konstitutsiyaviy asoslari Bosh qomusimizning alohida bir «Davlatning ekologik siyosati» bobida aks etgani ma'qul, deb mutaxassislar fikr bildirmoqdalar. «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga esa «Qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlik talablari» deb nomlangan alohida bir moda kirgizilishi juda ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Aks holda, xalq xo'jaligimizning yetakchi sohasi bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ekologik talablar yetarli darajada namoyon bo'lmasligi mumkin.

1998 yil 18 martdagi Prezident Farmoniga binoan tasdiqlangan chuqurlashtirish Dasturida dehqonchilik tizimini rivojlantirish uchun yerdan oqilona foydalanish va tuproq unumdorligini ta'minlash uchun; tuproq unumdorligini oshirish chora-tadbirlarini qo'llash; yerdan foydalanish, sifatini aniqlash va baholashni tartibga solish chora-tadbirlarini ishlab

chiqish; ekin maydonlari tuzilmasini maqbullashtirish, tumanlarda qishloq xo'jalik ekinlari yetishtirishni ixtisoslashtirish; noan'anaviy qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish ko'zda tutilgan edi.

Dasturning Qishloq xo'jaligini kimyoviyashtirish va o'simliklarni himoya qilish bo'limida hech qanday ekologik talablar nazarda tutilmagan. Ekologik xavfsiz qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqishning xuquqi chora-tadbirlari belgilanmagan.

Yerlarni irrigatsiya va meliorativ holatini yaxshilash chora-tadbirlarida ham yangi yerlarni o'zlashtirishning ekologik talablari yoki eski texnogen buzilgan yerlarning ilmiy asosda qayta tiklash talablari bayon etilmagan. Vaholanki, har yili qishloq xo'jaligidagi sug'orma yer fondidan boshqa xalq xo'jaligi maqsadlari uchun 15-20 ming gektar yer ajratilmoqda. Bunday yuqotuvning o'rnini qoplash maqsadida sho'rlangan, botqoqlangan, eroziyaga uchragan Agrar hududdagi tashlandiq maydonlarni o'zlashtirish haqida hech narsa deyilmagan. Bizga ma'lumki, respublikamizda 0,5 mln. gektardan ochiq jarlangan va texnogen buzilgan yerlarni qishloq xo'jalik oborotiga qaytarsa bo'ladi. Lekin meliorativ tadbirlar qonunchilikda o'ziga xos me'yoriy xujjatlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

Qishloq xo'jaligida o'zaro moliya va kredit munosabatlari, hisobga olish va hisobotni takomillashtirish bo'limida ekologik chora-tadbirlar uchun qo'shimcha byudjet ta'minoti va imtiyozli kreditlar ajratish ko'zda tutilmagan. Ekologik rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmi ko'rsatilmagandir.

Qishloq infratuzilmasini rivojlantirishda ortiqcha mexnat potentsialidan, qulay tabiiy-iqlim va mineral xom ashyo resurslaridan nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy balki ekologik-estetik nazardan unumli foydalanish ko'rsatilmagandir.

Xulosa qilib aytganda, 1999-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxlarni chuqurlashtirish dasturi asosan Agrar hududda iqtisodiy masalalarning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuning printsipi- «Iqtisod bilan ekologik tadbirlarni o'zaro uyg'unlashgan holda olib borish»ni inobatga olmagan edi. Vaholanki, qishloq xo'jaligidagi iqtisodiy isloxlarning maqsadi qishloq aholisining farovonligi va agrar sanoatining ishlab chiqarish samardorligini oshirish. Xalq farovonligining eng asosiy ko'rsatkichlaridan biri-ekologik xavfsiz muhitda sog'-salomat yashashdir.

Yuqorida aytib o'tilgan Dastur asosida qabul qilingan bir qator qonun xujjatlarida, xususan, Yer kodeksi, Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi), Fermer xo'jaligi, Dehqon xo'jaligi to'g'risidagi, Davlat yer kadastrini hamda Vazirlar Mahkamasining 1999 yildagi 299, 300-sonli qarorlarida tabiiy boyliklardan samarali foydalanish va ekologik talablar qishloq xo'jalik sub'ektlarining xuquq va majburiyatlariga kirgizilmagandir.

2000 yil 25 maydagi Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonunning 9- moddasiga muvofiq, har bir tadbirkor ( jumladan, fermer va dehqon xo'jaligi) o'z faoliyatida ekologik talablarga rioya etishi shart, aks holda uning faoliyati to'xtalishi (48 modda) va u javobgarlikka tortilishi (51-modda) mumkinligi ko'rsatib o'tilgan. Agarda tadbirkorlar (jumladan, qishloq xo'jaligida faoliyat yurgizayotganlar) suvdan samarali foydalansalar, mahalliy davlat xokimiyatlari tomonidan rag'batlantirish me'yorlarini (5-bob) qo'llashlari ham inobatga olingan. Bunday ijobiy-xuquqiy usulni qo'llash mamlakatimiz qonunchiligida ekologiyalashtirishga tomon qo'yilgan katta qadamdir.

Afsuski, «Fermer xo'jaliklari to'g'risida»gi qonundan farqli «Dehqon xo'jaliklari to'g'risida»gi qonunda (27-modda) dehqonlarning noekologik harakatlari ular faoliyatining to'xtalishiga asos bo'lishi inobatga olinmagan. Dehqon xo'jaligi mayda qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqarishga va uncha katta bo'lmagan (0,35 gektargacha) yer uchastkalaridan foydalanish xuquqiga ega. Lekin ularning soni va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tutgan salmog'i bo'yicha agrar sanoatda yetakchi o'rinni egallashini inobatga oladigan bo'lsak,

dehqon xo'jaliklarini tugatishga sabab bo'lib ekologik talablar ham olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Agrar sanoat korxonalarini, muassasalari, tashkilotlari va kooperativlari (shirkat xo'jaliklari)ning printsiplaridan biri yerlarni muhofaza qilish va tuproq unumdorligini oshirishni ta'minlashdir. 1998 yil 30 apreldagi Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi qonunga muvofiq, Agrar hududda ekologik talablar faqatgina yerlardagina qo'llaniladi, xolos. Lekin u hamma xo'jalik faoliyati jabhasida va hamma tabiiy ob'ektlar bo'yicha olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham Agrar hudud bo'yicha yoki bevosita yoki bilvosita ta'sir etishi mumkin bo'lgan qonun hujjatlarida ekologik talablarning alohida bob yoki modda qilib berilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

Yer kodeksining asosiy maqsadi-hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab, yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tabiiy xususiyatlarini asrash va yaxshilashdir. Yer esa qishloq xo'jalik ishlab chiqarish vositasidir va shuning uchun ham undan, avvalambor, qishloq xo'jaligida foydalanishlik Kodeksda ko'zda tutilgan. Kodeksning 2-moddasi 6-bandiga binoan, yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy printsiplaridan biri-erga va butun atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashdir. Ushbu printsipti Davlat boshqaruv va nazorat organlarining vakolatlari doirasida ham aks ettirilgan. Masalan, Vazirlar Mahkamasi yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishning yagona siyosatini olib boradi, mahalliy hokimiyatlar o'z hududlarida ekologik tadbirlarni ishlab chiqadilar va ularning amalga oshirilishini nazorat qiladilar.

Yer kodeksining Yer tuzish, Yerga bo'lgan mulkchilik, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan xuquqlari va majburiyatlarida ekologik talablar alohida band sifatida berilgan. Kodeksning 6-bobida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda ishlab chiqarish samaradorligini ko'tarishning asosiy omillaridan biri yerni haqiqiy egalari bo'lib berish ekanligi aniq qilib ko'rsatilgan. Yerlarni qishloq xo'jaligida muhofaza qilishning mazmuni (11-bob) va tartibi (79-modda) irrigatsiya, melioratsiya va boshqa qishloq xo'jalik inshootlarini qurish, loyihalash va ulardan foydalanishga oid ekologik talablar (81-81 modda) va bu talablarni o'z muddatida bajarganlar uchun iqtisodiy rag'batlantirish yo'llari (82-modda) ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ko'rsatilganidek, Agrar hududda faoliyat yurgizayotgan sub'ektlar ekologik xavfsiz muhitga ta'sir etuvchi noqonuniy bitimlar tuzgani; unumdor yerlarni o'zboshimchalik bilan egallagani; turli sanoat, maishiy va yakka tartibda uy-joy qurganligi; tuproq unumdorligini yoki kadastr ma'lumotlarining keskin ravishda yomonlashib ketishiga sabab bo'luvchi harakat yoki harakatsizliklar qilgani; atrof-muhit va yerlarni kimyoviy ifloslantirganliklari yoki fizik buzganligi; zaxarli modda va birikmalarni saqlash, tashish va qo'llash talablarini buzganligi natijasida yerlarning sifat ko'rsatkichlarini yomonlashtirib yuborganligi uchun Jinoyat kodeksining 183-197, 201, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 65-69, 8, 91, 95, 96, Fuqarolik kodeksining 11, 173, 214, 231, 516, 517, 541, 542, 551 hamda Yer kodeksining 90, 91-moddalariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

Agrar hududga yer resurslaridan tashqari, zarar yetkazish mumkin bo'lgan tabiiy ob'ektlar-suv resurslari, yovvoyi turdagi xayvonot, o'simlik dunyosi va ularning yashash muhiti ham kiradi.

Suv resurslaridan qishloq xo'jaligida asosan sug'orish hamda chorva mollarini ichimlik suvi bilan ta'minlashda foydalaniladigan foydalanishdagi ekologik talablar suvlarning kamayib ketishi, bug'lanishi va ifloslanishining oldini olishga qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun ham 1993 yil 6 mayda qabul qilingan «Suv va suvdan foydalanish to'g'risida»gi qonunning X111 bobiga muvofiq, qishloq xo'jaligi xuquqi sub'ektlari suvdan

maxsus foydalanishlari mobaynida yer osti va usti suvlaridan foydalanishning ekologik talablariga qat'iy rioya etishlari, suvlarni sug'orish, oqizish davomida ortiqcha suv o'tkazuvchanlik (filtratsiya) va bug'lanishga yo'l qo'ymaslik shartlari zikr etilgan.

Agrar hududda gidrotexnik, maishiy, sanoat, madaniy va boshqa inshootlarni qurish mobaynida suvdan, ayniqsa, chuchuk suvdan foydalanishning samaradorligini ta'minlash, ularni ifloslanish, zaxarlanish hamda tuproqlarning yuvilish, shurlanish, botqoqlanishiga sabab bo'luvchi oqibatlarining oldini olish choralarini ko'rishlari shart. Suv qonunchiligi O'zbekistonda suv ob'ektlarini agrar hududlarda ifloslantirishi, buzilishi va yomonlashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan ob'ektlarni loyihalash, ishga tushirish, qurishni man qiladi. Tabiatni muhofaza qilish qumitasining BX 118.00277 19.5-91-«Suv ob'ektlariga tashlandiq suvlar bilan oqizish me'yori loyixalarini ishlab chiqish va ro'yxatlash tartibi»; BX 118.0027714.50-95- «CHorvachilik komplekslarida suvlarni muhofaza qilishning davlat nazorati bo'yicha metodik qo'llanma»; BX 118.0027714.6-92-«Suvlardan maxsus foydalanishga ruxsat berish va kelishish tartibi» kabi boshqaruv xujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Lekin bu boshqaruv xujjatlarining davlat standarti qilib hanuzgacha sobiq Ittifoq davrida ishlab chiqilgan GOST 17.1.3.04- 82-«Yer osti va usti suvlarining pestitsidlardan ifloslanishini muhofaza qilish talablari»; GOST 17.1.3.11-84-«Mineral o'g'itlardan yer osti va usti suvlarining ifloslanishini muhofaza qilish talablari»; GOST 17.1.3.13-86-«Yer usti suvlarining ifloslanishidan muhofaza qilishning umumiy talablari»; GOST 17.4.3.05-86-«Sug'orish va o'g'itlashda oqova suvlar va ularni yotqiziqclariga qo'yiladigan talablar»; SanPiN № 4630-88-«Yer usti suvlarini ifloslanishidan muhofaza qilishning sanitar qoidalari va me'yorlari» kabi me'yoriy xujjatlar amal qilmoqda. Respublika ekologik kompleks boshqaruv organlariga bu me'yoriy xujjatlarni zamon talabiga va Agrar hududda yuzaga kelgan ekologik vaziyatga qarab qayta ko'rib chiqish muddati keldi, deb o'ylaymiz.

Amaldagi ekologik qonun xujjatlariga muvofiq chorvachilik komplekslarining katta-kichikligiga qarab, ularning atrofidagi sanitar zonalar chegarasi 3 kilometrgacha bo'lgan xalqani qamrab oladi. Baliqchilik havzalari atrofidagi himoya zonalarida esa qishloq xo'jaligi mintaqalarida 2 kilometrgacha bo'lishi kerak. Agarda bu zonalarda qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtiriladigan bo'lsa, tuproq va madaniy o'simliklarni o'g'itlash yoki kimyoviy moddalar ishlatish yog'-moy, organik va mineral o'g'it yoki boshqa kimyoviy moddalarni saqlash uchun omborlar qurish, chorvachilik komplekslarini barpo qilish va ulardan chiqadigan organik o'g'itlarni saqlash qat'iy man qilinadi.

Agrar hududda tabiiy turdagi o'simlik va xayvonot dunyosini muhofaza qilish «O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi, «Xayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida»gi qonunlarda ko'rsatilganidek, har bir sub'ektdan maksimal darajada biologik genofondni saqlab qolishga harakat qilishlarini talab qiladi. Meliorativ inshootlar qurishda baliqlarni muhofaza qilish qurilmalarini tashkil etish, sholi, bug'doy, beda kabi qishloq xo'jaligi o'simliklarini yig'ishtirib olish davrida yovvoyi turdagi qush va xayvonlarni saqlab qolish choralarini ko'rish ko'zda tutilgan.

Lekin mutaxassislarining ma'lumotlariga ko'ra, Agrar hududda 30-70% tabiiy turdagi xayvonlar va o'simliklar dunyosi qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, melioratsiyalash va madaniy o'simliklarni yetishtirish davrida nobud bo'lmoqda. Shuning uchun hosilni mexanizatsiyalar yordamida yig'ishtirib olish paytida xayvonot dunyosini muhofaza qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish va ular hosilni mexanizmlar yordamida yig'ishtirib olishni daryo, o'rmon yoki tabiiy saqlangan joylardan boshlamaslik, xayvonlarni shu tomonlarga ko'chib o'tish imkonini beruvchi me'yorlar bilan to'ldirish zarur. Amaldagi ekologik qonunchilik qishloq xo'jalik korxonalarini tomonidan tabiatga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha talablarni qo'ysa-da, lekin hanuzgacha aniq bir ilmiy asoslangan boshqaruv, nazorat va ekspertiza xujjatlarining yo'qligi ajablanarli holdir.

1981 yilda qabul qilingan «Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunda farqli 1996 yil 27 dekabrda qabul qilingan shu nomdagi milliy qonunimizda atmosfera havosini tabiiy resurs sifatida qarab, uni muhofaza qilish nafaqat insonlar, balki himoyasiz tabiiy turdagi o'simlik va xayvonot dunyosi uchun kerakligi inobatga olingan. Yangi qonunga muvofiq (18-modda) Agrar hududda kimyoviy moddalarni, ayniqsa pestitsid, gerbitsid, defolantlar va mineral o'g'itlarni samolyotdan turib sepish man qilinadi. Ularni faqatgina yerdan turib ishlatish mumkin. Bu esa atrof-muhitni Agrar hududda sog'lomlashtirishga tomon qo'yilgan katta xuquqiy qadamdir.

**10.3 Sanoat hududlarning ekologik-xuquqiy jixatlari.** Ekologik va iqtisodiy talablarni ma'lum bir iqtisodiy kengliklarda amalga oshirish mexanizmini ishlab chiqish va amaliy tatbiq'ini yo'lga qo'yish jamiyatdagi ekologik munosabatlarni tartibga solishning eng samarali vositasidir. Ana shunday iqtisodiy kengliklardan biri sanoat zonalaridir. Sanoat zonolari-noqishloq va noo'rmon xo'jalik sanoat tarmoqlari joylashgan va ishlab chiqarish faoliyati yurgiziladigan hududlar. Bunday hududlarga sanoat tarmoqlari yoki ularning majmuasi, ya'ni mashinasozlik va metallurgiya korxonalari, neft-gaz sanoati ob'ektlari, yengil va oziq-ovqat korxonalari, enegetika ob'ektlari (AES, GES, GRES, TES), tog'-kon, kimyo, qurilish sanoatiga qarashli zavod, fabrika va korxonalarni aholi punktlaridan chetga olib chiqilgan zonalar kiradi.

Sanoat zonalarida, biz yuqorida aytib o'tganimizdek, atrof-muhitning ifloslanishi, buzilishi va ekologik xavfsizlik talablari boshqa antropogen o'zgargan ob'ektlarga nisbatan o'ziga xos bo'lib, ularda ekologik-xuquqiy talablar quyidagilardan iborat:

- texnologik jarayonlarning kamchikitli va chiqitsizligini ta'minlash;
- ifloslantirish va zaxarlanishni kamaytirish hamda zararli moddalarni neytrallashtirish (xavfsizlantirish);
- energiyaning alternativ turlaridan keng foydalanish;
- ekologik xavfsiz muxsulotlar chiqarish;
- tozalagich texnologiyalarini doimo takomillashtirib borish va ularni davlat nazoratida ushlab turish;
- ilmiy –texnologik jarayonlarni keng tatbiq qilish yoki tabiiy resurslardan juda yuqori darajada samardorlik bilan foydalanishni yo'lga qo'yish va hokazo.

Bunday ekologik –xuquqiy darajadagi talablar sanoat zonalaridagi korxonalarining hamma ishlab chiqarish bosqichlarida rejalash, loyihalash, joylashtirish, qurish, ish tushirish va tabiatga ta'siri bo'lgan yangi texnologiyalarni joriy qilish jarayonini qo'llashni taqozo qiladi.

Sanoat zonalarini yoki ularda biron–bir sanoat korxonasi joylashtirishni rejalashtirish xalq xo'jaligining soxaviy yoki umumiy iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida ekologik xavfsizlik talablarini inobatga olish bilan boshlanishi kerak.

Sanoat korxonalarini joylashtirishning asosiy nazorat xujjatlaridan biri bo'lib, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning Soxaviy, Hududiy yoki Bosh sxemalari hisoblanadi. Bu sxemalardan sanoat korxonalarini loyihalash muassasalari tabiiy resurslardan foydalanish va atrof muhitni muhofaza qilishning ruxsat etilgan me'yorlarini inobatga olgan holda amalga oshiriladi. Agarda loyihalayotgan sanoat korxonasi shu zonadagi ekologik me'yor talablariga davob bermasa, loyihalash to'xtatilishi lozim.

Sanoat korxonalarini qurish vaqtida qurilish tashkilotlari loyihadagi ekologik va sanitar talablarni bilishlari va ularga to'la e'tibor berishlari kerak. Shu bilan birgalikda, loyihachilar-avtorlik nazoratini, quruvchilar-qurilish nazoratini, tibbiyot xizmatchilari-sanitar nazoratini amalga oshirishlari shart. Agarda sanitar va ekologik talablar qurilish davomida

buziladigan bo'lsa, davlat nazorat organlari ularni bartaraf etish shartlarini ko'rib chiqishlari, kerak bo'lsa qurilish ishlarini to'xtatib qo'yish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha loyiha va qurilish ishlarini qayta ko'rib chiqishni talab qilishlari mumkin.

Ko'pgina demokratik mamlakatlar qonunchiligida sanoat korxonalarini joylashtirish va qurishda jamoat birlashmalari va mahalliy aholining fikrlarini inobatga olish ko'zda tutilgan. Jamoatchilik talabi bilan Yevropada shimoliy daryolar janubga oqizilmaydigan bo'ldi, Qrim yarim orolining kurortlar hududida Qrim AES qurilishi, Germaniya va Belgiyaning ekologik inqirozli hududlarida TESlar qurilishi to'xtatildi.

Sanoat ob'ektlarini qurish jarayonida eng ko'p uchraydigan noekologik xarakterli loyihalarni qayta ko'rib chiqish va qurilish ishlarini arzonlashirish yoki inflyatsion jarayonlarni oldindan belgilashda «smeta» ko'rsatkichlarining to'g'ri kelmasligi oqibatida ekologiyalashgan texnologiyalarni o'rnatmaslik.

Sanoat zonalarida korxonalarini ishga tushirishdan avval, ularni ekologik ekspertizadan o'tkazish shartlari Ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunning 11-moddasiga muvofiq sanoat korxonalarining ishga tushirilishi ekologik xavfsizlikni ta'minlab berish imkoniyatiga ega bo'lmasa, ya'ni loyihada ko'zda tutilgan tozalovchi va chiqitlarni zararsizlantirish inshootlari qonun xujjatlaridagi me'yorlarga to'g'ri kelmasa, bunday sanoat ob'ekti o'z faoliyatini boshlay olmaydi. Korxonalarini qabul qilish komissiyasi tarkibida, albatta, ekologik va sanitar-epidemiologik nazorat organlari mutaxassislarining qatnashuvini ta'minlash darkor. Komissiya raisi va a'zolarining shaxsiy javobgarliklari Jinoiy va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarda alohida belgilangandir.

«Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 41-moddasida korxonalar, tashkilotlar va boshqa ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish, rekonstruksiyalash, ulardan foydalanish va ularni tugatishga doir ekologik talablar belgilangan. Lekin mazkur moddada xo'jalik yurgizish vazifasi yuklatilgan sanoat yoki boshqa turdagi korxonalarini ishga tushirish bo'yicha muhim talablar nazarda tutilmagan.

Ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan korxonalariga ekologik guvohnomalar berish «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 46-moddasiga muvofiq amalga oshiriladi. Ekologiya yoki gigiena guvohnomasiga ega bo'lmagan, shuningdek, xo'jalik yuritish davomida belgilangan ekologik-sanitar mezonlarni buzgan korxonalar xom ashyo va materiallardan foydalanishi, texnologiya jarayonlarini joriy etishi va tayyor maxsulotlar ishlab chiqarishi man etiladi. Ekologik guvohnomalar berish tartibi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi va Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi hamda Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Sanoat zonalarida tabiiy resurslardan foydalanish limitlari va me'yorlari, atrof-muhitga yetkazilgan zararlarni korxonalar tomonidan qoplashning xuquqiy me'yorlari «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning 4,5,11 boblarida keltirilgan bir qator moddalar va qonun osti me'yortiv xujjatlar asosida tartibga solinadi. Sanoat zonalarida ekologik talablarni xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan buzganlarga, avvalambor, iqtisodiy javobgarlik choralarini qo'llash (MJTK 50-modda), bu xuquqbuzarliklar bir necha bor takrorlansa yoki bir marotaba qo'pol ravishda buzilsa, yuridik javobgarlikning jinoiy jazo turlarini qo'llash ko'zda tutilgan.

#### **10.4 Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari**

Mahalliy, regional va milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun tuman, viloyat yoki respublika miqyosida ekologik rayonlashtirish olib boriladi. Ekologik rayonlashtirishda muayyan hududlarni, ularning atrof tabiiy muhit holati va kelajak istiqbollariga qarab bo'lib chiqiladi. Bo'lingan konturlarda xalq, millat yoki davlatning tabiiy genofondini saqlash yoki ma'lum bir ekologik maqsadlarni ko'zlagan holda alohida muhofaza etiladigan hududlar ajratib olinadi.

Alohida muhofaza etiladigan hududlar deb tarixiy-madaniy, siyosiy va ekologik maqsadlarni ko'zlagan holda davlatning alohida e'tibori bilan qo'riqlanadigan hududlarga aytiladi.

Ular uch korinishda namoyon bo'ladi: alohida muhofaza etiladigan tarixiy-madaniy hududlar-tarixiy yodgorliklar, ansambl va arxitektura majmualari, tarixiy ahamiyatga moyil bog'lar; alohida muhofaza etiladigan siyosiy hududlar-harbiy va o'quv poligonlari, davlat chegarasi yoki atom yadrosi bilan ishlovchi korxonalar atrofi kabi hududlar; alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar deb ekologik, madaniy-sog'lomlashtirish, ilmiy, estetik, rekratsion (dam olish) maqsadlarni ko'zlab, davlatning alohida e'tibori bilan ko'riqlanadigan tabiiy hudud va ob'ektlarga aytiladi.

Ular yerga uchastkalari, yer qa'ri, suv kengliklari, o'rmonlar va milliy tabiiy merosga kiruvchi aniq bir tabiiy ob'ektlar kirishi mumkin.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar nafaqat o'zlarining tabiiy xususiyatlarining noyobligi, balki o'zga hududlarning ekologik barqarorligini ta'minlashda ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, Chotqol-Ugam tog' tizmasida qo'riqxonalarining tashkil etilishidan maqsad, noyob tabiat boyligini saqlash bilan bir qatorda, Toshkent shahri va uning atrofida yashovchi deyarli 3 milliondan ortiq aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlab beruvchi daryolarning to'yinish manbalarini (qor va muzliklar, buloqlar va chashmalar) saqlab qolishdir.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik xuquqiy holatiga qarab, ularni ijtimoiy-ekologik, qo'riqxon-ekologik, iqtisodiy-ekologik xillarga ajratiladi (6-rasm).

Ijtimoiy ekologik xil -aholining madaniy-sog'lomlashtirish va rekratsion maqsadlarni ko'zlagan holda tashkillashtirilgan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar. Bu degan so'z, aholining salomatligi va uning qulay atrof-muhitga ega bo'lish xuquqini muayyan hududlarda ijtimoiy-ekologik muhofaza qilish maqsadida, ularda alohida bir xuquqiy holatni tashkil etish.


Qo'riqxon-ekologik xil -ilmiy, estetik va madaniy-oqartuv maqsadlarni ko'zlagan holda tashkillashtirilgan, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va ob'ektlar. Tabiiy merosni saqlab qolish, biologik xilma-xillikni saqlash, ilmiy va reproduktiv (qayta tiklash) masalalarni hal qilish, aholining o'z go'zal va betakror diyoriga bo'lgan mexrini uyg'otish, tabiat go'zalliklaridan baxra olish va Vatanni sevish kabi vazifalarni bajarish maqsadida tashkillashtirilgan va alohida xuquqiy maqomga ega bo'lgan hududlar va tabiat yodgorliklari.

Iqtisodiy-ekologik xil -davlatning iqtisodiy qudratining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi tabiiy ob'ektlarni muhofaza qilish maqsadida tashkillashtirilgan hududlar va ob'ektlar. Ifloslanmagan yoki kimyoviy moddalar bilan zaxarlanmagan suv hamda noyob va qimmatbaho konlar nafaqat insonlarga ijtimoiy yoki ekologik maqsadlarda, balki qishloq xo'jaligini sug'orish suvi bilan ta'minlash, baliq xo'jaligini yuritish, qimmatbaho mineral boyliklarni saqlash va ularni davlat ravnaqi uchun xizmat qildirish maqsadlarini ham ko'zlaydi.

Barcha xildagi alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga xos bo'lgan xuquqiy qoidalar va me'yorlar mavjud. Ushbu xuquqiy me'yorlar 1993 yil 7 maydagi Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, Tabiatni muhofaza qilish, Suv va suvdan foydalanish, Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish, Yer osti boyliklari to'g'risidagi qonunlar, yer, Jinoyat, Fuqarolik, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Mehnat kodekslari kabi o'nlab qonunlar va qonun osti me'yoriy xujjatlar orqali tartibga solinadi. Barcha Ekologik xuquqmanbalarining asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlod manfaatlarini ko'zlab noyob hamda fuqarolarning



ekologik-xuquqiy talablarini qondiruvchi qimmatli tabiat majmualarini va yodgorliklarini xuquqiy muhofaza qilishdir.



6-rasm-Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va ob'ektlarni ekologik xuquqiy holati bo'yicha tasniflash

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud va ob'ektlar milliy Boylik va umumxalq mulki hisoblanadi. Faqatgina dendrologiya, botanika va hayvonot bog'larini tashkil etish, ularda ekologik- xuquqiy talablarni joriy qilish maxsus «Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida»gi qonunning 4-moddasiga muvofiq, Ushbu 3 turdagi tabiiy-antropogen tashkillashtirilgan ob'ektlar boshqa shakllardagi mulk bo'lib chiqishi ham mumkin.

Yer kodeksining 8-moddasiga binoan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yerlari alohida bir yer toifasiga ajratiladi. Soliq kodeksining 101-moddasi 3- bandiga ko'ra, tabiatni muhofaza qilish ahamiyatiga molik yerlar-davlat qo'riqxonalar, milliy va dendrologiya bog'lari, botanika bog'lari, buyurtma qo'riqxonalar (ov qilishga mo'ljallangan zakaznikalardan tashqari), tabiat yodgorliklari, ixota daraxtzorlari yer uchastkalari yer solig'idan ozod qilinadi. Ularda belgilangan maqsaddan tashqari barcha faoliyat taqiqlanadi. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyati yuritiladigan bo'lsa, u jolda yer solig'i va ijara xaqi undirib olinadi.

1999 yil 20 avgustdagi «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning IV bobiga muvofiq, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda favqulodda vaziyatlar (suv toshqini, zilzila, ko'chish va h.k.) ruy bergan taqdiri, ularning huquqiy holatiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish, ulardan foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasidagi davlat boshqaruvini Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, maxsus vakolatlangan vazirliklar, davlat qumitalari, agentlik va idoralar amalga oshiradilar. Davlat nazoratini esa Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi olib boradi.

Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar ularni rivojlantirish va joylashtirishning bosh shakliy loyihasi yoki Tabiatni muhofaza qilishning hududiy majmua shakliy loyihasi muvofiq barpo etiladi va Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Ushbu tasdiqlanish tegishli yer maydonini zaxiralash(ajratish) to'g'risidagi qaror qabul qilinishiga asos bo'la oladi. Zaxiralangan yer maydonida xo'jalik faoliyati to'xtatiladi yoki cheklanadi.

«Davlat kadastrlari to'g'risida»gi qonunning 5-moddasiga ko'ra, alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrlarining yagona tizimida turadi. Uni yuritish tartibi 1998 yil 10 martda Vazirlar Mahkamasining 109-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasining alohida muhofaza kuzatiladigshan tabiiy hududlari davlat kadastrini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq o'tkaziladi. Ushbu kadastrda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning xuquqiy maqomi, geografik joylanishi, miqdor va sifat ko'rsatkichlari, ekologik, ilmiy, ma'rifiy va boshqa xil ahamiyati to'g'risidagi, yer egalari va yerdan foydalanuvchilar haqidagi ma'lumotlar aks ettiriladi. Tegishli davlat kadastrlari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari bosh boshqarmasi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qumitasi va O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

O'zini o'zi boshqaruv idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishni yo'lga qo'yishda, ekologik, ma'rifiy, madaniy tadbirlarni o'tkazishda davlat organlariga hamkorlik qilishlari mumkin.

### **Nazorat savollari**

1. Antropogen o'zgargan tabiiy hudud deb nimaga aytamiz?

2. Nima uchun antropogen o'zgargan hududlarni ekologik-xuquqiy muhofaza qilish yo'llari alohida olib boriladi?
3. Qanday xuquq manbalari orqali shaharlarda ekologik talablar o'rnatiladi?
4. SHaharlarda atrof-muhitni muhofaza qilish talablari nimalardan iborat?
5. Ekologik-xuquqiy me'yorlashni tabaqalashgan tarzda o'rnatish bo'ladimi?
6. Shaharlarda yerlardan oqilona foydalanish deganda nimani tushunasiz?
7. Agrar hudud deganda nimani tushunasiz?
8. Agrar hududda ekologik munosabatlarni tartibga solishda nimalarga e'tibor qaratiladi?
9. Qanday antropogen jarayonlar qishloq xo'jaligida salbiy ekologik oqibatlariga olib kelmoqda?
10. Fermer va dehqon xo'jaliklariga oid maxsus qonunlarda qanday ekologik-xuquqiy talablar qo'yilgan?
11. Sanoat zonalarida me'yorlash qoidalari qanday?
12. Antropogen o'zgargan hududlar bo'yicha o'rnatilgan qanday yuridik javobgarliklarni bilasiz?
13. Nima uchun ayrim hudud va ob'ektlarni davlat alohida e'tibor berib qo'riqlaydi?
14. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hudud tushunchasini ta'riflang?
15. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tasniflab bering?
16. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik-xuquqiy holatiga qarab necha xilga bo'linadi?
17. Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga xos bo'lgan qanday umumiy holatlarni aytib bera olasiz?
18. Biosfera qo'riqxonasi bilan qo'riqxonaning qanday farqi bor?
19. Buyurtma qo'riqxonalarini sanab bering.
20. Nima uchun O'zbekistonda ko'pgina alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga «Davlat» so'zi qo'shib ishlatiladi?
21. Suv muhofazasi hududlarida ekologik talablar kim tomonidan o'rnatiladi?
22. Qanday bog'lar turli mulk shaklida bo'lishi mumkin?
23. Jinoyat kodeksining nechanchi moddasida qanday jinoiy jazo sanksiyasi alohida muhofaza etish tartibini buzganlik uchun qo'llanilishi bayon etilgan?

## XULOSA

Ma'lumki ekologiya tabiat qonunlarini o'rganuvchi fanidir. Biroq har bir tabiatdan foydalanuvchi nafaqat tabiat qonunlarini bilishi, balki ekologik xuquqiy bilimlarni egallashi lozim. Hozirgi kunda bu tarmoq mustaqil fan darajasida rivojlanmoqda. Bunga asos bo'lib tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi O'zbekiston Konstitutsiyadan boshlab Oliy Majlis qarorlari, Prezident buyruqlari, Vazirlar Mahkamasining farmoyishlari hisoblanadi. Ushbu talablarni bajarish, shubhasiz respublikamizning barqaror rivojlanishiga olib keladi.

SHuni alohida ta'kidlash lozimki mustaqillik davrida ekologik xuquq masalalariga tegishli Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan 7 buyruq, 40 qonun, 8 kodeks, davlat boshqarmalarining 6 nizom, buyruq va qarorlar qabul qilindi. Ulardan 15 qonun tabiiy resurslarni muhofaza qilishga yo'naltirilgan. Birgina oddiy qonuniy xujjatlarni bilmaslik tabiatga va butun biosferaga qaytmas jarayonlarni olib kelishi mumkin. Har bir qonun bizni o'rab turgan tabiatni ko'p yillik o'rganishlar asosida qabul qilinadi. Shuning uchun ham biz amerikalik olim Barri Kommonerni (1974)-Tabiat yaxshi «biladi» deb ta'kidlagan qonunini qo'llab quvvatlashimiz zarur. Ushbu uchinchi qonun hozircha bizning bilimimiz yetarli emasligi, tabiat o'z mexanizmi va faoliyatini «yaxshi» bilishini anglatadi. Bu qonun: tabiatni

yaxshilayman deb unga zarar yetkazmang; agar natijaga to'liq ishonmasangiz tabiiy jarayonlarga aralashmang-deb ogohlantiradi.

Hozirgi kunda nafaqat bo'lajak yuristlarga balki muhandis ekologlar (akademik bakalavr darajasidagi) o'quv rejasiga «Ekologik xuquq» ham predmet sifatida kiritildi. Ma'ruzalar matnidan ko'rinib turibdiki, Predmetining asosiy o'rganuvchi savollari quyidagilardan iborat:

1. Ekologik xuquq predmetining maqsadi, vazifalari va asosiy tushunchalari.
2. Suv resurlaridan foydalanishning ekologik xuquqiy jixatlari
3. Yer munosabatlarida ekologik-xuquqiy qoidalar
4. Atmosfera havosiga ta'sir etishning ekologik xuquqiy me'yorlari
5. O'simlik va xayvonot dunyosini, o'rmonlarni muhofaza qilishning xuquqiy asoslari.
6. Yer osti boyliklaridan foydalanishning ekologik xuquqiy asoslari.
7. Antropogen o'zgargan va alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari.

Respublikamizning arid iqlimligini hisobga olgan holda 2 mavzuga ko'proq soat ajratilgan, seminar darslarda asosan asosiy qonunlar muhokama etiladi va ular bo'yicha referat tayyorlanadi. Bu fan muhandis-ekologlarning tabiatni muhofaza qilish doirasida yuridik bilimlarini oshiradi. Biz o'ylaymizki qabul qilinadigan qonunlar ro'yxati hali nihoyasiga yetgani yo'q, umidimiz kelajakda bioxilmaxillikni saqlash, barqaror rivojlanish, ekotizimni yaxshilash to'g'risada ham ko'pgina qonunlar qabul qilinadi va ushbu sohaga barcha mutaxassislarni ham qiziqishi oshaveradi.

## **FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR**

1. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari.-T.: «O'zbekiston», 1995
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: «O'zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror rivojlanish yo'lida.-T.: O'zbekiston, 1998
4. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik.-T.: «SHarq», 2001.
5. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish. Qonunlar va me'yoriy xujjatlar.-T.: Adolat, 2002
6. Aholi uchun yuridik ma'lumotnoma. 1-6 sonlar.-T.: Adolat, 1994-1995
7. Beknazov R.U., Novikov Yu.V. Oxrana prirod.-T.: O'qituvchi, 1995
8. Vedenin. V.V. Ekologicheskoe pravo. Vopros i otvet.- M:Yurisprudentsiya, 1999
9. Vsemirny sammit po ustoychivomu razvitiyu: Osnovne itogove dokument.-Almat, 2003
10. Gulomov M., Juraev Y. Ekologiya: jinoyat va jazo.-T.: O'zbekiston, 1991
11. Davlat va xuquq nazariyasi.-T.: Iqtisod va xuquq dunyosi nashriyot uyi, 2000

12. Yer xuquqi (M.X. Rustamboevning umumiy taxriri ostida).-T.: TDYuI nashriyoti, 2002
13. Yerofeev B.V. Ekologicheskoe pravo Rossii.-M.: MTsUPL, 1999
14. Islomov Z.M. Problem vlasti: yee ponimanie, naznachenie, sotsialnaya tsennost.-T.: TGYuI, 2003
15. Qobilov Sh.R. Ekologiya qonunchililini buzganlik uchun yuridik javobgarlik.-T.: Fan, 2001
16. Muradov Sh.O., Xolboev B.M., Otaqulov U.X., Ekologiya 1-qism Umumiy ekologiya
17. Namozov F. O'zbekistonda o'rmonlardan foydalanish xuquqi.-T.: Fan, 2000
18. Natsionalny doklad «O sostoyanii okrujayushey prirodnoy sred i ispolzovanii prirodnx resursov Respubliki Uzbekistan».-T.: «CHinor ENK», 1995-1999, 2002
19. Nigmatov A. N. O'zbekiston respublikasining ekologiya xuquqi.- T.: TDYuI, 2004.- 320 b.
20. Nigmatov A.N. Yer xuquqi.-T.: Toshkent islom universiteti, 2001.
21. Nigmatov A.N. Ekologiya nima.-T.: TIU nashriyoti, 2002
22. Nigmatov A.N. Ekologiya xuquqi: sxemalar va tushunchalar.-T.: Iqtisod va xuquq dunyosi, 1999
23. Nigmatov A.N., Sultonov R.N. Ekologiya va hayot.-T.: O'zbekiston, 2002
24. Nikolas A.R. Pravovoe regulirovanie priropolzovaniya i oxran okrujayushey sred v SSHA.-M.: Progress, 1990
25. Petrov V.V. Ekologicheskoe pravo Rossiyu.-M.: Bek, 1997
26. Raxmonov A., Raxmonov A. Islom xuquqi.-T.: 2003
27. Reymers N.F. Nadejd na vjivanie chelovechestva: Kontseptualnaya ekologiya.-M.: Rossiya molodaya. «Ekologiya», 1992
28. Reymers N.F. Prirodopolzovanie. Slovar-spravochnik.-M.: 1990
29. Saidov A., Tadjixanov U., Odilqoriev X. Davlat va xuquq nazariyasi.-T.: sharq, 2002
30. Saidov A.X. Xalqaro xuquq.-T.: Adabiyot jamg'armasi, 2001
31. Sostoyaniya okrujayushey prirodnoy sred i ekologicheskie problem Respubliki Uzbekistan.-T.: MID RUz, Goskompriroda, RUz, 1996
32. Suv xuquqi (M.X. Rustamboevning umumiy taxriri ostida).-T.: TDYuI nashriyoti, 2004
33. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari (1995-1999).-T.: Adolat, 2000
34. O'rmon xuquqi (M.X. Rustamboevning umumiy taxriri ostida).-T.: TDYuI nashriyoti, 2003
35. Usmonov M.B. Yer va qonun.-T.: Adolat 1994
36. Usmonov M.B. Tabiatni muhofaza qilishning konstitutsiyaviy asoslari.-T.: TDYuI nashriyoti, 2002
37. Hamraev S.S. Yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilishni xuquqiy tartibga solish muammolari.-T.: TDYuI, 2003-284
38. Hamroev S.S. O'zbekistonda tabiiy boyliklardan foydalanish shartnomalari (kontsessiya)ning xuquqiy tartibga solinishi.-T. NPO Vostok, 1999
39. Xolmuminov J.T. Ekologiya xuquqi. Darslik (prof. U.Tojixonovning umumiy taxriri ostida)-T.: IIV Akademiyasi, 2003
40. Xolmuminov J.T. Ekologiya xuquqi. Chizmalar albomi.-T.IIV Akademiyasi, 2002
41. Xolmuminov J.T. Ekologo-pravove problem ispolzovaniya oroshaemx zemel v Respublike Uzbekistan.-T.: Fan, 1996
42. Xolmuminov J.T. Ekologiya va qonun.-T.: Adolat 2000
43. Shkola ustoychivogo razvitiya.-Bishkek, 2003
44. Ekologicheskie aspekt v kontseptsii ustoychivogo razvitiya.-T.: Bioekosan 2003
45. Ekologiya xuquqi. (M.B.Usmonov taxriri ostida).-T.: Adabiyot jamg'armasi, 2001
46. Ekologiya. Yuridicheskiy entsiklopedicheskiy slovar.-M.: Me'yor, 2001
47. Yuridik entsiklopediya (U.Tadjixanovning umumiy taxriri ostida).-T.: sharq, 2001.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**SANOAT TEXNOLOGIYASI FAKULTETI**

**ATROF MUHIT HIMOYASI VA EKOLOGIYA**

**“EKOLOGIYANING  
HUQUQIY ASOSLARI”  
fani bo'yicha**

**TA'LIM TEXNOLOGIYASI**

## KIRISH

«Ekologiyani xuquqiy asoslari» fani bo'yicha yaratilgan mazkur ta'lim texnologiyasi ma'ruza va seminar mashg'ulotlarni texnologiyalashtirish qoidalari asosida ishlab chiqilgan.

Talabalarga bilim berishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida so'z borganda Prezidentimiz I.A.Karimovning “O'quv jarayoniga yangi axborot va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarimizni komil insonlar etib tarbiyalashda jonbozlik ko'rsatadigan o'qituvchi va domlarga e'tiborimizni yanada oshirish, qisqacha aytganda, ta'lim-tarbiya tizimini sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarish diqqatimiz markazida bo'lishi darkor”<sup>1</sup> degan so'zlarini ta'kidlash o'rinlidir. Bu masala “Barkamol avlod yili” Davlat dasturida ham asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Tuzilish jihatidan mazkur qo'llanma kirish, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni ta'lim va o'qitish texnologiyalarining konseptual asoslaridan tashkil topgan.

«Konseptual asoslari» bo'limida «Ekologiyani xuquqiy asoslari» fanini o'qitishning dolzarbligi, ahamiyati, uning tuzilmasi, shuningdek, ushbu o'quv fanining ta'limiy mazmuni bayon qilingan hamda ta'lim jarayonini boshqarish, kommunikasiyalash, informasiyalashda o'qitishning usul va vositalarini tanlashni aniqlovchi konseptual qoidalar asoslab berilgan.

*O'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyalari quyidagicha loyihalashtirilgan:*

ma'ruza mashg'ulotlarida: kirish, tematik, mutaxassislarni taklif etish, muammoli, ko'rgazmali (vizuallashtirilgan) ma'ruza, konferensiya, munozarali, aniq vaziyatlarni hal etish usullari;

Egallangan bilimlarni muammoli vazifalarni yechimini topishda qo'llash malakalarini shakllantirish (muammoli seminar mashg'ulotlari) va bilim va malakalarini chuqurlashtirish va mustahkamlash, hamda o'z mustaqil faoliyatlarini tashkil etish ko'nikmasini shakllantirish kabi seminar mashg'ulotlaridan tarkib topgan.

Ma'ruzaning xususiyatlaridan kelib chiqib xar bir mavzu o'ziga xos ta'lim texnologiyasi asosida tuzilgan. O'qituvchining bilim va mahoratini oshirishda hamda dars davomida talabalarga belgilangan mavzuni tez va tushunarli tarzda etkazishga, shu bilan birga, talabalar bilan doimiy ravishda jonli muloqat yuritishda, talabalarning diqqat e'tiborini jalb etishda ushbu qo'llanma muhim hisoblanadi.

Mazkur ta'lim texnologiyasi har qanday oliy o'quv yurtida, hamda uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha o'quv muassasalarida «Ekologik xuquq» fani o'qituvchilari tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Mualliflar mazkur ta'lim texnologiyasini yaratishda o'zining maslahatlarini darig' tutmagan, kitobning yanada mazmunli va sifatli bo'lishida qimmatli fikrlari bilan o'rtoqlashganligi, hamda tashkiliy ishlarga yordam berganliklari uchun T.KTI Tursunov T.T. “Atrof muhit ximoyasi va ekologiya” kafedrasining barcha professor-o'qituvchilariga o'z minnatdorchiliklarini ishor etadilar.

*Ta'lim texnologiyasini bajarishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar uchun oldindan uzr so'ragan holda, asosli taklif va tavsiyalarni siz pedogok o'qituvchilardan kutib qolamiz.*

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Konstitusiyasi – biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir. – Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilganining 17 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // Xalq so'zi, 2009 yil 6 dekabr.

---

**“EKOLOGIYANI XUQUUQIY ASOSLARI ”  
FANIDAN TA'LIM TEXNOLOGIYASINING  
KONSEPTUAL ASOSLARI**

---



## 1. «Ekologiyani huquqiy asoslari» fanining dolzarbligi va ahamiyati

Dunyo miqyosida hozirgi vaqt, kishilik jamiyati tomonidan e'tirof etilishi mumkin bo'lgan yagona yo'l nimadan iborat bo'lishi mumkin, degan o'rinli savol tug'iladi. Mazkur yo'l, ko'pchilikni fikri bo'yicha, umuminsoniyat qadriyatlarini ifoda etuvchi, xalqaro xuquq printsiplaridan kelib chiquvchi va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi xuquqiy-demokratik yo'ldir. Chunki turli toifadagi kishilar, davlatlar, millatlar, xalqaro uyushmalarning fikrlarini umumlashtiruvchi masala barqarorlikdir.

*Ijtimoiy munosabatlarning ana shunday yozma ifodasi fanda xuquq deb ataladi.*

*Atrof-muhit muhofazasi, ya'ni tabiatni muhofaza qilish, uning buzilgan qismlarini qayta tiklash va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish jarayonida kishilar o'rtasida yuzaga keladigan munosabatlar ijtimoiy munosabatlar turkumiga kiradi. Ularni esa, fanda umumlashtirilgan tarzda ekologik munosabat, deb ataydilar.*

Prezidentimiz Islom Karimov 2002 yil avgustda bo'lib o'tgan Oliy Majlisning II chaqiriq 9-sessiyasida qilgan ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasida demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini o'rnatishning asosiy soxalarini ko'rsatib berdi. Unda hamma ijtimoiy munosabatlar faqatgina xuquqiy yo'llar orqali tartibga solinishi kerakligi, ana ushandaagina ijtimoiy muhofazalangan bozor iqtisodiyotiga yetib borishimiz mumkinligi ta'kidlangan edi.

Ekologik munosabatlarni xuquqiy tartibga solish uchun milliy va xalqaro xuquqda ekologik me'yorlar hamda qoidalarni tabiat qonuniyatlariga mos ravishda ishlab chiqish, ularni vakolatli organ, tashkilot yoki hamjamiyatlar tomonidan qabul qilish, uning ishtirokchilari o'rtasida ushbu me'yorlarni umummajburiy kuchga ega qilish va albatta, xuquqbuzarlarga nisbatan yuridik oqibatlarni keltirib chiqarish mexanizmini yaratish zarur. Aks holda, atrof-muhitni muhofaza qilishni xuquqiy jihatdan tartibga solish imkoniyatini yuzaga chiqarish aslo mumkin emas.

Shunday qilib, ekologik munosabatlarni xuquqiy tartibga solish nafaqat atrof-muhit muhofazasiga, balki xalqlar va davlatlar o'rtasida barcha mahalliy, regional va global masalalarni demokratik yusinda hal qilish hamda insoniyatni barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilishga olib keladi.

## **2. “Ekologiyani xuquqiy asoslari” fanining mazmuni va mohiyati**

### **1-mavzu: EKOLOGIK HUQUQ PREDMETINING MAQSADI, VAZIFALARI VA ASOSIY TUSHUNCHALAR**

Ekologik xuquq predmet sifatida, Ekologik xuquq tushunchasi, Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari, Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixidan, Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari, Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari, Ekologik-xuquqiy mexanizmi, Ekologik xuquqning tizimi

### **2-mavzu: EKOLOGIYANING KONSTITUTSIYAVIY ASOSLARI**

Mustaqillik yillarida ekologik muammolarning hal etilishi fuqarolarning, ayniqsa, yoshlarning ekologik-huquqiy bilimi, ongi, ma'naviyati va madaniyatini zamon talabi darjasida rivojlantirish va shakllantirib borishni taqozo etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar 10 mln. 360 ming nafarni yoki umumiy aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 17 mln. 80 ming nafarni yoki 64 foizini tashkil etadi.

### **3-mavzu: EKOLOGIYA SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI VA IQTISODIY – HUQUQIY CHORA-TADBIRLAR.**

Ekologiya davlat boshqaruvi hamda nazoratini kuchaytirish, tashkil etish va uni olib borish davlatimiz ekologiya siyosatining asosini tashkil etadi. Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologiya sohasida davlat boshqaruvi masalasi alohida ilmiy ish ob'ekti sifatida keng o'rganilgan va “Tabiatni muhofaza qilish to'hrisida”gi qonunda ham o'z aksini topgan. Mustaqillik davrida chop etilgan bir qator ilmiy ishlar, maqolalar va darsliklar ekologiya sohasida davlat boshqaruvi muammosi o'zida mujassamlashtirdi.

### **4-mavzu: ATROF TABIIY MUHITNI XALQARO EKOLOGIK HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI**

Ekologiya huquqida atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik muhofaza qilish xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan kelib chiqadi va xalqaro ekologiya huquqiga nisbatan qo'llaniladi. Mazkur (prinsiplarni) tamoyillarni qo'llashdan asosiy maqsad, tabiiy muhitni va uning tamoyillarini saqlash hamda ulardan oqilona foydalanishdir.

Atrof tabiiy muhitni xalqaro ekologik huquqiy muhofaza qilish tamoyillari, asosan BMT va uning atrof muhit bo'yicha o'tkazilgan Stokgolm konferensiyasi (1972), Evropada xavsizlikni ta'minlashning yakuniy hujjatida (Xelsinki, 1975) va Umumjahon tabiat xartiyasida hamda Rio-de-Jeneyro konferensiyasi (1992) qarorlarida aniq ko'rsatib berildi.

### **5- mavzu. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-XUQUQIY JIXATLARI**

Suvdan oqilona foydalanishning ekologik-xuquqiy asoslari, Suv resurslaridan foydalanishda ekologik munosabatlarning maqsadi va vazifalari, Suv resurslarini ekologik-xuquqiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, Suv resurslaridan foydalanishni ekologik-xuquqiy jixatdan tartibga solish zaruriyati, Suvdan foydalanish xuquqi tushunchasi, Suvdan foydalanish xuquqining tamoyillari, usullari va tizimi, Davlat suv fondi va uni boshqarish

## **6- mavzu. YER MUNOSABATLARIDA EKOLOGIK-XUQUQIY QOIDALAR**

Yerga ekologik-xuquqiy munosabatlarning mazmuni va mohiyati, Yerlarni xuquqiy muhofaza qilishning umumiy qoidalari, Yer fondi toifalari bo'yicha ekologik-xuquqiy qoidalar, Yerdan foydalanishda nazoratning ekologik xuquqiy javobgarligi

## **7- mavzu. ATMOSFERA HAVOSIGA TA'SIR ETISHNING EKOLOGIK XUQUQIY ME'YORLARI**

Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy talablarini umumiy qoidalari, Atmosfera havosining ekologik-xuquqiy me'yorlari.

## **8- mavzu. O'SIMLIK VA XAYVONOT DUNYOSINI, O'RMONLARNI MUHOFAZA QILISHNING XUQUQIY ASOSLARI**

O'simlik dunyosidan foydalanishning ekologik-xuquqiy tartibi, O'rmonlardan foydalanishning ekologik-xuquqi, Xayvonot dunyosiga munosabatning ekologik-xuquqiy maqsadi va vazifalari

## **9- mavzu. YER OSTI BOYLIKLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK-XUQUQIY ASOSLARI**

Yer osti boyliklarini xuquqiy muhofaza qilish zaruriyati, Yer osti boyliklaridan foydalanishda ekologik-xuquqiy talablar, Konlardan foydalanish munosabatlarini ekologik-xuquqiy tartibga solish

## **10- mavzu. ANTROPOGEN O'ZGARGAN VA ALOXIDA MUHOFAZA ETILADIGAN TABIIY HUDUDLARNING EKOLOGIK-XUQUQIY JIXATLARI**

Shaharlarda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning xuquqiy jixatlari., Agrar hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari, Sanoat hududlarning ekologik-xuquqiy jixatlari, Alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning ekologik xuquqiy jixatlari

3.	<b>“Ekologiyani huquqiy asoslari” fani bo'yicha ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari</b>
----	--

Ta'lim texnologiyasi insoniylik tamoyillariga tayanadi. Falsafa, pedagogika va psixologiyada bu yo'nalishning o'ziga xosligi talabning individualligiga alohida e'tibor berish orqali namoyon bo'ladi.

Shulardan kelib chiqqan holda “Ekologik xuquq” fanining ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondashuvlarga e'tibor berish kerak.

- **Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi.** O'z mohiyatiga ko'ra bu yo'nalish ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa Davlat ta'lim standarti talablariga rioya qilgan holda o'quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo'naltirilib qolmay, uningning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

- **Tizimli yondashuv.** Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam qilishi zarur: jarayonning mantiqiyliigi, undagi qismlarning o'zaro aloqadorligi, yaxlitligi.

- **Amaliy yondashuv.** Shaxsda ish yuritish xususiyatlarini shakllantirishga ta'lim jarayonini yo'naltirish; o'quvchi faoliyatini faollashtirish va intensivlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha layoqati va imkoniyatlarini, sinchkovligi va tashabbuskorligini ishga solishni shart qilib qo'yadi.

- **Dialogik yondashuv.** Ta'lim jarayonidagi ishtirokchi sub'ektlarning psixologik birligi va o'zaro hamkorligini yaratish zaruratini belgilaydi. Natijada esa, shaxsning ijodiy faolligi va taqdimot kuchayadi.

- **Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.** Demokratiya, tenglik, sub'ektlar munosabatida o'qituvchi va o'quvchining tengligi, maqsadini va faoliyat mazmunini birgalikda aniqlashni ko'zda tutadi.

- **Muammoli yondashuv.** Ta'lim jarayonini muammoli holatlar orqali namoyish qilish asosida o'quvchi bilan birgalikdagi hamkorlikni faollashtirish usullaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy bilishning ob'ektiv ziddiyatlarini aniqlash va ularni hal qilishning dialektik tafakkurni rivojlantirish va ularni amaliy faoliyatda ijodiy ravishda qo'llash ta'minlanadi.

**Axborot berishning eng yangi vosita va usullaridan foydalanish,** ya'ni o'quv jarayoniga kompyuter va axborot texnologiyalarini jalb qilish.

Yuqoridagi konseptual yondashuv va “Ekologik xuquq” fanining tarkibi, mazmuni, o'quv axborot hajmidan kelib chiqqan holda o'qitishning quyidagi usul va vositalari tanlab olindi.

- **O'qitish usullari va texnikasi:** muloqot, interaktiv, bumerang texnologiyasi, bilis-so'rov, FSMU texnologiyasi, “baliq skeleti”, klaster, loyiha asosida o'qitish texnologiyasi, keys-stadi, muammoli usul, o'rgatuvchi o'yinlar, “aqliy hujum”, insert, “Birgalikda o'rganamiz”, ma'ruza (kirish ma'ruzasi, vizual ma'ruza, tematik, ma'ruza-konferensiya, aniq holatlarni echish, avvaldan rejalashtirilgan xatoli, sharhlovchi, yakuniy).

- **O'qitishni tashkil qilish shakllari:** frontal, kollektiv, guruh, dialog, polilog va o'zaro hamkorlikka asoslangan.

- **O'qitish vositalari:** odatdagi o'qitish vositalari (darslik, ma'ruza matni, tayanch konspekti, kodoskop)dan tashqari grafik organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

- **O'zaro aloqa vositalari:** nazorat natijalarining tahlili asosida o'qitishning diagnostikasi (tashxisi).

- **Boshqarishning usuli va vositalari.** O'quv mashg'ulotini texnologik karta ko'rinishida rejalashtirish o'quv mashg'ulotining bosqichlarini belgilab, qo'yilgan maqsadga erishishda o'quvchi va o'qituvchining hamkorlikdagi faoliyatini talabalarning auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarini aniqlab beradi.

**Monitoring va baholash.** O'quv mashg'uloti va butun kurs davomida o'qitish natijalarini kuzatib borish, o'quvchi faoliyatini har bir mashg'ulot va yil davomida reyting asosida baholash.

**Ma'ruza mashg'ulotini tashkil etishning shakl va xususiyatlari:**

<b>№</b>	<b>Ma'ruza shakllari</b>	<b>O'ziga xos tavsiflovchi xususiyatlari</b>
1.	Kirish ma'ruzasi	Fan to'g'risida yaxlit tasavvur hamda ma'lum yo'nalishlar beradi. Pedagogik vazifasi: o'quvchini ushbu fanning vazifalari va maqsadi bilan tanishtirish, kasbiy tayyorgarlik tizimida uning o'rni va rolini belgilash, kursning qisqacha sharhini berish, fanning yutuqlari va taniqli olimlar nomlari bilan tanishtirib, kelajakdagi izlanishlarning yo'nalishini belgilash, tavsiya qilingan o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlilini berish, hisobot va baholashning muddatlari va shakllarini belgilash.
2.	Ma'ruza axborot	Ma'ruzaning odatdagi an'anaviy turi. Pedagogik vazifasi: o'quv ma'lumotlarini bayon qilish va tushuntirish.
3.	Sharhlovchi ma'ruza	Bayon qilinayotgan nazariy fikrlarning o'zagini, ilmiy tushunchalar va butun kurs yoki bo'limlarining konseptual asosini tashkil etadi. Pedagogik vazifasi: ilmiy bilimlarni tizimlashtirishni amalga oshirish, fanlarning o'zaro aloqadorligini ochish.
4.	Muammoli ma'ruza	Yangi bilimlar qo'yilgan savol, masala, holatning muammoliligi orqali beriladi. Bunda o'quvchining o'qituvchi bilan birgalikdagi bilish jarayoni ilmiy izlanishga yaqinlashdi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv axborotining mazmunini ochish, muammoni qo'yish va uni echimini topishni tashkil qilish, hozirgi zamon nuqtai nazarlarini tahlil qilish.
5.	Vizual ma'ruza	Ma'ruzaning mazkur shakli vizual materiallarni namoyish etish hamda ularga aniq va qisqa sharhlar berishga qaratilgan. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarini o'qitishning texnik vositalari va audio, videotexnika yordamida berish.
6.	Binar (ikki kishilik) ma'ruza	Bu ma'ruza ikki o'qituvchining yoki ikkita ilmiy maktab namoyondasining, o'qituvchi-talabaning dialogidan iborat. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotlarining mazmunini yoritish.
7.	Avvaldan rejalashtirilgan xatoli ma'ruza	Xatolarni izlashga mo'ljallangan mazmuni va uslubiyatida, ma'ruza oxirida tinglovchilar tashxisi o'tkaziladi va qilingan xatolar tekshiriladi. Pedagogik vazifasi: yangi materiallar mazmunini yoritish, berilgan ma'lumotni doimiy nazorat qilishga talabalarni rag'batlantirish.
8.	Ma'ruza konferensiya	Avvaldan qo'yilgan muammo va dokladlar tizimi (5-10 minut)dan iborat ilmiy-amaliy dars sifatida o'quv dasturi chegarasida o'tiladi. Dokladlar birgalikda muammoni har tomonlama yoritishga qaratilishi kerak. Mashg'ulot oxirida o'qituvchi mustaqil ishlar va talabalarning ma'ruzalarga yakun yasab, to'ldirib, aniqlashtirib xulosa qiladi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotning mazmunini yoritish.
9.	Maslahat ma'ruza	Turli ssenariylar yordamida o'tishi mumkin. Masalan, 1) «Savol-javob» - ma'ruzachi tomonidan butun kurs bo'yicha yoki alohida bo'lim bo'yicha savollarga javob beriladi. 2) «Savol-javob-diskussiya» - izlanishga imkon beradi. Pedagogik vazifasi: yangi o'quv ma'lumotni o'zlashtirishga qaratilgan.

---

**“EKOLOGIK XUQUQ” FANIDAN  
MA'RUZA VA AMALIY MASHG'ULOTLARIDA  
O'QITISH TEXNOLOGIYASI**

---

<b>1- MAVZU</b>	<b>EKOLOGIYANI XUQUQ PREDMETINING MAQSADI, VAZIFALARI VA ASOSIY TUSHUNCHALAR</b>
-----------------	--

(ma'ruza – 4 soat)

**1.1. Ma'ruzani olib borish texnologiyasi**

<i>Talabalar soni ... ta</i>	<i>Vaqt 4 soat</i>
<i>Mashg'ulot shakli</i>	<i>Kirish-mavzu bo'yicha ma'ruza</i>
<i>Ma'ruza rejasi</i>	1.1 Ekologik xuquq predmet sifatida 1.2 Ekologik xuquq tushunchasi 1.3 Ekologik xuquqning maqsadi va vazifalari 1.4 Tabiatni xuquqiy muhofaza qilish tarixidan 1.5 Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari 1.6 Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari 1.7 Ekologik-xuquqiy mexanizm 1.8 Ekologik xuquqning tizimi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> “Ekologiyani xuquqiy asoslari” fani to'g'risida umumiy tasavvurlarni shakllantirish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>	<i>O'quv faoliyati natijalari:</i>
fanning maqsad va vazifalari bilan tanishtirish;	fanning maqsad va vazifalari bo'yicha ma'lumot beriladi;
fanning tuzilmasi, o'quv faoliyatini baholash mezonlari hamda tavsiya qilinadigan adabiyotlar ro'yxati haqida ma'lumot berish;	kursning tuzilmasi, o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va baholash mezonlarini biladilar;
Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari ma'lumot berish	Ekologik xuquqning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar
Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari bilan tanishtirish	Ekologik xuquqning o'ziga xos printsiplari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar
Ekologik-xuquqiy mexanizm tusuntirish	
Sanoat katalizi fanining zamonaviy tizimlari bilan tanishtirish;	Sanoat katalizi fanining zamonaviy tizimlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar;
O'qitish usullari	Ma'ruza, namoyish, tezkor-so'rov, aqliy xujum, klaster.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, komp'yuter texnologiyasi, xarita va slaydlar.
O'qitish shakllari	Frontal, kollektiv ish
O'qitish sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan o'quv xonada
Monitoring va baholash	<b>Og'zaki nazorat: savol - javob</b>

### Ma'ruzaning texnologik xaritasi (1 mashg'ulot)

Ish jarayoni bosqichlari vaqti	Faoliyatning mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1 - bosqich. Kirish (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv fanining nomini aytadi va uning maqsadi bilan tanishtiradi (1–ilova), predmetning dastlabki umumiy tasavvurini beradi. Uslubiy va tashkiliy tomonlari, talabalar bilimlarini baholash mezonlarini (2–ilova) va fan tuzilmasi bilan tanishtiradi</p> <p>1.2. Mazkur fanning o'rganiladigan mavzulari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ularning uzviyligi xaqida qisqacha ma'lumot beradi.</p> <p>1.3. Ma'ruza darsining maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini aytadi. Talabalarni aqliy xujumga tortish uchun jonlantiruvchi savollar beradi. (4-ilova).</p>	<p>Tinglaydi va yozadi</p> <p>Mavzu nomini yozib oladilar</p> <p>Savollarga javob beradi</p>
2 - bosqich. Asosiy jarayon (55 daqiqa)	<p>2.1. Mavzu yuzasidan tayanch so'z va iboralar bilan tanishtiradi. (5-ilova)</p> <p>2.2. Ma'ruza rejasining barcha savollari bo'yicha vizual materialni namoyish qiladi. (7- ilova)</p>	<p>Tinglaydi, o'rganadi, yozadi, aniqlaydi, savollar beradi.</p> <p>Asosiy joylarini yozadi.</p>
3 - bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	<p>3.1. Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qiladi.</p> <p>3.2. Faol qatnashgan talabalarni baxolaydi.</p> <p>3.3. Mustaqil ishlash uchun topshiriqlar beriladi. Berilgan test topshirig'ini yechish xamda esse yozib kelish.</p>	<p>Tinglaydi</p> <p>Mustaqil ishlar uchun topshiriqni yozib oladi</p>



**1.2. Amaliy mashg'ulot**  
**SEMINAR MASHG'ULOTLARNING ISH REJASI**  
**1-SEMINAR**

**Mavzu: O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ekologik-huquq jihatlari**

**Reja**

Kirish.

1.1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik-huquqqa doir moddalarning tahlili

1.2. Rivojlangan davlatlar konstitutsiyalarida ekologik-huquqqa doir moddalar tahlili

Xulosa.

**Adabiyotlar**

48. Atrof tabiiy muxitni muxofaza qilish. Konunlar va me'yoriy xujjatlar.-T.: Adolat, 2002
49. Axoli uchun yuridik ma'lumotnoma. 1-6 sonlar.-T.: Adolat, 1994-1995
50. *Beknazov R.U., Novikov YU.V.* Oхrana prirody.-T.: Ukituvchi, 1995
51. *Vedenin. V.V.* Ekologicheskoe pravo. Voprosy i otvety.- M:YUrisprudensiya, 1999
52. Vsemirnyy sammit po ustoychivomu razvitiyu: Osnovnyye itogovyye dokumenty.- Almaty, 2003
53. *Gulomov M., Juraev Y.* Ekologiya: jinoyat va jazo.-T.: Uzbekiston, 1991
G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi

**52. Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi bu . . .**

\*A) Atrof tabiiy muhitning ifloslanish darajasini aniqlash, uning holatini baholash, salbiy jarayonlarni prognoz qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish maqsadida boshqa antropogen faoliyat ta‘siri va tabiiy resurslardan foydalanish tufayli atrof tabiiy muhitning ifloslanishi va boshqa zararli ta‘sirlarga (jarayonlarga) uchrashi muntazam kuzatiladigan va tasdiqlangan dastur bo‘yicha bajariladigan tizim.

B) Atrof tabiiy muhit sifatining normativlariga rioya etish borasidagi dasturlar hamda ayrim tadbirlar bajarilishini tekshirish tizimi.

V) Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog‘lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish tizimi.

G) Vazirlik, davlat qo‘mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikni tekshirish tizimi.

**53. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati kim tomonidan amalga oshiriladi ?**

A) O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar, Sog‘liqni saqlash, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirliklari va davlat hokimiyati va boshqaruv idoralari tomonidan.

B) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish, Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitalari, va Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan.

\*V) A va B javoblar to‘g‘ri.

G) Faqat Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

**54. Atrof tabiiy muhit monitoringi tuzilishi, mazmuni va uni amalga oshirish tartibi kim tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi ?**

A) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

B) O‘zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitalari tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

\*V) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

G) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

**55. Atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimi qanday maqsadda tashkil etiladi ?**

A) O‘zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslarini kuzatish maqsadida.

B) O‘zbekiston Respublikasi hududida tabiiy resurslarni hisobga olish, ularga baho berish maqsadida.

V) O‘zbekiston Respublikasi hududida tabiiy resurslarning istiqbolini belgilashni ta‘minlash maqsadida.

\*G) Barcha javoblar to‘g‘ri.

**56. Ekologik nazorat tizimini ko‘rsating ?**

A) Davlat atrof tabiiy muhit holatini kuzatib borish xizmati

B) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazorati



V) Idoraviy, ishlab chiqarish va jamoat nazorati

\*G) Barcha javoblar to'g'ri

**57. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi idoraviy ekologik nazorati deganda nimani tushunasiz ?**

A) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmati tomonidan amalga oshirilishi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish.

\*B) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni amalga oshirishi.

V) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekologik nazoratni jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi.

G) Bunday ekologik nazorat turi mavjud emas.

**58. Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ishlab chiqarish ekologik nazorati deganda nimani tushunasiz ?**

\*A) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ekologiya xizmati tomonidan amalga oshirilishi va tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni tiklash, atrof tabiiy muhitni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilishga doir qonunlarning talablari bajarilishi yuzasidan dasturlar hamda ayrim tadbirlar ijrosini tekshirish.

B) Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning ekologiya xizmati shu vazirlik, davlat qo'mitasi yoki idora tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyati ustidan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi nazoratni amalga oshirishi.

V) Tabiatni muhofaza qilish sohasidagi ekologik nazoratni jamoat birlashmalari, mehnat jamoalari, fuqarolar tomonidan amalga oshirilishi.

G) Bunday ekologik nazorat turi mavjud emas.

**59. Erlarning ishlab chiqarish chiqindilari va boshqa chiqindilar, kimyoviy va radioaktiv moddalar, oqova suvlar bilan ifloslanishi, shuningdek tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadidagi erlardan, suv fondi erlaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini qanday organ amalga oshiradi?**

\*A) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

B) O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi

V) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

G) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

**60. Atmosfera ifloslanishi, er usti suvlarining (tabiiy suv oqimlarining), tuproqning ifloslanishi monitoringi qaysi organ tomonidan amalga oshiriladi ?**

\*A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Gidrometeorologiya xizmati markazi tomonidan.

B) O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan.

V) O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan.

G) O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan.

**61. Ekologik ekspertiza bu . . .**

\*A) Rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo'jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini belgilash hamda ekologik ekspertiza ob'ektini ro'yobga chiqarish mumkinligini aniqlash tushuniladi.

B) Rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini nazorat qilish hamda ekologik ekspertiza ob’ektini ro‘yobga chiqarish tushuniladi.

V) Rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatning ekologik talablarga nomuvofiqligi uchun ekologik-huquqiy javobgarlikning belgilanishi tushuniladi.

G) To‘g‘ri javob yo‘q.

**62. Ekologik ekspertiza qanday maqsadlarda o‘tkaziladi ?**

A) Mo‘ljallanayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni amalga oshirish to‘g‘risida qaror qabul qilinishidan oldingi bosqichlarida bunday faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash.

B) Rejalashtirilayotgan yoki amalga oshirilayotgan xo‘jalik va boshqa xil faoliyat atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa yoki shunday ta‘sir ko‘rsatayotgan bo‘lsa, bunday faoliyatning ekologik xavflilik darajasini aniqlash.

V) Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha nazarda tutilayotgan tadbirlarning etariligi va asoslilikini aniqlash.

\*G) Barcha javoblar to‘g‘ri.

**63. Ekologik ekspertiza turlarini ko‘rsating ?**

\*A) Davlat, jamoat ekologik ekspertizasi va ekologik audit.

B) Ishlab chiqarish ekologik ekspertizasi.

V) Idoraviy ekologik ekspertizasi.

G) Atrof tabiiy muhit holatini ko‘zatib borish.

**64. Ekologik auditni moliyalash qanday mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi ?**

A) Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan

B) Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan

V) Nodavlat, notijorat tashkilotlarining mablag‘lari hisobidan

\*G) Buyurtmachining mablag‘lari hisobidan

**65. Davlat ekologik eksperzasini moliyalash qanday mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi ?**

A) Davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan

B) Mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan

V) Nodavlat, notijorat tashkilotlarining mablag‘lari hisobidan

\*G) Buyurtmachining mablag‘lari hisobidan

**66. Qaysi ob’ektlarni davlat ekologik ekspertizasidan o‘tkazish majburiy hisoblanadi ?**

A) Davlat dasturlarining, konsepsiyalarining, ishlab chiqarish kuchlarini, iqtisodiy va ijtimoiy soha tarmoqlarini joylashtirish hamda rivojlantirish sxemalarining loyihalarini.

B) Tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq, xo‘jalik va boshqa xil faoliyatni tartibga soluvchi normativ-texnik va yo‘riqnoma-uslubiy hujjatlarning loyihalarini.

V) Atrof tabiiy muhit holatiga va fuqarolar sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi ishlab turgan korxonalar va boshqa ob’ektlarni.

\*G) Barcha javoblar to‘g‘ri

**67. Davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish muddati . . . kundan oshmasligi lozim.**

A) 15

B) 20

V) 25

\*G) 30

**68. Davlat ekologik ekspertizasini o‘tkazish muddati ekspertiza ob’ektining murakkabligiga qarab ko‘pi bilan . . . oyga uzaytirilishi mumkin.**

A) bir oy

\*B) ikki oy

V) uch oy

G) muddat uzaytirilmaydi

**69. Davlat ekologik ekspertizasi ob'ektining ekologik talablarga muvofiqligi xususida davlat ekologik ekspertizasining bergan xulosasi berilgan kundan e'tiboran necha yil mobaynida yuridik kuchga ega bo'ladi ?**

- A) bir yil
- B) ikki yil
- \*V) uch yil
- G) besh yil

**70. Jamoat ekologik ekspertizasi kimning tashabbusi bilan amalga oshiriladi ?**

- A) Buyurtmachining
- \*B) Nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolarning
- V) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining
- G) Vazirlar Mahkamasining

**71. Erdan foydalanganlik uchun qanday haq to'lanadi?**

- A) er solig'i
- B) ijara haqi
- \*V) er solig'i va ijara haqi
- G) erdan foydalanish uchun haq to'lanmaydi

**72. Er qa'ridan foydalanganlik uchun qanday to'lovlar to'lanadi?**

- A) qo'shimcha foyda solig'i
- B) bonuslar
- V) er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq
- \*G) barcha javoblar to'g'ri

**73. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun qanday haq to'lanadi?**

- A) soliq
- \*B) kompensatsion to'lov
- V) foydalanganlik uchun to'lov
- G) bonus

**74. Atmosfera havosidan foydalanish bilan bog'liq qanday haq to'lash turi mavjud?**

- A) soliq
- \*B) kompensatsion to'lov
- V) bunday haq to'lash tizimi mavjud emas
- G) bonus

**75. O'zbekiston Respublikasi tabiiy suv havzalarida necha kilogrammgacha sport va havaskorlik tarzida baliq ovlash umumiy foydalanishga tegishli bo'ladi?**

- \*A) barcha tabiiy suv havzalarida 5 kilogrammgacha va ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklari tabiiy suv havzalarida 10 kilogrammgacha
- B) barcha tabiiy suv havzalarida 7 kilogrammgacha va ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklari tabiiy suv havzalarida 15 kilogrammgacha
- V) barcha tabiiy suv havzalarida 3 kilogrammgacha va ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklari tabiiy suv havzalarida 7 kilogrammgacha
- G) bu borada qonun hujjatlarida aniq miqdor ko'zda tutilmagan

**76. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan kimlar ozod qilinadi?**

- A) nogironlarning jamoat birlashmalari
- B) suv uchun byudjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxslardan suv olgan iste'molchilar
- V) birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilari
- \*G) barcha javoblar to'g'ri

**77. Bonus qanday to'lov?**

- A) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq turi
- \*B) er qa'ridan foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladigan bir martalik to'lov
- V) atmosfera havosidan foydalanganlik uchun to'lanadigan to'lov

G) to'g'ri javob yo'q

**78. Tabiat ob'ektlaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari kim tomonidan belgilanadi.**

\*A) Prezedenti tomonidan

B) Vazirlar Mahkamasi tomonidan

V) Oliy Majlis tomonidan

G) Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan

**79. Tabiatni muhofaza qilish mahalliy jamg'armalari hisobidagi mablag'ning necha foizi er, er osti, suv, atmosfera qonunchiligi huquqbuzarligini aniqlagan shaxsga taqdim etiladi?**

A) 5 foizi

B) 10 foizi

\*V) 15 foizi

G) 20 foizi

**80. Tabiatni muhofaza qilish mahalliy jamg'armalari nimalar hisobiga tashkil topadi?**

A) tabiatdan foydalanuvchilarning tabiiy muhitiga me'yorida ortiqcha va yo'l qo'yilishi mumkin cheklangan miqdorda ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlaganliklari (oqava oqizganlik, chiqindilarni joylashtirganlik) uchun to'lovlarning 50 foizi hisobiga

B) tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashda ulush qo'shib qatnashuvchi korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning mablag'lari hisobiga

V) korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning, shuningdek, xayriya tashkilotlari va jamg'armalarining ixtiyoriy badallari hisobiga

\*G) barcha javoblar to'g'ri

**81. Avtomashinalardan chiqaradigan CO miqdori me'yordan oshiq bo'lsa, haydovchi qanday javobgarlikka tortiladi ?**

A) Jinoiy

\*B) Ma'muriy

V) Intizomiy

G) Fuqaroviy

**82. Ekologik huquqiy javobgarlikning o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon buladi ?**

A) Tabiiy resurslardan foydalanishga ruxsat berilishida

B) Tabiiy resursdan foydalanganlik uchun haq undirishda

\*V) Tabiiy resursdan foydalanish huquqini cheklash, to'xtatish undan mahrum qilishda

G) Ekologik qonunchilikka rioya qilinganda

**83. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish jinoyatining sub'ektini aniqlang?**

A) YUridik xaxs

B) Fuqarolar

\*V) Mansabdor shaxs

G) Barcha javoblar to'g'ri

**84. Suv to'g'risidagi qonunlarni buzish natijasida etkazilgan zarar . .**

\*A) Zarar etkazuvchi tomonidan qoplanilishi shart

B) Etkazilgan zarar qoplanishi shart emas

V) Faqat mansabdor shaxslardan undiriladi

G) Faqat xodimlardan undiriladi

**85. Ekologiya huquqbuzarligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortish asosi?**

A) SHaxsning tabiiy muxitga tajovuz qilganligi

B) Qilmishning huquqqa xilofligi

V) Huquqbuzarlikning harakat eki harakatsizlik shaklida ekanligi

\*G) Barcha javoblar to'g'ri

**86. Ekologiya huquqbuzarligi uchun ma'muriy jazo sifatida huquqbuzarlik qurolini musodara qilishni....**

- \*A) Tuman (shaxar) sudning ma'muriy ish buyicha sudyasi qo'llaydi
- B) Tuman (shaxar) hokimi amalga oshiradi
- V) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari amalga oshiradi
- G) Bunday jazo yo'q

**87. Quyidagilardan qaysi biri musodara hisoblanmaydi**

- A) Egallab olingan er uchastkasini qaytarish
- B) Kesilgan daraxtni olib qo'yish
- V) Ov qilingan hayvonni olib kuyish
- \*G) Barcha javoblar to'g'ri

**88. O'zboshimchalik bilan egallab olingan erlarni qaytarish tartibi qanday?**

- A) Qilingan sarf-harajatlar qisman qoplangan tarzda tegishliligiga ko'ra qaytariladi.
- B) Qilingan sarf-harajatlar to'liq qoplangan tarzda tegishliligiga ko'ra qaytariladi
- \*V) O'zboshimchalik bilan egallab olingan er uchastkalari, ularga g'ayri-qonuniy ravishda egalik qilingan va foydalanilgan vaqtda qilingan sarf-harajatlar qoplanmagan tarzda tegishli hokimliklar yoki sudning qaroriga asosan er egasiga, erdan foydalanuvchiga, ijarachiga yoki er uchastkasi mulkdoriga qaytariladi.
- G) Agar o'zboshimchalik bilan erni egallab olinganiga kamida 5 yil muddat o'tgan bo'lsa va bu erlaridan qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilayotgan bo'lsa, qaytarib berilmaydi.

**89. Quyidagi huquqbuzarliklardan qaysi biri harakat bilan sodir bo'ladi?**

- A) Suvdan o'zboshimchalik bilan foydalanish
- B) O'rmondan o'zboshimchalik bilan foydalanish
- V) Daraxtlar va boshka urmon usimliklarini yuk kilish
- \*G) Barcha javoblar to'g'ri

**90. Suvdan foydalanishga doir nizolarni xal qiluvchi organlarni ko'rsating?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi, Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlari.
- B) Qishloq va suv ho'jaligi vazirligi.
- V) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi.
- \*G) Barcha javoblar to'g'ri.

**91. Er fondi necha toifaga bo'linadi ?**

- A) 7 ta
- \*B) 8 ta
- V) 9 ta
- G) 10 ta

**92. Erlarni er fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish qachon amalga oshirilishi mumkin ?**

- A) Er uchastkalarini berish huquqiga ega bo'lgan organlarning hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsa
- \*B) Erlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda
- V) Erlarning tabiiy, xo'jjalik huquqiy rejimi o'zgargan taqdirda
- G) Erlarni er fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish mumkin emas

**93. Er tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash baho berish salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun er fondining holatini kuzatib borish tizimi – bu ...**

- \*A) Er monitoringi
- B) Ekologik ekspertiza
- V) Ekologik nazorat
- G) Er tuzish

**94. Er monitoringini o'tkazish tartibi kim tomonidan belgilanadi ?**

- A) Viloyatlardagi er monitorini o'tkazishi nazorat qiluvchi tegishli bo'linmalar tomonidan
- \*B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
- V) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan
- G) Er egalari tomonidan

**95. Er uchastkalaridan qidiruv ishlari uchun foydalanish mumkinmi ?**

- A) Ha, mumkin er egalardan olib qo'ygan holda
- B) Yo'q, mumkin emas
- \*V) Belgilangan qaror va tuzilgan shartnomalar asosida mulkdorlardan olib qo'ymagan holda foydalanish mumkin
- G) To'g'ri javob yo'q

**96. Er servituti – bu . . .**

- \*A) O'zganing er uchastkasidan cheklangan tarzda foydalanish huquqi
- B) Er uchastkasidan erkin foydalanish huquqini olish
- V) O'zganing er uchastkasiga bo'lgan huquq
- G) Erga nisbatan mulk huquqi

**97. Sug'oriladigan erlarni sugorilmaydigan erlar sirasiga o'tkazish tartibi qanday ?**

- \*A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda viloyat hokimi qarorlariga binoan amalga oshiriladi
- B) Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan amalga oshiriladi
- V) Sug'oriladigan erlar maxsus muhofaza qilinadi va ularni sugorilmaydigan erlar sifatida e'tirof etishga yo'l qo'yilmaydi
- G) To'g'ri javob yo'q

**98. Rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan erlar qanday erlar hisoblanadi ?**

- A) Aholining davolanishi va dam olishi uchun mo'ljallangan erlar
- \*B) Aholining ommaviy dam olishi va turizimni tashkil etish uchun tegishli muassasa va tashkilotlarga berilgan erlar
- V) Memorial bog'lar, arxeologik, madaniyat yodgorliklarning tegishli muassasa va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan erlar
- G) Ovchilikka mo'ljallangan erlar

**99. Er fondining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manzilgan, huquqiy rejimga hamda davlat er kadastrida aks ettiriladigan boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan qismi nima deyiladi ?**

- A) Er zahirasi
- \*B) Er uchastkasi
- V) Er monitoringi
- G) Er kadastrasi

**100. Er uchastkalaridan qisqa muddatli foydalanish necha yilgacha bo'lishi mumkin ?**

- \*A) 3 yilgacha
- B) 5 yilgacha
- V) 6 yilgacha
- G) 10 yilgacha

**101. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida suv davlat muhofazasida ekanligi belgilangan ?**

- A) 50-modda
- B) 51-modda
- V) 54-modda
- \*G) 55-modda

**102. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga binoan suv qanday boylik hisoblanadi ?**

- \*A) Umummilliy boylikdir
- B) Mahalliy boylik
- V) SHaxsiy boylik

G) To'g'ri javob yo'q

**103. Suv ob'ektlarining sanitariya muhofaza tegralari kim tomonidan muhofaza etiladi ?**

A) Ichki Ishlar Vazirligi

B) Milliy xavfsizlik xizmati

V) Bojxona qo'mitasi

\*G) Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

**104. Davlatlararo daryolardagi suvni muhofaza qilish tegralari qanday hujjatda belgilanadi?**

A) Daryo boshlanishida bo'lgan davlatning qonuni hujjatlarida

B) Daryo tugaydigan davlatning qonun hujjatlarida

\*V) Xalqaro bitim va shartnomalarda

G) to'g'ri javob yo'q

**105. Er osti suv manbalari kadastri bo'yicha ma'lumotlar qaysi organ tomonidan taqdim etiladi?**

A) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

B) Girometeorologiya xizmati markazi.

V) Sog'liqni saqlash vazirligi.

\*G) Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi.

**106. Suv resurslaridan foydalanish va erlarning meliorativ holati bo'yicha ma'lumotlar qaysi organ tomonidan taqdim etiladi?**

A) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.

B) Girometeorologiya xizmati markazi.

V) Sog'liqni saqlash vazirligi.

\*G) Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

**107. Suv ob'ektlarining sanitariya muhofaza zonalari kim tomonidan qo'riqlanadi?**

\*A) Ichki ishlar organlari

B) Ovchilar

V) Maxalliy davlat hokimiyati organlari

G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi inspektorlari

**108. Suvdan vaqtincha foydalanish muddatini ko'rsating?**

A) Qisqa 3 yilgacha uzoq – 25 yilgacha bo'lishi mumkin.

B) Qisqa – 1 yilgacha uzoq – 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

V) Qisqacha – 9 oygacha uzoq – 3 yilgacha bo'lishi mumkin.

\*G) Qisqa – 3 yilgacha uzoq – 20 yilgacha bo'lishi mumkin.

**109. Daxlsiz suv ob'ektlari bu . . .**

\*A) Qonun bilan daxlsiz deb e'lon qilinadigan alohida ilmiy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan suv ob'ektlari.

B) Xo'jalik maqsadida foydalaniladigan suv ob'ektlari.

V) Ikki davlat chegarasiga joylashgan suv ob'ektlari.

G) To'g'ri javob yo'q

**110. Suvdan foydalanish bo'yicha davlat suv kadastrini qaysi organ yuritadi ?**

A) Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qoshidagi Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi

B) Vazirlar Mahkamasi

V) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi

\*G) O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi.

**111. Alohida muhofaza etiladigan geologik ob'ektlar deganda nimani tushunasiz?**

\*A) Ilmiy va o'kuv poligonlari, geologik qo'riqxonalar, tabiat yodgorliklari, g'orlar hamda ilmiy, tarixiy, madaniy, estetik va o'zga ahamiyatga molik boshqa er osti bo'shliqlari.

B) Er qobig'ining tuproq qatlamidan quyida joylashgan, tuproq qatlami bo'lmaganda esa er yuzasidan yoki suv ob'ektlari tubidan quyida joylashgan, geologik jihatdan o'rganish va o'zlashtirish mumkin bo'lgan chuqurlikkacha yastangan qismi.

V) Tabiiy holicha yoki bir oz ishlov berib va tozalab ishlatiladigan foydali qazilmalar.

G) To'g'ri javob yo'q.

### **112. Foydali qazilmalar deganda nimani tushunasiz?**

\*A) Er qa'ridagi kelib chiqishi noorganik va organik bo'lgan qattiq, suyuq yoki gaz holidagi tabiiy mineral hosilalar, shu jumladan sanoat ahamiyatiga molik er osti suvlari, sho'r ko'llarning tuz eritmalari va rapalari

B) Foydali qazilmaning sanoat yo'sinida ishlatish maqsadida qazib olish texnologak jihatdan mumkin va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lgan tarkibiy qismi

V) Er qa'rini geologik jihatdan o'rganish jarayonida foydali qazilmalarni boyitish va qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqish yoki takomillashtirish, foydali qazilma konlarini sanoat yo'sinida ishlatishning, shuningdek teklogen mineral hosilalardan foydalanishning oqilona usullari va uslublarini tanlash maqsadida foydali qazilmalarni kavlab olish

G) Qazib chiqarilgan va birlamchi ishlov berishdan o'tkazilgan foydali qazilmalar

### **113. Qaysi organ O'zbekiston Respublikasining keng tarqalgan foydali qazilmalari ro'yxatini aniqlaydi?**

A) O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi

B) Sanoatda, konchilikda va kommunal-maishiy sektorda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

\*V) O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi

G) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

### **114. Er qa'ri uchastkalaridan foydalanish qaysi xujjat asosida amalga oshiriladi?**

\*A) Litsenziya

B) Patent

V) Ruxsatnoma

G) Davlat orderi

### **115. Foydali qazilmalar zaxiralari davlat balansi kim tomonidan yuritiladi?**

\*A) Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi

B) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi

V) Sog'liqni saqlash vazirligi

G) Vazirlar Mahkamasi

### **116. "Er osti boyliklari" davlat fondini nimalar tashkil etadi?**

\*A) Er qa'ring foydalanilayotgan va foydalanilmayotgan uchastkalari.

B) Texnogen mineral hosilalar

V) Er qa'ridagi kelib chiqishi noorganik va organik bo'lgan qattiq, suyuq yoki gaz holidagi tabiiy mineral hosilalar

G) Sanoat ahamiyatiga molik er osti suvlari, sho'r ko'llarning tuz eritmalari

### **117. Er qa'ri monitoringini yuritishdan maqsad.**

A) Er qa'ri holatini undagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash.

B) Er qa'ri holatini undagi o'zgarishlarni o'z vaqtida baholash.

V) Er qa'ri holatini salbiy jarayonlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish.

\*G) Barcha javoblar to'g'ri.

### **118. Er qa'ridan foydalanish turlarini ko'rsating?**

A) Geologik jihatdan o'rganish

B) Foydali qazilmalarni kavlab olish

V) Texnogen mineral hosilalardan foydalanish

\*G) Barcha javoblar to'g'ri.

### **119. Er qaridan foydalanish sub'ektlari kimlar?**

A) Faqat yuridik yuridik shaxslar

B) Faqat jismoniy shaxslar



V) CHet el yuridik shaxslari

\*G) YUridik shaxslar va jismoniy shaxslar

**120. Er qa'ri uchastkalaridan nodir tosh xom ashyosi namunalarini, paleontologik qoldiqlarni va boshqa geologik kolleksiyabop materiallarni to'plash uchun muddatli foydalanishga qancha muddatda beriladi?**

A) 1 yil

\*B) 2 yil

V) 3 yil

G) 4 yil

**121. O'zbekiston Respublikasining "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidi"gi qonuni qachon qabul qilingan?**

\*A) 1996 yil 27 dekabr

B) 1996 yil 26 dekabr

V) 1996 yil 25 dekabr

G) 1996 yil 3 dekabr

**122. Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifalari..... iborat?**

A) Atmosfera havosining tabiiy tarkibini saqlash

B) Atmosfera havosiga zararli kimyoviy, fizikaviy, biologik va boshqa xil ta'sir ko'rsatilishining oldini olish hamda kamaytirish

V) Davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va fuqarolarning atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish

\*G) barcha javoblar to'g'ri

**123. Inson uchun atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida standartlar qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi?**

\*A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

B) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhoqaza qilish davlat qo'mitasi

V) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

G) Barcha javoblar to'g'ri

**124. Atrof tabiiy muhit ob'ektlari uchun atmosfera havosini muhofaza qilish, iqlim va ozon qatlamini saqlash sohasidagi standartlar qaysi organ tomonidan tasdiqlanadi?**

A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

\*B) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhoqaza qilish davlat qo'mitasi

V) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

G) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

**125. O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan atmosfera havosi bo'yicha qanday normativlar belgilab qo'yiladi?**

A) Atmosfera havosiga fizikaviy omillar zararli ta'sir ko'rsatishining yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini

\*B) Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarishning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini

V) Atmosfera havosiga biologik omillar zararli ta'sir ko'rsatishining yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini.

G) Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi fizik, ximik va biologik organizmlar chiqarishning yo'l qo'yiladigan doiradagi normativlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini

**126. Atmosfera havosidan foydalanish normativlari kim tomonidan ishlab chiqiladi?**

A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

B) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhoqaza qilish davlat qo'mitasi

V) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

\*G) Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan

**127. Atmosfera havosidan foydalanish normativlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi kim tomonidan belgilab qo'yiladi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
- \*B) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
- V) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- G) Korxonalar, muassasa va tashkilotlar

**128. Qaysi organ tomonidan doimiy ifloslantiruvchi manbalardan atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlar chiqarishga ruhsatnoma beriladi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
- \*B) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
- V) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- G) Barcha javob to'g'ri

**129. Atmosfera havosiga zararli ta'sir ko'rsatishi va undan foydalanishni cheklash, to'xtatib qo'yish yoki tugatish kim tomonidan amalga oshiriladi?**

- A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi
- B) O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
- V) Mahalliy davlat hokimiyati organlari
- \*G) Barcha javoblar to'g'ri

**130. Ishlatish taqiqlangan va ishlatishga yaroqsiz bo'lib qolgan kimyoviy moddalarni zararsizlantirishga qaysi organ tomonidan ruhsatnoma beriladi?**

- \*A) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi va tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan
- B) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan
- V) Vazirlar mahkamasi tomonidan
- G) to'g'ri javob yo'q

**131. O'simlik dunyosi ob'ektlari to'liq ko'rsatilgan qatorni ko'rsating?**

- A) YOvvoyi holda o'suvchi organizmlar, yovvoyi organizmlardan tashkil topadigan tabiiy o'simlik guruhlari yoki ularning har qanday majmui hamda kamyob va yo'qolib ketish xavfi ostidagi o'simlik turlari.
- B) YOvvoyi o'simliklarning mevalari, urug'lari va boshqa qismlari yoki ularning o'sish davridagi mahsullari.
- \*V) A va B javoblar to'g'ri.
- G) To'g'ri javob yo'q.

**132. O'simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish turlarini ko'rsating?**

- A) CHorvachilik ehtiyojlari uchun yovvoyi holda o'suvchi ozuqa mahsulotlarini g'amlash va chorva mollarini o'tlatish.
- \*B) YOvvoyi o'simliklarning texnik xom ashyosini g'amlash.
- V) O'simlik dunyosi ob'ektlaridan ovchilik xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish.
- G) Daraxt va butalarni kesish.

**133. O'simlik dunyosi ob'ektlaridan maxsus foydalanish turlarini ko'rsating?**

- A) O'simlik dunyosi ob'ektlaridan ilmiy-tadqiqot maqsadlarida foydalanish.
- B) O'simlik dunyosi ob'ektlaridan madaniy-ma'rifiy, tarbiya, sog'lomlashtirish, rekreatsion va estetik maqsadlarda foydalanish.
- \*V) O'simlik dunyosi ob'ektlaridan tabiatni muhofaza qilish maqsadlarida foydalanish
- G) O'simlik dunyosi ob'ektlaridan kolleksiyalash maqsadlarida foydalanish.

**134. O'simlik dunyosi ob'ektlaridan umumiy foydalanish normasi va tartibi belgilanadimi?**

- A) Yo'q belgilanmaydi.
- B) Ha, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan belgilanadi.
- \*V) Ha, davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi bilan kelishuv bo'yicha mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan belgilanadi.
- G) O'simlik dunyosidan ob'ektlaridan foydalanish tekinga amalga oshiriladi.

**135. CHorvachilik ehtiyojlari va chorva mollarini o‘tlatish uchun yovvoyi ozuqa mahsulotlarini g‘amlashga ruxsatnoma berilganligi uchun to‘lov miqdori qaysi organ tomonidan belgilanadi?**

- A) Oliy Majlis tomonidan.
- B) Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- \*V) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan.
- G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan.

**136. O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga ruxsatnoma kim tomonidan beriladi?**

- A) Oliy Majlis tomonidan.
- \*B) Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- V) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan.
- G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi tomonidan.

**137. O‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan foydalanuvchilar O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi o‘simlik turlarini tabiiy muhitdan olishga maxsus ruxsatnoma olish uchun qaysi organga murojaat qiladilar?**

- A) Oliy Majlisga
- B) Vazirlar Mahkamasiga
- V) Mahalliy davlat hokimiyati organlariga
- \*G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga

**138. O‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan maxsus foydalanishga ruxsatnoma yoki uni asosli rad etish hujjati ariza beruvchilarga ariza olingan kundan boshlab necha kun mobaynida taqdim etiladi?**

- A) 5 kun
- B) 10 kun
- \*V) 15 kun
- G) 20 kun

**139. O‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan maxsus foydalanishga ruxsatnoma berish qaysi hollarda rad etilishi mumkin?**

- A) O‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan foydalanishga kvota mavjud bo‘lmaganda va taqiqlangan hududda yoki taqiqlangan usul bilan o‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan foydalanish uchun buyurtmanomalar berilganda.
- B) Hujjatlar to‘liq bo‘lmagan hajmda yoki zarur tartibda rasmiylashtirilmagan holda taqdim etilganda.
- V) O‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan foydalanganlik uchun to‘lov to‘lanmaganda.
- \*G) Barcha javoblar to‘g‘ri.

**140. O‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan foydalanuvchi tomonidan tabiatni muhofaza qilish haqidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda o‘simlik dunyosi ob‘ektlaridan foydalanish uchun berilgan ruxsatnomani olib qo‘yishga kimlar vakolatlidir?**

- \*A) Faqat tabiatni muhofaza qilish bo‘yicha davlat inspektorlari va o‘rmon idoraviy qo‘riqchiligi (davlat o‘rmon fondi hududida) vakolatlidir.
- B) Faqat Ichki ishlar xodimlar.
- V) Faqat Prokuratura xodimlari.
- G) Faqat sud.

**141. O‘zbekiston Respublikasining “O‘rmon to‘g‘risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?**

- \*A) 1999 yil 15 aprel
- B) 1996 yil 29 avgust
- V) 2000 yil 15 dekabr
- G) 1993 yil 6 may

**142. O‘rmonlar asosan qanday vazifalarni bajaradi ?**

- A) O‘rmonlar asosan suvni muhofaza qilish, qo‘riqlash vazifalarini bajaradi
- B) O‘rmonlar asosan sanitariya-gigiena, sog‘lomlashtirish vazifalarini bajaradi
- V) O‘rmonlar asosan rekreatsion, estetik va boshqa vazifalarni bajaradi
- \*G) Barcha javoblar to‘g‘ri

**143. Hamma o‘rmonlar davlat o‘rmon fondini tashkil etadimi ?**

- \*A) Ha
- B) Yo‘q
- V) Faqat davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘rmonlar davlat o‘rmon fondini tashkil etadi
- G) Faqat yuridik shaxslar foydalanishidagi o‘rmonlar davlat o‘rmon fondini tashkil etadi

**144. Davlat o‘rmon fondi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni ko‘rsating ?**

- A) Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘rmonlar
- B) Davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari qaramog‘idagi o‘rmonlar.
- \*V) Davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan o‘rmonlar, idoralar va yuridik shaxslar foydalanishidagi o‘rmonlar
- G) Yuridik shaxslar foydalanishidagi o‘rmonlar davlat o‘rmon fondini tashkil etadi

**145. Quyidagilardan qaysi biri davlat o‘rmon fondiga kirmaydi ?**

- A) Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlardagi daraxtlar hamda idoralar foydalanishidagi o‘rmonlar
- \*B) Tup-tup daraxtlar, ekinzorlarning ihota daraxtzorlari
- V) Kanallar va boshqa suv ob‘ektlarining ajratilgan mintaqalaridagi ihota daraxtzorlari hamda yuridik shaxslar foydalanishidagi o‘rmonlar
- G) To‘g‘ri javob yo‘q

**146. Ko‘kalamzorlashtirish uchun ekilgan o‘simliklar davlat o‘rmon fondiga kiradimi ?**

- A) Ha kiradi
- \*B) Yo‘q kirmaydi
- V) Qisman kiradi
- G) Ayrim o‘simlik turlari kiradi

**147. Davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxtzorlar va butazorlarni barpo etish, parvarish qilish, qo‘riqlash hamda ulardan foydalanish qaysi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi ?**

- \*A) O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
- B) O‘rmon to‘g‘risidagi qonun hujjatlari
- V) Fuqorolik qonun hujjatlari
- G) Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

**148. O‘rmon fondi erlari qishloq xo‘jalik maqsadlarida beriladimi ?**

- A) Yo‘q berilmaydi
- B) Beriladi, bu masalani o‘rmon xo‘jaligi rahbari hal etadi
- \*V) Ha, tuman hokimi o‘rmon xo‘jaligi davlat organlari bilan kelishib, berishi mumkin
- G) Ha, viloyat xokimining qarori asosida

**149. O‘rmondan vaqtinchalik foydalanish muddati qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan ?**

- \*A) Qisqa muddatli – 3 yilgacha va uzoq muddatli – 10 yilgacha
- B) Qisqa muddatli – 3 yilgacha o‘zoq muddatli – 20 yilgacha
- V) Qisqa muddatli – 5 yilgacha uzoq muddatli – 15 yilgacha
- G) Qisqa muddatli – 7 yilgacha uzoq muddatli – 15 yilgacha

**150. CHegara mintaqalarida o‘rmondan foydalanish tartibi kim tomonidan belgilanadi**

- \*A) O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo‘mita bilan kelishilgan holda davlat o‘rmon xo‘jaligi organlari tomonidan belgilanadi
- B) O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegaralanishi himoya qiluvchi qo‘mita bilan kelishilgan holda Geologiya va mineral resurslar organi tomonidan belgilanadi
- V) Tabiatni muhofaza qilish organi tomonidan belgilanadi.
- G) To‘g‘ri javob yo‘q

**151. Hayvonot dunyosi ob‘ektlarini ko‘rsating ?**

A) Kelib chiqishi hayvonlarga mansub bo'lgan organizmlar - sut emizuvchilar, parrandalar, sudralib yuruvchi hayvonlar, ham quruqlikda, ham suvda yashovchi hayvonlar, baliqlar, umurtqasizlar va ularning populyasiyalari

B) YOvvoyi hayvonlardan tashkil topadigan tabiiy hayvon galalari yoki ularning har qanday to'dalari, yovvoyi hayvonlarning kamyob yoki yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari, yovvoyi hayvonlar yashash faoliyatining mahsulotlari

\*V) A va B javoblar to'g'ri

G) To'g'ri javob yo'q

### **152. Ov qilish va baliq ovlash mahsulotlariga nimalar kiradi ?**

A) Mo'yna va teri, hayvonning shoxi, shuningdek ulardan tayyorlangan buyumlar

B) YOvvoyi hayvonlar hayot faoliyati mahsulotlari va ulardan hosil bo'lgan mahsulotlar, ularning go'shti, ularning qismlari, parrandalar va sudralib yuruvchi hayvonlarning tuxumlari, baliqlarning uvuldirig'i, ovchilik o'ljalari hamda belgilangan tartibda tutilgan hayvonlarning o'zi

\*V) A va B javoblar to'g'ri

G) To'g'ri javob yo'q

### **153. Baliq pitomniklari va havza xo'jaliklari hududida ov qilishga ruxsat beriladimi ?**

A) Ha ruxsat beriladi

B) Yo'q ruxsat berilmaydi

\*V) Faqat ma'muriyatning roziligi bilan

G) Qisman ruxsat beriladi

### **154. CHet el fuqarolari tomonidan hayvonot dunyosining O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan ayrim turlarini ovlashni tashkil etish va ovlash tartibi qaysi organ qarori bilan belgilanadi?**

\*A) Vazirlar Mahkamasining alohida qarori bilan belgilanadi

B) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasining alohida qarori bilan belgilanadi

V) Mahalliy davlat hokimiyati organlarining alohida qarori bilan belgilanadi

G) Qizil kitobga kiritilgan hayvonot dunyosi turlarini ovlash taqiqlangan

### **155. O'zbekiston Respublikasining barcha hududida hayvonot dunyosi ob'ektlaridan maxsus foydalanishga ruxsatnomalar qaysi organ tomonidan beriladi ?**

A) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan

B) O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi organlari tomonidan ajratiladigan kvotalar asosida O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi huzuridagi O'rmon xo'jaligi bosh boshqarmasi tomonidan

\*V) O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan

G) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan

### **156. Hayvonot dunyosidan foydalanish turlarini ko'rsating ?**

A) Ov qilish va baliq ovlash

B) Hayvonot dunyosidan ilmiy, tibbiy, madaniy-ma'rifiy, tarbiyaviy va estetik maqsadlarda hamda hayvonlar faoliyatining foydali xususiyatlaridan, ularning faoliyati mahsulotlarini olish maqsadida foydalanish

V) Ko'paytirish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, namoyish qilish hamda tijorat maqsadlarida tutqunlikda saqlash, zoologiya kolleksiyalari barpo etish

\*G) Barcha javoblar to'g'ri

### **157. Ovchilik-baliq ovlash xo'jaliklariga ro'yxatdan o'tkazilgan tabiiy suv havzalarida necha kilogrammgacha miqdorda baliqlarni sport va havaskorlik tarzida ovlash uchun umumiy foydalanish ruxsat berilgan?**

A) 3

B) 5

V) 7

\*G) 10

**158. O‘zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo‘qolib ketish xavfi ostidagi hayvonlarni tabiiy yashash muhitidan ajratib olish uchun maxsus foydalanishga ruxsatnomalar qaysi organ tomonidan beriladi ?**

- \*A) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
- B) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining tomonidan
- V) Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan
- G) Qizil kitobga kiritilgan hayvonot dunyosi turlaridan foydalanish taqiqlangan

**159. Qanday holatlarda hayvonot dunyosidan foydalanishga ruxsatnoma berish rad etilishi mumkin ?**

- A) Buyurtmanomada ko‘rsatilgan hayvonlarning turlarini tutishga kvota mavjud bo‘lmaganda va hayvonlarni taqiqlangan joylarda, taqiqlangan vaqtda yoki taqiqlangan usulda tutishga buyurtmanoma taqdim etilganda
- B) Tabiatni muhofaza qilish organlariga tutish so‘ralayotgan hayvonlar soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar va ilgari berilgan ruxsatnoma (kvota) bo‘yicha tutilgan hayvonlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar taqdim etilmaganda
- V) Tutilishi mo‘ljallanayotgan hayvonlar soni qiymati to‘lanmaganda va tutilgan hayvonlarni uzoq vaqt tutib turish uchun shart-sharoitlar mavjud bo‘lmaganda
- \*G) Barcha javoblar to‘g‘ri

**160. YOvvoyi hayvonlar, ularning qismlari, zoologiya kolleksiyalari, hayot faoliyati mahsulotlari, o‘ljalar, tulumlar respublikaga olib kirilganligi uchun qancha miqdorda to‘lov undiriladi ?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan bitta yovvoyi hayvon, uning qismlari, tulum, o‘lja, hayvonning terisi, bir juft shox, bitta shox uchun - mazkur yovvoyi hayvonni tutishga ruxsatnoma qiymatining 5 foizi miqdorida to‘lov undiriladi
- B) YOvvoyi hayvonlar uchun - yovvoyi hayvonning mazkur turini tutishga ruxsatnoma qiymatining 2 foizi miqdorida to‘lov undiriladi
- \*V) To‘lov undirilmaydi
- G) To‘g‘ri javob yo‘q

**161. Baliq xo‘jaligi zonalari qaysi organ qarori bilan tashkil etiladi?**

- \*A) Vazirlar Mahkamasi
- B) Fanlar Akademiyasi
- V) Sog‘liqni saqlash vazirgili
- G) Maxalliy davlat hokimiyati organlari

**162. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar pasportitin yuritish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi ?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
- \*B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- V) Maxalliy davlat hokimiyati organlari
- G) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi

**163. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish rejalarini ishlab chiqish tartibi qaysi organ tomonidan belgilanadi ?**

- A) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
- B) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- V) Maxalliy davlat hokimiyati organlari
- \*G) O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi

**164. Suv ob‘ektlarining sanitariya muhofaza zonalari kim tomonidan qo‘riqlanadi ?**

- \*A) Ichki ishlar organlari
- B) Ovchilar
- V) Maxalliy davlat hokimiyati organlari
- G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi inspektorlari

**165. Kurort tabiiy hududlarni va rekreatsiya zonalarini muhofaza qilish qaysi organ tomonidan ta‘minlanadi ?**

- A) Ichki ishlar organlari
- B) Sog'liqni saqlash organlari
- \*V) Maxalliy davlat hokimiyati organlari
- G) Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi

**166. Davlat qo'riqxonalarining hududida qanday faoliyat olib borish mumkin ?**

- A) Monitoring yuritish
- B) Ilmiy – tadqiqot olib borish
- V) YOng'inga qarshi tadbirlar
- \*G) Barcha javob to'g'ri

**167. Majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalari nima ?**

- \*A) Alohida ekologik qimmatga ega bo'lgan tabiiy ob'ektlar va majmualarni asl holatida saqlash uchun mo'ljallangan muhofaza etiladigan tabiiy hududlar.
